

81.633.1
A12.

B.B.Abdushukurov

ESKI TURKIY ADABIY TIL LEKSIKASI

81
A12



«TAFAKKUR BO'STONI»
NASHRIYOTI

978-9943-4546-2-0

9 789943 454620

FF0000018599

«Tafakkur Bo'stoni»
Toshkent – 2015

B1.633.1

A12

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABDUSHUKUROV BAXTIYOR BO'RONOVICH

ESKI TURKIY ADABIY
TIL LEKSIKASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 5220100 - filologiya (O'zbek filologiyasi) ta'lim
yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun
o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan

Nizomiy nomi
TDP
kutubxonasi

4 4948/16 5866

Toshkent - 2015

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

ToshDO'TAU

OT-RESURS MARKAZI

Ўзбекистон Республикаси
kutubxonasi

		811.512.1(075.)
		81.2-3
		A 20
B. Abdushukurov		
4 Eski Turkiy		
adabiy til		
leksikasi		

UO•K: 811.512.1(075)

81.2-3

A20

Abdushukurov B.

Eski turkiy adabiy til leksikasi [Matn] : o'quv qo'llanma /
Abdushukurov B. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015. -192 b.

KBK-81.2-3

ISBN - 978-9943-4546-2-0

Mazkur o'quv qo'llanma XIV asr obidasi hisoblangan "Qisasi Rabg'uziy" leksikasi tadqiqiga bag'ishlangan. Unda qissa so'z boyligi statistikasi, mavzuiy guruhleri, leksik-semantik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Yodnoma lug'at tarkibidagi o'z va o'zlashma qatlam, polisemiya, ma'no torayishi va ma'no kengayishi hodisalari, yangi ma'no kasb etgan leksemalar tahlil qilingan. Shuningdek, ilk nasriy asarning o'zbek adabiy tili leksikasi shakllanishi va taraqqiyotidagi ahamiyati yoritib berilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari, magistrantlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: H. Dadaboev - filologiya fanlari doktori,
professor

Taqrizchilar: Z. Xolmanova - filologiya fanlari doktori
Q. Omonov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN - 978-9943-4546-2-0

© "Tafakkur Bo'stoni", 2015

© B.B.Abdushukurov, 2015

© "Ilm Ziyoyat uyi"

KIRISH

Biz bugun kecha eslashimiz mumkin bo'lmagan ma'naviy qadriyatlarimizni xotirlashgina emas, kerak bo'lsa, qayta tiklash imkoniyatiga egamiz. Istiqloq sharofati tufayli xalqimizning ulkan ma'naviy merosi, boy tarixini xolisona o'rganish uchun keng yo'l ochildi. Zero, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir»¹. Shu ma'noda, ma'naviy merosimizning nodir durdonalaridan sanalgan Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari lug'at tarkibini har tomonlama chuqur va ilmiy jihatdan tadqiq etish hozirgi kunda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalardan sanaladi.

O'zbek mumtoz adabiyotining ilk nasriy asarlaridan hisoblangan "Qisasi Rabg'uziy"da xalq turmush tarzining turli jabhalari ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, harbiy, madaniy, diniy, maishiy, kasb-hunar, jug'rofiy sohalarga oid leksik birliklar qo'llanilgan. Bular, o'z navbatida, xalqimizning hayoti, tili, madaniyati, urf-odati, an'analari haqida ma'lumot beradi. Demak, jamiyat va til tarixi hamda uning qadimiy holatidan boxabar bo'lishda yozma yodgorliklar katta rol o'ynaydi. Chunki til ijtimoiy hodisa sifatida hayot talablariga muvofiq takomillashib boradi va har bir davrda kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, "Qisasi Rabg'uziy" asari so'z boyligini tadqiq etish nafaqat o'zbek xalqining uzoq o'tmishini ilmiy asosda yoritish, shuningdek, o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda g'oyat muhimdir.

¹Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б. 30-31.

Yodnomaning turli davrlarda ko'chirilgan bir nechta qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ular dunyoning qator kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Mavjud qo'lyozmalarining dastlabkisi XV asrda kitobat qilingan bo'lib, hozir Britaniya muzeyida saqlanadi. Jami 248 varaq, har bir betida 21 qator yozuvdan iborat bu nusxa adibning tirikligi chog'ida 1340- (hijriy 740) yilda ko'chirilgan degan fikr ham mavjud². Matn tilida XII – XIII asrlarning til xususiyatlari yaxshi saqlangani, yozuvi dastxat XIV asr boshlarida ko'chirilgan deyishga asos bo'ladi³. Mo'tabar qo'lyozmalardan biri Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida S-245 raqami ostida saqlanayotgan nusxa bo'lib, u XV – XVI asrlarga mansub deya taxmin qilinadi⁴. Asarning boshqa qo'lyozmalari keyingi yuzyilliklarga oid bo'lib, turli saviyadagi kotiblar tomonidan ko'chirilgan, o'z davri adabiy tiliga muvofiqlashtirilgan. Ya'ni qo'lyozmalar kitobat qilingan paytdagi tilning ta'siri katta. Oxir-oqibatda matn tili va uslubi o'zgarishlarga uchragan. Asarning Shvetsiya,⁵ Parij,⁶ Boku,⁷ Toshkent nusxalari shular jumlasidandir. T. G'ofurjonovanning yozishicha, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida qissaning yettita qo'lyozma va o'n uchta toshbosma nusxasi saqlanmoqda⁸. E. Fozilovning ta'kidicha, O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida obidaning 13 ta, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy

² Останакулов И. Кисас-ар-Рабгузий – адабий асар. Филол. фан .ном. ...дис. автореф. –Т., 1993. –Б. 3.

³ Фазылов Э. И. Turkologiya. II. –Т.:Фан, 2008. –Б. 383.

⁴ Boeshoten H.E. The Leningrad Manuscripts of Rabghuz is Aisas//Turk Dillari Arastirmalari. Ankara, 1991. –S. 47-49.

⁵ Jarring G. Studien zu einer osttürkische Lautehre. Lund, 1933. –S. 20.

⁶ Blochet E. Catalogie des manuscripts turs. Bd. II. Paris, 1933. –S. 138.

⁷ Хажиева Н. Рабгузийни «Кисасул-анбийа» асарининг Баку ёзмаси. –Эким, 1994. –Б. 292-296.

⁸ Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. 1-том. –Т.: ФАН, 1977. –Б. 179.

nomidagi Davlat muzeyi fondida esa 2 ta qo'lyozma nusxasi bor⁹. A. Xaliullina ilm olamida asarning 35 ta qo'lyozmasi mavjudligi, shundan 19 tasi (1859-1911 yillarda nashr qilingan) Qozon kitob fondida saqlanishini qayd etadi¹⁰.

Turkologiyada XIII – XIV asr turkiy obidalar til xususiyatlarini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish borasida qator jiddiy ishlar amalga oshirilganligi ilm ahliga, ayniqsa, til tarixi mutaxassislariga yaxshii ayon. Eski turkiy tilning so'z boyligini atroflicha tahlil qilishda A. Borovkov, S. Mutallibov, G'. Abdurahmonov, A. Najib, E. Fozilov, Q. Mahmudov, Q. Karimov, H. Ne'matov, H. Dadaboev, Q. Sodiqov kabi turkolog-olimlarning roli katta bo'lganligi e'tirof etilgan. Bevosita "Qisasi Rabg'uziy" obidasi tilini o'rganish borasida fikr yuritganda shuni aytish kerakki, Y. Shinkevich¹¹ asarning sintaksisi bo'yicha, A. Abrajeev¹² yodgorlikdagi qo'shma so'zlar to'g'risida ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan. 1969- yilda O'. Mirzakarimova Sankt-Peterburg nusxasi asosida asarning morfologik xususiyatlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi¹³. A. Xaliullina obidaning Ilminskiy nashri, London va ikkita Qozon nusxalarini qiyoslagan holda uning yozuv, fonetik hamda morfologik xususiyatlarini o'rgangan¹⁴. Bundan tashqari, X. Boeshoten (Germaniya) va M. Vandamme (Belgiya)larning "Qisasi

⁹ Фазылов Э. И. Turkologica. II. –Т.:Фан, 2008. –Б. 383-384.

¹⁰ Халиуллина А. Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного письменного памятника XIV в. "Кисас ал-анбийа" Насредина Рабгузи. Автор. дис. ... канд. филол. наук. –Казань, 2002. –С 6

¹¹ Schinkewitsch Y. Rabguzis Syntax. MSOS II. 1926. -S. 130-172.

¹² Абраjeeв А. Сложные предложение(гипотаксис) в прозе «Кисасул-анбийа» Рабгузии – писателя XIV века. Труды Узбекского государственного университета. –Самарканд, 1957. Вып. 73. –С 125-140.

¹³ Мирзакаримова У. Морфологические особенности «Кисаси Рабгузи». Автореф. дис. ...канд. филол. наук... –Т., 1969.

¹⁴ Халиуллина А. Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного письменного памятника XIV в. "Кисас ал-анбийа" Насредина Рабгузи. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Казань, 2002.

Rabg'uziy" bo'yicha bir nechta maqolalari mavjud¹⁵.

Ma'lumki, sho'rolar davrida payg'ambarlar qissalaridan iborat ushbu obidani chop etish va uni o'rganish yuzasidan durustroq tadqiqotlar amalga oshirilmadi. Istiqloq yillarida bu boradagi ishlar birmuncha jonlandi. Jumladan, H. Dadaboev tomonidan qissadagi ijtimoiy-siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy terminlar, astroponimlar tadqiq etildi¹⁶, yodnoma leksikasi bo'yicha bir qator maqolalar e'lon qilindi¹⁷. N. Husanov qissa tilida istifoda etilgan farishtalar, payg'ambarlar va ularning qarindoshlari, oila a'zolari, xalifalar, avliyolar nomini anglatuvchi antroponimlar xususida ilmiy izlanish olib bordi¹⁸. P. Zahidovning¹⁹ "Qisasi Rabg'uziy" asari yozilishi tarixi, tili va uning muallifi nasl-nasabi, tug'ilib o'sgan

¹⁵ Boeshoten H. Iskandar-Dhyllkarnain un den Qisa s-l Rabguzi//De Turcicis Allisque Rebus, Utrecht Turcological series. №3. Utrecht, 1992; Vokalquantiat in rabguzis Poesie. CAI, V.34. №3-4. Wiesbaden, 1990; Boeshoten H.; Bandamme M. The Different Copyists in the London Ms of the Qisas-Rabghuzi. Utrecht Papers on Central Asia, 1985; The Poetry in Rabghuzis Qusas. Paper Presented at the 3rd European ceminap Central Asian Studies. Paris, 1989.

¹⁶ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991. 168 с.; Астрономические наименования в старотюркских письменных памятниках // Историко-лингвистический анализ лексики старописменных памятников. –Т.: Фан, 1994. –С. 32-43.

¹⁷ Дадабаев Х. "Қисаси Рабғузий"нинг лексик хусусиятлари хақида// Марказий Осиё олимларининг ўрта аср илмларига қўшган ҳиссаси. –Т., 1999. –Б. 17-23; "Қисаси Рабғузий"даги аёл семали лексемалар хусусида//Филология фани: янги аср муаммолари. –Т., 2003. –Б. 125-128; "Қисаси Рабғузий" тилидаги туркий лексемалар семантикаси//Второй международный тюркологический конгресс. Современная тюркология: теория, практика и перспективы. I. Болим. Туркестан, 2006. –Б. 90-93; "Қисаси Рабғузий"да қўлланган сал= феълнинг семалари хусусида // Ўзбек тилшунослиги масалалари. –Т.: 2006. –Б. 22-25.

¹⁸ Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри ... дисс. –Т., 2000. 243 б.

¹⁹ Зоҳидов П. Кун туғардин кун ботарга сўзи етган зот // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 22 февраль 2002 йил. –Б. 2; Рабғузий саодати // Тафаккур.- №1. 2008. –Б. 74-81.

joyi bilan bog'liq ma'lumotlar aks etgan maqolalari o'quvchilarga taqdim etildi. Shunga qaramasdan, hanuzgacha "Qisasi Rabg'uziy" obidasi leksikasi maxsus tadqiqot obyekti bo'lgani yo'q. Shu bois, mazkur mavzuning ilk bor monografik jihatdan tadqiq etilishini mamlakatimizda boy ma'naviy merosni o'rganishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilayotganligining mahsuli sifatida baholash lozim bo'ladi.

O'quv qo'llanmada daniyalik olim K. Gronbek tomonidan 1948- yilda Kopengagenda nashr ettirgan yodnomaning eng qadimiy qo'lyozmasi sanalgan London nusxasi faksimilesi, mazkur nusxa asosida 1990-1991- yillarda O'zR FA Hamid Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar instituti olimlari tomonidan kirill alifbosida e'lon qilingan, ikki kitobdan iborat ommaviy nashri, 1997- yil Anqarada doktor Aysu Ata nashrga tayyorlagan ikki jildli turkcha bosmasi yordamida «Qisasi Rabg'uziy» asarida qo'llanilgan leksik birliklarni statistik, mavzuiy, tarixiy-etimologik, leksik-semantik jihatdan tadqiq etishga, uning qardosh turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tilining rivojlanishida tutgan o'rnini belgilashga harakat qilindi.

«QISASI RABG‘UZIY» LEKSIKASINING STATISTIK TAHLILI

Tayanch so‘zlar: til, leksika, turkologiya, turkiy til, Raboto‘g‘uz, To‘qqal‘a, Sharqiy Turkiston, qarluq tili, o‘g‘uz tili, statistik usul, mustaqil so‘zlar, ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish, yordamchi so‘zlar, bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama, modal so‘zalar, undov so‘zlar.

Mustaqillik yillarida vatanimiz qiyofasi tubdan o‘zgardi. Ulug‘ ajdodlarimizning tarixiy, ma‘naviy merosi chuqur o‘rganilmoqda. Islom dini e‘tiqodimiz ramzi sifatida qayta tiklandi, o‘zbek tili davlat tili maqomini oldi. “Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e‘tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo‘ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o‘zbek tilining o‘rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi”²⁰.

O‘z navbatida, milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usi Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurash tuyg‘usi bilan uyg‘unlashib, ma‘naviyatimiz asosini belgilamoqda. Ana shunday ma‘naviy merosimizning ajoyib namunasi va qimmatli manbalardan biri, azaldan sevib o‘qilib, qissaxonlardan eshitib kelingan “Qisasi Rabg‘uziy” asari hisoblanadi. Mazkur obida raboto‘g‘uzlik qozi Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy tomonidan Raboti o‘g‘uzning hukmdori, islom dinini qabul qilgan, mo‘g‘ul beklaridan bo‘lgan Nosiruddin To‘qbug‘abekning iltimosiga binoan hijriy 709- (milodiy 1309-1310) yillarda bitilgan. Muallif bu haqda asar xotimasida shunday yozadi:

Osh bitidim bu kitābnī ey erānlār er bozi,

Bir yil ičrā keçti aniy yayi qış yaz-u küzi.

...Yetti yuz on erdi yilga-kim bitildi bu kitāb,

Tugmish erdi ul oğurda hut saadat yulduzi (249v1:14).

E. Fozilovning ta‘kidlashicha: Nosiruddin Rabg‘uziy o‘z asarini yaratish jarayonida nihoyatda katta tayyorgarlik ishini olib borgan, ushbu mavzuga oid o‘nlab arab, fors, turkiy tillardagi

²⁰ Каримов И. А. Юсак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б. 86.

anbiyolar qissalarini chuqur o‘rgangan. Qur‘on, hadislarini mukammal bilgan, aruz qonuniyatining bilimdoni bo‘lgan. Dastavval asarning ilk variantini hozirlagan, uning ustida tinimsiz mehnat qilgan, har bir jumla, har bir kalimaning ma‘nodagi nozik farqlarini chuqur his qilgan. Eng so‘nggi variantini bir yilda nihoyasiga yetkazib, ko‘chirib chiqqan²¹.

O‘zbek halqi uchun muqaddas zamin Raboto‘g‘uz xarobalari qadimgi Xorazmning son-sanoqsiz arxeologik yodgorliklari orasidan topilganiga bir necha yil bo‘ldi. Lekin dastlabki taxmin tarix haqiqatiga aylanishi uchun vohadagi juda ko‘p qal‘a, qo‘rg‘on qoldiqlarini ko‘rib chiqish, ulardan topilgan ashyoviy dalillarni tekshirishga to‘g‘ri keldi. Endi qat‘iy ishonch bilan aytish mumkinki, To‘qbug‘a beklik qilgan qal‘a – Raboto‘g‘uz hozirgi davr yodgorliklari ro‘yxatida To‘qqal‘a nomi bilan qayd etilgan²². Bundan ko‘rinadiki, Nosiruddin Burhonuddin o‘g‘li Xorazm (hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nekus tumani)ning o‘g‘uzlar maskan tutgan Raboto‘g‘uz – To‘qqal‘a degan joyidan bo‘lib, XIII asr oxiri – XIV asr birinchi yarmida yashagan. Shuningdek, uning Rabg‘uziy taxallusini olishi ham bog‘ilib o‘sgan joyi nomi bilan bog‘liq. Biroq allomaning hayoti hamda ijodiy faoliyati haqida juda kam ma‘lumot saqlanib qolgan. Uning bizgacha “Qisasi Rabg‘uziy” asarigina yetib kelgan. Turkiy xalqlar o‘rtasida «Qisasul-anbiyo» nomi bilan mashhur bo‘lgan mazkur yodnomada qayd etilgan payg‘ambarlar haqidagi qissalar, hikoyatlar va rivoyatlarning aksariyati Qur‘oni Karim, Hadisi sharif va boshqa diniy manbalar asosida yaratilgan. Bir so‘z bilan aytganda, bu asar chingiziylar hukmronligi davom etayotgan bo‘lsa ham Volga bo‘ylaridan to Xitoy chegaralarigacha cho‘zilgan ulkan hududda mo‘g‘ullar qanday turkiylashayotganini va islom ta‘limotini turkiy tilda «o‘qimoqqa keraklik, o‘rganmakka varog‘liq» kitoblar orqali qabul qilib musulmon bo‘layotganini ko‘rsatadigan ajoyib tarixiy dalildir²³.

²¹ Фазылов Э. И. Turkologica. II. –Т.:Фан, 2008. –Б. 381.

²² Эвездов П. Кун туғардин кун ботарга сўзи етган зот // Ўзбекистон маданияти ва санъати. 22 февраль 2002 йил. –Б. 2.

²³ Калерев П. Тил ва эл. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа маркази, 2005. –Б. 40-41.

Til va jamiyat tarixini o'rganishda, uning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda yozma obidalarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki til jamiyat va xalq tarixi bilan bog'liq ravishda rivojlanib boradi. Shu bois ham til har bir davrda jamiyat a'zolarining aloqa vositasi sifatida xizmat qilgan. Demak, qadimda til va jamiyatda yuzaga kelgan o'ziga xos o'zgarishlar, yangiliklar o'sha davr yozma manbalarida aks etgan. Shu nuqtayi nazardan, til leksikasi tarixini o'rganish, bir tomondan, har bir so'zning tadrijiy taraqqiyot yo'llarini ochib bersa, ikkinchidan, u tilning ayrim davrlardagi so'z boyligini va muayyan fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini yoritishga yordam beradi. Binobarin, leksika tarixini o'rganish, umuman, til tarixini tadqiq etish uchun ham muhimdir²⁴.

Ma'lumki, XIII – XIV asrlar turkiy xalqlar hamda turkiy tillar tarixida murakkab davrni tashkil etadi. Bu paytda O'rta Osiyo va Oltin O'rda muzofotida til xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiluvchi nodir asarlar yaratildiki, ularning barchasida turkiy tillarning o'g'uz-qipchoq, qarluq-uyg'ur guruhlariga xos bo'lgan fonetik, leksik va morfologik xususiyatlar aks etgan. Mazkur yodnomalarning ko'pchiligi eski o'zbek adabiy tilining shakllanishida zamin vazifasini o'tagan²⁵. Ushbu manbalar sirasiga O'rta Osiyoda yashovchi barcha turkiy xalqlar uchun birdek qimmatli bo'lgan Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" obidasini ham kiritish mumkin. Bu yodgorlik insoniyat jamiyati taraqqiyoti tarixini ilk bora turkiy tilda bayon etib bergan, turkiy xalqlarni jahon diniy-ma'rifiy qadriyatlaridan bahramand etishga bundan yetti asr avvalroq xizmat qila olgan ma'naviy boyliklardan biri sanaladi²⁶. XIV asrga kelib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy hayotda ancha barqarorlikka erishgan Jo'ji ulusida yashab, ijod etgan ko'pgina

²⁴ Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан кискача очерк. –Т.: ФАН, 1959. –Б. 134.

²⁵ Рабғузий Носируддин Бурхонуддин. "Қисаси Рабғузий" (масъул муҳаррир Н.А.Асилова; сўз боши Э.Фозиловники). К. I. –Т.: Ёзувчи, 1990. –240 б.

²⁶ Останақулов И. Қисас ар-Рабғузий – адабий асар. Филол. фан. номзоди диссер. автореф. –Т., 1993. –Б. 19.

xorazmlik shoirlar, yozuvchilar, olimlar, fozillar Oltin O'rdada Xorazm adabiyoti va fanining chuqur ildiz otishiga munosib ulush qo'shdilar. XIII–XIV asrlarda Markaziy Osiyo, Dashti Qipchoq, Volgabo'yi, Qrim va Misr mamluklari davrida turkiy tilda rang-barang janrdagi daryoviy va diniy adabiyot namunalari yaratildi. Til xarakteriga ko'ra bu asarlarning ba'zilari nisbatan yangi adabiy til hisoblangan o'g'uz-qipchoq tillar guruhiga mansub bo'lsa, ayrimlari esa qarluq-uyg'ur adabiy tiliga daxldor, ya'ni nisbatan arxaik til bo'lgan d-d-z guruhiga taalluqli edi²⁷. Abdurauf Fitrat asar tili xususida quyidagilarni yozadi: chig'atoy adabiyotining eng birinchi asari sanalgan Rabg'uziy "Qisas ul-anbiyo" sining shevasi "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq" kabi xoqoniy turkchasi yozilgan kitoblarning shevasini eslatadi. Zotan, chig'atoy turkchasi o'zidan yuzlab yil burun hukum surgan bir adabiy shevani oz vaqtda yo'qotib, uning joyini o'zi ololmas edi²⁸. Bir so'z bilan aytganda, d-d-z adabiy tilining so'nggi namunalaridan sanalgan qissa qadimgi turkiy til bilan eski o'zbek tili o'rtasidagi o'tish davrini aks ettirish barobarida, bir tomondan, Sharqiy Turkiston tili xarakterini ko'rsatib bersa, ikkinchidan, unda XIV asrdan so'ng yaratilgan asarlarning til xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Obidaning o'zi esa qarluq tillari zaminida yuzaga kelgan bo'lib, unda o'g'uz tili unsurlari ham mavjud.²⁹

Keyingi yillarda kompyuter texnologiyalari rivojlanishi va ularning imkoniyatlari ortishi munosabati bilan tilshunoslar statistik usul – lingvostatistikaga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar. Filologiyada statistik usulni qo'llashdan maqsad biron-bir matn yoki asarda qancha fe'l va uning shakllari, ravish, sifat, olmosh va boshqa so'z turkumlariga oid so'zlarning necha marta uchraganini shunchaki

²⁷ Далабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т.: Фан, 2008. –Б.11-12; каранг: Наджип Э.Н. Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века: на материале «Хосрау и Шерин» Кутба. Кн. I. –М., 1972. – С. 6.

²⁸ Фитрат, Абдурауф. Тилимизнинг тарихий окуми / Танланган асарлар: Ж. IV. –Т.: Маънавият, 2006. –Б. 174.

²⁹ Мирзакаримова Ў. "Қисаси Рабғузий" тилининг морфологик усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1969. №1. –Б. 67-70.

qayd etish emas, ularni tahlil etish, boshqa muallifdagi natijalar bilan qiyoslash va shu orqali o'sha matnga xos xususiyatlarni, muallifning obyektiv borliqni anglashi bilan bog'liq qonuniyatlarni aniqlash kabilardan iboratdir³⁰.

Til birliklariga statistik qarashga quyidagi holatlar sabab bo'lishi mumkin: til bayonining ommaviy xarakterdaligi; bayon qilish jarayonida til birliklarining takrorlanish xususiyatiga ega ekanligi va nihoyat, shu jarayonda o'sha til birliklarining qo'llanilishi (takrorlanishi) yoki tushib qolishining tasodifiy yo'nalishda bo'lishidir³¹. Turkologiya va rus tilshunosligida yozma manbalar, yozuvchi, shoirlar asarlari leksikasini statistik usulda o'rganish bo'yicha ma'lum tajribalar to'plangan. Jumladan. Abay asarlarida 6000 ta³², Nasimiy ijodida 3338 ta³³, Abdulla To'qay asarlarida 14000 ta³⁴, "Xusrav va Shirin"da³⁵ Navoiyning «Lison ut-tayr» asarida 5004 ta³⁶, Navoiy asarlari tilida 26035 ta³⁷, "Devoni Munis"da 5500 atrofida³⁸, Boburning «Mubayyin» asarida 2616 ta, «Aruz» asarida 2230 ta, «Devon»ida 3304 ta³⁹ so'z qo'llanilganligi, shuningdek,

³⁰ Иброхимов А. Бобур "Девон"и тилидаги ўзлашма лексика. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –Б. 6-7.

³¹ Ризаев С.А. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. –Т.: ФАН, 2005. –Б. 7; каранг: Фрумкина Р. Применение статистических методов в языкознании // Вопросы языкознания. –М.: Наука, 1960. –№4. –С. 129-133.

³² Исаков А. Абай тили сўздиги. – Алматы, 1968.

³³ Гахриманов Ж. Насим диванынинг лексикасы. – Баку, 1970.

³⁴ Амиров Г.С. Словарь языка Тукая. – Веб: Тюркская лексикология и лексикография. –М., 1971. –С. 189-190.

³⁵ Наджиб Э. Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века: на материале «Хосрау и Ширин» Кутба. – М: Наука, 1979. –С. 48.

³⁶ Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр» Алишера Навои. . Автореф. дис. ...канд. филол. наук. –Т., 1982. –С. 3.

³⁷ Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.:ФАН, 1983. –Б. 19.

³⁸ Абдулхайров М. "Девони Мунис" тилининг лексик катламлари. КД. –Т., 1996. –Б. 23.

³⁹ Иброхимов А. Бобур асарлари лексикасининг лингвостатистик,

"Boburnoma" lug'at tarkibini 27970 ta leksik birlik tashkil etishi⁴⁰, Navoiy asarlarida 1400 ga yaqin qadimgi turkiy va eski turkiy tilga oid suzlar mavjudligi⁴¹ olimlar tomonidan hisoblab chiqilgan. Mazkur an'analarga sodiq qolgan holda "Qisasi Rabg'uziy" asari leksikasini statistik jihatdan tahlil qilishni lozim topdik. Yodnoma tilida jami 5511 ta leksema ishlatilgan bo'lib, shundan 2950 tasini turkiy, 2151 tasini arabcha, 329 tasini forscha-tojikcha, 55 tasini arab tili orqali kirib o'zlashgan qadimiy yahudiycha, 14 tasini yunoncha, 3 tasini xitoycha, 4 tasini sanskritcha, 5 tasini sug'dcha so'zlar tashkil etadi.

Har bir tildagi so'zlar o'zining grammatik belgilari va semantik xususiyatlariga qarab turli guruhlarga bo'linadi. Shu xilda ajratilgan guruhlar so'z turkumlari sanaladi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham so'zlarni turkumlarga ajratishda morfologik belgi, ayniqsa, so'zning leksik ma'nosi va sintaktik xususiyatlari asos qilib olinadi⁴². Ilm ahliga, ayniqsa, til tarixi mutaxassislariga yaxshi ayonki, o'zbek tilidagi so'z turkumlari asrlar mobaynida shakllanib, takomillashib keldi.

Darhaqiqat, umumxalq tilining ajoyib namunalari asosida yozilgan «Qisasi Rabg'uziy»da mustaqil so'zlar (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish), yordamchi (bog'lovchi, ko'makchi, yuklama), modal, undov so'zlar keltirilgan.

Mustaqil so'zlar borliqdagi turli hodisalarni bildiradi (predmet, belgi, harakat v.b.), demak, har bir mustaqil so'zning o'z ma'nosi bor; gapning biror bo'lagi vazifasida qo'llaniladi; ayrim hollarda bir mustaqil so'zning o'zi bir gapni hosil qiladi; yasalish, turlanish, tushlanish kabi xususiyatlarga ega⁴³. Binobarin, mustaqil so'zlar leksik va grammatik ma'nolarga ega bo'lib, matnda ishlatilish o'rniga qarab o'zgarib turadi.

семантик ва генетик тадқиқи ("Девон", "Мубаййин", "Аруз"). Филол. фан. дис. автореф. –Т., 2008. –Б. 16.

⁴⁰ Холмонова З. "Бобурнома" лексикаси. –Т.: ФАН, 2007. –Б. 20-21.

⁴¹ Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи. –Т.:Фан, 2008. –Б. 25.

⁴² Азизов О. Тилшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –Б. 108-110.

⁴³ Хозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 212.

Soʻz turkumlari orasida ot **kategoriyasi** oʻzining semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan til qurilishida katta oʻrin tutadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi ot turkumiga oid soʻzlar uzoq tarixga ega. Ular jamiyat taraqqiyoti va turmushdagi oʻzgarishlarga mos ravishda tilning ichki imkoniyatlari yordamida rivojlangan. Buni koʻhna obidalar til xususiyatlarini kuzatish chogʻida ham koʻrish mumkin⁴⁴. «Qisasi Rabgʻuziy» lugʻat tarkibida jami 3067 ta ot turkumiga oid leksema qoʻllanilgan boʻlib, uning 2517 tasi turdosh ot, 550 tasi atoqli ot hisoblanadi. 2517 ta turdosh otdan 2252 tasini tub soʻzlar, 265 tasini yasama leksemalar, 550 ta onomastik termindan 402 tasini antraponimlar, 83 tasini toponimlar, 33 tasini astraponimlar, 19 tasini zoonimlar, 13 tasini but-sanam nomlari tashkil etadi. Shuningdek, yodgorlikda 29 ta izofali birikma ishlatilgan. Asarda qayd etilgan otlar ifodalagan maʼnolariga koʻra quyidagicha:

Turdosh otlar: barmaq (121v1) «barmoq», baš (6r8) «bosh, kalla», arslan (4r9) «sher», inäk (46v18) «sigir», bitik (63v1) «yozuv», el (40r1) «el, mamlakat», yiğaç (8r18) «daraxt», yurt (49r2) «yurt».

Onomastika. Qissadagi atoqli otlar, oʻz navbatida, quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Antroponimlar: Ādam (16v1) – «Odam ota», Ātika (184v1) – «paygʻam- barimizning xolasi», Ayāz (54r14) – «Isʻhoq paygʻambarning oʻgʻli», Asmaha (179v15) – «Yaman hukmdori», Āzar (38r5) – «Ibrohim paygʻambarning otasi».

2. Toponimlar: Bağdād (176r2), Basra (13r2), Xitāy (68v2), Īskandariya (112v6), Kaʻba (3r13), Kufa (246r1), Īrāq (18v18), Hijāz (36v6), Hindustān (13r1), Īsfahān (13r3), Xurāsān (228r2), Sabā (149v2), Makka (6r5), Madina (71r3).

3. Astroponimlar: Ārzu (66v7) – «Utorud yulduzi», Kōrūd (66v7) – «МАРС», Sewit (21v16) – «Zuhra yulduzi», Sākāndir (66v7) – «Saturn», Oṅay (66v7) – «Mushtariy» (Yupiter), Yašīq (66v7) – «Quyosh», Yalčīq (66v7) – «Oy».

4. Zoonimlar: Burāq (5v10) – Muhammad(s.a.v.) koʻkka minib

⁴⁴ Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан кискача очерк. –Т.: ФАН, 1959. –Б. 17.

chiqqan uchar ot, Duldul (230r17) – Misr podshosi paygʻambarimizga hadya qilgan ot, Arham (144v10) – Sulaymon paygʻambar uzugini yutgan baliq, Hazun (221v15) – ot nomi.

Turkiy tillarda, xususan, oʻzbek tilida **sifat** tarixan maxsus morfologik koʻrsatkichga ega boʻlmagan. Mutaxassislar fikricha, sifat dastavval mustaqil soʻz turkumi sifatida mavjud boʻlmagan, u keyinroq ot turkumidan oʻsib chiqqan va rivojlangan. E. V. Sevortyaning taʼkidlashicha, sifatning otdan differentsiatsiyalanishi ancha ilgarigi davrlarda boshlangan. V – VIII asrlarga kelib, bu jarayon ancha keng tus olgan. Sifatning jamlanishi asta-sekinlik bilan turli davrlarda paydo boʻlgan xilma-xil shakllar hisobiga yuz bergan. Ushbu leksemalarning baʼzilari qadimdayoq kammahsul boʻlgan, ayrimlari esa oʻz sarmahsulligini hozirgi kungacha saqlab qolgan va hatto kengaytirgan. Muayyan shakllar ot va sifat uchun mushtarak hisoblangan, yana boshqa birlari faqat sifatgagina tegishli boʻlib, keyingi davrlarda taraqqiy etmagan.⁴⁵

Turkiy tillar taraqqiyot bosqichining qadim davrlaridan boshlangan sifatning otdan ajralib chiqishi uzluksiz hodisa boʻlib, bu jarayon davom etmoqda. Bundan hamma sifat otdan ajralib chiqqan, degan fikrga kelmaslik kerak. Chunki sifat mustaqil kategoriya sifatida shakllanganidan soʻng bu turkum tarkibiga yangidan qoʻshilgan belgi ifodalovchi bir qator tub va yasama soʻzlar, yasovchi affikslar mavjud. ularning etimologiyasi hozirch: aniqlangan emas.⁴⁶

Sifatlar narsaning belgi-xususiyatini turli nuqtayi nazardan anglatadi. Ushbu belgilar bevosita insonga yoki borliqdagi jonli va jisiz narsalarga tegishli boʻlishi mumkin⁴⁷. Mazkur xususiyatlariga koʻra, yodgorlikda qoʻllangan sifatlarni quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

a) narsaning rangi, tusini bildiruvchi sifatlar: aq (49v1) – «oq», qizil (83r15) – «qizil», kōk (3v10) – «koʻk», qizil (5r1) – «qizil», sarifg

⁴⁵ Севортян Э.В. Из истории прилагательных в тюркских языках// Морфологические исследования. –М.-Л.; 1963. –С. 58.

⁴⁶ XV – XIX asrlar morfologiyasi. –Т.: ФАН, 1990. –Б. 55.

⁴⁷ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б. 280.

(6r1) – «sariq», yaşıl (3v10) – «yashil», ürüg (6r3) – «oq», qara (6r1) – «qora»;

b) narsaning xususiyatini anglatuvchi sifatlar: yaxşi (90v10) – «yaxshi», yawuz (35v5) – «yovuz», yaman (89r21) – «yomon», baxil (13r3) – «baxil», judiy (19v18) – «saxiy», ağin (39r8) – «yomon», bağirsaq (70r5) – «mehribon»;

d) narsaning shakl ko'rinishi, hajm-o'lchovini ifodalovchi sifatlar: ādiđ (5r21) – «ulug'», kiçik (18r21) – «kichik», buzurg (112v17) – «buyuk», keñ (62v4) – «keng», tar (43r10) – «tor», aruq (89v1) – «ozg'in», kabira (145r11) – «katta», ađır (73v2) – «og'ir», uzun (9w5) – «uzun», yassi (18v12) – «yassi»;

e) narsaning holatini bildiruvchi sifatlar: iŝig (68v8) – «issiq», hōl (198v21) – «ho'l», quruğ (30v15) – «quruq», sawuq (82v12) – «sovuq», yanj (66v21) – «yangi», eski (228v9) – «eski», kōrklüg (13r5) – «chiroyli, go'zal», xuŝnud (27v20) – «xursand»;

f) narsaning ta'mini, mazasini ifodalovchi sifatlar: açig (6r4) – «achchiq», süçüg (88r21) – «chuchuk», tatlıg (26r3) – «totli»;

g) narsaning hidini bildiruvchi sifatlar: sassiq (27r6) – «sassiq», anbar (12v14) – «xushbo'y».

Tadqiq etilayotgan manbada keltirilgan 521 ta sifatdan 258 tasi tub, 253 tasi esa yasama so'zlardan iborat.

Til sistemasida ma'lum bir guruh so'zlar borki, ular mavhum sonni, miqdorni, sanoqni, to'g'rirog'i, predmetning sanash, joylashish, bajarilish tartibini bildiradi. Shuni qayd qilish joizki, turkiy tillarda son sistemasi, har qaysi xalq tilida bo'lgani kabi birdaniga emas, asta-sekin shakllanib, o'zgarib kelgan⁴⁸. Bunga ko'hna manbalar tilini tadqiq etish jarayonida amin bo'lish mumkin. Zero, yozma obidalarda sonlarning bir necha turlari qo'llanilgan. Bu esa, birinchidan, sonlarni imlo va talaffuz me'yorlarini aniqlashga, ikkinchidan, ularning etimologiyasini yoritishga ko'maklashadi.

«Qisasi Rabg'uziy» asarining lug'at tarkibida ishlatilgan 169 ta son turkumiga oid so'zning 143 tasi yasama, 26 tasi tub hisoblanadi. Asarda sonlarning ma'no xususiyati va grammatik belgilariga ko'ra quyidagi turlari qo'llanilgan:

⁴⁸ Фозилов Э. Узбек тилининг тарихий морфологияси. –Т.: ФАН, 1965. –Б. 68.

1. Sanoq sonlar: bir (10v2) – «bir», iki//ikki (9r12) – «ikki», on (7v14) – «o'n», sākiz//sākkiz (13v10) – «sakkiz», otuz (18v14) – «o'ttiz», tōrt (10v1) – «to'rt», ūç (23r8) – «uch», ellik (31r12) – «ellik». qir̄q (5v20) – «qirq», altı yüz (24r14) – «olti yuz».

2. Dona sonlar sanoq songa egalik affiksi qo'shish hamda ayrim sanoq sonlarning takrorlanib kelishi orqali ifodalangan: altısi (118r5) – «oltitasi», birisi (8r20) – «bittasi», ekki-ekki (110v2), biri-biri (6r2) – «bitta-bitta».

3. Jamlovchi sonlar sanoq sonlarga -ağu/āgü, -la/lä, -ala/älä, -asi/äsi affikslari qo'shilishi orqali ifodalangan: altağu (86v18) – «oltovlon», ona-ğu (63r4) – «o'ntasi birgalikda», beŝāgü (130v12) – «beshavlon», ikāgü (13v10) – «ikkovlon», tōrtāgü (24v14) – «to'rtovlon», yetāgü (22v15) – «ettovlon», ūçälä (154v18) – «uchov», āgula (64r8) – «o'ntasi», ikkäläsi (27v14) – «ikkalasi».

4. Numerativlar. Asar tilida hisob so'zlar quyidagi ko'rinishda uchraydi:

a) pul birligini ifodalagan numerativlar: diram (128r18) – «dirham», altun (7r9) – «oltun», kümüş (75r7) – «kumush», yarmaq (73r11) – «pul»;

b) hajm-o'lchov tushunchasini anglatuvchi numerativlar: yığaç (3r18) – 6 km. li masofa, kesäk (19r7) – «parcha», qarī (5v20) – qo'l uchidan tirsakkacha bo'lgan o'lchov birligi, arşun (62v13) – 0, 71 metrga teng o'lchov birligi;



d) miqdorni bildiruvchi numerativlar: baŝ (89v3) – «bosh», bōlak (19r8) – «bo'lak, qism», yarim (9r13) – «yarim», sūrük (20r13) – «suruv», qap (94r16) – «qop»;

e) vaqt tushunchasi bilan bog'liq numerativlar: ay (25r15) – «ay», yil (5v2) – «yil»;

f) arabcha istilohlardan shakllangan numerativlar: misqāl (30v6) – 4,35-4,86 gramm oralig'idagi og'irlik o'lchovi, bātman (23r4) – 898, 5 grammga teng og'irlik o'lchovi, asr (52v5) – «yuz yil», sāat (7v17) – «soat, vaqt»;

g) forsha-tojikcha leksemalardan shakllangan numerativlar: pāra (109r11) – «parcha, bo'lak».

5. Partiya sonlar -ne, -net, -ni, -ndi, -ndu, -ndük qo'shimchalari



asosida hosil qilingan: *üçünç/büçünçi* (13v1) – «uchinchi», *törtünç//törtünçi* (13v3) – «toʻrtinchi», *on yetinç* (241v19) – «oʻn yettinchi», *on üçünçi* (198r17) – «oʻn uchinchi», *beşinç/beşinçi* (13v4) – «beshinchi», *onunç/onunçi* (73v1) – «oʻninchi».

6. Chama sonlar sanoq sonlarning juft holda kelishi yordamida yasalgan: *bir-ikki* (196v2).

7. Taqsim sonlar sanoq sonlarga *-ar/-är, -rar/-rär, -šar/-šär* affiksini (baʼzan takrorlanib ham keladi) qoʻshish orqali ifodalangan: *birär* (32r2), *onar-onar* (50r15), *altirär* (85r10), *ikkišär* (78v4), *ikkišär-ikkišär* (78v4).

8. Kasr sonlar: *üç ülüšdin biri* (19v2) – «uchdan biri», *beşdän biri* (125v2) – «beshdan biri», *ondan biri* (49r4) – «oʻndan biri», *qırqđın biri* (166r5) – «qirqdan biri», *üç yarım* (142r3) – «uch yarim», *törtđä üçi* (20v21) – «toʻrtidan uchi».

Olmoshlar semantik va grammatik xususiyatlari bilan boshqa soʻz turkumlaridan farq qiladi. Olmosh ot, sifat, son va baʼzan boshqa soʻz turkumlari oʻrnida qoʻllanib, predmet va unga xos boʻlgan belgining mavjudligini koʻrsatadi. Olmosh predmetlikni yoki uning belgisini doimiy emas, balki muayyan oʻrinlarda ifoda qiladi. Shu jihatdan olmosh mustaqil soʻz turkumi hisoblansa-da, konkret maʼnoga ega boʻlmaydi⁴⁹. Olmoshning asosiy maʼnosi va qaysi soʻz turkumlari oʻrnida ishlatilishi matn ichida oydinlashadi.

Tekshirilayotgan manba tilida 65 ta olmosh mavjud boʻlib, ular anglatgan maʼnolariga qarab quyidagi turlarga boʻlinadi:

a) kishilik olmoshlari: *men* (5r4), *sen* (8r21), *ul* (6r1), *biz* (8v1), *siz* (3v8), *ular* (4v14), *nahnu* (5r18) – «biz»;

b) oʻzlik olmoshlari: *kendü* (31r20) – «oʻz», *öz* (6v11) – «oʻz», *xud* (84v21) – «oʻz»;

d) koʻrsatish olmoshlari: *bu* (4r17), *munı* (6v1), *ul* (5v5), *ušbu* (58v9), *anı* (5r21), *mu* (6v17), *munda* (2v21), *andağ* (4r8), *anda* (4v1), *muñar* (6r11);

e) soʻroq olmoshlari: *kim* (4r4), *ne* (9v1), *neni* (50v2), *nedin*

⁴⁹ Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (ўқув-услубий қўлланма). –Т.: Тошкент давлат педагогика университети. 2002. –Б. 47.

(5r10), netäk (6v8), *nälük* (8r8), *neča* (11r10), *qayda* (8v21), *munča* (33r3), *qayđın* (15r15), *neçün* (10v4), *qayu* (9r21), *qačan* (10r20);

f) belgilash olmoshlari: *har* (5v19), *tekmä* (4v2) – «har qaysi», *barča* (3r20), *barı* (78r1), *qamuğ* (6r2), *bütün* (72r2), *jumla* (9r2), *jami* (3v2);

g) gumon olmoshlari: *kimersä* (7v4), *nemärsä* (89v3), *neersä* (235r4), *birägü* (22v21), *biräw* (2v16), *falän* (73v6), *nersä* (6r19);

h) boʻlishsizlik olmoshlari: *heç* (11r21), *heç nimä* (173v13), *heç kimersä* (199r10).

Feʼl boshqa barcha soʻz turkumlariga nisbatan eng amaliy, eng murakkab va ayni vaqtda semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir. Feʼl sintaktik konstruksiyalarda markaziy oʻrinni egallaydi, gap strukturasi belgilaydi, uning qanday maʼnoli soʻzlardan tarkib topishini bildirish imkoniga ham ega boʻladi⁵⁰. Demak, feʼl morfologiyada muhim oʻrin tutadi. Soʻz turkumlari ichida asosiy oʻrinni otlar va feʼllar tashkil qilishi eʼtiborga olinsa, uning keng soha ekanligi anglashiladi.

«Qisasi Rabgʻuziy»da 991 ta feʼl-leksemalar qoʻllangan boʻlib, shundan 976 tasini sof turkiy, 4 tasini arabcha, 11 tasini esa forscha-turkcha oʻzlashmalardan yasalgan feʼl-leksemalar tashkil etadi. Ularni semantik va grammatik belgilariga koʻra, quyidagi mavzuiy guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

I. Nutq feʼllari. Mazkur feʼllar oʻz navbatida kichik guruhlariga qismlanadi:

1) *de/-te-* (103r5) – «demoq, aytmoq» feʼli;

2) soʻzlov feʼllari: *sözlä-* (11r8) – «soʻzlamok»; *tedür-* (84r6) – «soʻzlat- moq», *APCıq-* (243r21) – «aldanmoq», *alda-* (126r5) – «aldamoq», *yalğa-* (68v10) – «yolgʻon gapirmok», *sana-* (45r13) – «soʻnamok»;

3) talaffuz feʼllari: *yığ-* (48v16) – «yigʻlamoq», *qıçqır-* (164r19) – «qichqirmok», *qığır-* (76v17) – «baqirmok», *çaqır-* (79v12) – «qayqirmok»;

4) xabar feʼllari: *ayt-* (58v8) – «aytmok», *bildür-* (79v10) –

⁵⁰ Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор конструкцлари. –Т.: ФАН, 1989. –Б. 3.

«bildirmoq», yetkür- (90v2) – «yetkazmoq»;

5) simmetrik nutq fe'llari: sözläs- (120r11) – «so'zlashmoq», aytiš- (112 r20) – bahslashmoq», tartiš- (21v4) – «tortishmoq», kenäs- (42v15) – kengash- moq», teyiš- (43v8) – «so'zlashmoq, gaplashmoq»;

6) nutqiy aloqa fe'llari: sora- (133r18) – «so'ramoq», qol- (42v4) – «iltimos qilmoq, so'ramoq», köndür- (236w18) – «ko'ndirmoq», tan- (26r10) – «tonmoq, inkor qilmoq», una- (192r4) – unamoq, rozi bo'lmoq»;

7) nutqiy baho fe'llari: ög- (85v18) – «maqtamoq»: qarg'a- (18r14) – «qarg'amoq», sök- (23v8) – «so'kmoq», yet- (150r9) – «ayblamoq», yamanla- (90v 16) – «yomonlamoq», yawuzla- (84r8) – «yomonlamoq»;

8) nutqiy da'vat fe'llari: buyur- (126v3) – «buyurmoq», ötün- (218v21) – «o'tinmoq», yalbar- (100v20) – «yolvormoq», čarla- (141v5) – «chorlamoq», ögit- (228v7) – «nasihat qilmoq», farmānla- (51r13) – «buyruq bermoq».

II. Holat fe'llari. Ushbu mavzuiy guruhlar ham ayni paytda bir qancha kichik guruhlariga bo'linadi:

a) davomli holat fe'llari: yat- (33r4) – «yotmoq», yaša- (28r5) – «yashamoq», tur- (34r14) – «turmoq», qal- (83r6) – «qolmoq», tünä- (86r6) – «tunamoq», oltur- (89r18) – «o'tirmoq», orna- (37v5) – «o'rnashmoq»;

b) harakat natijasi bo'lgan holat fe'llari: tün- (31r4) – «tinmoq», toqta- (3r18) – «to'xtamoq», tol- (77r19) – «to'lmoq», tutaš- (173v19) – «tutashmoq», sawu- (82v12) – «sovimmoq», eskir- (118v17) – «eskirmoq»;

d) ijro holati fe'llari: asra- (33v7) – «asramoq», qorī- (143v11) – «qo'rimoq», saqla- (46v1) – «saqlamoq», yašur- (36r6) – «yashirmoq», tüzät- (130v7) – «tuzatmoq», kišlä- (76v8) – «yashirmoq», oňalt- (46v5) – «tuzatmoq»;

e) harakat holati fe'llari: az- (5v11) – «adashmoq», bolal- (25v2) – «ko'paymoq», arit- (91v6) – «tozalamoq», köpäl- (134r17) – «ko'paymoq», yig- (11 v1) – «yengillashmoq»;

f) malaka holati fe'llari: ögrän-//örgän- (22v1) – «o'rganmoq», inan- (33v4) – «ishonmoq», tapun- (46r21) – «sig'inmoq»;

g) obrazli hayot fe'llari: yalna- (2r12) – «olovlanmoq, alanganmoq», yan- (42v9) – «yonmoq», yašna- (68v6) – «yashnamoq, yaltiramoq», balqī- (180r7) – «porlamoq», sol- (61v11) – «so'lmoq», bezä- (91r1) – «bezamoq»;

h) biologik holat fe'llari: qarī- (8r14) – «qarimoq», yiqil- (44v3) – «yiqilmoq», ačiq- (93r7) – «qorni ochmoq», čecäklän- (67r15) – «ochilmoq, gullamoq», čürī- (171r21) – «chirimoq», yazil- (56r7) – «ochilmoq»;

i) fiziologik holat fe'llari: ar- (69v8) – «charchamoq», ađri- (14r12) – «kasal bo'lmoq», egil- (75v16) – «egilmoq», öl- (14v4) – «vafot etmoq», emgän- (18r10) – «mashaqqat tortmoq», semür- (249r7) – «semirmoq»;

j) ruhiy holat fe'llari: uwtan- (83r2) – «uyalmoq», ačiglan- (63r8) – «achchig'lanmoq», bušuq- (63v8) – «asabiylashmoq», xušlan- (120v4) – «xursand bo'lmoq», kül- (51v4) – «kulmoq», öwkälä- (43v15) – «xafa bo'lmoq».

III. Harakat fe'llari. Qissa tilida istifoda etilgan ushbu leksemalarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1) yo'nalma harakat fe'llari: izala- (5v17) – «yubormoq», yoru- (88v5) – «yurmoq», čap- (35v14) – «chopmoq», kir- (33v20) – «kirmoq», čiq- (7r3) – «chiqmoq», aq- (16v6) – «oqmoq», qač- (12v1) – «qochmoq», kel- (6r21) – «kelmoq»;

2) tik harakat fe'llari: tüş- (89v16) – «tushmoq», in- (89v12) – «tushmoq», sal- (38r1) – «solmoq», yađ- (22v14) – «yog'moq», qaz- (16r10) – «qazmoq», batur- (46v2) – «botirmoq», tam- (40v20) – «tomchilamoq»;

3) aylanma harakat fe'llari: egir- (13v11) – «aylantirmoq», ewrül- (197r4) – «burilmoq, aylanmoq», ađna- (69r13) – «ađ'anamoq», kez- (5v10) – «kezmoq», yumalan- (165v1) – «yumalanmoq»;

4) tebranma harakat fe'llari: irğa- (135r8) – «tebratmoq, irg'amoq», qumrul- (206r6) – «qimillamoq», silkin- (113r12) – «silkinmoq», tebrän- (42v7) – «tebranmoq», yelpi- (143v14) – «yelpimoq»;

5) faoliyat natijasi bo'lgan harakat fe'llari: bađla- (19r17) – «bog'lamoq», ula- (193r10) – «ulamoq», anuqla- (92v9) –

«tayyorlamoq», anut- (81v5) – «hozirlamoq», qundaqla- (33r19) – «yoʻrgaklamoq», yap- (82v21) – «yopmoq»;

6) jismoniy taʼsir harakati feʼllari: tep- (47v15) – «tepmoq»; tel- (28 v13) – «teshmoq»; emlā- (87v1) – «davolamoq»; sanč- (44r13) – «sanchmoq»; bas- (77v4) – «bosmoq»; ez- (192r5) – «ezmoq»; yamur- (31v2) – «yiqitmoq»;

7) ogʻiz boʻshligʻida amalga oshiriluvchi harakatlarni ifodalovchi feʼllar: tüwkür- (23v8) – «tuflamoq»; sor- (115r5) – «soʻrmoq»; ür- (178r19) – «puf- lamoq»; tišlā- (25v3) – «tishlamoq»; oqī- (84r3) – «oʻqimoq»; čayna- (11v6) – «chaynamoq»; em- (37v10) – «emmoq»; ič- (17r1) – «ichmoq»;

8) adressiv harakat feʼllari: ber- (10v19) – «bermoq»; at- (41v20) – «otmoq»; sat- (73r5) – «sotmoq»; uzat- (84v21) – «uzatmoq»; ulaš- (31r20) – «ulashmoq»; sač- (60v20) – «sochmoq»; bōl- (178v14) – «boʻlmoq»;

IV. Yumush feʼllari sirasiga kiruvchi leksik birliklar: ter- (142v4) – «termoq»; tōk- (86v14) – «toʻkmoq», tik- (78v10) – «tikmoq», sağ- (157 v20) – «sogʻmoq»; suwa- (115r17) – «suvamoq»; süpür- (166v8) – «supurmoq»;

V. Sezgi feʼllari guruhiga tegishli feʼllar: ačit- (100v3) – «achitmoq», bur- (77v2) – «hidlanmoq»; islan- (160v20) – «islanmoq, hidlanmoq»; iriklān- (67v13) – «boʻrtmoq, pishmoq»; qanat- (86r13) – «qonatmoq»; sez- (82v20) – «sezmoq»; šiš- (74r7) – «shishmoq».

VI. Koʻruv feʼllari: baq- (27r1) – «qaramoq»; telmür- (74r3) – «tel- murmoq»; qara- (81v15) – «qaramoq»; kör- (29v2) – «koʻrmoq»; körsät- (104v4) – «koʻrsatmoq»; körün- (44r10) – «koʻrinmoq»; tikil- (78v8) – «tikilmoq».

VII. Taqlid asosida vujudga kelgan feʼllar: ünran- (16v4) – «ingramoq», muñla- (166r19) – «siqilmoq, qaygʻurmoq», muñlan- (57v13) – «qaygʻuga botmoq», čirlā- (32v19) – «chirillamoq», urla- (103v20) – «ulimoq».

VIII. Eshitish feʼllari: ešit-//išit- (32v7) – «eshitmoq»; ešitdür- (53v5) – «eshitdirmoq»; ešitill- (17v13) – «eshitilmoq»; tañla- (19v19) – «hayron qolmoq»; tañlan- (130r11) – «ajablanmoq»; tiñlā- (19v17) – «tinglamoq».

Ravishlar sifatlar kabi turlovchi va tuslovchi affikslarni qabul qilmaydi, yaʼni bu turkumdagi soʻzlar oʻzgarmaydi, oʻzlari bogʻlangan leksemalar bilan moslashmaydi, ularni boshqarmaydi; ravishlar bu soʻzlarga bitishuv yoʻli bilan bogʻlanadi⁵¹.

Turkiy tillardagi, shu jumladan, oʻzbek tilidagi ravishlarning bir guruhini boshqa soʻz turkumlaridan ajrab chiqqan soʻzlar tashkil etadi. Bunday ravishlarning koʻpchiligi ismlar, ayrimlari feʼllar asosida shaklangan. Ravishlarning boshqa soʻz turkumlaridan ajrab chiqishi maʼlum tarixiy davrlarda har xil yoʻllar bilan yuzaga kelgan⁵². Shuningdek, ravish turkumiga oid leksemalar tarkibi boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar hisobiga boyib, kengayib borgan. Shuning uchun ham ravish tuzilishi va tarkibiga koʻra rang-barangdir. Shu oʻrinda qayd etish joizki, «Qisasi Rabgʻuziy» tilida oʻz qatlamga doir ravishlar bilan bir qatorda, arab va forscha-tojikcha tillarga oid ravishlar ham ifodalangan. Jumladan, asarda qoʻllanishda boʻlgan 52 ta ravish turkumiga doir leksemaning 33 tasi turkiy, 11 tasi forscha-tojikcha, 8 tasi arabcha leksik birlikdan iborat. Yodnomada ravishlar ish-harakatning bajarilishidagi turli holatlarni, holat va belgining belgisini bildirishda qoʻllangan boʻlib, ularning maʼno nuqtayi nazaridan bir necha turlari mavjud:

1. Holat ravishlari: aqru (231v6) – «sekin», tez (85v4) – «tez», darhāl (46v10) – «darrov», bat (70v2) – «tez», tärk (27r2) – «tez», āsan (112r8) – «qulay», ravān (190r18) – «tez».

2. Payt ravishlari: keđin (52v4) – «keyin», soñra (93r8) – «soʻngra», ertā (86v5) – «barvaqt», keč (68v6) – «kerak vaqtdan keyin», ašnu (8v5) – «avval», nāgāh (74r6) – «kutilmaganda», hargiz (5v7) – «butunlay».

3. Miqdor-daraja ravishlari: üküš (13r6) – «koʻp», köp (15v8) – «koʻp», telim (16v9) – «koʻp», kam (152v9) – «oz», az (12r5) – «oz», bisyār (219v9) – «koʻp», eñ (20r1) – «juda», ötä (80v16) – «oʻta»,

⁵¹ Ҳозирги ўзбек адабий тили. К.И. Фонетика, лексикология, морфология. –Т.: ФАН, 1966. –Б. 198.

⁵² Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973. –Б. 189; Qarang: Фузайлов С. Ўзбек тилида равишлар. –Т.: ФАН, 1953. 109 б.

gāyat (8v1) – «g'oyat, juda».

Yordamchi soʻzlar lugʻaviy maʼno anglatmaydi, leksemaning grammatik maʼnosini bildiradi, morfologik oʻzgarish tizimi. yasalish xususiyati ham yoʻq, gap boʻlagi boʻlib ham kelmaydi. Ular soʻz va gaplarni oʻzaro bogʻlash, ularga qoʻshimcha maʼno yuklash, soʻzlarni bir-biriga tobelash kabi turli munosabatlarni anglatadi⁵³. Tadqiqot obyekti qilib olingan manbada quyidagi yordamchi soʻzlar qoʻllanilgan.

Koʻmakchilar gapda ot yoki otlashgan soʻzlardan keyin kelib, vosita, maqsad, sabab, vaqt, maʼkon sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qoʻllanadi⁵⁴. Turkiy tillarda koʻmakchilar mustaqil soʻz turkumlaridan rivojlangan. Lekin bu jarayon uzoq davrlar davomida kechgan. Bunday soʻzlar dastlab oʻz maʼnosida qoʻllanish bilan birga, koʻmakchi vazifasini ham bajargan. Davrlar osha ular oʻzining mustaqil leksik maʼnosini yoʻqotib, koʻmakchilar turkumiga oʻta boshlagan.

Hozirgi turkiy tillarda mavjud boʻlgan koʻmakchilarning mustaqil soʻz turkumlaridan ajrab chiqishi nisbatan keyingi davrlarga toʻgʻri keladi. Bu hol yozma yodgorliklar tilida ham muayyan darajada aks etgan. Yozma manbalardan maʼlum boʻlishicha, XII–XIII asrlardan boshlab turkiy tillarda, shu jumladan, oʻzbek tilida ham koʻmakchilar soni koʻpayib borgan⁵⁵. Asarda ishlatilgan 38 ta koʻmakchidan 14 tasi sof koʻmakchi, 12 tasi ot-koʻmakchi, 8 tasi ravish-koʻmakchi, 4 tasi sifat-koʻmakchi hisoblanib, ular ikki guruhga boʻlinadi:

1) sof koʻmakchilar: *üçün* (7v5), *birlä//birlän//bilä* (223r18; 11r7; 44r1), *içrä* (5r21), *sarı* (220v5), *taba* (6r9) – «tomonga», *tegi* (9v5) – «qadar», *tegrü* (91r7) – «qadar», *sayın* (119r20), *üzrâ* (110v6), *yağli//yağliğ* (181v21; 13r5);

2) vazifadosh koʻmakchilar, oʻz navbatida, quyidagi guruhlarga ajraladi:

⁵³ Хозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Илми зиyo, 2004. –Б. 90.

⁵⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси., 2003. –Б. 180.

⁵⁵ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўкитувчи, 1973. –Б. 199.

a) ot-koʻmakchilar: *başida//başında* (186r15; 69r2), *içidä//içində* (130v21; 6v19), *qatida//qatında* (17r18; 28r21), *qaşığa* (120r4), *qaşidin* (83v2), *arasığa* (95r16), *arasında* (7v6), *öñidä//öñində* (132r9; 11r5), *ortasığa* (118r8);

b) ravish-koʻmakchilar: *burun* (90r4) – “ilgari”, *aşnu* (8v5) – «avval», *keşin* (74r1) – “keyin”, *soğ* (15v1), *berü* (9r14), *ilgärtü//ilgäri* (58v4; 83v5), *ötrü* (16v3) – “roʻpara”, *taşqari//taşqaru* (109r19; 16v6);

d) sifat-koʻmakchilar: *özgä* (8v14), *başqa* (122v13), *azın* (10v14) – “boshqa”.

Bogʻlovchilar ham boshqa yordamchi soʻzlar kabi tarixan mustaqil soʻz turkumlari asosida shakllangan boʻlib, soʻz va gaplarni bir-biriga bogʻlashga xizmat qiladi. Lekin bunday bogʻlovchilar turkiy tillarda kam sonlidir. Yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha, hozirgi turkiy tillarda isteʼmolda boʻlgan bogʻlovchilarning aksariyati taraqqiyotning maʼlum davrlarida eron tillaridan yoki arab tilidan oʻzlashgan boʻlib, ular XIII–XIV asrlardan faol qoʻllanila boshlagan⁵⁶. Shu bois, obida tilida turkiy hamda oʻzlashgan qatlamga doir bogʻlovchilar koʻzga tashlanadi va ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) teng bogʻlovchilar. Mazkur bogʻlovchilar vazifasi va maʼnosiga koʻra, navbatdagi guruhlarga boʻlinadi:

a) birlashtiruv bogʻlovchilari: *va* (6r2), *ham* (12v19), *-u* (-yu, -wu) (96r1), *taqi//daği* (10r12; 59r11), *ma//mä* (11v5; 10v5), *yemä* (9r12), *yana* (6v2);

b) ayiruv bogʻlovchilari: *yä* (7v2), *yähud* (52v14), *gäh* (77r19), *baʼzi* (31v 18);

d) zidlov bogʻlovchilari: *ammä* (7v4), *valekin* (36r22), *vale* (81r10);

e) inkor bogʻlovchisi: *ne* (9v1).

2) ergashtiruvchi bogʻlovchilar: *kim* (6v7), *agar* (6v2), *ki* (15v14), *çün* (29v5), *agarçi* (2v19), *tä* (12v12), *teb* (12r18), *gar* (110v6), *teyü* (22r19).

Shu tariqa, obida leksikasida 27 ta bogʻlovchi ishlatilgan boʻlib, uning 18 tasi teng bogʻlovchilar, 8 tasi ergashtiruvchi bogʻlovchilardir.

⁵⁶ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Кўрсатилган асар. –Б. 215-216.

XIII – XIV asrlarga oid yodnomalar tilida iste'molda bo'lgan **yuklamalar** shakliy ifodasi, qo'llanishi, ma'no xususiyati jihatidan bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.⁵⁷ Shu nuqtayi nazardan, asarda jami 5 ta yuklama qo'llanilgan bo'lib, ular jumlagi yoki uning ma'lum qismiga qo'shimcha ma'no yuklash vazifasini bajargan. Qissa tilidagi yuklamalar sirasiga quyidagilar kiradi: -mu/mü//-mü//mi (98v18; 153v13), -la//lä (61v9; 22r18), -qina/-kinä// - gina/-ginä (151v1; 19r18), -oq/-ök (6v6; 5v11), -ma//mä (5v16).

Ma'lumki, **modal so'zlar** so'zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini anglatib, uning aniqligi, rostligi, gumonli yoki shartlilikini ifodalash uchun xizmat qilib, asosan, kirish so'z vazifasida keladi. Ular butun fikrga yoki uning biror qismiga taalluqli bo'lib, shaklan o'zgarasligi, gap bo'lagi vazifasida kelmasligi, gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmasligi bilan xarakterlanadi. Yodnomada 9 ta modal so'z kuzatiladi: magar (27r14), balki (191v20), bar (11v9), yoq (7v5), keräk (8v21), kāski (23r2), sāyat (128v3), illā (37v2), nest (207r4).

Undov so'zlar fonetik shakllanishi, morfologik butunligi, ekspressivligi va maxsus ohangi, kelishik, egalik, shaxs, zamon kabi grammatik ma'nolarni anglatmasligi bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi⁵⁸. Undovlar gap bo'lagi vazifasida qo'llanmaydi, ular bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Ular matnda yakka va takror holda kelishi mumkin. Yodgorlikda qo'llanilgan undovlar juda kam sonni tashkil etib, ular hayajon, his-tuyg'u, kishining turli kechinmalarini anglatish uchun xizmat qilgan. Qissada qayd etilgan 6 ta undovning ayrimlari so'zlovchining tinglovchiga murojaati, xitob qilish, fikrni jalb etish kabi ma'nolarni ifodalaydi: ey (5v20), yā (19r9), hay (81v5).

Asarda yana bir guruh undovlar uchraydiki, ular so'zlovchining his-hayajoni, taajjublanishi singari ma'nolarni bildiradi: āh (70r4), vāy (124v9), yā (245r1).

⁵⁷ XIII-XIV asrlar turkiiy adabiiy ēdgorliklar tili. –T.: FAN, 1986. –B. 264.

⁵⁸ Tursunov U., Muxtorov J., Raḥmatullaev III. Hozirgi ūzbek adabiiy tili. –T.: Ūzbekiston, 1992. –B. 391. Karantg: Usmonov S. Ūzbek tiliida undovlar. –T.: FAN, 1953.

“Qisasi Rabg'uziy” so'z boyligini statistik jihatdan tadqiq etish yodgorlik tilidagi leksik birliklarning soni yuzasidan aniq ma'lumotga ega bo'lish, turkiy va o'zlashgan qatlamlarning miqdori bo'yicha nisbati to'g'risida fikr-mulohaza yuritish, muallifning so'z qo'llash mahorati hamda o'ziga xos jihatlari haqida tasavvur hosil qilishga yordamlashadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Nosiruddin Burhonuddin o'g'li nechanchi asrlarda yashab ijod etgan?
2. Raboto'g'uz xarobalari hozirda yurtimizning qaysi hududida joylashgan?
3. “Qisasi Rabg'uziy” obidasi qachon va kimning iltimosiga ko'ra yozilgan?
4. Asarning yaratilishida qaysi manbalar zamin vazifasini o'tagan?
5. Qissada asosan qaysi lahjalarga oid til xususiyatlari uchraydi?
6. Filologiyada lingvostatistik usulni qo'llashdan maqsad nima?
7. “Qisasi Rabg'uziy” asari lug'at tarkibida qancha so'z ishlatilgan?
8. Turkiy tillar. jumladan, o'zbek adabiy tilida so'zlarni turkumlarga ajratishda nimalar asos qilib olinadi?
9. Yodnomada qayd etilgan mustaqil so'z turkumlariga doir so'zlar to'g'risida misollar yordamida fikr bildiring.
10. “Qisasi Rabg'uziy”da qo'llanilgan yordamchi so'z turkumlari statistikasi haqida ma'lumot bering hamda misollar keltiring.

ASAR LUG'AT TARKIBINING MAVZUIY GURUHLARI

Tayanch so'zlar: davlat tili, diaxron, yozma manbalar tili, leksikologiya, mavzuiy guruhlar, atroponimlar, kasb-hunar nomlari, etnonimlar, mavhum tushunchalar, ijtimoiy-siyosiy leksika, kitobatchilik terminlari, toponimlar, fitonimlar, harbiy leksika, zoonimlar, teonimlar, astroponimlar, diplomatik leksika, adabiy terminlar.

Tilning lug'at tarkibi kishilarning turli faoliyati bilan bevosita aloqador bo'lganligi uchun uzluksiz o'zgarib turadi, jamiyat, fan-texnika taraqqiyoti bilan boyib boradi. Chunki til yangi so'zlar bilan boyib turmasa, jamiyatdagi o'zgarishlar va yangilanishlarni aks ettirmay qoladi. Shunday ekan, har bir tilning leksik tarkibi shunday bebaho xazinadirki, unda shu xalq tarixiga oid qimmatbaho ma'lumotlar saqlanadi. Xalqning kelib chiqishi, hayoti va madaniyati, moddiy-ma'naviy boyliklari, umuminsoniy madaniyatni takomillashtirishdagi roli leksikada o'z ifodasini topadi⁵⁹. «Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»⁶⁰.

1989-yil 19-oktyabrda, qariyb bir asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatda o'zbek tili Davlat tili deb e'lon qilindi, xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Davlatimiz rahbari bu haqda shunday deydi: «Birinchil navbatda shuni aytmoqchiman, o'zbek tiliga davlat maqomining berilishi hech kimda hech qanday shubha tug'dirmasa kerak. Bu allaqachon yuz berishi lozim bo'lgan hodisa

⁵⁹ Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. –Т.: ФАН, 1978. –Б. 3. Каранг: Мусаев К. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении (Западно-кыпчакская группа). –М.: Наука, 1975; шу муаллиф. Лексикология тюркских языков. –М.: Наука.-1984.

⁶⁰ Каримов И. А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б. 29-30.

ediki, aholimiz ko'pchiligining qonuniy talabi ham shunday edi. Binobarin, o'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to'g'ri aytishadi»⁶¹.

Istiqlol yillarida o'zbek adabiy tilining hayotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida qator ishlar olib borilayotgani ko'pchilikka yaxshi ayon. Xususan, «1992- yil 7- dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi. O'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda»⁶².

Til tufayli jamiyat uzvlarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari til orqali bilim ajdoddan avlodga og'zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan ajdodning ishini davom ettiradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta'minlanadi⁶³. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, o'zbek tilining lug'at tarkibi o'ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. Hozirgi tilda qo'llanayotgan har bir so'z paydo bo'lish vaqti turli vazifalarni bajarishi, xilma-xil o'zgarish va yangiliklarni qabul qilish xususiyatiga ko'ra muayyan tarixga ega. Ushbu so'zlarning bir qismi qadimda turmush talablariga muvofiq, yangi so'zlar yasashga zamin bo'lgan. Ma'lum qismi esa, ancha keyin

⁶¹ Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: Ўзбекистон, 2011. –Б. 69.

⁶² Каримов И. А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б. 85-86.

⁶³ Рустамов А. Сўз хусусида сўз. –Т.: EXTREMUM PRESS, 2010. –Б. 6.

yuzaga kelgan va tilda muqim o'rin tutgan⁶⁴. Bu esa, o'z navbatida, leksikani tarixiy aspektda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Zero, har bir adabiy tilning hozirgi holatini to'g'ri belgilash va uning taraqqiyot yo'llarini aniqlashda til tarixini atroflicha tadqiq etish katta ahamiyat kasb etadi.

Yozma manbalar tilini o'rganish leksikologiyaning nazariy qoidalarini asoslashga yordam beradi. mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqa. munosabatlarini belgilash va baholashda muhim vositalardan biri sanaladi. Leksika tilning boshqa sohalari nisbatan turli ichki va tashqi ta'sirlarni o'zida mujassam etgani bois, xalqning madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarish va o'sishni aniqlashga ko'maklashadi⁶⁵. Shu ma'noda, tilning tarixiy rivojlanish jarayoni va lug'at boyligini o'rganishning keng tarqalgan usullaridan biri tildagi so'zlarni mavzuiy guruhlarini ajratib tahlil qilishdir. Manbalarda istifoda etilgan so'zlarning qaysi soha tarmoqlariga oidligini aniqlash tilshunoslik uchungina emas, boshqa fanlar uchun ham qimmatli ma'lumot beradi. Shuningdek, yozma yodnomalar tilidagi leksemalarni mavzuiy jihatdan guruhlashtirish asar yaratilgan davr xalqlarining ma'naviyati, huquqiy saviyasi, qo'shni va qardosh xalqlar bilan olib borgan hamkorlik munosabatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini beradi⁶⁶.

So'zlarni mavzuiy guruhlariga jamlash tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda emas, ko'proq tashqi belgilari orqali amalga oshiriladi. Bunda so'zning ma'nosi qaysi turkumga aloqadorligi yetakchi o'rin tutadi. Bu jihatdan so'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratish leksemalarni leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganish usulidan farq qiladi va u o'zida tilning spetsifik munosabatlarini gavdalandirmaydi.⁶⁷

⁶⁴ Муталлибов С. Морфология в лексика тарихидан кискача очерк. –Т.: ФАН, 1959. –Б. 133-134.

⁶⁵ Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: ФАН, 1983. –Б. 3.

⁶⁶ Абдулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик қатламлари. Филол. фан. ном. ...дис. автореф. –Т.: 1996. –Б. 16.

⁶⁷ Гольдин В.Е. Об одном аспекте изучения тематических групп слов // Язык и общество. Вып. 2. –М.: 1970. –С. 163.

So'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratish muayyan xalq tilida qaysi sohalarga oid leksikaning boy yoki kambag'alligini belgilashda katta o'rin tutadi. O'z va o'zlashgan qatlam leksikasini mavzuiy guruhlariga bo'lish va ularni qiyosiy o'rganish o'z qatlamda qanday sohalarga oid so'zlar saqlanib turgani, qaysi sohalarga doir leksemalar tarixan iste'moldan chiqib ketgani va ular o'rnini o'zlashgan so'zlar egallaganini aniqlashga yo'l ochadi. Ayni paytda aytish joizki, xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma'lumotlar so'zning mavzuiy guruhlarida o'zining yaqqol ifodasini topadi. Demak, leksemalarni mavzuiy guruhlariga ajratib tadqiq etish tilning xalq hayoti bilan bog'liq tomonlarini yoritish uchun xizmat qiladi.⁶⁸

Kuzatishlarimiz «Qisasi Rabg'uziy» asari tilida quyidagi mavzuiy guruhlar qayd etilganligini ko'rsatdi.

I. Antroponimlar. Yodnomada mazkur guruhga kiruvchi antroponimlar, o'z navbatida, leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga taqsimlanadi:

1. Diniy antroponimlar:

a) Tangri va uning sifatlarini ifodalovchi so'zlar: Allāh (33w21), Tāḡ-ri (11v1), Xudā (87r8), Uḡan (15r18), Iḡi (15r18), Mavlā (4r11), Rab (19r9), Ilāh (170r2);

b) Allohning ismlari: Xāliq (74v9) – «yaratuvchi», Jabbār (63v1) – «isloh etuvchi», Samad (83r2) – «hojatbaror», Aliym (8v21) – «biluvchi», Ahad (195v11) – «yagona», Jalāl (112v10) – «ulug'», Rahmān (17v12) – «rahmli»;

d) ilohiy kitoblar nomi: Kalāmullāh (187v19), Qur'ān (66r1), Furqān (62r2), Mushaf (240v11), Injil (183v8), Tavrāt (67v7), Zabur (135r1).

e) payg'ambarlarning ismlari: Šis (17v17), Nuh (13v7), Ibrāhim (37v10), Isā (20v21), Musā (28v10), Zulkifl (165r14), Yunus (55r15), Yusuf (65v5), Zaka-riyya (166r18);

f) payg'ambarlarning ajdod-avlodlari: Qābil (14v14), Yāfas (24r21), Sām (24r12), Hām (24r12), Sāra (43r17), Hājar (46v5), Āzar

⁶⁸ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: ФАН, 1985. –Б. 121.

(38r5), Maryam (18r12);

g) Payg'ambar(s.a.v.) ajdod-avlodlarining ismi: Abdullāh (508), Aminā (143r16), Fātima (182v20), Zaynab (198r19), Āyša (71v20), Abu Tālib (50r7), Hamza (50r7), Ibrāhim (37v18), Hadiča (110v9);

h) xalifalar ismi: Abu Bakr (180v21), Umar (18v17), Usmān (25r12), Ali (14v5), Hasan (107r15), Husayn (200r5);

i) avliyolar ismi: Xizr (14v12), Luqmāni hakim (136v14);

j) farishtalar ismi: Azrāil (11r6), Jabrāil (7r19), Mikāil (7r20), Isrāfil (7r21), Sarsabil (154v18);

k) sahobalar ismi: Abu Ayub Ansāriy (221r1), Abu Dardā (201r17), Abu Zarr Ğaffāriy (217r18), Huzayfa al-Yamaniy (217r15), Ubn Abbās (146v7), Imām Qatāda (175r15);

l) mufassirlar ismi: Sa'id ibn Jubayr (107r16), Mujāhid (86r14), Mavlānā Majiduddin Andagāniy (175v21), Imām Muqātil (203v10);

m) muhaddislar ismi: Sufyān (121v9), Ša'biy (14v4), Abu Hurayrā (145v9), Muhammad ibn Ishāq (107r17).

2. Tarixiy shaxslar ismi:

a) hukmdorlar ismi: Abdullāh Ziyād (245v3) – «Kufa hokimi», Buxti Nasr (38r1) – «Bobil hukmdori», Dādbāna (161r13) – «Shom viloyatining hokimi», Daqiānus (178r2) – «yunonlik butparast shoh», Handa Ibn Umar (32r5) – «Hijoz hukmdori»;

b) sarkarda, lashkarboshilar ismi: Xālid Ibn Valid (223v5) – «Mashhur lashkarboshi», Abraha ibn Isram ibn Abraha Sabāh (179v20) – «Yaman hukmdori Asmoning qo'mondoni», Sufyān ibn Harb (228r14) – «salama qabilasiga mansub lashkarboshi», Harr ibn Yazid ar-Rayāhin (245v10) – «Abdullah Ziyodning lashkarboshisi»;

d) savdogarlar ismi: Abdurahmān ibn Avf (230v18), Abu Sufyān (223v1), Mālik ibn Za'r (71v4), Sa'd ibn Vaqqās (240r15);

e) oddiy xalq vakillari ismi: Halima (185v1) – «Payg'ambar(s.a.v.) ning enagasi», Qanbar (240v6) – «Alining quli», Hilāl Ibn Nāfri' (247r17) – «Husaynning safdoshi», Mubaššara (105r15) – «Ya'qub payg'ambarning xizmatkori»;

f) ma'naviyat ixlosmandlari, ijod ahli ismi: Šayx Saqiq (18v1), Abu Ishāq Nišāpuriy (24v4), Nāsir Rabġuziy (68v7), Imām Kalbiy (146v2).

3. Sifat, laqab va taxalluslar: Zabihullāh (53v19) – «Ismoil payg'ambarning sifati», Ātiq (201r19) – «Abu Bakrning taxallusi», Abu Salama (217v3) – «Mas'ud as-Saqafiy nomli sahobaning laqabi», Haydar (238v1) – «Ali ibn Abu Tolibning laqabi», Hibatullāh (17v18) – «Shis payg'ambarning sifati».

4. Hayvonlarga qo'yilgan maxsus ismlar: Qitmīr (178r18) – «it nomi», Mandar (139r2) – «chumoli nomi», Ra'da (58r8) – «Lut payg'ambar tuyasi», Qāvaš (139v14) – «dev nomi», Vayna (58r9) – «Lut payg'ambarning ko'ppagi».

5. Butlar nomi: Lāt (195v5) – «Makkadagi but nomi», Mašhur (57r4) – «mu'tafikot qavmining buti», Sarjān (179v13) – «As'habul fil» qissasida qayd etilgan but, Habul (195v5) – «Ka'badagi but nomi», Yabad (57r4) – «mu'tafikot qavmining buti».

II. Kishilarga nisbatan qo'llanuvchi so'zlar: ādam (20r15) – «inson», kiši (16r2) – «odam», kim (12v6) – «kim», dost (5r16) – «do'st», yār (197r17) – «do'st», dušman (7v9) – g'anim, kimersā (13r10) – «kimdir», ortaġ (5r6) – «o'rtoq».

III. Inson va uning tana a'zolari nomlari: erin (87v4) – «lab», aya (18r5) – «kaft», bel (72r6) – «bel», eq (61v11) – «yonoq», ernāk (37v10) – «barmoq», eyāġü (7v8) – «qovurg'a suyagi», qafa (145v9) – «bosh», el/elig (69v3; 26k18) – «qo'l», qaraq (77r15) – «ko'z qorachig'i», qarīn (102r18) – «qorin».

IV. Qavm-qarindoshlik, yaqinlik ma'nolarini anglatuvchi so'zlar. Bularni, o'z navbatida, quyidagi mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin:

1) umumiy tarzda «qarindosh» tushunchasini bildiruvchi leksemalar: qavm (34r10) – «urug', aymoq», qayas (181r19) – «qarindosh», nasl (192r2) – «avlod», uruġ (27r21) – «urug'», oġuš (168v16) – «qarindosh»;

2) qarindoshlik tushunchasini individual tarzda ifodalovchi so'zlar: ābā (172v11) – «ota», aġa (97v2) – «aka», ammuzāda (128v20) – «amaking o'g'li», ana (34v11) – «ona», amma (191r8) – «amma», ini (99r2) – «uka», xāla (68r10) – «xola», jadd (242v9) – «bobo»;

3) yaqinlik tushunchasini bildiruvchi leksemalar: dāya (184v6) – «enaga», emikdaš (227v9) – «emikdosh», enāġa (80v3) – «doya»;

V. Yosh tushunchasi bilan aloqador leksemalar: yaş (9v5) – «yosh», yigit (25r15) – «yigit», abuşqa (11v12) – «keksa, qari», qart (98r2) – «keksa», qarī (104v3) – «keksa», qurtğa (28r16) – «kampir».

VI. Jinsiy tafovut tushunchalarini anglatuvchi soʻzlar:

a) insonlar oʻrtasidagi jinsiy farqni ifodalovchi soʻzlar: er (7v18) – «erkak», ewlyk (83v11) – «xotin», qiz (14v13) – «qiz», ogul (33v2) – «oʻgʻil»;

b) hayvonlar orasidagi jinsiy tafovutni bildiruvchi soʻzlar: aygʻir (116r2) – «aygʻir», biya (17w8) – «biya», bugra (198r4) – «erkak tuya», inak (31r15) – «urgʻochi tuya»; xorus (141r20) – «xoʻroz», tawuq (26v18) – «tovuq».

VII. Kishilarning qoʻli bilan yaratilgan narsa-predmetlar nomlari:

a) asbob-uskunalar: balta (39v10) – «bolta», bičaq (50r10) – «pichoq», ignā (78w8) – «igna», yip (39r1) – «ip», qazuq (18v5) – «qoziq», qamčī (100v10) – «qamchi», orgaq (56r21) – «oʻroq», tayaq (18r11) – «tayoq»;

b) kiyim-kechak, gazlama, zeb-u ziynatlar va ular bilan bogʻliq tushunchalar: čaruq (154v7) – «choriq, oyoq kiyimi», kōñlāk (20r1) – «koʻylak», etāk (87r14) – «etak», ton (12r21) – «toʻn, kiyim», yaqa (48r2) – «yoqa», isirga (48r13) – «sirgʻa», yuzük (21v3) – «uzuk», etük (222r3) – «etik»;

d) inson faoliyati mahsuli boʻlgan boshqa xil predmet nomlari: boyag (171v14) – «boʻyoq», yipāk (12v14) – «ipak», yol (18r13) – «yoʻl», kemā (206v10) – «kema», köprüg (28v17) – «koʻprik», quduğ (22r13) – «quduq», tegirmān- (141r8) – «tegirmon»;

e) uy-roʻzgʻor buyumlari: beşik (18v11) – «beshik», qazan (95r1) – «qozon», idiš (8v17) – «idish», yastuq (128r21) – «yostiqliq», kiyiz (101v15) – «kigiz», közgu (80v8) – «oyna», otun (40v15) – «oʻtin», argamčī (101v15) – «arqon»;

f) turar-joy va u bilan bogʻliq narsalarni bildiruvchi soʻzlar: ešik (49v10) – «eshik», ew (18r3) – «uy», otağ (27r21) – «oʻtov, chodir», taxta (52v9) – «taxta», tam (35r4) – «tom», darvāza (37r13) – «darvoza».

VIII. Yegulik va ichimliklar: et (3r13) – «goʻsht», etmāk

(14v16) – «non», aš (49r21) – «ovqat», čağir (140r10) – «sharob», suw (12r19) – «suv», sut (34v13) – «sut», kōmāč (14r6) – «choʻgʻda pishirilgan non». un (16v8) – «un».

IX. Kasb-hunar nomlari: zindānčī (87r16) – «zindonbon», ašči (85r5) – «oshpaz», baliqčī (145r1) – «baliqchi», yığaččī (24r3) – «duradgor», etmākčī (178v19) – «novvoy», bōzčī (18v1) – «toʻquvchi», qoyčī (157v10) – «choʻpon».

X. Etnonimlar: arab (27r12) – «arab», juhud (67v1) – «yahudiy», suryāniy (17v18) – «suriyalik», moğul (80v15) – «moʻgʻul», tājik (230v3) – «tojik», türk (126r10) – «turk», qurayš (95r3) – qabila nomi.

XI. Tibbiyotga oid tushunchalar va nuqsonlarni ifodalaydigan terminlar: otačī (170v11) – «tabib», aqsaq (130v13) – «oqsoq», zahm (249r7) – «yara, jarohat», telb(w)ā (152v18) – «telba», vasvasa (11r13) – «vasvasa», baš (29r16) – «yara», ağin (130v14) – «saqov, gung», qarağu (10v3) – «koʻr, soʻqir».

XII. Musiqa asboblari va kuy bilan bogʻliq soʻzlar: daf (192v3) – «doira», kümruğ (234r11) – «nogʻora», tabl (141v14) – «nogʻora». sur (177r12) – «surnay», nafir (106v7) – «karnay», nay (221r15) – «nay», nāğāra (106v7) – «nogʻora», nāla (91r17) – «xonish», tanbur (177r7) – «tanbur».

XIII. Mavhum tushunchalar: yazuq (21v12) – «gunoh», gunāh (98v21) – «gunoh», hunar (192r2) – «hunar», tüş (11r2) – «tush», ābroy (82r18) – «obroʻ», ārzu (214v20) – «orzu», mehr (70r7) – «mehr», qahr (51v11) – «qahr», baxt (120v2) – «baxt», es (148r4) – «aql».

XIV. Ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni anglatuvchi istilohlar:

1) maʼmuriy-hududiy boʻlinishni ifodalovchi terminlar: mamlakat (94r20) – «mamlakat», vilāyat (60r12) – «viloyat», kent (28v8) – «shahar», el (40r1) – «el», mulk (43v21) – «davlat», bođun (29v2) – «xalq», millat (184r14) – «millat», el kün (63v3) – «xalq»;

2) maʼmuriy-siyosiy tartib tushunchasini bildiruvchi leksemalar: saray (28r3) – «saroy», keğāš (78r1) – «kengash», yarliğ (10v4) – «buyruq», farmān (52v16) – «farmon», hukm (129r4) – «hukm», muhr (236r9) – «muhr, tamgʻa», tamğa (53v20) – «tamgʻa», nišān (35v21) – «nishon»;

3) jinoyat va ularga chora ko'rish bilan bog'liq istilohlar: qazī (148r20) – «qozi», fitna (76r14) – «fitna», oğrī (61v16) – «o'g'ri», fāsīq (118r17) – «fosiq», fasād (5r19) – «fasod», qīm (22v12) – «jazo», qisās (127v20) – «o'ch», oĉ (203r8) – «o'ch», yargū (23v21) – «ajrim, qaror», yargūĉī (181v19) – «sudya»;

4) mansab-martabani bildiruvchi leksemalar:

a) davlat boshqaruvi tizimiga tegishli mansablar: malik (32r4) – «hukmdor», pādšāh (86v1) – «podshoh», šāh (120r19) – «shoh», sultān (45v15) – «sulton», xan (77v4) – «xon», hājib (45r21) – «eshik og'asi», inağ (76r1) – «maslahatchi», vāliy (65v17) – «hokim», vazir (58v1) – «vazir»;

b) diniy boshqaruv bilan bog'liq lavozimlar: imām (82v7) – «imom», šayx (11r1) – «shayx», xatib (143r9) – «xutba aytuvchi», imāmatliq (236v1) – «imomlik qilish», xalifa (9v19) – «xalifa», kāhin (38r1) – «sehrgar», nāib (245r17) – «o'rinbosar», muazzin (215 r10) – «azon aytuvchi».

5) mulk egalari va oddiy tabaqa vakillarini anglatuvchi so'zlar:

a) mulk egalari: bay (92v18) – «boy», mālīg (29v18) – «mulkdor»;

b) oddiy tabaqa vakillari: ĉīğay (128v21) – «kambag'al», mālīsiz (186r7) – «kambag'al», faqir (63v2) – «faqir», tilānĉi (111r2) – «tilanchi», tapuğĉi (106r3) – «xizmatkor», qarabaš (36v7) – «joriya», miskin (229r20) – «kambag'al», qırqın (77r13) – «cho'ri», kūn (226v7) – «joriya».

6) in'om-ehson tushunchasini ifodalovchi leksemalar: suyurğal (88v15) – «sovg'a», hadiya (27v21) – «hadya», atā (17v18) – «bag'ishlash», bōlāk (95v12) – «hadya», sadaqa (81r20) – «sadaqa», isār (110r9) – «in'om».

XV. Savdo-sotiq va pul munosabatlari bilan aloqador tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar:

a) savdo karvonlari va ular bilan bog'liq so'zlar: arqīs (48v18) – «karvon», karvān (74r12) – «karvon», qāfila (216v15) – «savdo karvoni», rabāt (179r13) – «karvonsaroy»;

b) savdo va moliya amaliyoti bilan aloqador tushunchalarni anglatuvchi terminlar: satīg (77r3) – «savdo», tijārat (186v13) –

«savdogarlik», asiğ (39r3) – «foйда», fāyda (9v1) – «foйда», ziyān (95r16) – «ziyon», bōrĉ (227v10) – «qarz», amānat (6v14) – «omonat», zarar (25r1) – «zarar»;

d) savdo idoralari va o'rinlari hamda ular bilan bog'liq leksemalar:

tawar (110r3) – «tovar», māl (41v18) – «mol.tovar», bāzār (49r7) – «bozor», bahā (77r3) – «baho», narx (189v12) – «narx», ağir (40v21) – «qimmat», anbār (42v10) – «ombor», dukān (171v9) – «do'kon», uĉuz (49v3) – «arzon»;

e) savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslarni bildiruvchi istilohlar: satīgĉi (78r9) – «sotuvchi», bāzīrgān (161r20) – «savdogar», šerik (72v18) – «hamkor», alğūĉi (75r7) – «xaridor», dallāl (10r9) – «dallol»;

f) pul birliklari va to'lov turlarini ifodalovchi leksemalar: yarmaq (73r11) – «pul», baqir (41r9) – «mis», diram (128r18) – «kumush tanga», altun (7r9) – «oltin», kūmūš (63r14) – «kumush», ağrī (52v14) – «dirham, aqcha».

XVI. Diplomatiyaga oid leksika: elĉi – «elchi» (87v15); qāsīd – «chopar, xabarchi» (192v16); munādi – «jarchi, udaychi» (75r11); sulh – «sulh» (226v1); xabar – «xabar» (27r2).

XVII. Soliq va boj tushunchalarini anglatuvchi so'zlar: xarāj (46v19) – «xiroj», zakāt (83r17) – «zakot», ūlūš (10v1) – «ulush», nasib (138 r13) – «ulush», ušr (45r12) – «o'ndan bir».

XVIII. Harbiy leksika:

a) harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi shaxs tushunchasini bildiruvchi terminlar: bek (185r18) – «bek», amiral mu'minin (241r7) – «musulmonlar amiri», qarawul (240r5) – «qarovul», qapuğĉi (158v20) – «darvozabon», qulawuz – «yo'l boshlovchi»), bašĉi – «boshliq» (53v16), saqlağūĉi (24v9) – «soqchi»;

b) qo'shin turlari, harbiy qism, bo'linmalar va qurolli to'qnashuv bilan bog'liq tushunchalarni bildiruvchi so'zlar: ĉerik (28v11) – «qo'shin», laškar (108v7) – «qo'shin», atliğ (112v5) – «suvoriy», yayağ (114v2) – «piyoda», yaği (32r20) – «dushman», dušman (67v9) – «g'anim», muxālif (218v4) – «g'anim»;

d) qurol-yarog' tushunchasini anglatuvchi leksemalar: yarağ// yaraq (78r1; 123v9) – «qurol», qalqan (62v19) – «qalqon», qiliĉ

(94r3) – «qilich», xanjar (239v6) – «xanjar», süñü (30v5) – «nayza», oq (44r4) – «o'q», toqmaq (12r21) – «to'qmoq». yariq (66v12) – «sovut»;

e) harbiy inshootlar nomini ifodalovchi so'zlar: qorğan (134r21) – «qo'rg'on», qal'a (134v3) – «qal'a», küñürä (184r4) – «qubba», sarh (113v14) – «qasr», busuğ (140r5) – «pistirma».

XIX. Kitobchilik terminlari:

1) qo'lyozma turlarini ifodalovchi leksemalar: kitāb (53r20) – «kitob», kitābat (2v14) – «ko'chirib yozish», bitig (63v1) – «yozuv», Тафсир (9v10) – «sharh», nāma (63v5) – «maktub», daftar (196v21) – «daftar», xat (19r15) – «maktub»;

2) yozuv ashyolarini bildiruvchi terminlar: qağaz (53r14) – «qog'oz», qalam (19r14) – «qalam», xāma (249v2) – «qalam», davāt (99r8) – yozish uchun siyoh solinadigan idish;

3) kitobchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslar nomi va ularning faoliyatiga doir so'zlar: bitig'ci (78v20) – «kotib», lavha (119r17) – yozuv taxtasi, naqqās (138r13) – «naqqosh».

XX. Geografik obyekt tushunchasini ifodalovchi leksemalar:

a) qutblarni ifodalovchi so'zlar: sol (49v6) – «chap», oq (10v8) – «o'ng», mağrib (4 6v6) – «g'arb», mašriq (37r9) – «sharq», janub (156r4) – «janub», šimāl (179v7) – «shimol», kün batar (140r21) – «g'arb», kün tuğar (249v15) – «sharq»;

b) iqlim tushunchasini bilan bog'liq leksemalar: iqlim (181r16) – «iqlim», zamharir (68r18) – qahraton qish;

d) tog', tepalik, tekislik va qir-adirlarni bildiruvchi terminlar: tağ

(6r16) – «tog'», ağıš (225v8) – «tepalik, balandlik», iniš (225v8) – «pastlik,

chuqurlik», üñür (33r1) – «g'adir-budir joy», otlaq (47r8) – «o'tloq», dara (42r7) – «jarlik», tüz (62v4) – «tekislik», ğār (178r5) – «g'or».

e) suv bilan aloqador obyekt nomlari: quduğ//quyuğ (35r9) – «quduq», ariq (48v16) – «ariq», čašma (129v1) – «buloq», köl (131v5) – «ko'l».

XXI. Toponimlar:

1) makrotoponimlar:

a) mamlakat nomlari: Xitay (68v2), Hindustān (13r1), Šām (27r11), Yaman (17r12), Falastin (36w3);

b) viloyat nomlari: Ma'rab (146v16) – «Sabodagi viloyatlardan biri», Bārs (146v12) – «viloyat nomi»;

d) shahar nomlari: Basra (13r2) – Iroqdagi shahar, Balx (18v2) – Xuro- sondagi shahar, Antākiya (130v4) – Suriyaning shimolidagi shahar, Kufa (241v7) – Iroqdagi shahar, Sabā (146v15) – Janubiy Arabistondagi shahar, Bayt ul-Muqaddas (206v16) – Falastindagi shahar;

2) mikrotoponimlar:

a) oronimlar: Arafāt (14r17) – Makkadagi tog', Jidda (13r2) – Saudiya Arabistondagi tog', Tur (120v15) – Falastindagi tog', Uhud (71r19) – Madinadagi tog';

b) gidronimlar: Kavsar (133v21) – jannatdagi hovuz, Aruma (201v1) – quduq nomi, Nil (114v19) – Misrdagi daryo, Tar-Bahriyya (175r11) – dengiz nomi, Zamzam (48v14) – jannatdagi quduq nomi;

d) dromonimlar: Dahnā (6r5) – Arabistondagi cho'l, Tix (118r21) – cho'l nomi, Hudaybiyya (225v8) – vodiy nomi, Karbalā (245v19) – Iroqdagi dasht nomi, Haybar (226v12) – voha nomi;

e) masjid nomlari: Masjudul-Harām (7r11) – Makkadagi Ka'ba ibodatxonasi, Masjidi Muazzam (189v3) – Ka'bai sharif, Masjidi Aqsā (209v16) – Quddus shahridagi masjid.

XXII. Fitonimlar:

1) poliz ekinlari: noxud (13v18) – «no'xat», qağun (85r20) – «qovun», xarpuz (12v18) – «tarvuz», soğan (119r5) – «piyoz».

2) donli ekinlar nomi: buğday (9v21) – «bug'doy», tariq (50r15) – «tariq, don», arpa (13v20) – «arpa», boğuz (49r20) – «don».

3) daraxtlar: terāk (23v19) – «terak», tut (120r20) – «tut», tal (68v1) – «tol»;

4) ho'l mevalar: alma (12v17) – «olma», armud (12v17) – «nok», aywa (71r7) – «behi», xurmā (36v19) – «xurmo», üzüm (20r12) – «uzum»;

5) o'simliklar nomi: čečāk (67r10) – «gul», qamiš (27r21) –

«qamich», ot (43v4) – «o't», tikān (16v7) – «tikon», yulg'un (16v7) – «yulg'un», yasmuq (13v18) – «dukkakli o'simlik», nabāt (23v14) – «o'simlik».

XXIII. Zoonimlar:

a) yirtqich hayvonlar nomi: arslan (25r3) – «sher», bars (142r8) – «bars», bōri (25r4) – «bo'ri», qaplan (142r8) – «qoplōn», šağal (142r8) – «chiyabo'ri»;

b) uy hayvonlari: at (32r8) – «ot», boğra (181v3) – «erkak tuya», qoy (13v13) – «qo'y», qīsraq (148r19) – «urg'ochi ot», sağliq (13v10) – «sovliq», uδ// uy (51r11) – «sigir»;

d) kemiruvchilar: sičgan (25v3) – «sichqon», täyinj (18r14) – «olmaxon», ās (68v4) – «suvsar», tawušqan (146v20) – «quyon»;

e) qushlar nomi: bulbul (68v5) – «bulbul», čipčuq (130r13) – «chumchuq», qarğa (16r8) – «qarg'a», qarluğaç (13v10) – «qaldirg'och», qaz (68v4) – «g'oz», kabutar (220r19) – «kaptar», qirğawul (14v17) – «qirg'ovul»;

f) hasharotlar: arī (3v11) – «asalari», qarīnča (117r12) – «chumoli», qumursqa (10r17) – «qumursqa», siñāk (25v14) – «pashsha», čibin (44v4) – «chibin», kālābāk (77r9) – «kapalak», ktyā (114r10) – «kuya», čekürgā (114r9) – «chigirtka»;

g) sudraluvchilar va o'rgimchaksimonlar: yīlan (14r10) – «ilon», kālāz (41r6) – «kaltakesak», örumčāk (220v1) – «o'rgimchak», čīōan (25r2) – «chayon»;

h) suv hayvonlari: baliq (12v13) – «baliq», qunduz (68v4) – «suv iti», baqa (26r4) – «baqa».

XXIV. Teonimlar:

1) «farishta» tushunchasi bilan aloqador leksemalar: malak (70v12) – «farishta», farišta (15r15) – «farishta», farištalik (22v3) – «farishtalik», malāik (181r17) – «farishtalar», malakut (123r15) – «farishtalar olami»;

2) «payg'ambar» tushunchasini anglatuvchi so'zlar: yalawač (47v18) – «payg'ambar», sawčī (61v6) – «payg'ambar», payğambar (15r3) – «elchi», mursal (64v11) – «payg'ambar», nabiyy (158r15) – «elchi», rasul (49v2) – «payg'ambar», nubuvvat (31v14) – «payg'ambarlik», yalawačliq (202v3) – «payg'ambarlik»;

3) farz amallari: namāz (82r21) – «namoz», roza (20r7) – «ro'za», zakāt (189v4) – «zakot», haj (53v10) – «haj», tahārat (96v18) – «tahorat»;

4) namoz va u bilan bog'liq so'zlar: tağ namāzi (217v5) – «bomdod nomozi», ekindü namāzi (140r21) – «peshin namozi», namāz-i digar (110v8) – «asr namozi», ulan namāzi (140r18) – «shom namozi», yatsiq namāzi (244r19) – «hufton namozi», sajda (9r1) – namozda bir bor egilish;

5) ibodat va sig'inuvchilar: tapuğ (38v1) – «ibodat», tāat (10r5) – itoat qilish, ibādat (34r15) – «topinish», ābid (8v20) – ibodat qiluvchi, qul (42r3) – itoatkor, banda (102v20) – «qul», mu'min (7v3) – e'tiqod qiluvchi;

6) jannat, do'zax hamda ular bilan aloqador tushunchalarni bildiruvchi leksemalar: ucmah (5v8) – «jannat», bihišt (3v4) – «jannat», tamuğ (10v5) – «do'zax», dozax (3v4) – «do'zax», hur (27v14) – «jannat qizlari», ġilmān (202r11) – «jannatdagi erkak qullar», ruh (173r10) – «ruh»;

7) Qur'oni Karim suralari: sura (66r5) – «Qur'onning bobi», suratul-asr (66r18) – «Asr surasi», suratul-baqara (66r14) – «Baqara surasi», suratul-anfāl (66r17) – «Anfol surasi», suratul-ixlās (66r19) – «Ixlos surasi», suratul-an'ām (66r16) – «An'om surasi»;

8) «taqdir» va «qiyomat» tushunchalarini anglatuvchi teonimlar: taqdir (5v21) – «peshonadan ko'rish», qazā (88v20) – «biror voqeaning yuzaga kelishi», uqbā (10v18) – «oxirat», āxirat (53r4) – «narigi dunyo», qiyāmat (9v4) – «qayta tirilish kuni», āxiraz-zamān (50v18) – «dunyoning tugashi»;

9) Payg'ambar ko'rsatmalari, amallari va yaqinlarini ifodalovchi terminlar: hadis (82r19) – «Payg'ambar (a.s.)ning so'zlari, aytganlari», sunnat (19v3) – «Payg'ambar (a.s.) tutgan yo'l», sayyid (187r8) – «Payg'ambar avlodlari», sahāba (181v13) – «Payg'ambar (a.s.)ning safdoshi», ansāriyy (225v4) – «islomni qabul qilgan madinalik»;

10) islomda qaytarilgan amallar hamda adashgan shaxs tushunchasini anglatuvchi leksemalar: harām (51r15) – «shariatda taqiqlangan narsa», bid'at (22v15) – «dinga keyinchalik qo'shilgan odat», e'tiqādsiz (114r19) – «imonsiz», šaytān (9v17) – «iblis», mušrik (173r12) – «sherik qiluvchi», gabr (203v1) – «otashparast».

XXV. Astroponimlar:

a) sayyoralar nomi: Yer (10v3) – «yer», Kōk (6r1) – «Osmon», Oņay (66v11) – «Mushtariy», Kōrūd (66v7) – «Mars», Yalčiq (66v7) – «Oy», Sākāndiz (66v7) – «Saturn», Arzu (66v7) – «Utorud yulduzi», Nāhid (21v15) – «Zuhra yulduzi», Yašiq (66v7) – «Quyosh», Sewit (66v7) – «Zuhra yulduzi»;

b) yulduzlar nomi: kavkab (106v8) – «yulduz», nujum (39v8) – «yulduzlar», vassab (67v4) – Yusuf paygʻambarga tushida sajda qilgan oʻn bir yulduzdan biri, riāl (67v4) – Yusuf paygʻambarga sajda qilgan yulduzdan biri, musabbah (66v4) – Yusuf paygʻambarga sajda qilgan oʻn bir yulduzdan biri;

d) burjlar nomi: ūkāk (66v8) – «burj», Čiđan (66v5) – «Aqrab burji», Qozī (66v9) – «Hamal burji», Buğdaybašī (66v4) – «Sunbula burji», Kūr arslan (66v4) – «Asad burji», Yay (66v5) – «Qavs burji», Erāndānd (66v4) – «Javzo burji», Uy (66v4) – «Savr burji», Baliq (66v5) – «Hut burji».

XXVI. Etnografiyaga doir tushunchalar: toy (109v1) – «toʻy», rasm (92r2) – «rasm», törā (37v14) – «odat», ādat (29v13) – «odat», Navroz (112r20) – «navroʻz», iyd (171v19) – «bayram», qāida (226r4) – «qoida», urf (75v2) – «rasm, taomil».

XXVII. Tabiiy boyliklar, maʼdanlarning nomi: taš (15v19) – «tosh», qurğāsun (124r8) – «qoʻrgʻoshin», kōmūr (175v11) – «koʻmir», nāft (41r14) – «neft», temūr (24r15) – «temir», tūč (124r8) – «bronz», ruxām (62v7) – «marmar tosh».

XXVIII. Qimmatbaho toshlar: gavhar (249v10) – qimmatbaho tosh, zumurud (32r11) – «zumrad», javāhir (140v20) – qimmatbaho gavharlar, yaqut (106v8) – «yoqut», aqiq (50v8) – qizil rangli qimmatbaho tosh.

XXIX. Tabiiy hodisalarning nomi: bulut (31r19) – «bulut», qar (68v2) – «qor», yağmur (22v11) – «yomgʻir», yašin (19v14) – «yashin», yaz (42r21) – «bahor», yay (18r4) – «yoz», küz (249v1) – «kuz», qīš (68r18) – «qish», yel (14r13) – «shamol».

XXX. Vaqt, zamon tushunchalarini ifodalovchi soʻzlar: ay (22v14) – «oy», yil (4v9) – «yil», kün (7r7) – «kun», dušanba (33r18) – «dushanba», sešanba (152v9) – «seshanba», čahārsanba (31r3) –

«chorshanba», kečā (21v2) – «kecha», kündüz (21v1) – «kunduz», oğur (11r13) – «zamon, vaqt», tün (11v11) – «tun», bahman (68 r18) – shams yili hisobidagi oylarning oʻn birinchisi.

XXXI. Taʼlim va tarbiya bilan aloqador soʻzlar: taʼlim (23v21) – «taʼlim», tarbiyyat (185v16) – «tarbiya», maktab (82v16) – «maktab», ustād (4v7) – «ustoz», sāgird (19r1) – «shogird», adab (233r5) – «tarbiya».

XXXII. Adabiyotshunoslik terminlari: ğazal (83r14) – «gʻazal», šeʼr (16v10) – «sheʼr», vazn (222v5) – «vazn», bayt (50v10) – «ikki misra», qissa (15r21) – «qissa», hikāyat (18v16) – «hikoya».

XXXIII. Xususiyat va belgini bildiruvchi leksemalar:

a) ijobiy xususiyat anglatuvchi soʻzlar: kōni (8v11) – «toʻgʻri», eđgü (14v10) – «yaxshi», yaxšī (43v6) – «yaxshi», tinč (68v10) – «tinch», āsān (112r8) – «qulay», rafiʼ (2r6) – «yuksak, buyuk», tülāk (81v6) – «kamtar»;

b) xulq-atvor, holat bilan aloqador istilohlar: alpağut (132r11) – «botir, jasur», juvānmard (18r20) – «oliyanob», ziyrak (176v11) – «aqli, hushyor», bağīrsağ (37v19) – «jonkuyar», mardān (200r7) – «mardlar»; muğluğ (61v11) – «qaygʻuli», ğāfil (249r3) – «gʻafilda qolgan, bexabar»;

d) uslubiy jihatdan boʻyoqdor soʻzlar: kōrklüg (72r3) – «goʻzal», sewüglüg (53r2) – «suyukli», jānān (205v20) – «sevgili, maʼshuqa», nāzuk (74r8) – «yoqimli, nazokatli», nigār (223r21) – «goʻzal mahbuba»;

e) salbiy xususiyatni ifodalovchi leksemalar: yawuz (18r13) – «yomon», yałğan (68v10) – «yołgʻon», essiz (6r4) – «yovuz», navkisa (164v2) – «nokas», ādiy (30v9) – «yomon kishi», kāhil (212v2) – «dangasa»;

f) taʼm xususiyatini ifodalovchi soʻzlar: ačig (6r4) – «achchiq», süčük (75r18) – «chuchuk», tatlığ (25v9) – «totli», tat (25v19) – «maza, taʼm», malih (23r6) – «shirin»;

g) hid xususiyatini bildiruvchi terminlar: is (120v1) – «hid», sasiğ (27r6) – «sassiq», anbar (12v14) – «xushboʻy», yiđiğ (14r12) – «yomon hid»;

h) rang-tusni anglatuvchi leksemalar: al (182r1) – «qizil», qula

(148r20) – «za'faron», kök (80v9) – «ko'k», sariğ (31v1) – «sariq», ürtüj (6r3) – «oq», yašil (6r1) – yashil;

i) haroratni ifodalovchi soʻzlar: išig (69v8) – «issiq», sawuq (198v18) – «sovuq», zamharir (68r18) – «sovuq»;

j) tezlikni anglatuvchi leksemalar: yorğa (181v7) – «yo'rg'a», aqru (226v2) – «sekin», bat (70v2) – «tez», tärk (20v8) – «tez», darhāl (46v10) – «darrov», tez (20v11) – «tez»;

k) hajm. o'lhov, jamlikni bildiruvchi soʻzlar: kiçik (18r21) – «kichik», ediz (5r21) – «ulug'», andāza (52v10) – «qolip, namuna», keñ (62v4) – «keng» tar (43r10) – «tor» yarim (9r13) – «yarim», yuwqa (73r6) – «yupqa», bütün (72r2) – «butun»;

l) masofani ifodalovchi soʻzlar: yaqin (71v3) – «yaqin», yawuq (9v3) – «yaqin», uzaq (77r11) – «uzoq», yıraq (50v10) – «uzoq», uzun (9v5) – «uzun», qışqa (65v20) – «qisqa», ıraq (12r18) – «yiroq»;

m) yorug'lik, ravshanlik xususiyatini bildiruvchi soʻzlar: yaruq (5v1) – «yorug'», aydin (71v9) – «oydin», rušan (144v20) – «ravshan, yorug'»;

n) muayyan holatni anglatuvchi leksemalar: yünül (14r18) – «engil», ağır (40v21) – «og'ir», yalgiz (9r8) – «yolg'iz», aruq (47r19) – «oriq», semüz (89v2) – «semiz», quruğ (30v15) – «quruq», höl (198v21) – «ho'l», yašurun (96r21) – «yashirin».

XXXIV. Raqamlar, miqdor va o'lhovni bildiruvchi soʻzlar:
toquz (29r9) – «to'qqiz», toqsan (47v19) – «to'qson». yeti yuz (62r8) – «etti yuz», tümän (181v20) – «o'n ming», awuč (114v11) – «hovuch», aršun (62v13) – o'lhov birligi, üç ülüşdin biri (19v2) – «uchdan biri», bir-ikki (196v2), birär-birär (217v12) – «biror-biror», ikägü (13v10) – «ikkovlon», onunç (73v1) – «o'ninchi».

XXXV. Harakat va faoliyat bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi leksemalar:

a) obyektiv-neytral harakat nomlari: art- (22v10) – «artmoq», ber- (4v20) – «bermoq», bil- (5r8) – «bilmoq», bar- (8r19) – «bormoq», bas- (36r4) – «bosmoq», qol- (42v4) – «iltijo qilmoq», sal- (80r12) – «salmoq», ez- (192r5) – «ezmoq», izlä- (3r3) – «izlamoq», işlä- (18r4) – «ishlamoq»;

b) ijobiy harakat nomlarini bildiruvchi soʻzlar: bezä- (7r12) –

«bezamoq», kül- (51v7) – «kulmoq», sew- (189r2) – «sevmoq», xušlan- (120v16) – «xursand bo'lmoq», keñäš- (42v15) – «maslahatlashmoq», quč- (74r6) – «quchoqlamoq», öp- (69r8) – «o'pmoq», küwän- (211r16) – «quvonmoq»;

d) salbiy harakatni anglatuvchi leksemalar: alda- (126r5) – «aldamoq», buz- (63v3) – «buzmoq», sol- (80r150) – «so'lmoq», qarğa- (16r8) – «qarg'amoq», sök- (23v8) – «so'kmoq», yamanla- (90v16) – «yomonlamoq», bulğa- (39r2) – «bulg'amoq», yer- (150r9) – «ayblamoq», yalğa- (68v10) – «yolg'on gapirmoq»;

e) ruhiy holat va jarayonlar nomi: inra- (69v5) – «ingramoq», yigla- (160r7) – «yig'lamoq», qorq- (15v21) – «qo'rqmoq», awun- (91r15) – «ovunmoq», uwtan- (83r2) – «uyalmoq», açiglan- (83v13) – «jahli chiqmoq», bušuq- (63v8) – «asabiylashmoq».

«Qisasi Rabg'uziy» asari leksikasini mavzuiy guruhlar bo'yicha tahlil qilish til lug'at tarkibini tizimli o'rganishning qulay usullaridan hisoblanib, qissada qo'llanilgan leksik birliklarning qaysi sohaga tegishli ekanligini, kelib chiqishini, o'z qatlamga doir so'zlarning o'zlashmalar bilan o'zaro munosabatini hamda ularning qo'llanish doirasini aniqlashga, tilning tarixiy va zamonaviy holatini baholashga, qolaversa, xalq tarixini atroflicha yoritishga ko'maklashadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Til lug'at tarkibining boyib borishi jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti bilan qay darajada bog'liq?

2. Muqaddas qadriyatlarimizdan biri bo'lmish ona tilimizning o'z qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'lishining ahamiyati nimada ko'rinadi?

3. Yozma manbalar tilini tadqiq etish leksikologiyaning nazariy qoidalarini asoslashda qanday o'rin tutadi?

4. Asar tilidagi leksemalarni mavzuiy jihatdan guruhlashtirishning afzalligi xususida so'z yuriting.

5. So'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratish leksemalarni leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganish usulidan qanday farq qiladi?

6. «Qisasi Rabg'uziy» obidasida qo'llanilgan leksik birliklarning asosiy mavzuiy guruhleri haqida fikr bildiring va misollar keltiring.

O'Z QATLAM

Tayanch so'zlar: lug'at tarkibi, qardosh tillar, ichki manbalar, lug'aviy birliklar, dialektik so'zlar, tarixiy-etimologik, genealogik xususiyatlar, o'z qatlam, tub so'zlar, til va tafakkur, tarixiy kategoriya, arxaizmlar, affiksliya usuli, qo'shimcha, qarluq, sak, tashqi omillar, so'z yasalishi.

Til lug'at tarkibini tarixiy-etimologik jihatdan, ya'ni so'zlarni genetik manbalariga ko'ra tadqiq etish o'zbek tilining qardosh va qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqasini, mazkur tilda qaysi tillarning ta'siri mavjudligini aniqlashga ko'maklashadi. Pirovard-natijada, bunday izlanishlar o'zbek tili so'z boyligi, grammatik qurilishining tarixiy yo'llarini anglashda nihoyatda muhimdir⁶⁹. Binobarin, tilning leksik tarkibini genealogik manbalariga muvofiq guruhlash, ilmiy jihatdan tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Tildagi leksik (o'z va o'zlashma) qatlamlarni lingvistik tadqiq etish leksik-semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda juda muhimdir. Zotan, leksika tarix, madaniyat, fan va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so'z ma'nolarining o'zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul⁷⁰.

Har bir tilning shakllanish va taraqqiyot bosqichlarida o'z qatlam ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan so'zlardan tashkil topadi. Tilshunoslikda leksikaning ichki imkoniyatlar yordamida rivojlanishida quyidagi hodisalar asosiy omil sanaladi: 1) ichki manbalar orqali so'z yasash yo'li bilan leksikaning boyishi; 2) eskirgan, tarixiy va umuman eski obidalarda bo'lgan lug'aviy birliklar asosida leksikaning boyishi; 3) adabiy til leksikasining dialektik so'zlar hisobiga boyishi⁷¹.

O'z qatlam deganda aslan shu tilniki bo'lgan leksemalar va

⁶⁹ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: ФАН, 1985. –Б. 54.

⁷⁰ Уфимцева А. Опыт изучения лексики как системы. –М.: Изд-во АН СССР, 1962. –С. 17.

⁷¹ Ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч жилдлик. –Т.: ФАН, 1991. –Б. 128.

shular asosidagi yasalishlar, shuningdek, o'z affiks bilan boshqa til so'zlaridan hosil qilingan leksemalar tushuniladi⁷². Shu nuqtayi nazardan, «Qisasi Rabg'uziy»da qo'llanilgan o'z qatlamga doir so'zlarni quyidagicha guruhlash mumkin: a) tub turkiy so'zlar; b) tub turkiy so'zlardan yasalgan yangi leksemalar; d) o'zlashmalardan turkiy qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan yuzaga kelgan so'zlar.

Yodnoma tilida jami 2950 ta turkiy leksema qo'llanilgan bo'lib, shundan 2795 tasini sof turkiy, 108 tasini arabcha, 47 tasini Forschatojikcha o'zlashmalardan turkiy affikslar qo'shish orqali yasalgan so'zlar tashkil etadi.

Tub turkiy so'zlar. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi va bu til uchun turkiy tillarning negiz leksikasi qadimiy asos hisoblanadi. Shu sababli ham o'zbek tili so'z boyligining qadimiy o'z negizi aslida turkiy tillarning o'ziniki bo'lgan tub turkiy so'zlardan iborat. Ko'rinadiki, tub so'zni belgilovchi asosiy mezon, birinchidan, bu so'zning genetik jihatdan o'sha tilniki ekanligi, ikkinchidan, uning qadimiy davrlarga oidligidir⁷³.

Ma'lumki, obida tilida iste'molda bo'lgan tub turkiy so'zlarning tarixi ko'hna yozma manbalarga borib taqaladi. Zero, mazkur yodnomalar umumxalq tilining muhim xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, xalqning qadimgi madaniyatini aks ettirgan. Ular orqali xalqimiz tarixi va tilimiz taraqqiyotiga oid ko'pgina qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz⁷⁴. Shu nuqtayi nazardan, qissa so'z boyligini qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning dastlabki yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklar bilan qiyosiy o'rganish asardagi arxaik so'zlar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga ko'maklashadi.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo'lib turadi. Bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va

⁷² Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б. 173.

⁷³ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: ФАН, 1985. –Б. 135.

⁷⁴ Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. –Т.: Ўзбекистон, 1994. –Б. 115.

ong, til va tafakkur o'rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta'sirini belgilaydi – jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma'rifiy sohalaridagi islohotlar tilning lug'at boyligida yangi-yangi so'z va terminlarning vujudga kelishini, ayni paytda, ma'lum leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi⁷⁵.

So'z turmushdagi yangiliklarni, kishilar faoliyatini, voqea-hodisalarni ifodalovchi vositadir. Tilda hayot uchun zarur turli yangi so'zlar paydo bo'la borganidek, turmush uchun keraksiz so'zlar iste'moldan chiqib ketadi. Eskirganligi, yaroqsizligi tufayli iste'moldan chiqqan so'z va iboralar lingvistikada arxaizm deb ataladi⁷⁶.

Leksema ifodalagan tushunchani anglatuvchi boshqa so'zning shakllanishi natijasida (u ichki imkoniyat asosida yasalgan yoki olinma leksema bo'lishi mumkin) uning iste'mol doirasi toraya boradi. Bir qator semalari bilan faol qo'llangan so'zlar semantikasida torayish kuzatiladi. Keng qo'llanilmagan leksemalar iste'moldan chiqadi, arxaizmga aylanadi. Bu jarayon tilning ichki qonuniyati asosida yuz beradi⁷⁷. Arxaik bo'lmagan so'zning eskirgan ma'nolari turli sabablar ta'sirida yuzaga keladi. Ulardan ba'zilar yaqqol ko'zga tashlanib tursa, ayrimlari tilning murakkab tizimida yashirin holda bo'ladi⁷⁸.

«Qisasi Rabg'uziy» tilida qo'llanishda bo'lgan eskirgan so'zlar, ya'ni arxaizmlarni leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra quyidagi mavzuiy guruhlariga ajratish mumkin:

a) inson tana a'zolari nomlari: adaq (36r2) – «oyoq», aya (118r5) – «kaft», alin (77r5) – «peshona», awuĉ (126r4) – «hovuch», menjiz (50v9) – «yuz», boz (34r9) – «bo'y»;

⁷⁵ Жамолхонов Х. Хозирги ўзбек адабий тили. 2-кисм. –Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2004. –Б. 67.

⁷⁶ Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан кискача очерк. –Т.: Фан, 1959. –Б. 180.

⁷⁷ Дадабоев Х., Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т.: Фан, 2008. –Б. 116.

⁷⁸ Будагов Р. Введение в науку о языке. –М.: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1958. –С. 91.

b) shaxs tushunchasini ifodalovchi so'zlar: eš (91v14) – «o'rtoq», yaġi (32r20) – «dushman»;

d) inson qo'li bilan yaratilgan narsa-predmetlarni anglatuvchi leksik birliklar: adaq (249r12) – «qadah», aġ (144v14) – «to'r», ew (143v9) – «uy»;

e) mavhum tushunchalar bildiruvchi leksemalar: oġ (79r20) – «aql», al (77r10) – «hiyla», idi (218r15) – «sohib, ega; Xudo». bulun (46v7) – «tutqun, asir»;

f) zoonimlar: ĉiĉan (4r10) – «chayon», iwuq (157v6) – «kiyik», keĉik (54v2) – «yovvoyi hayvon», qoĉ (52r1) – «qo'chqor», siĉan (13r13) – «sichqon», yaġan (89v1) – «fil», qaz (68v4) – «g'oz», siġak (26r1) – «pashsha»;

g) xalqning ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan aloqador tushunchalarni anglatuvchi leksemalar: bek (62v5) – «bek, amir»», ĉiġay (128r18) – «kambag'al», qonuq/qonaq (88r1) – «mehmon, musofir», tōrā (37v14) – «odat», künj (158v9) – «joriya»;

h) savdo va pul munosabatlarini ifodalovchi so'zlar: arġiš (48v18) – «karvon», baġir (41r9) – «mis», asig (74r1) – «foйда», tawar (115v3) – «tovar, mol», uĉuz (49v3) – «arzon»;

i) xususiyat va belgini bildiruvchi leksemalar: ediz (4r8) – «ulug', buyuk», ezgū (6r4) – «yaxshi», yawuq (164v21) – «yaqin»;

j) harakat va faoliyatning xususiyati bilan bog'liq so'zlar: ay- (4v9) – «aytmoq», anut- (44v2) – «tayyorlamoq», aĉir- (46r10) – «ayirmoq», aġ- (53r7) – «oshmoq, chiqmoq», emġā- (56v15) – «zahmat chekmoq», qar- (182r1) – «aralashtirmoq», kiĉ- (36v4) – «kiymoq», iĉ- (5v16) – «jo'natmoq», uwtan- (21r19) – «uyalmoq», uĉi- (32v16) – «uxlamoq», yan- (58v20) – «qaytmoq».

Yodnomada qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning ilk manbalarida qo'llanilgan leksemalarni kuzatish mumkinki. ular o'zining asl ma'nosini saqlab qolgan: qol- (42v4) – «so'ramoq, iltimos qilmoq», yaġi (32r20) – «dushman», tašra (156v11) – «tashqariga», tegrū (37v13) – «qadar», telim (4r21) – «ko'p», qamuġ (5r11) – «hamma», eš (91v14) – «o'rtoq» va hokazo. Shuningdek, ayrim eskirgan so'zlar fonetik o'zgarishlarga uchragan holda ishlatilgan: adaq (ДТС,8)-adaq (36r2) – «oyoq», aĉin (ДТС,18)-aĉin (10v14) –

«boshqa», bodun (ДТС,108)-bođun (20r8) – «xalq», idi (ДТС,203)-iđi (218r15) – «xudo», ud (ДТС,605)-uđ (51r11) – «sigir», yapirġaq (ДТС,236)-yapurġaq (12r13) – «yaproq». Ayni paytda, qissada qayd etilgan ba'zi arxaizmlarda semantik o'zgarishlar, jumladan, ma'no torayishi va ma'no kengayishi hodisalari ro'y bergan. Xususan, qadimgi turkiy tilda iste'molda bo'lgan bir qator leksemalarning semantik tuzilishida ma'no torayishi ko'zga tashlanadi. **Ariġ** so'zi qadimgi turkiy tilda «toza», «olijanob», «haqiqiy» ma'nolarini ifodalagan bo'lsa (ДТС,51-52), asarda «toza», «pok, gunohsiz» semalarini anglatgan: *Aydi: bu nāvdāndin aqa turġan suw ariġ-mu ya ariġsiz-mu erkān?* (100r20); *Yusuf aydi: men ariġ-men, yazuqim yoq* (84r9). Ushbu leksema «tozalanmoq, toza bo'lmoq» ma'nosini bildirgan **ari-** (ДТС,51) fe'li bilan **-ġ** qo'shimchasidan yasalgan. **Baqir** leksemasi «mis», «og'irlik o'lchovi», «mis pul» (ДТС,82) ma'nolarida qo'llanilgan. O'rganilayotgan manba tilida esa «mis» semasini bildirgan: *Namrud bir mināra qopardi temürdin baqirdin* (42r9).

Qadimgi turkiy tilda «uy, turarjoy», «oila» (ДТС,162) ma'nolarida istifoda etilgan **ew** so'zi «Qisasi Rabġuziy» da «uy» semasini ifodalash uchun xizmat qilgan: *Ewi icindā kōlkādā olturub iślāgil tedi* (18r3). **Törü** leksemasi Turfon matnlari va «Oltun yoruq» yodgorligida «urf-odat», «tartib-qoida», «to'y bazmi» ma'nolarida kelgan (ДТС,581). Qissa tilida esa **törä** shaklida «urf-odat», «qonun-qoida» semalarini bildirgan: *Bu qonuq tutmaq töräsini xalqqa qođġan İbrāhim* (37v14); *Aydi: elcini öldürmāk pādsāhlar töräsi ermäs* (230r20).

Izlanishlarimiz natijasida obida lug'at boyligidagi ayrim leksik birliklarda ma'no kengayishi yuz berganligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, **idi** so'zi Kul tegin yodgorligida «ega, sohib» ma'nosini anglatgan bo'lsa (ДТС,203), tekshirilayotgan yodnomada **iđi** tarzida «ega», «xudo» semalarida qayd etilgan: *Qamuġ uqalā iđiläri allinda muqarrar va ma'lum turur...* (218r15); *Jabrāul iđi yarliġi birlä yelġa erklik bolġan farištāġa aydi...* (30v4). Turfon matnlarida «mashaqqat chekmoq» (ДТС,172) ma'nosini ifodalagan **emġān-** fe'li qissa tilida «mehnat qilmoq», «mashaqqat chekmoq» semalarida qo'llanilgan:

Biz yābānda qiš, yay emġānürmi, biz yimā bözcilik öġrānāliġ tedilär (18r5); *Musā aydi: emġāndük, acđuq azuqni keltür yegäli* (129v6).

Bul- leksemasi qadimgi turkiy tilda «qidirmoq», «yetishmoq» (ДТС,121) ma'nolarida ishlatilgan. Mazkur fe'li o'rganilayotgan obida so'z boyligida esa «qidirmoq», «qo'lga kiritmoq», «berkitmoq, yopmoq» semalarida ko'zga tashlanadi: *Qarluġacni iđdi, qarluġac keldi siġäkni buldi* (25v16); *...Andin asinraq ne'matlarni bulmas erkān üstünrāk ne'matni bulmaq muhāl turur* (122v9); *Nuh qabul qildi, yilan suwġa kirdi tešükni buldi* (25v10).

Bundan tashqari, qadimgi turkiy tilda muomalada bo'lgan ayrim so'zlar keyingi davr manbalarida o'z ma'nosini davom ettirish bilan birga, yangi leksemalar hosil qilishda faol ishtirok qilgan. Buni «Qisasi Rabġuziy» asari misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, «yo'qsil, kambag'al» ma'nosidagi **čigay** (ДТС,148) so'zi **-liq** affiksi yordamida **čigayliq** «kambag'allik» leksemasini yasagan: *Kimersä čigayliqdin qurtulayin tesä āli imrānni oqusun* (66r15). Qadimgi turkiy manbalarda «nordon», «achchiq», «og'ir, chidab bo'lmaydigan», «jah, g'azab» semalarini ifodalagan **ačig** (ДТС,4) leksemasi qissa tilida fe'li yasovchi **-lan** qo'shimchasi bilan birikib, yangi so'z hosil qilgan: *Umlāq ačiglandi, čerik yiġdi...* (65r10). Kul tegin bitigida «tushmoq» ma'nosini anglatgan **en//in-** (ДТС,173) so'zi tekshirilayotgan yodnomada **iš** affiksi yordamida harakat nomini bildiruvchi so'z yasashda ishtirok etgan: *Berk yolġa tüstilär, aġiši iniši telim* (225v8).

Zikr etilgan misollardan ayonki, arxaizmlar til tarixi bilan o'zaro aloqador bo'lib, uning ichki taraqqiyoti mobaynida turli shakllarda ko'zga tashlanadi. Demak, eski so'zlarni tadqiq etish o'sha davrdagi urug', qabila va xalqlarning o'zaro munosabatini o'rganishga, leksemalarning kelib chiqishini aniqlashga yordam beradi.

Tub turkiy so'zlardan yasalgan leksemalar. Tilshunoslikda muayyan tilga xos so'z yasash usullari bilan so'z yasovchi vositalar yordamida yangi so'zlar hosil qilish til leksikasining boyishidagi eng yetakchi yo'llardan biri sifatida talqin qilinadi. Ichki resurslar asosida so'z yasash, asosan, tilning o'ziga xos so'z yasash usullariga tayangan

holda soʻz yasovchi vositalar koʻmagida amalga oshadi⁷⁹.

Yozma yodgorliklar tilida soʻzlar qatʼiy qonunlar asosida yasalgan. Yasama soʻz maʼno jihatdan oʻziga bogʻliq boʻlgan oʻzakdan, oʻsha soʻzning har qaysi emas, aynan tutash maʼnoli semasidan urchiydi. Agar yasama soʻzning morfem tarkibi chuqur tahlil qilinsa, oʻsha ildizga yetib boriladi.⁸⁰

Tilda affiksatsiya yoʻli bilan yangi soʻzlar hosil qilish eng faol usullardan sanaladi. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, qissa soʻz boyligida ham tub oʻzakdan turkiy qoʻshimchalar orqali yasalgan leksemalar talaygina. Quyida ular xususida toʻxtalib oʻtamiz:

1) -či/-či affiksi vositasida otlardan yasalgan otlar. Bunda ushbu qoʻshimcha yordamida kasb-kor, yumush egasi maʼnosini anglatuvchi leksemalar hosil qilingan: ašči (85r5) – «oshpaz» (<aš – «oziq-ovqat, yegulik»), atimči (223r9) – «mergan» (<atim – «otim»), ayaqči (85r10) – «soqiy» (<ayaq – «qadah, kosa»), bitigči (78v20) – «kotib» (<bitig – «yozuv, maktub»), bōzči (18v1) – «toʻquvchi» (<bōz – «xomsurp»), etmākči (178v19) – «novvoy» (<etmāk – «non»);

2) -či/-či affiksi yordamida feʼllardan yasalgan otlar: tilānči (124r3) – «gadoy» (<tilān – «tilanmoq»), sewūnči (97r3) – «yaxshi xabar» (<sewūn – «sevinmoq»), yonučī (163v8) – «duradgor, usta» (<yon – «yoʻnmoq»), otači (170v7) – «tabib» (<ota – «davolamoq»);

3) -čīlīq/-čīlik (čī+līq/čī+lik) qoʻshimchasi orqali yasalgan sohani bildiruvchi soʻzlar: boyagčīlīq (171v8) – «boʻyoqchilik» (<boyag – «boʻyoq»), siğirčīlīq (132r19) – «qoramolchilik» (<siğir – «sigir»), yariqčīlīq (134v11) – «zirhchilik» (<yariq – «zirh»);

4) -līg/-līg//līq/-lik//luğ/-lūg//luq/-lūk affiksi ishtirokida asosan, ot, sifat, feʼldan oʻzi qoʻshilgan oʻzakdan anglashilgan narsaga egalik maʼnosini bildiruvchi mavhum otlar hamda kasb-hunar, mansab, holat, munosabat, aloqadorlik semalarini ifodalovchi soʻzlar hosil qilingan:

⁷⁹ Йулдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси. –Т.: ФАН, 2004. –Б. 99.

⁸⁰ Содиков Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –Б. 136.

a) ot turkumidan yasalgan otlar: ağırlīq (80r17) – «xasta» (<ağır/qğ – «ogʻriq»), atalīq (51v2) – «otaliq» (<ata – «ota»), ayaqlīg (162v4) – «qadahlik» (<ayaq – «qadah»), otačīlīq (170v10) – «tabiblik» (<otači – «tabib»), boynağulīq (147v6) – «osiylik» (<boynağu – «gunohkor»), čiğaylīq (66r15) – «kambagʻallik» (<čiğay – «kambagʻal»);

b) sifat turkumidan yasalgan otlar: aqlīq (171v6) – «oqlik» (<aq – «oq»), aqsaqlīq (111r17) – «oqsoqlik» (<aqsaq – «oqsoq»), alalīq (119v21) – «choʻtirlik» (<ala – «ola rangli»), arīglīq (156v16) – «tozalik» (<arīg – «toza»), artuqluq (216v6) – «ortiqlik» (<artuq – «ziyod»), ačlīq (110v19) – «ochlik» (<ach – «och»), aruqluq (89r21) – «zaiflik» (<aruq – «zaif»);

d) feʼl turkumidan yasalgan otlar: sağlīq (13v10) – «urgʻochi qoʻy» (<sağ – «sogʻmoq»), bilmāklik (42r6) – bilmōqlik (<bil – «bilmōq»), suwsalīq (248r7) – «chanqoqlik» (<suwsa – «suvsamoq»), tarlīq (66r9) – «yetishmovchilik, qahatchilik» (<tar – «sovurmoq, behudaga ketkizmoq»);

5) -lağ/-laq (la + ğ/q) affiksi otdan oʻrin-joy maʼnosidagi ot yasaydi: ağlaq (38r7) – «pana, yashirin joy» (<ağ – «toʻr, tuzoq»), otlag (47r8) – «oʻtloq» (<ot – «oʻt»), suwlağ (47r14) – «suvloq» (<suw – «suv»), borlaq (20r12) – «uzumzor» (<bor – «vino»); qīšlaq (68r13) – «qishlaydigan joy» (<qīš – «qish»)

6) -daš/-dāš affiksi otga qoʻshilib, yaqinlik, birgalik maʼnolarini anglatuvchi soʻzlar hosil qilgan: emūkdāš (227v9) – «emchakdosh» (<emūk – «koʻkrak, emchak»), qarīndaš (16v8) – «qarindosh» (<qarīn – «qorin»), qoldaš (22v21) – «oʻrtoq» (<qol – «qoʻl»), yašdaš (209r19) – «tengdosh» (<yaš – «yosh»);

7) -duq, -čuq, -saq, -sa singari ismdan ot yasovchi affikslardan kam sonli soʻzlar yasalgan: burunduq (30v2) – tuya tumshugʻiga kiydiriladigan maxsus toʻr (<burun – «burun»), mončuq (114v16) – «munchoq» (<moyun – «boʻyin»), bağīrsağ (37v19) – «mehrbon, rahmdil» (<bağir – «jigar», tapuğsağ (181v1) – «sodiq xizmatkor» (<tapuğ – «xizmat»), yarasağ (170v15) – «koʻrshapalak» (<yar(i) – «parda») (ИРЛТЯ, 149-150);

8) -k//uq/ük//uğ/üg//aq/ağ//iğ//ig//iğ/-ik affiksi feʼldan

harakat natijasini, holatini, joy va qurolini anglatuvchi ot yasagan: anuq (65r2) – «tayyor» (<anu- – «tayyorlamoq») (ДТС,46), biçaq (50r10) – «pichoq» (<bič- – «kesmoq») (ДТС,98), tōšak (81r6) – «toʻshak» (<tōšā- – «toʻshamoq»), bitig (63v1) – «yozuv» (<biti- – «yozmoq»), pusug (140r5) – «pistirma» (<pus- – pismoq, berkinmoq), boyağ (171v14) – «boʻyoq» (<boya- – «boʻyamoq»);

9) -š/-uš/-üş// -iš/-iš// -aš/-āš affiksi feʼldan harakat nomini bildiruvchi otlar hosil qilgan: iniš (225v8) – «qiyalik» (<in- – «tushmoq»), ağıš (225v8) – «balandlik» (<ağ- – «oshmoq, chiqmoq»), keñāš (78r1) – «majlis» (<keñā- – «kengashmoq»), küsiš (19v13) – «gʻayrat» (<küsi- – «orzu qilmoq»), sančiš (64r8) – «urush» (<sanč- – «sanchmoq»), toquš (50r5) – «urush» (<toqu- – «urmoq») (ДТС,577), ulaš (86r4) – «davomli, doimo» (<ula- – «ulamoq»), ülüš (10v1) – «ulush» (<ülā- – «boʻlishmoq»), yüzüş (206v10) – «suzish» (<yüz- – «suzmoq»);

10) -ğa/-gā// -qa/-kā// -ğu/-gū// -qu/-kū qoʻshimchasi feʼl bilan birikib joy, vaqt, qurol oti yasagan: buzağu (126r8) – «buzoq» (<buzā- – «tugʻmoq») (ЭСС,II, 241), qarağu (10v3) – «soʻqir» (<qara- – «qaramoq»), körgü (230r10) – «tomosha» (<kör- – «koʻrmoq»), küzäğü (27v16) – «kuyov» (<küzā- – «kutmoq, koʻz tashlamoq»), külgü (161v21) – «kulgu» (<kül- – «kulmoq»), uzqu (34r16) – «uyqu» (<uzi- – «uxlamoq»), yarğu (23v21) – «hukm, qaror» (<yar- – «yormoq»);

11) -ğuči/-guči (-ğu/-gu+či/či) affiksi feʼldan shaxs oti yasagan: alğuči (75r7) – «xaridor» (<al- – «olmoq»), saqlağuči (24v9) – «soqchi, qoʻriqchi» (<saqla- – «saqlamoq»), içküči (212v1) – «ichuvchi» (<ič- – «ichmoq»), yongüči (38r5) – «yoʻnuvchi» (<yon- – «yoʻnmoq»), qolğuči (240r13) – «iltimos qiluvchi» (<qol- – «soʻramoq»), bergüči (216r17) – «beruvchi» (<ber- – «bermoq»);

12) -č(-nč) affiksi feʼldan anglashilgan ish-harakatning natijasini, nomini bildiruvchi ot hosil qilgan: inanč (237v13) – «ishonch» (<iinan- – «ishonmoq»), qazğanč (134v11) – «foйда» (<qazğan- – «daromad olmoq»), künänč (95v2) – «qizgʻanchiq» (<künän- – «qizgʻanmoq»), küwänč (214v10) – «quvonch» (<küwän- – «quvonmoq»), saqinč (38v2) – «fikr, tushuncha» (<saqin- – «oʻylamoq»), söklünč (54v1) – «qovurma» (<söklün- – «qovurmoq, pishirmoq»);

13) quyidagi affikslar kammahsul boʻlib, ular baʼzi feʼllardan ot yasash bilan chegaralanadi:

a) -(u)t-/- (ü)t: ögüt (13v1) – «nasihat» (<ög- – «maqtamoq»), uwut (201v8) – «uyat» (<uw- – «ushatmoq, uvatmoq»), yanut (84r8) – «javob, ruxsat; qarshilik» (<yan- – «qaytmoq, voz kechmoq»);

b) -maq/-māk: türmāk (85r20) – «soch turmagi» (<tür- – «qayirmoq, burmoq»), yašmaq (29v12) – «roʻmol» (<yaš- – «yashirinmoq»), toqmaq (12r21) – «toʻqmoq» (<toq/u- – «urmoq, taqillatmoq»), yarmaq (73r11) – «pul» (<yar- – «yormoq»);

d) -ğan/-qan// -gün/-qün// -ğun/-qun: sičqan (25v3) – «sichqon» (<sič- – «boʻsh- almoq»), tawušqan (146v20) – «tovushqon» (<tabiš- – «sakramoq») (ИРЛТЯ,136), satğin (76v4) – «sotuv» (<sat- – «sotmoq»), qorğan (134r21) – «qoʻrgʻon» (<qor- – «saqlamoq»);

e) -ğaq/-qaq: qačqaq (104r16) – «qochoq» (<qač- – «qochmoq»), yapurğağ (12r 13) – «yaproq» (<yap- – «qoplamoq»), yarğağ (83r10) – «teri» (<yar- – «yormoq»);

f) -in/-in// -un/-ün: tügün (80v20) – «tugun» (<tüg- – «tugmoq»), ekin (92v 10) – «ekin» (<ek- – ekmoq); yağin (25r15) – «yomgʻir» (<yağ- – «yogʻmoq»); egin (64v5) – «yelka» (<eg- – «egmoq»); kelin (27r14) «kelin» – (<kel- – «kelmoq»);

g) -ač/-āč: kömäč (14r6) – choʻgʻga solib pishiriladigan non (<köm- – «koʻmmoq»);

h) -ma/-mā: sürmä (61v2) – «surma» (<sür- – «surmoq»); tügmä (75v16) – «bogʻich» (<tüg- – «tugmoq»);

i) -mur: yağmur (6r6) – «yomgʻir» (<yağ- – «yogʻmoq»);

j) -lan: qaplan (107v17) – «qoplon» (<qap- – «tutmoq») (ЭСС,I,85), baqlan (68v3) – qoʻzichoq» (<baq- – «boqmoq»);

14) -liğ/-lig// -liq/-lik// -luğ/-lüg// -luq/-lük affiksi otdan oʻzi birikkan predmetga egalikni, unga tegishli ekanligini, mos kelishini ifodalovchi sifatlar yasagan: ađaqliğ (44r3) – «oyoqli» (<ađaq – «oyoq»), ađuluğ (137r9) – «zaharli» (<ađu – «zahar»), alinliğ (181r8) – «peshonali» (<alın – «peshona»), asiğliğ (221r1) – «foydali» (<asiğ – «foйда»), barqliğ (23v16) – «mollı» (<barq – «mol-dunyo»), bitigliğ (21v3) – «yozuvli» (<bitig – «yozuv»);

15) -li/-li// -lu/-lü affiksi otlarga qoʻshilib, oʻzakda ifodalangan

narsaga egalik ma'nosidagi sifat yasaydi⁸¹: köngül (195r2) – «ko'ngilli» (<köngül – «ko'ngil»), sözli (195r2) – «so'zli» (<söz – «so'z»), yürakli (61w11) – «yurakli» (<yüräk – «yurak»);

16) -siz/-siz//suz/-süz qo'shimchasi otlardan o'zakdan anglashilgan ma'noga ega emaslikni anglatuvchi sifatlarni hosil qilgan: asıgsız (40r10) – «foydasiz» (<asıg – «foйда»), biligsiz (116v21) – «bilimsiz» (<bilig – «bilim»), bitigsiz (163v21) – «yozuvsiz» (<bitig – «yozuv»), emgaksiz (130r11) – «mashaqqatsiz» (<emgak – «mashaqqat»), erksiz (88r1) – «kuchsiz» (<erk – «kuch»), qonuqsız (59r18) – «mehmonsiz» (<qonuq – «mehmon»), körksüz (8r14) – «xunuk» (<körk – «chiroy»), közsüz (17r14) – «so'qir» (<köz – «ko'z»);

17) -g/-g//-q/-k// -ig/-ig// -iq/-ik// -ug/-üg// -uq/-ük affiksi fe'ldan o'zakdan anglashilgan ma'noga taalluqli belgi xususiyatiga egalik tushunchasini bildiruvchi sifat hosil qilgan: açig (6r4) – «achchiq» (<açi – «achimoq») (ДТС,4), sawuq (198v18) – «sovuq» (<sawu – «sovimoq»), quruğ (30v15) – «quruq» (<quri – «qurimoq»), yağuş (213v18) – «yaqin» (<yağuş – «yaqinlashmoq»), tölük (115v18) – «teshik» (<töl – «teshmoq»), yaruq (5v1) – «yor-ug'» (<yaru – «yorishmoq»), işig'/issig' (69v8) – «issiq» (<isi – «isimoq»);

18) -un, -ün affiksi ayrim fe'llardan sifat hosil qilishda ishtirok etgan: tolun (85v12) – «to'lin (oy)» (<tol – «to'lmoq»); tüzün (75r19) – «uyg'un, teng» (<tüz – «tartibga solmoq»);

19) -l affiksi ayrim fe'llardan sifat yasagan: qizil (11r14) – «qizil» (<qiz – «qizil tus olmoq»); yaşil (43v4) – «yashil» (<yaş – «barg rangiga ega bo'lmoq»);

20) -la/-lā affiksi asosan ot bilan (qisman) sifatdan ishning o'zakdan anglashilgan predmet vositasida bajarilishi, muayyan holat va belgiga ega bo'lish kabi ma'nolardagi fe'llar yasaydi:

a) otdan fe'l yasalishi: ağula- (72r11) – «zaharlamoq» (<ağuş – «zahar»), awla- (86r7) – «ovlamoq» (<aw – «ov»), bagla- (19r17) – «bog'lamoq» (<bağ – «bog'»), başla- (6v20) – «boshlamoq» (<baş – «bosh»), bādizlā- (68r19) – «tasvirlamoq» (<bādiz – «tasvir»),

⁸¹ XIII – XIV asrlar turkiy adabiy ёдгорликлар тили. –Т.: ФАН, 1986. –Б. 69.

boğuzla- (14v18) – «bo'g'uzlamoq» (<boğuş – «bo'g'uz»), buqağula- (231v8) – «sirtmoqlamoq» (<buqağuş – «sirtmoq»);

b) sifatdan fe'l yasalishi: ağır-la- (26v12) – «hurmat qilmoq» (<ağır – hurmat»), arig-la- (83v16) – «tozalamoq» (<arig – «toza»), örlā- (68v1) – «balandlamoq» (<ör – «balandlik»), yamanla- (90v16) – «yomonlamoq» (<yaman – «yomon»), injiqla- (83r13) – «injiqlanmoq» (<injıq – «injiq»), saqla- (80r19) – «saqlamoq» (<saq – «hushyor»);

21) -da/-dā// -ta/-tā affiksi -la/-lā affiksining fonetik varianti bo'lib, ba'zi so'zlardan fe'l hosil qilgan⁸²: alda- (126r5) – «aldamoq» (<al – «hiyla»), istā- (17r8) – «istamoq» (<is – «hid»), ündā- (40r15) – «undamoq» (<ün – «tovush. sas»), arta- (58r20) – «buzmoq» (<ar – «ajratmoq»).

22) -lan/-lān qo'shimchasi bilan otdan yasalgan fe'llar o'zakdan anglashilgan holatga o'tish, shunga ega bo'lish singari ma'nolarni ifodalaydi: ağızlan- (90v16) – «og'izlanmoq» (<ağiz – «og'iz»), atlan- (47v2) – «otlanmoq» (<at – «ot»), azuqlan- (129r19) – «oziqlanmoq» (<azuq – «egulik»), çeçāklān- (67r15) – «gullamoq» (<çeçāk – «gul»), islān- (160r20) – «hidlanmoq» (<is – hid»), köpüklān- (3r12) – «ko'piklanmoq» (<köpük – «ko'pik»).

O'zlashmalarga turkiy qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan yasalgan so'zlar. Har bir til so'z yasash, uni yangi ma'nolarda qo'llash kabi ichki imkoniyatlaridan tashqari, tashqi omillar ta'sirida, ya'ni boshqa tillardan lisoniy birliklarni qabul qilish orqali ham rivojlanib, boyib boradi. Albatta, bu jarayon muayyan til qonuniyatlari asosida amalga oshadi.

Jahonda hech bir til yo'qki. uning lug'at tarkibi faqat o'z so'zlaridan tashkil topgan bo'lsin. Boshqa tillardan olingan so'zlar yo o'sha tilda o'z shaklini qanday bo'lsa, shundayligicha saqlaydi yoki uning leksik tizimi, tabiati, grammatik qurilishi, so'z yasalishi va imlo qoidalariga uyg'unlashadi⁸³.

⁸² Qarang: Муталибов С. Морфология ва лексика тарихидан кискача очерк. –Т.: ФАН, 1959. –Б. 87; XIII-XIV asrlar turkiy adabiy ёдгорликлар тили. –Т.: ФАН, 1986. –Б. 207.

⁸³ Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 34.

O'zbek adabiy tili lug'at tarkibidagi leksemalar tarixiy shakllanish jihatidan faqat turkiy tillarga xos bo'lmay, balki fors-tojik, arab, mo'g'ul, rus tillaridan. shuningdek, uyg'ur tili orqali xitoy tilidan kirib kelgan so'zlar ham uchraydi. O'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichiga nazar solsak, mazkur so'zlar turli davrlarda xilma-xil ijtimoiy sabablar bois o'zlashganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, forscha-tojikcha istilohlar o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan yonma-yon yashab, bir-biri bilan ijtimoiy va madaniy munosabatda bo'lib kelganligi natijasida, arabcha leksemalar esa, asosan, kitobiy til va forsdiy til, shuningdek, qisman og'zaki nutq orqali kirib kelgan.

XIV asr obidasi hisoblangan «Qisasi Rabg'uziy» asarida ham ko'pgina forscha-tojikcha va arabcha so'zlarni kuzatish mumkin. Ushbu o'zlashmalarning ma'lum qismi yodgorlik tiliga shu darajada singib ketganki, ular turkiy qo'shimchalar bilan birikib, yangi so'zlar hosil qilishda faol qatnashgan va turkiy leksemalar bilan baravar darajada qo'llanilgan. O'rganilayotgan manba lug'at tarkibida arabcha so'zlardan turkiy affiks yordamida yasalgan leksemalar 108 tani, forscha-tojikcha o'zlashmalardan turkiy qo'shimchalar orqali hosil qilingan so'zlar esa 47 tani tashkil etadi. Qissada quyidagi turkiy affikslar yordamida forscha-tojikcha va arabcha leksemalardan yangi so'zlar yasalgan.

1. Ismdan ot yasovchi qo'shimchalar:

-liġ/-lig//liq/-lik//lug/-lūg//luq/-lūk affiksi o'zlashmalardan o'zi qo'shilgan o'zakdan anglashilgan narsaga egalik ma'nosini bildiruvchi mavhum otlar yasagan. Ayni paytda, bu qo'shimcha kasb-hunar, mansab, holat, munosabat, aloqadorlik semalarini ifodalovchi leksemalar hosil qilishda ham qatnashgan:

a) bu affiks bilan forscha-tojikcha so'zlarlarning birikishi natijasida yasalgan leksemalar: darvišlik (203r6) – «darvishlik»; bandalik (177r14) – «qullik»; gabrlik (203v1) – «otashparastlik»; ziyraklik (25r7) – «ziyraklik»; ābadānliq (23r12) – «obodlik»; āzādliq (110r20) – «ozodlik»; mehmanliq (192r11) – «musofirlik»; nādānliq (119v6) – «nodonlik»;

b) arabcha o'zlashmalarga qo'shilish orqali hosil qilingan

so'zlar: maliklik (131v8) – «hukmdorlik»; dunyālik (184v11) – «mol-mulk, mansab»; qādirlīq (20v13) – «kuchlilik, qudratlilik»; miskinlik (3v9) – «faqirlik»; āsiylik (4v17) – «gunohkorlik»; kafirlik (184r16) – «kofirlik»; hammālik (144r9) – «hammollik»; xalifalik (15v17) – «xalifalik»; vazirlik (92r18) – «vazirlik»; ājizliq (118v13) – «ojizlik» va hokazo. Bu qo'shimchaning oxirgi undoshi jarangli (g', g) yoki jarangsiz (q, k) holda kelishi tarixan ma'no farqlash bilan bog'liq bo'lgan⁸⁴. O'z davrida Mahmud Koshg'ariy mazkur hodisaga alohida e'tibor berib, XI asr tilida ushbu affiksning jarangsiz q, k undoshlari bilan kelgan variantlari ot, jarangli ġ, g undoshlari yordamida ifodalangan shakllari sifat yasash uchun xizmat qilganligini qayd etib o'tgan⁸⁵. «Qisasi Rabg'uziy» yodnomasida zikr qilingan qoidaga asosan amal qilingan bo'lsa-da, ba'zan uning buzulish hollari kuzatiladi:

1) forscha-tojikcha so'zlar bilan birikishda: javānmardliġ (102v3) – «mardlik, saxiylik»; zindānliġ (92r1) – «tutqun»; jānliġ (128r2) – «tirik jonivor, hayvon»; jahānliġ (124v8) – «mol-mulk, mansab»;

2) arabcha o'zlashmalarga qo'shilishda: jigādliġ (181r6) – «mujohid»; qahtliġ (153r8) – «ocharchilik».

-ċi/-ċi affiksi forscha-tojikcha va arabcha so'zlar bilan birgalikda kasb-kor, yumush egasi ma'nosini anglatuvchi otlarni hosil qilgan: zindānċi – «zindonbon» (87r16); yāriċi – «yordamchi» (197r13); fālċi – «bashoratchi» (227v12).

2. Ismdan sifat yasovchi affikslar:

-liq/-lik//liġ/-lik//luġ/-lūġ. Ushbu qo'shimcha o'zlashgan so'zlarga qo'shib, o'zi birikkan predmetga egalikni, unga tegishli ekanligini, unga mos kelishini bildiruvchi leksemalarni yasagan:

a) forscha-tojikcha so'zlarga qo'shib sifat yasaydi: andāzaliġ (209r8) – «andozali»; paxtaliġ (164v21) – «paxtali»; bahāliġ (80v6) – «baholi»; taxtaliġ (176r4) – «taxtali»; tājliġ (125v10) – «tojli»;

⁸⁴ Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. -Т.: ФАН, 1990. -С.71

⁸⁵ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. -Т.: ФАН, 1960. I том. –Б. 459-460-468.

umidlik (99v11) – «umidli»; mewalik (162v16) – «mevali»; ārzuluğ (186v16) – «orzuli»;

b) arabcha o'zlashmalardan sifat hosil qilgan: imānliğ (37r7) – «imonli»; hurmatliğ (126r17) – «hurmatli»; jamālliğ (45r10) – «chiroyli»; davlatliğ (126r17) – «badavlat»; dīnliğ (198v7) – «dinli»; āmānatliğ (221r1) – «omonatli»; azamatliğ (106v21) – «g'ayratli»; himmatliğ (207v2) – «himmatli»; aybliğ (150r8) – «aybdor».

-siz/siz/suz/-süz. Mazkur affiks asosan o'zlashma otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan ma'noga ega emaslikni ifodalovchi sifatarni hosil qiladi:

1) forscha-tojikcha so'zlar bilan birikib sifat yasaydi: umidsiz (34v3) – «noumid»; hušsüz (72r15) – «behush»;

2) arabcha o'zlashmalarga qo'shilib sifat hosil qilgan: dastursiz (128v5) – «ruksatsiz»; hujjatsiz (241r19) – «dalilsiz»; rahmsiz (185v20) – «berahm»; hisābsiz (59v10) – «behisob»; hājatsiz (42r3) – «ehtyojsiz»; maliksiz (131v10) – «podshosiz»; adabsiz (179v13) – «odobsiz»; islāmsiz (42v8) – «dinsiz».

3. Ismdan fe'l yasovchi affikslar:

-la/-lā qo'shimchasi o'rganilayotgan manbada ot so'z turkumiga oid o'zlashmalardan buyruq fe'llarini yasagan:

a) forscha-tojikcha so'zlarga birikib fe'l hosil qilgan: xorla- (126v13) – «xo'rlamoq»; ārzula- (14v17) – «orzu qilmoq»; farmānla- (51r13) – «buyurmoq»; zanjirlā- (62r9) – «zanjirband qilmoq»; zindānla- (57r21) – «zindonband qilmoq»; xumdānla- (113v17) – «xum ichiga g'isht solib pishirmoq»;

b) arabcha o'zlashmalardan fe'l yasaydi: anbarla- (90r160) – «xushbo'y qilmoq»; izzatlā- (227 r4) – «izzat qilmoq»;

-lan/-lān affiksi forscha-tojikcha va arabcha so'zlardan egalik ma'nosini bildiruvchi fe'llar hosil qilgan:

1) forscha-tojikcha o'zlashmalarga qo'shilib fe'l yasaydi: xošlan- – «xursand bo'lmoq»: *Andağ qıldılar, söz esittilər xošlandılar* (120v4);

2) arabcha leksemalar orqali fe'l hosil qilgan: qawiylan- – «kuch olmoq» (84v18); ġayratlan- – «g'ayratga tushmoq» (140w14).

Bundan tashqari, fors-tojik tilidan kirgan -ba, -nā, -gāh, -zāda kabi affikslar arabcha va forscha-tojikcha so'zlardan yangi leksemalar hosil qilgan. Biroq bunday o'zlashmalar juda kamchilikni, ya'ni 9 tani tashkil etadi: bağāyat (6v21) – «bag'oyat», nāahl (145r21) – «noahl», nāmahram (249r13) – «nomahram», nāmustaqim (2v15) – «nopok», nāumid (102r20) – «umidsiz», sajdagāh- (13 5v15) – «sajdagoh», ammuzāda (128v20) – «amakivachcha», halālzāda (244r16) – «xayrli avlod».

Obida lug'at tarkibining o'z qatlami tub (o'zak) so'zlar, ular yordamida yasalgan hamda o'zlashmalardan turkiy affikslar orqali hosil qilingan leksemalardan iborat bo'lib, ular yodnoma so'z boyligining asosini tashkil etgan. Asar tilida jami 2949 ta turkiy leksema qo'llanilgan bo'lib, shundan 2793 tasini sof turkcha, 108 tasini arabcha, 47 tasini forscha-tojikcha o'zlashmalardan turkiy affikslar qo'shish orqali yasalgan qorishiq so'zlar tashkil etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. So'zlarni leksik qatlamlarga ajratib o'rganish qanday ilmiy ahamiyatga ega?
2. Tilshunoslikda leksikaning ichki imkoniyatlar yordamida rivojlanishida qaysi hodisalar asosiy omil hisoblanadi?
3. Lingvistikada o'z qatlam deganda nima tushuniladi?
4. «Qisasi Rabg'uziy»da qo'llanilgan o'z qatlamga doir so'zlarni nechta guruhga taqsimlash mumkin?
5. Tub so'zlarni belgilovchi asosiy mezonlarni tushuntiring.
6. Leksemalarning arxaizmga aylanish jarayoni xususida so'z yuriting.
7. Qissada qo'llanilgan eskirgan so'zlar qanday mavzuiy guruhlardan tashkil topgan?
8. Asar so'z boyligida tub o'zakdan turkiy qo'shimchalar orqali yasalgan leksemalar haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
9. Yodnomada qaysi qo'shimchalar so'z yasash jarayonida faol qatnashadi va sermahsul affikslardan sanaladi?
10. Obida tilida qaysi tillarga oid leksemalar turkiy qo'shimchalar yordamida yangi so'z yasashda ishtirok etgan?

O'ZLASHMA QATLAM

Tayanch tushunchalar: so'z o'zlashtirish, o'zlashma qatlam, dariy tili, xun, sart, Dashti Qipchoq, Turfon matnlar, Urxun-yenisey yodgorliklari, qadimgi turkiy til, sanskritcha, sug'dcha, xitoycha, yunoncha, arabcha, forscha-tojikcha, qadimgi yahudiycha so'zlar, bilingvizm, ekstralingvistik omillar.

O'zbek tili lug'at tarkibining boyishida ichki imkoniyatlar muhim manba hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o'z ichki imkoniyatlariga tayanib ish ko'rmaganidek, o'zbek tili uchun ham faqat o'z so'zlari va imkoniyatlariga kifoya qilmaydi. O'zbek tili so'z boyligining takomillashuvida tashqi manba ham sezilarli o'rin egallaydi. Umuman, har qanday til sof holda yashay olmaydi⁸⁶. Binobarin, turli tillarga mansub xalqlarning o'zaro hamkorligi, qo'shnicilik va savdo-sotiq aloqalari ular tillarining taraqqiyoti, birinchi navbatda, leksikasiga o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy. Pirovardida so'z almashish va o'zlashtirish holatlari yuz beradi. Ushbu jarayon tarixiy sharoitlarga bog'liq tarzda turlicha kechadi.

Boshqa qardosh turkiy tillar singari o'zbek adabiy tili uchun ham so'z o'zlashtirish xarakterli hisoblanadi. XI asrga oid manbalarda qo'llanilgan o'zlashmalarning kirib kelishida fors-tojik va arab tilidan o'zbekchaga qilingan badiiy tarjimalarning roli sezilarlidir. Fors tili bu davrda ma'muriy, huquqiy, tijoriy, ilmiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi sharq tillari so'zlarining o'zbek adabiy tiliga o'zlashishida vositachi vazifasini bajargan. Tabiiyki, chet so'zlarning turli soha leksikasiga o'zlashish darajasi ham har xil. Jumladan, harbiy terminologiya mo'g'ulcha so'zlar hisobiga kengaygan bo'lsa, ma'muriy, siyosiy, tijoriy-moliyaviy, ilmiy, diniy leksika esa, asosan, arabcha, forscha-tojikcha o'zlashmalar orqali boyigan. Umuman, turkiy tillar leksikasidagi chet so'zlarni ikki guruhga taqsimlab tahlil etish maqsadga muvofiq:

1) qadimiy (islomgacha bo'lgan) davr. Bunga sanskritcha, sug'dcha va xitoycha unsurlar xos;

⁸⁶ Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик каттамлари. –Т.: ФАН, 1985. –Б. 103.

2) nisbatan yangi (islom hamda mo'g'ullar istilosidan keyingi) davr. Bu davrda turkiy til so'z boyligidan arabcha, fors-tojikcha va mo'g'ulcha o'zlashmalar o'rin egallaydi.

Turkiy tillar so'z boyligida sug'dcha, sanskritcha, xitoycha o'zlashmalarning paydo bo'lishiga turkiy xalqlarning qadimdan sug'd, hind, xitoy, xorazm xalqlari bilan yaqindan bo'lgan aloqalari mahsuli sifatida baho beriladi⁸⁷.

Tadqiq etilayotgan manbada jami 2561 ta o'zlashma qatlamga doir leksema istifoda etilgan bo'lib, shundan 2151 tasi arabcha, 329 tasi forscha-tojikcha, 55 tasi arabcha manbalar orqali o'zlashgan, asli yahudiy tiliga tegishli bo'lgan so'zlar, 14 tasi yunoncha, 3 tasi xitoycha, 5 tasi sug'dcha, 4 tasi sanskritcha so'zdan iborat.

Sanskritcha o'zlashmalar. Qadimgi turkiy bitiglarda sanskrit tilidan kirib kelgan so'zlarning rang-barang bo'lganligi "Qadimgi turkiy lug'at"ni varaqlash asosida yaqqol ko'zga tashlanadi. Tabiiyki, bunda sanskrit tilidan turkiy tilga qilingan tarjimalar muhim rol o'ynagan. Eski turkiy tilda sanskritcha o'zlashmalar son jihatdan kamaygan. Keyingi davrlarga kelib, ularning aksariyati iste'molda muqim o'rin egallay olmadi. Turkiy tilda saqlanib qolganlari ham deyarli o'z so'zga aylanish darajasiga yaqinlashgan⁸⁸. Kuzatishlarimiz "Qisasi Rabg'uziy" asarida sanskrit tilidan kirib kelgan quyidagi o'zlashmalar qo'llanishda bo'lganligini ko'rsatdi.

Tarixdan ma'lumki, Osiyodagi yirik davlatlardan biri hisoblangan Xitoy mamlakatining yuqori qismi **Čin** (ДТС, 146) deb yuritilgan. Bu toponim biz tekshirayotgan yodnomada ham zikr qilingan: *Yana Čin vilāyatiga bardim Xitāy sahurlariga* (216r6). Leksema ilk bor "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan (ДТС, 146).

Sart istilohi ilk bor "Qutadg'u bilig" da "savdogar" ma'nosini

⁸⁷ Далабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991. –С. 133-134.

⁸⁸ Далабаев Х. Ўзбек адабий тили лексик таркибининг ўзлашмалар ҳисобига бойиши // Тошкент вилояти давлат педагогика институти педагог-ҳодимларининг анъанавий илмий-назарий ва амалий-услубий анжумани маърузалари. –Ангрен, 2007. –Б. 337-342.

anglatgan: *Negü ter esit emdi sartlar başı* (ДТС,490). “Devon”da ham ayni semada qoʻllangan: *Sart azıqı arıg bolsa yolda yer* (I,328). Mazkur leksema oʻrganilayotgan manbada “oʻtroq aholi”ga nisbatan ishlatilgan: *Anıy tegär baläsi barca moǵulga sarıga* (80v15).

Dastavval Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” (ДТС,194) asarida qayd qilingan **fil** leksemasi yodgorlikda **pil** fonetik shaklida koʻzga tashlanadi: *Ammā xās maydān başında arslanlar, barslar, pillār yatmīs* (209v8). Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asarida **fil** shakli qoʻllanilgan: *Neçä kim fil haybatli bolursa, tegär süri çibinlar şah filin* (10162). A. Shcherbakning fikricha, **pil** ning eron tillari leksik qatlamiga mansublik ehtimoli kam. Shuning uchun uni sanskritcha **pilu** va assuriycha **piru** soʻzlariga qiyoslash mumkin (ИРЛТЯ,139-140). Bundan tashqari, yodnoma soʻz boyligida mazkur terminning turkiycha **yağan** sinonimi ham ishlatilgan: *Farmānladi aq yağan keltürdilär* (148r14).

“Kamfora, oʻtkir hidli, rangsiz kristal modda” maʼnosidagi **kāfur** coʻzi ilk bor Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida qoʻllanilgan: *Yipar toldi kāfur azun yid bila* – dunyo mushk va kamforaning xushboʻy hidiga toʻldi (ДТС,288). Termin “Qisasi Rabgʻuziy” da oʻzining asl maʼnosini davom ettirgan: *On batman kāfur keltürüp bularga berdilar* (63r15).

Sugʻdcha oʻzlashmalar. Sugʻdlar va turklar oʻrtasidagi aloqalarni VI asrdan boshlangan deb koʻrsatish odat tusiga kirgan. Lekin sugʻd-turk munosabatlarini yanada qadimiy davrlardan qidirish lozim. Bunda asosiy fikr turkiy xalqlarning Turonda azaliy aholi qatlami sifatida mavjud boʻlganini tan olish, buni faktik materiallar bilan isbotlashga qaratilishi kerak. Bu oʻrtada Markaziy Osiyoda mil. av. III-II asrlardan boshlangan jadal etnomadaniy munosabatlar turkiy xalqlarning butun Dashti Qipchoq boʻylab, Xitoy devoridan Dunaygacha chiqib borishiga olib keldi. Sugʻdlar esa mil. av. IV-III asrlardan boshlab xalqaro savdo yoʻllari orqali Sharqqa kira borib, avvalo, Oʻrta Osiyoda, qolaversa, Sharqiy Turkistonda turklar bilan faol munosabatga kirishib ketdi. IV asr – 312- yilga mansub sugʻd maktublari majmuasi shundan dalolatdir. Arablar istilosidan keyin sugʻdlarning turklar bilan etnik yaqinlashuvi, aralashuvi yanada

kuchaygan. Bu jarayon butun Oʻrta Osiyoni qamragan va Sharqiy Turkistonda ham uzoq davom etgan. Masalan, L.I. Chuguyevskiy sugʻdlarning assimilyatsiya qilinish jarayoni XIII asrda ham davom qilganligini hujjatlar asosida koʻrsatib bergan⁸⁹. Manbalarning guvohlik beruvicha, ilk oʻrta asrlarda sugʻd tili va yozuvining qoʻllanuv doirasi Sugʻd davlatidan chiqib, Marv, Shimoliy Boxtar va ulkan turk oʻlkalari – Choch vohasi, Fargʻona, Yettisuv, hozirgi Sinjon yerlari va Markaziy Moʻgʻilistonga qadar yoyilgan edi. Bu, avvalo, Oʻrta va Markaziy Osiyodan oʻtgan savdo karvon yoʻllari, xususan, Ipak yoʻlida turklar bilan sugʻdlarning birgalikda olib borgan ishlari, shuningdek, uch diniy oqim – buddizm, moniylik va nasturiylikni yerli xalqlar, jumladan, turklar orasida yoyish yoʻlidagi saʼy-harakatlari bilan bogʻliq. Yana bir jihati, ayrim yurtlarda turk-sugʻd ikki tilliligi ham amal qilgan. XI asrda yashab oʻtgan tilshunos Mahmud Koshgʻariyning yozishicha, Balasagʻun, Tiraz, Madinatulbayza shaharlarining xalqlari sugʻdcha va turkcha soʻzlaganlar. Ushbu fakt ikki masalaga eʼtibor qaratishni taqozo etadi: birinchidan, bu oʻrinda shu oʻlkalarda ikki tilda soʻzlashuvchi ikki xalq yashaganligi koʻzda tutilmoqda; ikkinchidan esa mazkur oʻlka xalqlarining(sugʻdaq, kanjak, argʻularning) ikki tilliligi⁹⁰. Anglashiladiki, ikki xalqning aralash istiqomat qilishi, oʻzaro hamkorligi, diniy eʼtiqodi, mavjud ikki tillilik oqibatida soʻz almashish jarayoni yuz bergan. Yaʼni, turklar tilida sugʻdcha, sugʻdlar lugʻat tarkibida turkcha leksemalar qoʻllanilgan. Xususan, sugʻdcha **uċmah/uġtmah/uġmah** oʻzlashmasi “Qisasi Rabgʻuziy”da “jannat” maʼnosini bildirgan: *Yaʼni uċmah neʼmatlarin keltürä berdi* (71r2). Mazkur soʻz dastlab “Qutadgʻu bilig” asarida **uġtmah** (ДТС,617), **uġmaq** shakllarida ishlatilgan: *İkki ew yaratti bu xalqqa qamuġ / biri atı uġmaq, birininı tamuġ* (ДТС,621). XIV asr Xorazm yodnomalarida oʻzlashmaning **uċmah**:

⁸⁹ Исоқов М., Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиклар. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. –Б. 25-26.

⁹⁰ Содиқов Қ. Буёқ ипак йўли ва илк Ўрта асрларда Марказий Осиёда кечган тарихий-маданий жараёнлар // Туркшунослик тадқиқотлари. Биринчи китоб. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. –Б. 10-11.

Ol vaqtin ucmahda erdim (HΦ,19617); **uĉtmah**: *Bu uĉtmah iĉrā ol hur* (XIII,15613); **ušt mah**: *Haq taālā yaratmiş erdi öz qudrati birlā ušt mahniy qizil yaqudīn* (19r14); **uĉmaq**: *Seniñ gul magar uĉmaqda bolğay* (Mh.,30765) fonetik shakllari uchraydi. **Uĉmah** ot yasovchi **-hğ** affiksi bilan birgalikda yangi soʻz yasashda ham ishtirok etgan: *Uĉmahliğlar ayğaylar: İdi azza va jalla bu yemiĉimni kāfirlarğa harām qilib turur* (102r16). Shuningdek, asarda terminning arabcha **jannat**, forscha-tojikcha **bihišt** maʼnodoshlari ham qoʻllanilgan: *Ukūš itig salāmlar tört yāriğa va toquz xatuniğa, iki amniğa sayyid-i šubān ahlul jannat tašrifliğ oğlanlariña* (2r6); *Panšanba kun bihišt, duzaxni va azab farištalarini yaratdi* (3v4). **Jannat** oʻzlashmasi **ĉannat (un)** shakliga ega; asli “yashirdi” maʼnosini bildiruvchi **ĉanna** feʼli yordamida yasilib, “bogʻ” maʼnosini anglatuvchi **ĉann (un)** masdarining “yakka, bir dona” maʼnosini ifodalovchi **-t** (ta marbuta) qoʻshimchasi bilan hosil qilingan

(ЎТИЛ,II,120).

Bağ soʻzi Turfon matnlarida “mevazor, chamanzor” maʼnosini anglatgan: *Azu bağ borluqi tariğ* – Yoki bogʻ, uzumzor, ekinzorda (ДТС,77). Mahmud Koshgʻariyning “Devoni”da (ДТС,77) “uzumzor” maʼnosini ifodalagan. Leksema obida lugʻat tarkibida oʻzining asl semasida qayd etilgan: *Xatuni aydi: bir qonaq keldi... bağda yatur: barib körgil, taʼam tilasa bergil tedi* (143v10).

Rang termini “tus, boʻyoq”, “ahvol, holat” maʼnolarini bildirgan: *Ustād aydi: har tonga bir rang bermäk keräk...* (171v10); *Sulaymāniy xāli rangi özgā boldi ewigā keldi* (143r13). Oʻzlashma XIV asr Xorazm obidalarida “tus, boʻyoq” semasida koʻzga tashlanadi: *Bu inākniy rangi netak turur* (HΦ,171a21). Zikr etilgan soʻz sifat yasovchi **-liq/-lik** affiksi bilan qoʻshilib, yangi leksemalar hosil qilishda ham qatnashgan: *İsā aydi: har kiši netak ranglig keräk ayğil men rangli ton ĉiqaraliñ* (171v11).

Qissada **ajun** (MK,I,106; Юр.393) soʻzi “dunyo, borliq” maʼnosida keltirilgan: *Özgā surat tuzdi ajun iĉrā ilkidin* (5v6). Termin ilk marotaba Turfon matnlarida “mavjudlik, borliq” semasida ifodalangan: *Önrā ajundaqi qilinc* – mavjudlikdan oldingi faoliyat (ДТС,74). Ahmad Yugnakiyning “Xibatul haqqoyiq” asarida “hayot,

verdagi hayot” maʼnosida ham qoʻllanilgan: *Bağasiz eruür bu ajun lazzati* – bu hayot lazzati oʻtkinchidir (Yug, 193). “Тафсири”da soʻzning **ajun** (4067), **aĉun** fonetik variantlari koʻzga tashlanadi: *Tilarsizlär dunyāniy bezäkini yaʼni aĉunni* (3,2). “Muhabbatnoma”da **aĉun** (292a6), “Xusrav va Shirin”da **ajun** (33610) shakllari kuzatiladi. Oʻrganilayotgan manbada arabcha **alam**, **dunyā**, forscha-tojikcha **jahān** leksemalari ham “borliq, dunyo” semasini anglatgan: *Qaĉan Yusuf ewdin ĉiqsa, ay-kün nuri qalmas erdi, ālam xalqi bilür erdi* (67r7); *Ey Musā nafsini fāniy, közüñ fāniy, dunyā fāniy* (122r1); *Sālih kim ersā tilāyü bu jahānni kezdi* (36v10). **Dunyā** oʻzlashmasi “yaqin boʻldi, yaqin joyda joylashdi” maʼnosini anglatuvchi danā feʼlidan hosil qilingan (ЎТЭЛ,II,112).

Nāhid Quyosh sistemasidagi katta sayyoralardan birining nomini anglatgan: *Arab tilinchā ati Zuhra erdi, fārsiy tilinchā ati Nāhid erdi* (21v15). Bundan koʻrinadiki, muallif ushbu oʻzlashmani forscha-tojikcha deb hisoblagan. Astroponim dastlab Urxun-yenisey manbalarida **nağid** shaklida qayd etilgan: *Sariğ tash nağid tuzlög ol* – sarigʻ tosh Zuhra yangligʻdir (ДТС,354). Alisher Navoiy asarlarida **Nāhid** termini bilan birgalikda, uning **Zuhra** (IV,316) va **Cholpān** (III,484) sinonimlari ham qoʻllanilgan: *Ne axtar, har biri Birjisu Nāhid* (II,487). Bundan tashqari, «Qisasi Rabgʻuziy» da mazkur soʻzning turkiy **Sewit**, arabcha **Zuhra**, yahudiycha **Baydux**, Turfon matnlarida **Altun yultuz** (ДТС,40) maʼnodoshlari uchraydi: *Sewit Arzu Yalĉiq yaği teg bolur* (66v11); *Zuhra Qamar sikārimiz* (223r20); *...ibriy tilinchā ati Baydux* (21v16).

Xitoycha oʻzlashmalar. Miloddan avvalgi II asrda Xun davlati kuchayib, xoqonlikka aylandi. Shunda uning taʼsir doirasi Sharqda Koreya yarim oroligacha, Gʻarbda Kaspiy dengizigacha, janubda Himolay togʻlari, Amudaryoning shimoliy hududlarigacha yetib bordi. Xitoylar bilan xunlar chegarasi Buyuk Xitoy devoridan oʻtgan. Bu davrda Gʻarb bilan Xitoyni bogʻlab turgan savdo yoʻllari xunlar nazoratida edi. Shundan keyin Xun hoqonligi Gʻarbiy Xan imperiyasining shimoliga va gʻarbga qarab kengayish yoʻlini toʻsib qoʻydi. Xitoy hoqonlari hunlar bilan ular hududidan oʻtadigan savdo yoʻllarini nazorat qilish imkoniga ega boʻlgan. Markaziy Osiyo

xalqlari Buyuk ipak yo'li orqali Xitoyga borib savdo-sotiq qilgan⁹¹. Bundan tashqari, Buyuk ipak yo'li uzra buddizmning yoyilishi Sharq xalqlarining madaniy aloqalari, sharq tillarining o'zaro ta'sirini ham ta'minlab berdi. Buni qadimgi xitoy-turk madaniy munosabatlari, adabiy aloqalarida ham kuzatish mumkin. Qadimgi turklar orasida buddizmning tarqalishi, dastlab, tarjimachilik sohasida katta burilish yasadi. Turkiy xalqlar buddizm diniga sig'ingan chog'larda xitoy tilidan qadimgi turkiy tilga ko'plab diniy-falsafiy, tarixiy, badiiy asarlar, tabobatga tegishli kitoblar tarjima qilingan. Diniy-falsafiy qarashlar, madaniyat, badiiy adabiyotda kechgan jarayonlar qadimgi turkiy til lug'at tarkibining yangi terminlar bilan boyishiga imkon berdi. Xitoy tilidan diniy va falsafiy tushunchalarni anglatuvchi so'zlar, buddizm san'ati, madaniyati, adabiyotshunoslik, kitobat ishi va fanning ayrim sohalariga doir terminlar turkiy tilga o'zlasha boshladi⁹². Ayon bo'ladiki, turklar bilan xitoyliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari qadim tarixga borib taqaladi. Bu hamkorliklar natijasi o'laroq, turkiy tillar so'z boyligiga xitoycha o'zlashmalar kirib kelgan. H. Dadaboevning ta'kidlashicha, "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati"da 240 ga yaqin xitoycha leksemalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati asosan madaniy sohaga taalluqlidir⁹³. Izlanishlarimiz tekshirilayotgan manba tilida quyidagi xitoycha so'zlar iste'molda bo'lganligini ko'rsatdi.

Yodnomada "alvon rangli xitoy (parcha) gazmoli" **čuz** deb nomlangan: *On sākiz künlük yergä čuz atlas tōsādilar* (149v11). Termin dastavval "Qutadg'u bilig" dostonida bitilgan: *Čuz ol bu örüm ton ağılar teñi* – bu qo'lda to'qilgan mato ipak matolar bilan barobar yurardi (ДТС,157).

⁹¹ Хўжаев А. Буюк ипак йўли. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. –Б. 91-92.

⁹² Содиков К. Буюк ипак йўли ва илк Ўрта асрларда Марказий Осиёда кечган тарихий-маданий жараёнлар // Туркшунослик тадқиқотлари. Биринчи китоб. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. –Б. 14-15.

⁹³ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991. –С. 136.

Yinjü so'zi "dur, marvarid" ma'nosini bildirgan: *Bir necaläri tenjizdin gavhar, yinjü čiqardilar* (146r16). Leksema uyg'ur yozuvidagi Berlin qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan manbalarda **yenjü** shaklida kelgan: *Qizil yenjü* (ДТС.256). «Devon»da *yenjü, jinjü* fonetik variantlari zikr etilib, ularning birinchisi turklar, ikkinchisi esa o'g'uzlar tilida muomalada bo'lgan (I,67). Ayni paytda, Mahmud Koshg'ariy lug'atida *yenjü* so'zining "oqsoch, cho'ri" semasi ham borligi haqida ma'lumot mavjud (ДТС, 256). Shuningdek, qissa tilida tekshirilayotgan leksik birlikning forscha-tojikcha **gavhar** sinonimini ham kuzatish mumkin: *Aniñ tört bulunında tört qiyamatliğ gavhar ornatmiş erdilär* (96v6). "Gavhar" so'zi fors tilidan arab tiliga "javhar" shaklida o'tgan va shu shaklda fors tiliga qaytib kelib, boshqa tillarga ham tarqalgan. Arab adabiy tilida "g" tovushi yo'q, ammo adabiy tildagi "j" tovushi o'rnida misr lahjasida "g" ishlatiladi. Misrliklar "majlis"ni "maglis", "jamol"ni "gamol" deb aytadilar. Mana shu xususiyatga asosan ajam, ya'ni g'ayriarab so'zlaridagi "g" tovushi arab adabiy tilida "j" tovushiga aylanadi⁹⁴.

Čang leksemasi "musiqa asbobi" ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan: *Yana sordikim: čang, tanbur, qopuz čalmaq belgürdimi?* (177r7). Termin "Oltun (tusli) yoruq" yodgorligida "qo'ng'iroqcha", Mahmud Koshg'ariy "Devoni"da "zarbli musiqa asbobining tarelkasi" ma'nolarida kelgan: *Sol iligintä čang tutar* (ДТС.139). O'zlashma XIV asr Xorazm yodnomalarida "musiqa asbobi" semasini anglatgan: *Sewär šähliqdin artuq čang ünin* (XIII,3368).

Yunoncha o'zlashmalar. Hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib qolgan, o'z holicha yashagan emas, aks holda, hech qanday taraqqiyot bo'lmagan bo'lur edi. Eng qadimiy va antik davrlarda uzoq masofalarni ot-ulovalarda bosib o'tish ancha mushkul bo'lgan vaqtlarda ajdodlarimiz Misr, Bobil, Markaziy Gretsiya, Yunoniston kabi mamlakatlar bilan aloqa qilganlar⁹⁵. Darhaqiqat, eramizdan avvalgi VI – V asrlar, ya'ni ahamoniylar davrida grek karvonlari Buyuk ipak yo'li, Eron va Markaziy Osiyo orqali Hindiston, Xitoy, Oltoy, Janubiy Sibirgacha borib savdo-

⁹⁴ Рустамов А. Сўз хусусида сўз. –Т.: EXTREMUM PRESS, 2010. –Б. 29.

⁹⁵ Сулаймонова Ф. Шарк ва Фарб. –Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б. 3.

sotiq ishlari bilan shug'ullanganligi tarixiy manbalarda aks etgan. Shu o'rinda yana ta'kidlash lozimki, turli sohaga oid qadimgi yunon manbalarining arab tiliga tarjima qilinganligi ilm ahliga yaxshi ayon. Demak, turkiy tillar so'z boyligidagi yunoncha o'zlashmalar asrlar mobaynida olib borilgan madaniy munosabatlar va arab tili ta'sirida kirib kelgan.

“Qisasi Rabg'uziy” asarida ishlatilgan yunoncha leksemalar kamsonli bo'lib, ular asosan arab tili orqali o'zlashgan. Xususan, **zumurrud** (ЎТИЛ,II,165) istilohi “oliy sifatli, och yashil tusli qimmatbaho tosh” ma'nosini anglatgan: *Me'rājqā ašurdi, bir kesāk zumurrudīn uluḡliqī anča teḡliḡ kim anīḡ muqābalasingā yeti qat yer va kōk yābāndaqī xalqa meḡizliḡ* (218v9). XIV asr Xorazm yodnomalarida **zumarrad**, **zumurrud** shakllari mavjud: *Bu ikki qapuḡ yašil zumarradīn* (HФ,19516); *Zumurrud nat'i azaqlar astīnda* (XIII,14a10). Shu bilan birga, qissada ushbu so'zning arabcha **zabarjad** ma'nodoshi ham qo'llanilgan: *Aymišlar: lavh yašil zabarjaddīn erdi* (119r17).

Marmar (ЎТИЛ,II,546) so'zi “ganch” ma'nosini anglatish uchun xizmat qilgan: *Qizil altundīn tōrt azaqlariḡa marmar ornatmīš* (146v19). O'zlashma «Guliston bit-turkiy» asarida ham ayni ma'noda ishlatilgan: *Farašī kōk marmar* (14767). Shuningdek, qissa tilida uning arabcha **ruḡām** sinonimi ham iste'molda bo'lgan: *Ul šahar ortasīnda bir mināra kōrdūm ruḡām tašīdīn* (141r21).

Diram (ЎТИЛ,I,625) “kumush pul” ma'nosini bildirgan: *Har kūnda bir arqa otunni bāzārda satib tōrt diramḡa, ikisini sadaḡa qilib, ikisigā aš alip anasiḡa barur erdi* (128r18). Mazkur so'z dastlab «Тафсир»da **dirham**: *Yūz miḡ dirham erdi* (11661) shaklida qayd etilgan. «Guliston bit-turkiy» va Alisher Navoiy asarlarida **diram** (НАЛ,194), **dirham** (83a8; НАЛ,194), “Naxjul-farodis” da **daram** fonetik variantlari ishlatilgan: *Ikki diram üçün qolun kesḡäylär* (95b13); *Nečä daram burčī qaldī?* (HФ,104a4). Ayrim manbalarda 3. 12 gramm⁹⁶, 3,186 grammga teng ekanligi ko'rsatiladi⁹⁷. Arab

⁹⁶ Лапасов Ж. Мумтоз адабий асарлар ўқув лугати. –Т.: Ўқитувчи, 1994. –Б. 64.

⁹⁷ Наршахий. Бухоро тарихи. –Т.: Камалак, 1991. –Б. 170.

xalifaligi paytida dirham 2, 97 g, Sosoniylar saltanatida 4, 41g kumushga, mo'g'ullar davrida 1/2 oltinga tenglashtirilgan⁹⁸. Mazkur pul birligi X asrda O'rta Osiyoda keng muomalada bo'lgan. Buxoroda ikki dirham 3. 36 g, Xorazmda dirham 3. 185 gramni tashkil etgan⁹⁹.

Muallif «kitobcha shaklida tikilgan, muqovalangan va xat yozish yoki rasm chizish uchun mo'ljallangan toza qog'oz varaqlari»ni **daftar** (ЎТИЛ,I,75) tarzida izohlaydi: *Qamuḡ āsiy ummatlariMiḡ daftarlarīn ḡufrān suwi birlā yuwup yoḡ yodun qilḡaymen* (238r7). «Qutadg'u bilig» dostoni hamda XII – XIV asrlarga oid uyg'ur huquqiy hujjatlarida bu leksema «kitob» ma'nosida kelgan: *Oqir ersā daftar uqar ersā sōz* – Kitob o'qigan so'z ma'nosini yaxshi anglyaydi (ҚБ,96); *Uluḡ daftarda bitilmīš* (ДТС,159).

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida «mintaqa, hudud, o'lka» ma'nosini anglatgan **iqlim** (ДТС,211) so'zi «Qisasi Rabg'uziy»da ham uchraydi: *Yeti iqlim urarlar kūnda bašar navbatīn* (181r16). Xorazm manbalarida «mintaqa», «mamlakat» ma'nolarida qayd qilingan: *Yeti iqlim tatī xāli boldī* (XIII,3168); *Özḡa iqlimḡa barip ne hāl bilan bolsa tirilayin* (Г,24a10). Professor Sh. Rahmatullaev ushbu leksema etimologiyasini quyidagicha izohlaydi: **iqlim** → **iqlim**; asli «kesdi» ma'nosini anglatuvchi **qalama** fe'lining (APC,657) IV bob shaklidan hosil qilingan masdari bo'lib, arab tilida «mintaqa», «klimat» ma'nosini, o'zbek tilida esa asosan, «ob-havo, yer-suv sharoiti» ma'nosini anglatadi (ЎТЭЛ,II,188).

Qissa tilida **İskandar** (ЎИ,170) antrponimi uchraydi: *Ul quš İskandargā aydi: munda ne üçün kirdiḡ* (177r2). Ayni paytda mazkur so'z Iskandariyya toponimining yuzaga kelishiga asos bo'lgan: *Aymišlar: Bu muqābala İskandariyyada erdi* (112v6).

Asarda «Dovud payg'ambar davrida yashagan alloma» **Luqmān** (ЎИ,198) ismi ham qo'llanilgan: *Luqmān Dāvud yalawač vaqtīnda erdi* (163v7). Ushbu ismni dastavval «Qutadg'u bilig»da uchratamiz:

⁹⁸ Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991. –С.100.

⁹⁹ Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. –М.: Наука, 1970. –С.81.

Asasu yashasuni Luqmān yili – Luqmon yoshiga yetguncha yashasun, gullab yashnasin (ДТС,334).

Obidada **Safiyya** payg'ambar (a.s.)ning xotinlaridan birini ismi sifatida beriladi: *Aymishlar: ati Safiyya erdi, juhudlar ulugi Huayyi bin Axtab qizi erdi* (227r5). Safiyya qadimiy yunoncha Sofiya «aql, donishmand» so'zidan kelib chiqqan¹⁰⁰.

Iblis o'zlashmasi «insonlarni yomon yo'lga boshlovchi shayton» ma'nosini ifodalagan: *Zulqarnayn qorqti, qus aydi: qorqmagil men Iblis men* (103v7). Xorazm yodnomalari tilida mazkur leksema o'z semasida iste'molda bo'lgan: *...Qarsumda Iblis kelip turur* (НФ,11467). Shuningdek, tadqiqot obyekti qilib olingan manbada antroponimning arabcha **shaytan** sinonimi ham keltirilgan: *Saytan vasvasa qildi: munca altun, munca tewadin mahrum-mu qalursen* (195v9). Bu arabcha so'z **shaytan (un)** shakliga ega; «qabihlik, razillik qildi» ma'nosini anglatuvchi **shaytana** fe'lidan yasalgan (ЎТЭЛ,II,112).

Ilk bor eski turkiy adabiy tilning dastlabki yodgorliklarida istifoda etilgan **Rum** «Rum, Vizantiya» (ДТС,479) toponimini «Qisasi Rabg'uziy» lug'at tarkibida ham uchratish mumkin: *Aymishlar: Rumda bir malik bar* (178r2). Bundan tashqari, toponimni izofali birikma tarkibida ham uchratish mumkin: *Yarlig keldi: ey Musā Rum denizi taqi Fārs denizi qavuşgan yergā bargil* (129r17). Mazkur leksema «Тафсир»da ham kuzatiladi: *Rum tarsālarindin bir tarsā kalib anda malik malikatka olturdi* (9b2).

Qissada «suv ichiladigan yassi kosacha» **piyala** (ЎТИЛ,III,256), «osma chiroq turi» esa **qandil** (ЎТИЛ,V,237) deb nomlangan: *Qarunma altun piyala chiqarib Musā utrusinda qoyub nutriblar hazir qilib...xamr icar erdi* (124v12); *Butaqlari kumushdin bir qandil qildi* (34r9). Har ikkala leksema oldingi davr yodnomalarida kuzatilmasada, XIV asr Xorazm manbalarida o'z ma'nolarida qo'llanilgan: *Sundi piyala* (Г,181a12); *Taqi tort yuz kumushdin qandillar qildurdi* (НФ,79a10).

Kub o'zlashmasi «suyuqliklarni haydash, qaynatish yoki saqlash uchun ishlatiladigan silindr shaklidagi katta yopiq idish» (ЎТИЛ,II,418), **manna** termini esa «ovqat ozuqa» (ЎТИЛ,II,538)

¹⁰⁰ Успенский Л. Ты и твоё имя. –Л.: 1962. –С. 626.

ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilgan: *Tayladi aydi: bu ariq suwi sücük, bu kub suwi acig hikmat ne ermiş* (171r19); *Mavlā ta'ālā duāsini ijābat qildi, manna... karāmat qildi* (118v9). Har ikkala istiloh qadimgi turkiy va eski turkiy manbalarda uchramasa-da, dastlabki leksema Alisher Navoiy asarlarida o'z ma'nosini davom ettirgan: *Zahidā, mayxāna mulkim, kub icidur ma'manim* (АНАТИЛ,II,133).

Arabcha o'zlashmalar. Ma'lumki, o'zbek tiliga arabcha so'zlarning kirib kelishi O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini bilan aloqador.

Yevropada lotin tili bir vaqtlar xalqaro til, ilm-fan tili bo'lganidek, arab tili ham Osiyoda uch yuz yil davomida shunga o'xshash mavqeda bo'lgan. Bunda o'zbek, tojik olimlari, yozuvchilarining roli juda kattadir... Agar tojik so'zlari o'zbek xalqiga so'zlashuv tili, adabiyot orqali va boshqa yo'llar bilan o'zlashgan bo'lsa, arab so'zlari, birinchidan, kitob, madrasa, din, ikkinchidan, tojik tili vositasida kirgan¹⁰¹. Arab tilining o'zbek tiliga kirib kelishi, ayniqsa, VII-VIII asrlarda ko'proq yuz bergan. XIV-XV asr eski o'zbek tilida arab tili leksikasi sezilarli qatlamni tashkil etadi¹⁰². Shu bois, Navoiy asarlari tilida ma'lum tarixiy sabablar natijasida arab va fors-tojik tillaridan olingan so'z va iboralar har qachongidan ham ko'p. Shoir poetik va ilmiy asarlari tilidagi so'z boyligining taxminan 30-33 foizini arab tilidan kirgan so'zlar tashkil qiladi, fors-tojik leksik unsurlari ham 18-20 foizgacha boradi¹⁰³.

O'zbek tiliga arab tilidan so'z olish, asosan, o'zbek-arab bilingvizmi davrida (VII-IX asrlarda) kuchli bo'ldi. Keyingi davrlarda o'zbek tiliga yangi so'zlar sezilarli darajada qabul qilinmagan, keyinchalik esa o'zbek tiliga kirgan arabcha unsurlardan bir qismining eskirishi va o'zbek tilidan chiqish jarayoni yuz berdi. Alisher Navoiy tilida ishlatilgan ko'pgina arabcha so'z va iboralar XIX asr o'zbek

¹⁰¹ Усмонов С. Ўзбек тилининг лугат составида форс-тожикча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон (тўплам) –Т.: ФАН, 1968. –Б. 123.

¹⁰² Боровков А. О языке узбекской поэзии//Общественные науки в Узбекистане. –Т.: 1961. №10. –С. 42-43.

¹⁰³ Абдуллаев Ф. XV аср ўзбек адабий тилининг диалектал асослари масаласи//Навоий ва адабий таъсир масалалари. –Т.: 1968. –Б. 254.

tilida, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydi. Arab tilining o'zidan bevosita so'z olish XI asrdayoq deyarli to'xtagan edi. Ammo turli davrlarda arabcha manbalarda, shuningdek, eski o'zbek tili yozma yodgorliklarida saqlangan arabcha so'z guruhlarini u yoki bu davrlarda faollashib turdi. Masalan, XX asr boshlarida o'zbek tilida ilmiy terminlar sifatida faol istifoda etilgan arabcha so'zlar ana shu keyingi manbalardan olingan¹⁰⁴.

Yuqorida qayd etilganidek, turli munosabatlar orqali arab so'zlari turkiy tillarga o'zlashgani kabi o'z navbatida turkiy leksemalar ham arab tili lug'at tarkibidan o'rin egallagan. Masalan, qovurma, yotoq singari. Hatto **-chi**, **-lik**, **-siz** affikslari so'z tarkibida o'tib, arabcha leksemalarga qo'shilib, yangi so'zlar yasagan¹⁰⁵.

XIV asr obidasi sanalgan «Qisasi Rabg'uziy» asari payg'ambarlar hayoti va faoliyatiga bag'ishlanganligi, Qur'oni Karim, Hadisi Sharif hamda boshqa diniy manbalar asosida yaratilganligi bois, unda talaygina arabiy so'zlar uchraydi. Yodnoma so'z boyligida qo'llanilgan arabcha istilohlar soni jihatdan turkiy leksemalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Tadqiqot obyekti qilib olingan yodgorlikda jamiyatning turli sohalariga oid arabcha so'zlar mavjud. Xususan, **avval** leksemasi «birinchi»: *Avval ulkim o'gri turur, ikinch aybi qac'gaq turur* (73r10); «boshida»: *Qisqa bolmasun teb qac harf fayidalarini qissa avvalinda yad qilindi* (65v21); «dastlabki, ilgarigi»: *Qamu'gi qarardi avvalgi haling'a o'vruldi* (177r10) ma'nolarini anglatgan. O'zlashma ilk bor «Hibatul-haqoyiq» asarida «birinchi navbatda», «oldin» semalarida keltirilgan: *Art zahri tatqu asaldin avval* – asal yeyishdan oldin ari zahrini totib ko'rish kerak (ДТС,76). XIV asr Xorazm manbalarida quyidagi ma'nolarda ifodalangan: «birinchi, dastlab»: *Avval koruskani'ni aytur* (Mn,291a11); «boshida»: *Tekma fasl avvalinda bir hadis kelturdük* (HФ,2a12); «boshqatdan, qaytadan»: *Sarbatni habib ilindan alib icitim dagi umrni avvaldan hisab etdim* (Г,121611). Bu arabcha so'z **avvalu** shakliga ega bo'lib, o'zbek tiliga fathali hamzani a tovushiga

¹⁰⁴ Бегматов Э. Курсатилган асар. –Б. 111.

¹⁰⁵ Захиди А. Слова тюркского происхождения в современном арабском языке. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Баку, 1967. –С. 7.

almashtirib, so'z oxiridagi **u** unlisini tashlab qabul qilingan: *avvalu* → *avval* (ЎТЭЛ, II, 9).

Vaqt so'zi «payt», «zamon, davr» ma'nolarini bildirgan: *Haq aygu vaqt keldi* (90v20); *Mustafa alayhissalāMni'ni ulug' atas'i Abdul Mutallib vaqtinda zamzam qudu'gi quridi* (50r1). Leksema dastlab Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida qayd etilgan: *Bu Bu'graxan vaqti icra ani'yema xan tilinca aytmis muni* (ДТС,632). Mazkur arabcha so'z **vaqt (un)** shakliga ega; «muddat belgiladi» ma'nosini anglatuvchi **vaqata** fe'lining I bob masdari bo'lib, «zamon», «fursat», «payt» kabi ma'nolarni umumlashtirgan holda anglatadi (ЎТЭЛ,II,91). Ayni paytda asarda o'zlashmaning turkiy **ogur**, arabcha **zamān** sinonimlari ham uchraydi: *Ul ogurda Lut alahissalām Maqdis yerinda qosh uy alip asliq tariyur erdi* (57v18); *Davud ul zamān tag' taba zahidlar'ga barmis erdi* (134r6). **Zamān** so'zi "uzoq davom etdi" ma'nosini aglatgan **zamina** fe'lidan hosil qilingan (ЎТЭЛ,II,139).

Yodnomada «sig'inish, topinish» ma'nosi **ibadat** o'zlashmasi orqali yoritilgan: *Qacan umri tamām boldi ersa, bir kun mihrabda ibadat qilur erdi* (151r6). Bu so'z birinchi marta Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» asarida istifoda etilgan: *Ibadat riyā boldi* (ДТС,201). **'ibadat** → **ibadat** «sig'indi», «sajda qildi» ma'nosini anglatuvchi **'abada** fe'lining I bob masdari bo'lib, «sig'inish», «O'lohga qulluq qilish» ma'nosini bildiradi (ЎТЭЛ,II,154).

Shuningdek, so'z sifat yasovchi **-lig/-lig** affiksi yordamida yangi so'z hosil qilishda o'zak morfema sifatida qatnashgan: *Ibodatlig, hidayatligh, isaratlig, basaratlig... Muhammad sallalāhu alayhi vasallam* (2r6). «Qisasi Rabg'uziy»da o'rganilayotgan leksemaning turkiy **tapug**, arabcha **tāat** sinonimlari ham ishlatilgan: *Ey Qārun Fir'avn allinda kundā tort etmāk ucün tapug qilmasmu erdi'ni* (125v11); *Anda yema uküs tāat qildi ersa, ikinch qat kökkä a'gdurdi* (4v5).

Tapug co'zi "xizmat qilmoq", "sajda qilmoq, topinmoq" ma'nolarini bildiruvchi **tap-** (ДТС,533) fe'li bilan **-(u)g'** affiksidan yasalgan.

Tāat istilohi **tā'at (un)** shakliga ega bo'lib, "bo'ysundi" ma'nosini ifodalovchi **tā'a** fe'lidan **-at (un)** qo'shimchasi bilan hosil qilingan (ЎТЭЛ,II,154).

Rabg'uziy «so'z» ma'nosini ochishda arabcha **kalima** o'zlashmasidan foydalangan: *Tört bulun'da tört kalima aytip tasni qozdi* (52v19). Ushbu so'z «Nahjul-farodis»da ham ayni semada ishlatilgan: *Bir kün nāgāh aǧzidin bismillāh kaliması cıqtı* (8365). Shu bilan birga, leksema izofali birikmalar tarkibida kelib, «qisqa nutq» ma'nosini bergan holatlar ham mavjud: *Rasul kalima-i tavhid qildi* (197r4). **Kalimat** → **kalima** ko'p ma'noli **kalama** fe'lining «so'zladi» ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari **kalim(un)** so'zining **-at (un)** qo'shimchasi qo'shilgan shakli bo'lib, arab tilida «so'z», «so'zlar», «qisqa nutq» ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida asosan «so'z» semasini bildirish uchun qo'llanadi (Y'ETJL,II,193). Tadqiq qilinayotgan manbada terminning turkiy **söz**, **saw**, arabcha **kalām**, **qavl**, **luǧat**, **ibārat**, **lafz** sinonimlari ham qayd etilgan: *Andaǧ qıldılar, söz ešittilər xušlandılar* (120v4); *İbrāhim alayhis-salām bir keča tuš kordi Lutnuñ bir kimersä birlä sözi sawı boldı tep* (59r16); *Ayǧıl: uluǧların seniñ birlä izsunlar kalām ešitsünlar* (120r13); *Bu qavlnı xatā temislär* (146r12); *İbrāhim va Abraham va İbrahim bu qamuǧ luǧaitlar durust turur* (37v18); *Zulayhāniñ pardasın açmadı ibārat birlä aymadı, işārat birlä aydı...* (84v2); *...Teyür jam' lafzi üzü* (179v3).

Kalām o'zlashmasi ko'p ma'noli **kalama** fe'lining «so'zladi» ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, o'zbek tilida **Kalomullo** (Qur'oni Karim) so'zi, **Avval taom**, **ba'daz kalom** maqoli, **Kalomi sharif** (Qur'oni Karim), **xullasi kalom** (gapning qisqasi) kabi turg'un birikmalar tarkibida qatnashadi (Y'ETJL,II,193).

İbārat istilohi **'ibārat (un)** shakliga ega; **'abara** fe'lining «tashkil topdi» ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari hisoblanib, «tashkil topgan» ma'nosini anglatadi (Y'ETJL,II,155).

Lafz termini **lafz (un)** shakliga ega; **lafaza fe'lining** «talaffuz qildi» ma'nosi bilan yasalgan I bob masdari bo'lib, arab tilida «talaffuz», «so'z», «ifoda» ma'nolarini anglatadi; o'zbek tiliga «so'z» ma'nosi bilan olingan bo'lib, ma'no taraqqiyoti natijasida «va'da», «ahd» ma'nolarini ham bildira boshlagan (Y'ETJL,II,209).

Luǧat so'zi **laǧa** fe'lining «ko'p gapirdi» ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari hisoblanib, arab tilida «til», «lahja», «so'z»,

«ibora» ma'nolarini ifodalagan; o'zbek tilida «tilning so'z va iboralar majmui», «tilning so'z va iboralari tasvirlangan asar» ma'nolarini anglatadi. Mazkur leksemadan o'zbek tilida **lug'atchi**, **lug'atchilik** so'zlari yasalgan (Y'ETJL,II,215-216).

Malik o'zlashmasi quyidagicha ma'nolarni kasb etgan: 1) «hukmdor, pod-shoh»: *Malik sordı: bu oǧlanni qaydın aldın?* (33r19); 2) «Alloh»: *Niyāzin beniyāz malika arza qıldı, aydı: İlähiy. Yusufniñ ölükin-tirikin meñä bildürgil* (79v9). Birinchi ma'no ilk bor «Qutadg'u bilig» dostonida ikkinchisi esa, «Hibatul-haqoyiq» asarida o'z ifodasini topgan: *Mašriq maliki; Qazalar yürütken yaratqan malik* – taqdirlarni yaratgan Alloh (Y'ETJL,339). XIV asrda Xorazm hududida yaratilgan manbalarda o'zlashmaning dastlabki semasi uchraydi: *Bilmāǧay yatqan malikmi yā gadā* (Γ,40a4). Shuningdek, «Qisasi Rabg'uziy» da o'rganilayotgan leksema turkiy **-liq/-lik**, **-siz/-siz** affiksiari orqali ot va sifat so'z turkumlariga doir so'zlar yasagan: *Yalawačliq taqi maliklik bu on ikki sibt arasida öwrülür erdi* (131v8); *Bani İsrāil hargiz maliksiz yalawačsiz qalmas erdilar* (131v10). Termin ba'zi antroponimlar tarkibida ham ko'zga tashlanadi: *Akuz Malik bin Mārixğa xabar boldı* (142r6). Professor Sh. Rahmatullaev **malik** so'zining etimologiyasi xususida shunday fikr yuritadi: **malik** → **malik malaka** fe'lining «hukmronlik qildi» ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, podshoh ma'nosini anglatadi; bu so'z hozirgi o'zbek tilida antroponim sifatida ishlatiladi (Y'ETJL,II,230). Qissa tilida mazkur terminning turkiycha **xan**, forsha-tojikcha **pādsāh**, arabcha **sultān** sinonimlari ham istifoda etilgan: *Köp čerigni bastı xanlar, işq čerigin kim basar* (77v4); *Qurtqa aydı: bu iş bitsä Rayān pādsāh ölgändin soñ Rumdın čerig kelǧay* (88r7); *Ul sultān ölgändin soñ özǧä sultān olturdi* (164v11).

Xan so'zi dastlab **qan** tarzida talaffuz qilingan, keyinchalik so'z boshlanishidagi **q** undoshi **x** undoshiga almashgan; o'zbek tilida **a** unlisi **ā** unlisiga o'tgan. Aksariyat manbalarda bu termin turkiy deb qaralsa-da, L. Budagov lug'atida mo'g'ulcha **qaan** so'zining qisqargan shakli sifatida izohlangan (Y'ETJL,I,401-402).

Pādsāh leksemasining «himoyalovchi» ma'nosini anglatadigan *pod* sifati bilan «buyuk» ma'nosini ifodalovchi *shoh* otidan yasalganligi

haqida fikr mavjud (ЎТЭЛ,III,192).

Sultān o'zlashmasi esa **sultān (un)** shakliga ega bo'lib, "hukmdor deb e'lon qildi" ma'nosini anglatuvchi **saltana** fe'lining I bob masdari hisoblanadi (ЎТЭЛ,II,395).

Ma'siyat so'zi «gunoh» ma'nosini anglatgan: *Aymišlar: ma'siyatni bitigan farista kundä keltür* (199r20). O'zlashma XIV asr Xorazm yodnomalarida ham zikr etilgan ma'noda ko'zga tashlanadi: *Män üc ma'siyat birlä mubtalä bolup tururmän* (HФ,12169.) Istiloh ot yasovchi **-lig** qo'shimchasi bilan birikib, yangi leksema hosil qilishda ishtirok etgan: ... *Bu kün ma'siyatlig bir awuc bulğanuq ummatni bizgä isbarlağil* (238r11). Shu o'rinda qissada o'zlashmaning turkiycha **yazuq**, forscha-tojikcha **gunāh**, arabcha **vabāl** ma'nodoshlari ham qo'llanilganligini qayd etish lozim: *Avval xatā ul kabira yazuq bolğay* (145r11); *Yana bularğa aydi: sizlärni yarliqadim, etgän gurāhlarinğizni keçürdüm* (98v21); *Andağ jamāl körüpän, Kim sewmäsa vabäl ul* (78v19). **Yazuq** oti qadimgi turkiy tildagi "xato qil-, gunoh qil-" ma'nosini anglatgan **ya:z-** fe'lining **yaz-** shaklidan **-(u)q** qo'shimchasi bilan yasalgan (ЎТЭЛ,I,163).

Muhr so'zi o'zida quyidagi ma'nolarni mujassam etgan:

a) «tamg'a, belgi»: *Çiqardi ersä iki yağrini arasinda muhrni kordi* (189r16). Bu o'rinda o'zlashma turkiy **tamğa** ("bog'la-, yopishtir-" ma'nosidagi **taq-** fe'lidan – **ma** qo'shimchasi bilan yasalgan (ЎТЭЛ,I,320)), forscha-tojikcha **nišān** so'zi bilan ma'nodoshlik qatorini yuzaga keltirgan: *Ey sawcilar tamğasi mununteg karāmat birlä bizlardin artuq boldiğ* (211r5); *Luqmāni hakim aytur: abdällarniğ nišāni üc turur* (201r8);

b) «shaxs nomi yozilgan matnning qabariq yoki botiq tasviri bo'lgan bosma shakli»: *Bu xatni bitidi, muhr qilip hudhud quşğa berip aydi: muni barip Bilqisğa bergil* (147v6). «Xusrav va Shirin» dostonida o'zlashmaning dastlabki semasi kuzatiladi: *Uruldi köhli icrä işğ muhri* (62617). **Muhr**→**muhr** o'zlashmasi ko'pma'noli **mahara** fe'lining «tamg'a bosdi» ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, asli «tamg'a» ma'nosini anglatgan, keyinchalik «pechat» ma'nosini anglati boshlagan (ЎТЭЛ,II,309). Bundan tashqari, leksema **-liq/-lik** affiksi bilan birikib, sifat turkumiga doir so'z yasagan: *Äxir uniri boldi*

ersä Jabrāil bir muhrlik xat kelturdi (136v5).

Rabg'uziy «shohidlik, «guvohlik», «shahidlik» ma'nolarini yoritishda **shahadat** istilohidan foydalangan: *Unmatinniy tilini shahadat üzä men yoritim* (212v12); *Shahadat bolsa nusrat turur, ucmahliq bolur* (227r18). XIV asr Xorazm manbalarida o'zlashmaning dastlabki semasi qo'llanilgan: *Usmän bu tüşni kordi ersä bildikim shahadat vaqti yawudi* (HФ,68a12). Shuningdek, tekshirilayotgan asarda so'zni izofali birikma tarkibida ham kuzatish mumkin: *Yana aydi: xalāviq kalima-i shahadatni qoydilar-mu?* (177r9). **Shahadat**→**shahadat** ko'pma'noli **shahida** fe'lidan "yozma tarzda guvohlik berdi" ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, arab tilida "yozma guvohnoma" ma'nosini anglatadi; hozirgi o'zbek tilida bu so'z ayol kishining ismi sifatida ishlatiladi (ЎТЭЛ,II,505). Izlanishlarimiz o'zlashmaning yangi so'z yasashda asos vazifasini bajarganligini hamda unga sinonim tarzida turkiy **tanuqluq** so'zi istifoda etilganligini ko'rsatdi: *Shahadatlig, saadatlig, ibadatlig, hidayatligh...* *Muhammad sallalāhu alayhi vasallam* (2r6); *Oğlan koni tanuqluq bermadi* (84r19). Fikrimizcha, ushbu leksema "guvoh" ma'nosini ifodalovchi **tanuq** oti bilan **-luq** affiksidan hosil bo'lgan. **Tanuq** esa "xabar qilmoq" ma'nosidagi **tanu-** (ДТС,532) fe'li bilan **-q** qo'shimchasidan yasalgan.

Xat so'zi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida "yozuv". "xat, hujjat" ma'nolarida kelgan: *Qamuğ xatni bilsä bitisä elig* – agar u yozadigan bo'lsa, barcha yozuvni bilishi kerak; ... *qaliq tani esti quritti xatig* – yuqoridan shamol esdi va xatni quritdi (ДТС,636). "Ташхир" da o'zlashmaning "maktub" semasi ko'zga tashlanadi: *Xat yazamaq qalam birlä* (138611). Leksema XIV asr Xorazm yodgorliklarida "yozuv": *Aytti: zist xat turur* (Г,9563); "xat": *Adam oğlanlariga xatni qalam birlä oğratti* (HФ,5a6); "chiziq": *Taqi anda xat çizdi on beş arşun uzuni taqi eni xat ortasında olturadi* (HФ,75610) kabi ma'nolarni ifodalagan. Termin "Qisasi Rabg'uziy" asarida quyidagi ma'nolarni kasb etgan:

a) "yozuv": *Aymišlar: ul taslarda üzä sarig xat birlä barät bitiglig erdi* (180v10);

b) "maktub": *Aymišlar: bu yegirmi yeti yil icında Yusuf ellik yoli*

xat yibarmis erdi (93v6); *Sulaymān üç xat bitidi* (147v4). Bu o'rinda turkiy **bitig**: *Ya'qubga bitig iddi, ul bitigda bu erdi...*(63v1); forscha-tojikcha **nāma**: *Nāma Ya'qubga tegdi on o'g'lanlarin yig'ip oq'itdi* (63v5) so'zlari bilan sinonimik qatorni yuzaga keltirgan;

d) "chiziq": *Hud tegrāsida bir xat tartdi* (30v11); Rasul alayhissalām erdā bir xat sizdi (206r9);

e) "hukm": *Amiral-muminin Ali raziya'llāhu xati birla ani tabarruk üçün tutub mubāhāt qilurlar* (227r11). Ayni paytda. termin turkiy **yarliq** (58v3), **buyruq** (119v4), forscha-tojikcha **farmān** (24v20), arabcha **hukm** (136r18) so'zlari bilan ma'nodosh bo'lib kelgan.

f) "tilxat, ishonchnoma": *Ya'qub aydi: ma'nu xat berin kim Ibn Yaminga yawuz sanma'aysiz...*(94v10). Alisher Navoiy asarlarida "chiziq", "yozuv", "xat", "yangi chiqqan mo'ylab" (HAL,651), "Boburnoma" da esa "xat", "yozuv", "imlo" ma'nolarini bildirgan¹⁰⁶. Ushbu arabcha so'z **xatt(un)** shakliga ega; o'zbek tiliga itqi (ط) undoshini t undoshiga almashtirib, ikkinchi itqi undoshini tashlab qabul qilingan: **xatt** → **xat**; ko'pma'noli **xatta** fe'lining "yozdi" ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, arab tilidan "maktub" ma'nosi bilan olingan (ЎТЭЛ,II,482).

Batman (ЎТЭЛ,I,329; 898,5 g) numerativi birinchi bor Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "180 - 300 kg oralig'idagi og'irlik o'lchovi" ma'nosida qo'llanilgan: *Bir batman et* – bir botmon go'sht (I,415). Bu so'z XII–XIV asr uyg'ur huquqiy hujjatlari va "Тафсири" da o'z ma'nosini davom ettirgan: *Ikki batman et* – ikki botmon go'sht (ДТС,89); *Sāna bu čaq batman altun bārājin* (136b9). Termin XIV asr Xorazm manbalari va o'rganilayotgan qissada, shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida (HAL,130; 8 pudga teng keladi – АНАТИЛ,I,318) "og'irlik o'lchovi" semasini anglatgan: *Evdā tort batman arpa bar* (НФ,15a11); *Har kečā on batman ta'ām er erdi* (Г.62b3); *Bir batman arpa bir altun boldi* (92v17). **Batman** XIX asrda Samarqandda 131,044 kg, Jizzaxda 131. 044, 196, 56 kg, O'ratepada 260, 859 kg, 269, 088 kg, Xo'jandda 196, 56, 196, 016 kg.

¹⁰⁶ Дадабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т.: Фан, 2007. –Б. 14.

Farg'onada 131, 044 kg, Qo'qonda 163,8 kg, Toshkent va Chimkentda 171,99 kg, Avliyo Ota (hozirgi Taroz) da 196,56, 229 kg ni tashkil etgan¹⁰⁷.

Qadimgi yahudiycha so'zlar. "Qisasi Rabg'uziy" asari leksikasida arab tili, ya'ni Qur'oni Karim va boshqa diniy manbalar orqali o'zlashgan 49 ta qadimiy yahudiycha so'z ham mavjud. Ular asosan, farishtalar, payg'ambarlar va ularning qarindoshlari, oila a'zolari nomini bildiruvchi antroponimlardan iborat: Jabrāil – xabar keltiruvchi farishta, Mikāil – farishta", Nuh – payg'ambar ismi, Musā – payg'ambar ismi. Isā – payg'ambar ismi", Havvā – Odam Atoning xotini, Hājar – Ibrohim payg'ambarning xotini, Maryam – Iso payg'ambarning onasi, Sām – Nuh payg'ambarning o'g'li, Yusuf – Yoqub payg'ambarning o'g'li va hokazo. Payg'ambar nomlari VII–VIII asrdan boshlab turkiy xalqlar tiliga kirib kelgan. Bu o'rinda eslatib o'tish joizki, payg'ambarlar ismlarining ko'pchiligi Qur'oni Karimga «Zabur», «Tavrot» va «Injil» singari ilohiy kitoblardan o'tgan. Bir tildan ikkinchi tilga o'tish jarayonida bu ismlar fonetik o'zgarishlarga uchragan va Markaziy Osiyo xalqlari uchun islomiy ism hisoblangan. Shuning uchun bo'lsa kerak keyinchalik payg'ambarlar nomlari kishi ismi sifatida ham qo'llanila boshlagan¹⁰⁸. Obida so'z boyligidagi qadimiy yahudiycha antroponimlar filologiya fanlari doktori N. Husanov tomonidan tadqiq etilgani bois¹⁰⁹, ular xususida batafsil to'xtalishni lozim topmadik.

Forscha-tojikcha o'zlashmalar. Turli etnik qatlamlarga mansubligidan qat'iy nazar, O'rta Osiyo xalqlari asrlar davomida deyarli bir xil ijtimoiy-siyosiy sharoitda yashaganlar, ishlab chiqarishda birga qatnashganlar, zulm va zo'rlikka birgalashib

¹⁰⁷ Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. –М.: Наука, 1970. –С.91-93.

¹⁰⁸ Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. –Т.: Ёзувчи, 1996. –Б.27.

¹⁰⁹ Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри ...дисс. –Т.: 2000. 243 б.

kurashganlar. Bunday madaniy-adabiy aloqalar xalqlarning bir-biriga yanada yaqinlashuviga, hamkorliklarining mustahkamlanishiga olib kelgan¹¹⁰.

Darhaqiqat, forscha-tojikcha soʻzlarning oʻzbek tiliga oʻzlashishida quyidagi omillar muhim rol oʻynagan: a) oʻzbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qoʻshni) hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-maʼnaviy muhitda yashab kelayotganligi; b) oʻzbek-tojik va tojik-oʻzbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi; d) tojik va fors tillarida ijod qilish anʼanalarining uzoq yillar davom etganligi; e) Qoʻqon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega ega boʻlganligi; d) adabiyot, sanʼat, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik¹¹¹.

Alisher Navoiy asarlari leksikasida 5489 ta forscha-tojikcha soʻz qoʻllangan boʻlsa¹¹², «Qisasi Rabgʻuziy» obidasida 321 ta forscha-tojikcha, arabcha va forscha-tojikcha oʻzlashmalardan yasalgan 9 ta forscha-tojikcha (masalan, nāmustaqim (2v15) – «nopok», nāumid (102r20) – «umidsiz», sajdagāh (135v15) – «sajdagoh», ammuzāda (128v20) – «amakivachcha», halālzāda (244r16) – «xayrli avlod») leksema ishlatilgan.

Rabgʻuziy «Xudoga itoatli kishi»ni **banda** (Тафсири, 13662) deya zikr etgan: *Tāḡriniḡ bandasimān, birlikiḡā kitāb* (169616). Leksema «Nahjul- farodis»da oʻz maʼnosida uchraydi: *Haq taʼalā aydi: ezgū bandalar čiqarḡayman* (13968). Ushbu soʻz “qaram boʻl-” maʼnosini bildiradigan tojikcha *bastan* feʼlining *band* hozirgi zamon asosiga tojikcha –a qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan boʻlib, oʻzbek tilida “taqdiri Ollohning ixtiyoridagi kishi” maʼnosini anglatadi (ЎТЭЛ, III, 20). Kezi kelganda aytish joizki, tadqiq qilinayotgan soʻz ot yasovchi **-liq/-lik** affiksi yordamida yangi leksema hosil qilishda qatnashgan: *Zulqarnayn aydi: māḡū suwīn istāyū keldim, uzun yaṣap İdigā bandalik qīlayīn tedim* (177r14). Qissa lugʻat tarkibida tekshirilayotgan terminning turkiycha **qul** sinonimi ham koʻzga

¹¹⁰ Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: ФАН, 1977. –Б.159.

¹¹¹ Жамолхонов Х.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. –Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2004. –Б. 55.

¹¹² Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: ФАН, 1983. –Б. 155.

tashlanadi: *Aydi: İṣā Tāḡriniḡ qulī turur, yalawač taqī ruhullāh turur* (170r6). Oʻz navbatida, bu leksemaning «qul. xizmatkor» semasi ham kuzatiladi: *Mālik Zaʼr aydi: taqī šaharḡa kirmādimiz, bāzārni kormādimiz, qulni satīḡḡa kiwūrmādiniz* (76v5).

Zanjir oʻzlashmasi «kishan» maʼnosini anglatgan: *Qayu qapuḡḡa Yusuf yetsā İdi azza va jalla qudratī birlā temūr zanjirlār ačilur erdi* (83v4). Oʻzlashma «Nahjul-farodis» asarida ayni semada koʻzga tashlanadi: *Boynumḡa zanjir qodtilār* (180a14). Shuningdek, termin tadqiqot obyekti qilib olingan manbada feʼl turkumiga doir yangi soʻz yasashda ishtirok etgan: *Šaytān kelip čirāḡni očūrürdā Yaʼqub sākrādi šaytānni tutup boynini zanjirladi...* (62r9). Mazkur soʻz etimologiyasi boʻyicha quyidagicha fikr mavjud: -r qoʻshimchasi “yirik” maʼnosini ifodalagan. “Metall halqalar” maʼnosi *zanji* oti bilan anlatilgan, *zanjir* esa “yirik metall halqalar” maʼnosini bildirgan (ЎТЭЛ, III, 102). Obida tilida tekshirilayotgan istilohning turkiy **kişan** sinonimi ham isteʼmolda boʻlgan: *Azaqimḡa kişan urdilar, yinjüklārim yoḡun kişandā šišdi* (74r7). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “ikki aʼzoni (oyoqni) bir-biriga qisqa oraliq bilan bogʻla-” maʼnosini anglatgan **kişā-** feʼlidan –n qoʻshimchasi bilan yasalgan (ЎТЭЛ, I, 211).

Yodnomada «xibsxona, qamoqxona» **zindān** deb atalgan. *Yusuf kördikim Zulayhā zindānḡa salurmen teyür* (86v17). Oʻzlashma dastavval Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» dostonida qayd qilingan: *Esizkā bu qin berkā zindan yegī* – Ahmoqqa eng yashi jazo tayoq va zindon (ДТС, 639). Leksema «Xusrav va Shirin» asarida ham zikr etilgan semada qoʻllanilgan: *Ul qarşi bolup Širingā zindān* (59b16). Atama qissada turkiy **-či/-či, -liḡ/-liḡ, -laʼ/-laʼ** affikslari vositasida quyidagi ot va feʼl turkumiga oid leksemalarni yasagan: 1) **zindānči** – «zindonbon»: *Aymişlar: Yusufni zindānḡa keltürdilar ersā, zindānči Yusuf tonin čiqaraliḡ, qurini yazaliḡ tedi* (87r16); 2) **zindānliḡ** – «tutqun, asir»: *Yusuf zindāndin qamuḡ zindānliḡlar birlā čiqdi* (92r1). Bu oʻrinda soʻz turkiy **tutuḡ** leksemasi bilan maʼnodoshlik qatorini yuzaga keltirgan: *Ular Kaʼbaniḡ tutuḡlari arasinda olturur erdilār* (227r21); 3) **zindānla-** – «zindonga tashlamoq»: *Jabrāil aydi: İdi azza va jalla anī zindānlamas, čiqarḡil* (157r21).

Ilk bor «Тафсири» asarida qayd qilingan **yabān** – «choʻl,

sahro»(41,3) soʻzi «Qisasi Rabgʻuziy»da oʻzining asl maʼnosida qoʻllanishda davom etgan: *Meni yinjularim birlä yābānga izgʻil* (69r9). XIV asr Xorazm yodnomalarida **yābān**, **yāpān** shakllarida ishlatilgan: ...*Taqi yābāndaqi kiyiklārni musaxxar qilip turur erdi* (HΦ,105b15); ...*Sahargā kelmāsün yāpānda tursin* (XIII,54a6). Shuningdek, oʻrganilayotgan manbada oʻzlashmaning turkiy **yazī**, arabcha **sahrā** sinonimlari ham uchraydi: *Riwāyatda kelmiş: bir kečā yilqi qarasin, qoy-qozisin yaziga čiqardi* (61v15); *Andin soj bir uluğ teñiz qirağında sākiz ayliq keñ sahrā bar erdi* (138v1).

Rabgʻuziy asarida **yār** oʻzlashmasining «doʻst, muhib» maʼnosida istifoda etilganligiga guvoh boʻldik: *Muhammadni öltürüp yārilarini bulun keltürä turur tedilär* (197r17). Termin Xorazmiyning «Muhabbatnoma»sida ham ayni maʼnoda ishlatilgan: *Qilur Ayubni mihnat bilä yār* (291a6). Shu bilan bir qatorda, qissa soʻz boʻyligida istilohning **yārān** koʻplik shakli: *Muhammadni kördilär Umar birlä ilik ališib yārānlari birlä kelürlär* (197r19); turkiycha **ortaq**: ...*Teñi töši, ortaqi yoq, kimersādin tuğmadi, kimersā andin tuğmadi* (46r13); **qoldaš**: *Qamuglari tamuğ icında māña qoldaš boldilar* (22v21); **eš**: *Bu Uğangā ayurda kimlär erür ešlari* (131v2); arabcha **habib**: *Bešinč Musā habibdin başqa diydār tilādi, bermādi* (122v13); forschatojikcha **dost**: *Men dostlarimğa qadğu ravā körmāsmen* (123r2) kabi sinonimlari ham qayd qilingan.

Qissada “uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi, izma-iz boruvchi hayvonlar, aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar toʻdasi” **karwān** deb yuritilgan: *Mavlā taʼalā yarliği birlä yel qopti karvān yol yitürdi* (74r2). Termin birinchi marta “Qutadgʻu bilig” asarida keltirilgan: *Yeti aflāk karvāni* (ДТС,289). *Kor (ye)* oti “ish, mehnat, vazifa” kabi maʼnolarni anglatadi. Ushbu soʻz tarkibidagi *o* tovushi oʻzbek tilida *a* tovushiga almashtirilgan. **Karwān** soʻzidagi ikkinchi qism “kuzatuvchi” maʼnosini bildiradigan *-bon* qoʻshimchasi boʻlib, tojik tilida bu qoʻshimcha tarkibidagi *b* tovushi *v* tovushiga almashtirilgan; oʻzbek tiliga shu shaklida olingan. Asli “boshqaruvchi kishi” maʼnosini ifodalagan bu ot keyinchalik “uzoq yerlarga yuk tashuvchi tuyalar va ularga qaraydigan shaxslar” maʼnosini anglatadigan boʻlgan (ЎТЭЛ,III,119). Tadqiq etilayotgan yodnomada oʻzlashmaning turkiy

arqış maʼnodoshi ham mavjud: *Malik Zaʼr qopdi, arqış ara kirdi on sākiz Misr yarmaqi buldi* (73r13).

“Xudoning xohish-irodasini bandalarga yetkazuvchi kishi” **payğambar** (Г,9468; HΦ,26a12; XIII,108614) deb nomlangan: *Muhammad Mustafāni miʼrāj tünında Baytul-muqaddasda qamuğ payğambarlarga, yetti qat kök farištaläriğa imām qildim* (198v12.13). Bu tojikcha ot “xabar” maʼnosini anglatadigan *paygʻom* soʻziga “keltirmoq” maʼnosini ifodalagan *burdan feʼlining bar* hozirgi zamon asosini qoʻshib hosil qilingan (ЎТЭЛ,III,181). Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, leksik birlik ot turkumiga oid yangi soʻz hosil qilishda asos vazifasini oʻtagan: *Qirg yasağanda Jabrāil payğambarliq tegürdi* (198r15). Qissa lugʻat boʻyligida oʻzlashmaning turkiycha **sawcī** (<saw – “xabar, soʻz”): *Sawcī Ishāq ogli teb bu atni alğan Yaʼqub ul* (61v6); **yalawač**: *Yalawač uruği üçün bu arig* (86r9); **elci**: *Tañri elcisi dastur tiläyür tedi* (119v7); arabcha **mursal**: *özi kez yurākli Mavlāniñ mursal quli* (61v11); **nabiy**: *Xalq üzä yawlaq bağirsaq erdi belgülük nabiy* (188r15); **rasul**: *Yana rasulğa aydi: sen qabul qildiyimu? Rasul aydi: qabul qildim* (192r19) kabi sinonimlarini ham koʻrish mumkin. Manbalarda qayd etilishicha, agar paygʻambarlikka tanlangan kishiga boshqa kishilarning aqidasi - dunyoqarashini toʻgʻrilash vazifasi yuklatilsa va yangi alohida shariat(qonun-qoidalar) olib kelsa, yaʼni elchilik qilsa, bunday kishilar «rasul» deb nomlanadi. Yangi shariat olib kelmay, oʻzidan avvalgi paygʻambarlar shariatiga amal qila turib, insonlarni yolgʻiz Allohning oʻziga ibodat qilishga, unga shirk keltirmaslikka daʼvat etganlar esa «nabiy» deyiladi. Demak, rasul kitob va shariat sohibi, nabiy esa oʻzidan oldin kelgan rasulning shariatiga xalqni daʼvat etish bilan vazifalantirilgan boʻladi¹¹³.

Biroq oʻrganilayotgan asar leksikasida **rasul** soʻzining boshqa paygʻambarlarga nisbatan ham qoʻllanilganligini guvohi boʻldik: *Lut malik sarayinğa keldi, ... aydi: sen kimsen? Aydi: Tanriniñ rasulimen* (58v7).

Taxta leksemasi “gʻoʻladan uzunasiga tilib olingan yassi yogʻoch boʻlagi”, “peshlavha” maʼnolarida qoʻllanilgan: *Nuh payğambar kemāsiniñ taxtasi birlä saqfini örtidi* (52v9); *Aymışlar: ul ganjda bir*

¹¹³ А. Абдурахмонов. Саодатга элтувчи билим. -Т.: Шарк, 2002. –Б.44.

altun taxta bar erdi bitig sözlari bitiglig (131r3). O'zlashma XIV asr Xorazm manbalarida "g'o'ladan uzunasiga tilib olingan yassi yog'och bo'lagi": *Vijudi qaldi quruğ taxta sani* (XIII,51a18); «to'rtburchak taxtacha shaklidagi kichikroq narsa, taxtacha»: *Qiyāmat kun bolsa ol altunni taqi kümüšni taxta qilğay* (HΦ,126a9) ma'nolari ifodalagan. Mazkur ot "tekis" ma'nosini bildirgan *taxt* so'zidan –a qo'shimchasi bilan yasalgan (ЎТЭЛ,III,224). Ayni paytda, o'rganilayotgan qissada istiloh **-lig/-lig** affiksi bilan birgalikda yangi so'z hosil qilishda ishtirok etgan: *...İslāmāk üçün qapuğ qilmış erdi iki taxtalığ, ul qapuğni olēadilar otuz arşun uzunı* (176r4).

Farmān (HΦ,20b2; XIII,1265; Γ,2612) "buyruq, topshiriq" ma'nosini anglatgan: *Tāhri farmāni birlā qizi tirildi* (160r17). Shu bilan birga, ushbu leksema fe'l turkumiga doir yangi so'z hosil qilishda o'zak morfema sifatida qatnashgan: *Ya'ni meni qutluğ yaratğusi qayda ersā taqi māñā namāz farmānladi* (169v19). Ushbu leksema "buyur-" ma'nosini anglatadigan tojikcha *farmudan* fe'lining *farmo* hozirgi zamon asosiga –n qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan (ЎТЭЛ,III,232). O'z navbatida, yodnomada o'zlashmaning turkiy **buyruq**: *...İbriy tilinčā bu kitāhda yeti miñ buyruq bar* (119v4); **yarliğ**: *Ul hālda Jabrāil yetildi yarliğ tegürdi* (76v16) singari sinonimlari ham mavjud.

Pāra o'zlashmasi dastavval "Тафсир" asarida "parcha, bo'lak" ma'nosida qo'llanilgan: *Urđi ārsā taš pāra boldi* (31624). XIV asrda Xorazmda yaratilgan manbalar tilida "parcha, bo'lak": *...qoy etidin bir pāra aldi* (HΦ,17615); "masofa": *Bu surat qissasi bar bir pāra uzaqraq, oš ayturmān vali bolsa yer ağlaq* (XIII,18618) semalarini ifodalash uchun xizmat qilgan. Numerativ tadqiqot obyekti qilib olingan yodnoma so'z boyligida quyidagi ma'nolarni anglatgan: "parcha, bo'lak": *Qoli birlā siğadi issiğ etmāk zāhir boldi, Yunusga berdi, bir pāra yedi qalğanin oğlanlarığa berdi* (155r15); "hududiy bo'linish": *Yetmiş pāra eldā ul qizdin körklük qiz yoq turur* (144r11). Alisher Navoiy asarlarida mazkur leksemaning "parcha", "kitobning bir bosma toboqqa teng qismi, juz'i" (HAJI,511) "birmuncha, bir qism" (АНАТИЛ,II,582) ma'nolarini uchratish mumkin. Bundan tashqari, "Qisasi Rabg'uziy" da o'zlashmaning turkiy **böläk**, forscha-

tojikcha **parča** ma'nodoshi ham kuztiladi: *... bular iki böläk* (174v20); *Etägi yirtilip bir parčasi qoliğa keldi* (83v6).

Tadqiqot obyekti qilib olingan manbada istifoda etilgan o'zlashma qatlamga doir 2568 ta so'z leksik fondning shakllanish va rivojlanish jarayonini hamda tildan tashqari – ekstralingvistik omillarni kuzatishda muhim ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar:

1. til lug'at tarkibining boyishida tashqi manbalar qanday o'rin tutadi?
2. turkiy tillar leksikasidagi o'zlashma so'zlarni nechta guruhga ajratish mumkin?
3. "qisasi rabg'uziy" dagi sanskritcha so'zlar to'g'risida fikr bildiring.
4. sug'dcha o'zlashmalar xususida ma'lumot bering va misollar keltiring.
5. xitoy tilidan kirgan leksik birliklar haqida so'z yuriting.
6. asarda yunoncha so'zlarning qo'llanilishini misollar yordamida tushuntiring.
7. arab tiliing ilmiy va badiiy asarlar tiliga aylanish jarayoni qanday kechdi?
8. obida so'z boyligida arabcha so'zlar boshqa o'zlashmalarga nisbatan ko'pligining sababini misollar bilan asoslang.
9. forscha-tojikcha so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishida qaysi omillar muhim rol o'ynagan?
10. qissada ishlatilgan forscha-tojikcha o'zlashmalarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati xususida gapiring.

ASAR LEKSIKASINING QADIMGI TURKIY MANBALAR VA QORAXONIYLAR DAVRI YODNOMALARI TILIGA MUNOSABATI

Tayanich soʻzlar: qadimgi qoʻlyozmalar, eski turkiy til, etimologiya, termin, sema, uygʻur yozuvidagi manbalar, fonetik variant, abushqa, koʻni, sagʻraq, yashin, koʻzgu, sanduvach, qaragʻu, cherig, bagʻirsaq, sungu, yigʻach, arshun.

Til tarixini oʻrganish, uning eski holatidan voqif boʻlish qadimgi qoʻlyozmalarni qiyosiy jihatdan tadqiq etish, ular orasidagi yaqinlik va farqlarni aniqlash yordamida olib boriladi. Asar tilining qadimgi turkiy, eski turkiy adabiy tilning ilk manbalari tili bilan munosabati haqida shuni aytish joizki, mazkur obidalar turli davr va sharoitlarda yaratilgan. Shu bois, tilda oʻzgarishlar yuz bergani tabiiy. Chunki bu vaqt mobaynida til oʻzining taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq fonetik, leksik, morfologik, sintaktik jihatdan oʻzgarishga uchragan, takomillashgan, boyigan. “Qisasi Rabgʻuziy” asari leksikasi boʻyicha olib borgan kuzatishlarimiz yodnoma tili bilan qayd etilgan davr yodgorliklari oʻrtasida yaqinlik va baʼzi farqlar borligini, lekin bu ularni bir-biridan ayiruvchi emas, balki yaqinligini ifodalovchi tafovutlar ekanini koʻrsatdi. Buni quyida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil jarayonida ham kuzatish mumkin.

Agin termini dastlab Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida “soqov, tilsiz” maʼnosini anglatgan: *Naluk soʻzlāmāz sen aq̄integ bolup* – nima uchun gapirmaysan saqovdek (DTС, 18). Termin oʻrganilayotgan manbada ham zikr etilgan semasida ishlatilgan: *Taqi ishlāmāganlar biri qaraḡu, ikkinçi saḡir, üçinçi aḡm...* (130v14). Ayni paytda, asarda mazkur soʻzning **tilsiz** sinonimi ham koʻzga tashlanadi: *Ul künden berü sinäk tilsiz qaldı* (25v21). Demak, ushbu leksema XIV asrga kelib, aginning maʼnodoshi sifatida qoʻllanila boshlagan.

“**Ovqat, yegulik**” tushunchasini bildirgan **azuq** leksemasi ilk bor Kul tegin bitigida keltirilgan: *Azuqi yoq erti* (DTС, 73). Ushbu soʻz Mahmud Koshgʻariyning “Devon”i hamda “Тафсири”da oʻzining asl semasini saqlagan: *Sartniñ azuqi ariḡ bolsa, yol üzä yer* (1,97); *Taʼamniñ qamuğin alurlar biz farzandalrimiz birlä azuqsiz qalurmiz*

(8966). XIV asr Xorazm yozma manbalarida **azuq**, **aziq** shakllari kuzatiladi: *Vafādin öy bu yolda azuqum yoq* (XIII, 83a16); *Payğambar aydi: ya Hadiça māñā aziq qilu bergil* (HФ, 468). Ushbu leksik birlik qissa tilida faol isteʼmolda boʻlgan: *Yüz batman buğday bir yilliq azuq bolur erdi* (23r5). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “chaynamoq” maʼnosini anglatgan **azu/azi-** feʼlidan **-q** qoʻshimchasi bilan yasalgan (ҮТЭЛ, I, 249). Shuningdek, qissada tekshirilayotgan soʻzning **asliq** maʼnodoshi ham uchraydi: *Qulin küjin Yusufğa satib asliq aldilar* (66v21).

“Keksa, chol” semasiga ega **abuşqa** (HФ, 1061) termini qadimgi turkiy va eski turkiy til obidalarida **awıncğa** (DTС, 70), **awıçğa** (DTС, 69), **awučqa** (DTС, 3), **awučğa** fonetik shakllarida qayd etilgan: *Soküs boldi erkä avučğa atı* – avuchqa erkaklar oʻrtasidagi munosabatda haqorat soʻzi boʻldi (DTС, 70). “Qisasi Rabgʻuziy”da **abuşqa**, **abuşğa** shakllari mavjud: *Tikän astında bir abuşqa kördüm yawlaq yiḡlayur* (11v12); *...Bu abuşğağa oğullar karāmat qilḡil* (78v1). Shu bilan birga, obidada bu soʻzning **qarı**, **qart** sinonimlari qoʻllanishda boʻlgan: *Qarilar durda, oğlanlar dabristānda muni oqurlar* (193r19); *Qaçan Dāvud anı kördi ersä ālimlarnı qartlarnı ündätđi* (136v9).

“Rost, haqiqiy, toʻgʻri” maʼnosi **çin** leksemasi yordamida berilgan: *Bilqis aydi: Sulaymān çin yalawaç ermiş* (149r17). Ushbu soʻz birinchi marta qadimgi turkiy til yodnomalarida ifodalangan (DTС, 148). Mahmud Koshgʻariy lugʻatida qayd etilgan semada kelgan: *Çin aydiñ* (MK, I, 326). Atama XIV asr Xorazm manbalari tilida ham oʻzining asl maʼnosida isteʼmolda boʻlgan: *...Köz uçi birlä aydi kim ey çin māh* (XIII, 4166). Obida soʻz boyligida leksemaning turkiy **köni**, forsha-tojikcha **rāst** va arabcha **haqiqat** sinonimlari ham koʻzga tashlanadi: *Hikmat maʼnisi köni bişiḡ islik bolur* (163v11); *Anı sinağayn tep bu işni qildim, atam sözi rāst çiqti* (164v8); *Haqiqat bildikim seni kim ersä körmäs ermiş* (121v18).

Tadqiqot obyekti qilib olingan yodnomada **adaq**, **ayaq**, **ayağ** soʻzi “qadah, jom” tushunchasini ifodalagan: *Zaiflarnı urğanlar İdi azza va jallanī āzārlağanlar adaq alğan...* (249r12); *Ul üzüMni siqip suwin ayaqğa salip malikkā ayaq tuturdim* (88r14); *...Mij sanliḡ*

harir, idis ayaqlar... (148r18). Berlin to'plamidan joy olgan uyg'ur yozuvidagi manbalar hamda XI asr yodgorliklarida **ayaq** varianti zikr etilgan semani anglatish uchun xizmat qilgan: *Bu ayaqni yaruqi bar* – bu qadahning yoriqi bor (ДТС,27). Qutbning “Xusrav va Shirin” hamda “Nahjul farodis” asarlarida adaq, ayaq shakllari ko'zga tashlanadi: *...Taqi xamr adaqi tutmaqdin tark qildi* (HФ,133a11); *Saqikar elgi ham taldi ayaqdin* (XIII,4262). Ushbu so'z qadimgi turkiy tildagi “o'yilgan joy” ma'nosini bildirgan **ağ** otining **ay** shaklidan “kichik” semasini ifodalovchi **-(a)q** qo'shimchasi bilan hosil qilingan degan qarash yo'q emas (ЎТЭЛ,1,250). Ayni paytda. Rabg'uziy turkiy **sağraq**, arabcha **qadah** istilohlarini mazkur leksemaga sinonim tarzida ishlatgan: *Yusufni ilginda sağraq bar erdi* (94r11); *İki qadah keltirdilar* (198r15).

“Qozon” ma'nosi Mahmud Koshg'ariyning “Devoni”da **ašač** (ДТС,62) // **ašič** variantlari bilan anglashilgan: *Ašič ayur túbüm altun* (1,86). O'rganilayotgan obida lug'at tarkibida ašač shakli istifoda etilgan: *... tannurqa ot kemišti, ašač asti* (228r7). Kezi kelganda aytilish joizki, yodgorlikda ushbu so'zning **qazan** // **qazgan** ma'nodoshi ham keltirilgan: *Qaçan it egalari kelsa xatunlariğa qazan asturup...* (95r1); *Min sanliğ harir, idis ayaqlar. tabaq qazganlar...* (148r18).

Qissada **avuč** so'zi “hovuch, siqim” ma'nosini ifodalagan: *Sāmiriy ul tofraqdin bir avuč alib saqlamiş erdi* (126r4). Leksema ilk bor “Oltun yorug'” yodnomasida adut shaklida qo'llanilgan: *Ayača aš bermiş aduča suv tutmiş...* - bir kaft hajmicha ovqat, bir hovuch miqdorida suv bermoq (ДТС,14). Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostonida **avuč**: *Uquşsuz kişi avučča titik* - aqlsiz, nodon kishi bir hovuch axlatga o'xshaydi (ДТС,70), *avut* (ДТС,71), Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida *avut* (I,111), *adut*: *Bir adut neç* (I,85) fonetik variantlari kuzatiladi. “Тафсири” va XIV asr Xorazm manbalarida **avuč** shakli qayd etiladi: *Bir avuč uşaq taş tutdi taqi...yüziñä atdi* (11561); *Bir avuč topraqdin yarattı* (XIII,117613). Alisher Navoiy asarlarida termin “hovuch”, “chapak” ma'nolarida ishlatilgan (HАЛ,478). Bundan ko'rinadiki, XV asrga kelib termining ma'nolari kengaygan. Bu ot qadimgi turkiy tilda “ikki qo'l shapalog'i bilan olmoq” ma'nosini anglatgan **abu-** fe'lidan –č

qo'shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik bu so'z tarkibida quyidagi tovush o'zgarishlari voqe bo'lgan: ikki unli oralig'idagi **b** undoshi **v** undoshiga almashgan: **abuč** > **avuč**. O'zbek tilida termining boshlanishiga **h** undoshi qo'shilgan: **avuč** > **havuč** (ЎТЭЛ,1,595).

“Och, qorni och” tushunchasini anglatgan **ač** (T,158a13; HФ,12967; XIII,31a13) so'zi dastlab Turfon matnlarida ifodalangan: *Yaliğ boğazi todmaz ač yoriyur* – uning och tomog'i to'ymas, doimo och yuradi (ДТС,3). Bu termin eski turkiy tilning ilk yodnomalarida ham o'zining asl ma'nosini davom ettirgan: *Ač ne yemäs, toq ne temäs* (MK,1,108). Leksemaning keyingi davrda ham iste'molda bo'lganligini “Qisasi Rabg'uziy”da ko'rish mumkin: *Bu ač xaläyiqğa yüzünni körgüzgil* (93r11).

Birinchi bor “Qutadg'u bilig” asarida keltirilgan **anuq** so'zi “tayyor” semasini bildirgan: *Qayusi batardın tapuğei anuq* – ulardan biri G'arbdan, xizmatchi bo'lishga tayyor (ДТС,46). Termin XIV asr manbalarida ham ilk ma'nosida ishlatilgan: *Yol üçün azuq anuq etmak keräk* (F,17769). Tekshirilayotgan manbada derivativ so'z ayni ma'noda o'z aksini topgan: *Anuq ton kiyip bulut kölägäsindä turdilar* (118r19). Bu ot “tayyorlamoq” ma'nosini anglatgan **anu-** (ДТС,46) fe'li bilan **-q** affiksida yasalgan.

Obida tilida “bulbul” ma'nosi **sanduwač** zoonimi bilan ifodalangan: *Lāla sağraqın içärdä sayrar esrüb sanduwač* (68v3). Ushbu so'zni birinchi marta Yusuf Xos Hojib o'z asarida **sandiwač**// **sanduwač** shakllarida keltirib o'tgan: *Sariğ sanduwač... sayradi* (ДТС,484). “Devon”da **sanduwač** varianti uchraydi: *Tatliğ otär sanduwač* – bulbul yoqimli sayraydi (I,481). Qutbning “Xusrav va Shirin” asarida **sanduwač** (53612), **zanduwaj** shakllari ifodalangan: *Körär kim tağ üzrä xuş çečäklär açılmış zanduwajlar qarşu sayrar* (14a6). Tekshirilayotgan leksema keyingi davr manbalarida qayd etilmaydi. Ayni paytda, “Qisasi Rabg'uziy”da leksemaning arabcha **bulbul** sinonimi ham kuzatiladi: *Qumri, bulbul muqri bolib ün tüzär tün-kündüzi* (68v5). Bu so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida ham mazkur ma'noda ishlatiladi. Ma'lum bo'ladiki, **bulbul** istilohi XIV asrda dastavval **sanduwač** zoonimiga ma'nodosh sifatida qo'llanilgan bo'lsa, so'ngra uning o'rmini butunlay egallagan.

“Oyoqni chalishtirib o‘tirish” semasiga ega **bağdaş** leksemasi dastlab Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida qo‘llanilgan: *Yana bağdaş ilma yanij yatmagil* – yana oyog‘ingni chalishtirib o‘tirmagil, yonbosh yotmagil (ДТС,76). Bu so‘z o‘rganilayotgan manbada o‘z ma‘nosini saqlab qolgan: ...*korar bir qaba saqallig bağdaş qilip olturur* (18v17). Bizningcha, mazkur ot ko‘p ma‘noli **bağ** leksemasining “kishan, band” (ДТС,77) ma‘nosi bilan **-daş** qo‘shimchasidan hosil bo‘lgan.

Čerig so‘zi yodnomada “qo‘shin, lashkar” ma‘nosini ifodalagan: *Barğil Namrudğa ayğil sançusur koñüllük bar ersä, čerig amutği* (44v2). Mazkur termin dastlab Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qayd etilgan: *Yüräksiz kişilär čerig artatur* – yuraksiz (qo‘rqoq) kishilar qo‘shinni zaiflashtiradi (ДТС,144). “Devon”da *čarik* “urush safi”, “har narsaning ro‘parasi, vaqti”(o‘g‘uzcha) ma‘nolarini anglatgan: *Alp čarikdä, bilğa tirikdä* – botir jang alangasida sinaladi, dono majlisda (I,369). Leksema XIV asr Xorazm manbalarida o‘zining asl ma‘nosida qo‘llanilgan: *Muhammad qalın čerig birlä keldi* (HФ, 20611). Ayni paytda, ushbu termin qissada sifat yasovchi -lik/-lig affiksi bilan birikib yangi so‘z yasagan: *Tekmä biri on miñ čeriglig boldilar* (107v20). Ayrim manbalarda bu so‘zning sanskrit tilidan o‘zlashganligi qayd etiladi (ДТС,144; УТИЛ,IV,475; ЎАТЛТ,20). Biroq bu masalaga Mahmud Koshg‘ariyning quyidagi fikrlari oydinlik kiritadi degan umiddamiz: *čär – ro‘para(o‘g‘uzcha): Anij äwi bu čärlikdä* – uning uyi bu narsaning ro‘parasidadir. *Ikki askar safiga ham čarik deydlar. Chunki ular ham bir-biriga ro‘para turadilar* (I,312-313). Bundan tashqari, yodgorlikda o‘rganilayotgan leksemaning forsha-tojikcha **läškär** (XIII,8062; Г,48a10) sinonimi ham uchraydi: *Qaçan Yusuf läškäri birlä paydä boldi qarabaşi Zulayhäğa xabar qildi* (108v7). O‘zlashmaning XIV asr yodnomalarida ko‘zga tashlanishi uning keyingi davr mahsuli ekanligini bildiradi.

Bağirsaq qoraxoniylar davri yodgorliklari va “Тафсир”da “mehribon, oq ko‘ngil” ma‘nosini anglatgan: *Bağirsaq kişi* (ДТС,78); *Ol ärür mänä bağirsaq* (13610). Leksema “Qisasi Rabg‘uziy”da qayd etilgan semasida ishlatilgan: *Ya‘ni bağirsaq ata temäk bolur* (37v19). Ushbu so‘z “jigar”, “qorin”, “yurak”, “qavm-qarindosh” ma‘nolarini ifodalagan **bağir** (ДТС,78) otidan yasalgan.

Boqağu//boqav so‘zi obida tilida “sirtmoq, kishan” tushunchasini ifodalash uchun xizmat qilgan: *Adaqlarınğa boqağu urdi* (154r5); *Dādbāna aydi: yegirmi temür qazıq qaçın, temür boqaw, taraç birlä etin taraç* (161v19). Mazkur termining Turfon matnlari, moniy yozuvidagi yodnomalar hamda “Devonu lug‘otit turk”da qo‘llanishda bo‘lganligini “Qadimgi turkiy lug‘at” yordamida bilish mumkin: *Yazuqluğ erniñ baği külügi boqağusi ağırlıg yiniklig bar* – gunohkor kishida yengil va og‘ir zanjir, kishan bor (ДТС,112). Bu so‘z “Nahjul farodis”da ham ayni ma‘noda kelgan: ... *adaqınğa boqağu uruñ boynunğa gul uruñ* (180a5). Fikrimizcha, **boqağu** termini “qattiq siqmoq, qismoq” ma‘nosidagi **boğ-** (ДТС,109) fe‘li bilan **-ğu** qo‘shimchasidan hosil qilingan.

Bundan tashqari, tadqiqot obyekti qilib olingan asarda ushbu so‘zning **kisän** sinonimi ham uchraydi: *Aydilar: xat bitig berürmiz, ul sart birlä kim adaqınğa kisän urgil* (73r18).

Qissada “qalin xom teridan tayyorlangan, kalta qo‘njl, tagi qalin, uchi yuqoriga biroz qayrilgan oyoq kiyimi” semasi **čaruq** leksemasi orqali ochib berilgan: *Adaqında eylänmägän eşak terisidin čaruqi bar erdi* (154v7). Ushbu so‘zga ilk marta Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida duch kelamiz: *Yadağ atı čaruq, küci azuq* – yayov oti choriq, kuchi oziq (1,362). **Čaruq** oti “o‘rab bog‘lamoq” ma‘nosini anglatgan **čari-** fe‘lidan **-q** qo‘shimchasi bilan yasalgan (ЎТЭЛ,1,435).

“Chaqmoq” (Мн.,301b7) ma‘nosini anglatgan **yaşin** so‘zi dastlab “Oltun yorug‘” yodnomasida uchraydi: *Yaşin yaruqlyğ...* – chaqmoq shu‘lasi (ДТС, 246). Leksema XI asr yozma manbalarida o‘z semasida ishlatilgan: *Yaşin yaşnadi* – chaqmoq chaqdi (ДТС,246). Termining keyingi davrda ham o‘z ma‘nosini davom ettirganligini “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ko‘rish mumkin: *Yaşin yaşnadi fariştalär ün kotürdilär* (121r4). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “yaraqlamoq” ma‘nosini anglatgan **yaşi-** fe‘li bilan **-n** qo‘shimchadan hosil qilingan (ЎТЭЛ,1,147).

Rabg‘uziy “piyozsimon ko‘pyillik o‘simlik” nomini ifodalash uchun **sarmusaq** so‘zidan foydalangan: *Yana aydlar: ey Musä duä qilğil İdi azza va jalla yerdin üngän zargun qarın, sarmusaq, yasmuq, soğan bersün* (119r5). Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni”da

sarmusaq, samursaq (1,480) shakllarini kuzatamiz. “Nahjul farodis” asarida **sarimsaq** shakli uchraydi: *Ol ta'am icında sarimsaq qatti* (21164). Sh. Rahmatullaev leksema etimologiyasi haqida quyidagicha fikr bildiradi: Bu yerda qadimgi turkiy tildagi “o’ramoq” ma’nosini anglatgan **saru-** fe’lidan **-m** qo’shimchasi orqali ot va **-sa** qo’shimchasi bilan fe’l yasalgan, keyin mazkur fe’ldan **-q** affiksi yordamida yana ot hosil qilingan (ЎТЭЛ,1,276).

Sünjü//sünjüg – “nayza” To’nyuquq yodgorligi, Turfon matnlari va “Devonu lug’otit turk” asarida ifodalangan: *Sünjü qilic taz...* – nayza, qilich, toj (ДТС,517). Tekshirilayotgan obidada birinchi shakl qo’llanishda bo’lgan: *Mavlā taālā ularğa nusrat berdi, qamuğini sünjü, qilic birlā sanctilar* (165r16). XIV asr Xorazm yodnomalarida sünjü, sünji variantlari uchraydi: *Kelür yaxši sünjü için körärgä* (Г,121a7); *Sünjisi haybatindin tebrär yer* (XIII,19621).

Tarğaq (HФ,667; XIII,23618) “soch va soqolni tarash buyumi” birinchi bor Mahmud Koshg’ariy “Devon”ida ko’zga tashlanadi (ДТС,537). O’rganilayotgan yodgorlikda leksemaning **tarğaq, taraq** shakllari mavjud: *Yana sordi bu ne tarğaq turur?* (18v11); *Sačlarī taraqğa muhtāj bolmadi* (119r8). So’z “ajratmoq, bo’lak-bo’lak qilmoq” ma’nosini bildirgan **tar-** fe’lining “takror” ma’nosini ifodalovchi **-ga** qo’shimchasini olgan shaklidan **-q** affiksi bilan yasalgan (ЎТЭЛ,1,323).

Teyiñ zoonimi Bilga xoqon bitigtoshi va “Qutadg’u bilig” dostonida “olmaxon” ma’nosida ko’zga tashlanadi: *Aği çuz teyiñ kiş alirsän terip* – olmaxon, suvsar terisi kabi qimmatbaho gazlamalar yig’ish (ДТС, 549). “Qisasi Rabg’uziy”da **tiyiñ** varianti istifoda etilgan: *Yerdä yügrüp juft alişur ās, tiyiñ, kiş, qunduzi* (68v4). Alisher Navoiy asarlarida tiyin shakli “olmaxon” hamda “olmaxon terisidan tikilgan po’stin” semalarini ifodalash uchun xizmat qilgan (АНАТИЛ,III,224). Ko’rinadiki, zoonimda ma’no o’zgarishi keyingi davrlarda, ya’ni eski o’zbek adabiy tilida yuz bergan.

Turfon matnlari, Qoraxoniylar davri obidalari hamda XIV asr Xorazm yodnomalarida **egin** so’zi “yelka” ma’nosini bildirgan: *Köküz eginka tegi* – ko’kragi va yelkasiga qadar; *Emgäk eginda qalmas* (ДТС,166); *...Buyurdi beklär egnidä kötürdi* (XIII,112a4).

“Тафсири”da **ägin** shakli ishlatilgan: *Baltani kötürüp burxanlarin uluğinañ ägni üzä qoydi* (38,27). Leksema tadqiqot obyekti qilib olingan manbada o’zining asl semasida qo’llanilgan: *Bu onağu egin birlä tamni tebrättilär* (64v5). Professor Sh. Rahmatullaev termin qadimgi turkiy tildagi “yuqoridan pastga qayirmoq” ma’nosini anglatgan **en-** fe’lining **eg-** shaklidan **-(i)n** qo’shimchasi orqali yasalgan degan fikrni ilgari suradi (ЎТЭЛ,1,460).

Erin (XIII,4364) leksemasi “Qisasi Rabg’uziy”, “Muhabbatnoma” asarlarida “lab” tushunchasini ifodalash uchun xizmat qilgan: *İki erinläri Habaşiy erinlar deg* (83r11); *Erür jan maqsadi erniñ nabati* (Мн.,308a9). Ushbu so’zni ilk marta Turfon matnlarida uchratish mumkin: *Erin üzä meñ bolsar...* – lab ustida xol bo’lsa (ДТС,178). “Тафсири”da **ärin** fonetik shakli kuzatiladi: *... altigi ärnini Fir’avn taxtiniñ altinda urdi...* (30,27). Shuningdek, tekshirilayotgan obidada terminning **dudaq** sinonimi ham istifoda qilingan: *Tümän miñ äsiy aninñ dudaq tebrätmäki birlä yarliqanğay* (184r20). Bu ot qadimgi turkiy tildagi ma’nosi aniqlanmagan **tu:t-** fe’lining “takror” ma’nosini ifodalovchi **-a** qo’shimchasi qo’shilgan shaklidan **-q** affiksi bilan yasalgan; keyinchalik **u:** unlisining cho’ziqlik belgisi yo’qolgan, **t** undoshlari **d** undoshlariga almashgan: **tu:t-** +a = **tu:ta-** > **tuta-** + **q** = **tutaq** > **tudaq** > **dudaq** (ЎТЭЛ,1,94).

Qissa lug’at tarkibida “oyna” semasi **közgü** so’zi orqali ifodalangan: *Ul ewni közğudek yaruq qildi va türlük naqşlar birlä bezädi* (30v8). Leksika dastlab “Oitun yorug’” yodnomasida **közünjü** shaklida uchraydi: *Közününjü suwnuñ yemä öñi adirmaqi yoq* – oyna bilan suv o’rtasida unchalik farq yo’q (ДТС,321). XI asr yodgorliklari va Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarida **közñü, közgü** fonetik shakllari qayd etilgan: *Bağirsaq kişi özkä közñü bolur* – mehribon kishi boshqalar uchun oyna (ДТС,321). Bu so’z qadimgi turkiy tildagi “qaramoq” ma’nosini anglatgan **köz-** fe’lining “y’zlik” semasini bildiruvchi **-(ü)n** qo’shimchasini olgan shaklidan **-gü** qo’shimchasi bilan yasalgan; dastlab **ng** undoshlari bir **n** undoshiga birlashgan, so’ngra ikkinchi bo’g’indagi tor unli talaffuz qilinmay qo’ygan; keyinchalik o’zbek tilida **ñ** undoshi **g** undoshiga almashgan, **ö, ü** unllarining yumshoqlik belgisi yo’qolgan: (**köz-**+ **ün-** **közün-**

)>gü- közüngü> közüñü> közñü> közğü> kozgu (ЎТЭЛ.I.222).

“Ko‘r, so‘qir” ma‘nosiga ega **qarağu** so‘zi birinchi bor Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida qo‘llanilgan: ... *Qarağu yorup yazsa sökmä ani* – so‘qir kishi yo‘ldan adashsa, uni so‘kma (ДТС,424). Leksema “Тафсир” hamda o‘rganilayotgan yodgorlikda ayni semada ishlatilgan: *Qarağu közsiz* (2565); *Közlari körmaz qarağu ham tili aniy ağin* (39r8). Shuningdek. “Qisasi Rabg‘uziy” da terminning **közsüz** sinonimiga ham duch kelamiz: *Bir oğli boldi közsüz* (17r14). Ushbu leksemalar etimologiyasi xususida shuni aytish mumkinki, **qarağu** termini “qaramoq” ma‘nosidagi **qara-** fe‘li bilan **-ğu** qo‘shimchasidan, **közsüz** so‘zi esa “ko‘z” ma‘nosidagi **köz** oti yordamida **-süz** affiksidan yasalgan.

Bal (XIII,46610; HФ,5611; Г,69612) “asal” ma‘nosida dastavval Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida ko‘zga tashlanadi: *Ul ajar bal yalg‘ati* (ДТС,79). Bu ot “Тафсир” da o‘z semasini davom ettirgan: *Baldin tatlig‘raq* (68614). Tekshirilayotgan obidada zikr etilgan ma‘no **bal**, arabcha **asal** so‘zlariga yuklangan: *Ul erimniy tatlig‘inda qayda yetsün bal šakar* (77r17); ...*Birin aru yedi asal boldi* (12v14). **Asal** o‘zlashmasi “surkaldi, yopishdi” ma‘nosini anglatuvchi ‘**asala** fe‘lining I bob masdari bo‘lib, asli “yopishqoq narsa” ma‘nosini bildirgan; keyinchalik bu so‘z “bol” ma‘nosini ifodalay boshlagan (ЎТЭЛ.II,42).

Yığač numerativi “Devonu lug‘otit turk” asarida “6 km. li masofa, bir farsahni” bildirgan: *Bir yığač yer* (III,15). Mazkur so‘z “Тафсир” da o‘z ma‘nosini davom ettirgan: *Uzunluqi qirq yığač...*(132b13). Terminning keyingi davrlarda ham muomalada bo‘lganligini XIV asr Xorazm yodnomalaridan bilib olish mumkin: *Musāniy čerigini kördikim tort yığač yer tutub tururlar* (28v10); *Gurzi kötürüb bir yığač yol yurdi...*(XIII,51a12). Ushbu so‘z Alisher Navoiy asarlarida “12 ming qari” ma‘nosida qo‘llangan (HАЛ,297). Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida **yığač** 5985 metr ekanligi qayd etilgan¹¹⁴. Ba‘zi manbalarda esa leksema **farsah**, **saң**, **taš** numerativlari bilan tenglashtiriladi¹¹⁵.

¹¹⁴ Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. –Т: Шарк, 1997. –Б. 377.

¹¹⁵ Хинц В. Мусульманские меры веса с переводом в метрическую

O‘rganilayotgan obida lug‘at boyligida “metrik sistema joriy qilingunga qadar qo‘llangan uzunlik o‘lchovi” (0,71 ga teng) ma‘nosi **aršun** so‘zi orqali ochib berilgan: *Bu sarāy ortasinda özünä tamāsā qilurtek yer qildurdi. ädizliki iki yüz aršun* (63v13). Numerativ dastlab “Тафсир” asarida ishlatilgan: *Bir büzruk dam yapturdi iki yüz aršun içi* (38612). Termin XIV asr Xorazm manbalarida o‘z ma‘nosini davom ettirgan: *Ādam payğambarnuñ bozi altmüš aršun erdi* (HФ,33611). *Üč aršun dastārim birlä uzaq yol kelürmān* (XIII,55a21). Ye. Davidovichning yozishicha, XIX asrda 1,5 arshin 106, 68 sm ga teng bo‘lgan¹¹⁶.

Kökürčän zoonimi dastlab “Oltun yorug‘” yodgorligida “kabutar” ma‘nosida uchraydi: *Üč kökürčän adayı lačinqa qavitur arkān* – Uch kabutar bolasi lochin qo‘liga tushib qoldi (ДТС,313). Eski turkiy yodnomalarda kökürčün shaklini ko‘rish mumkin: *Ol māniñ birlä oynadi kökürčünlasü...* – u men bilan kabutar tikib qimor o‘ynadi (MK,II,263). XIV asr Xorazm manbalarida kögärčün//kügärčün (Г,9864), kökärčün fonetik variantlar kuzatiladi: *Bu ürün kökärčün ağızlarindin čiqar* (KP,22r21). **Kökärčün** zoonimining asosida **kök** – “ko‘k”, “osmon” so‘zi yotadi, **-ar** yasovchi affiks **-čün** qo‘shimchasi esa turkiy tillarda zoologik terminlar, xususan, “qush nomi”ni ifodalash uchun qo‘llanilib, otga ham, fe‘lga ham bir xilda birikadi. Qiyoslang: bildirčün–“bedana”, baliqčün–“qo‘ton” (ЭСС,III,58-55). **Kökürčün** shakli E. Sevortyaning farazicha, **-qan** harakat nomi ko‘rsatkichi orqali yasalgan. Biroq, deydi u, termindagi **-č** tushunarli emas, balki **köküričkün** dir. U holda **-qan** ot yasovchi affiks hisoblanadi. Bundan tashqari, tadqiqot obyekti qilib olingan yodnoma tilida forscha-tojikcha **kabutar** ma‘nodoshi ham iste‘molda bo‘lgan: *Mavlā taālā iki kabutarni yibardi* (220r19). O‘zlashma XIV asrda ilk bor sinonim vazifasini bajargan bo‘lsa, keyinchalik **kökürčän** zoonimini iste‘moldan siqib chiqargan. Mazkur ot “ko‘k” ma‘nosini ifodalagan **kabud** sifatining **kabut** shakliga **-tar** qiyosiy daraja qo‘shimchasini qo‘shish yordamida yasalgan (ЎТЭЛ.III,113).

систему (перевод с немецкого Ю.Э.Брегеля). –М.: Наука, 1970. –С. 120.

¹¹⁶ Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. –М.: Наука, 1970. –С. 113.

Shu tariqa, leksik birliklarni chog'ishtirib o'rganish asosida qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning dastlabki obidalarida qayd etilgan ko'pgina turkiy leksemalar qissa so'z boyligida ba'zi fonetik o'zgarishlar bilan bo'lsa-da, ma'no o'zgarishsiz, faol qo'llanilganligi oydinlashdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi turkiy adabiy til va uning yodgorliklari haqida ma'lumot bering.
2. Eski turkiy adabiy til qaysi davr hamda manbalarni o'z ichiga oladi?
3. "Qisasi Rabg'uziy" asari lingvistik xususiyatlariga ko'ra qaysi davr yodgorliklariga yaqin turadi?
4. Obida lug'at tarkibida o'zining qadimiy shaklini saqlab qolgan so'zlar to'g'risida so'z yuriting.
5. Qissada ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan qadimgi leksik birliklar haqida fikr bildiring.
6. Qaysi leksemalar XIII asr ikkinchi yarmi – XIV asr boshlariga kelib sinonimlari bilan parallel ravishda qo'llanila boshlagan?

POLISEMIYA

Tayanch so'zlar: *turkologiya, umumiy tilshunoslik, polisemiya, lingvistik ta'sir, semema, yelpig'ichsimon, zanjirsimon, semantik struktura, leksik ma'no, fakultativ sema, bosh ma'no, hosila ma'no, ko'chma ma'no, denotat, konnotativ ma'no, leksik qurshov, monosemantik birliklar, uyg'ur huquqiy hujjatlari, Xorazm manbalari.*

So'zning ko'p ma'no anglatishi tilda mustaqil tizim bo'lib, bu hodisa umumiy tilshunoslikda polisemiya termini bilan nomlanadi. So'z dastlab bir ma'noni atash uchun qo'llanilib, davrlar o'tishi va turli lingvistik ta'sirlar vositasida bir necha ma'noni bildiradi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi. ularning o'zaro bog'liq bo'lishi, ma'nolarning ayni so'zning o'ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi¹¹⁷.

¹¹⁷ Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: ФАН, 1975. –Б. 47.

So'z ma'nolarini o'rganishning xilma-xil yo'llari bor. Shulardan biri so'zning semantik strukturasi ma'noli qismlarga ajratib tahlil qilishdir. Ko'p ma'noli leksemalarning har bir sememasini semalarga ajratib tadqiq etish ularning leksik ma'nosini nisbatan aniq belgilashga yordam beradi. Sememaning mazmuni faqat leksik ma'nodangina iborat bo'lmaydi, unga stilistik, nutqiy xoslanish kabi belgi-xususiyatlar kiradi, bular barchasi birgalikda semantik strukturani tashkil qiladi¹¹⁸.

So'zning leksik ma'nosi umumiy va farqlovchi semalarning o'zidagina tashkil topmaydi. Leksik ma'no tarkibida ikkinchi darajali, hatto fakultativ semalar ham bo'lishi mumkin. Bunday semalar qo'shimcha semalar deb yuritiladi¹¹⁹. Ma'lumki, tilshunoslikda leksik ma'nolar bosh va hosila ma'nolarga ajratiladi. Bosh ma'no so'zning leksik ma'nolarini bevosita va bilvosita bog'lab turadi. Hosila ma'no so'zning birinchi leksik ma'nosining taraqqiyoti natijasida metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi hodisalar yordamida yuzaga keladi. Bunda bosh ma'no leksemaning boshqa ma'nolari taraqqiyotiga asos bo'ladi. Shu o'rinda unutmaslik kerakki, hosila ma'nolarning hammasi ham bosh ma'noga bog'lanishi shart emas.

Sir emaski, nutqimizda ko'pgina so'zlar bir necha sememalarda ishlatiladi. Muayyan leksema ifodalaydigan ma'nolar yig'indisi mazkur so'zning sememalar mundarijasini tashkil etadi. Semema til birligi sifatida abstrakt hodisa. Semema nutqda boshqa leksemalar (sememalar) qurshovida keladi. Mana shunday qurshov leksik qurshov deyiladi¹²⁰.

So'zning ma'nosini nutqdan ajratib alohida tadqiq qilib bo'lmaydi. Chunki leksik qurshov so'z ma'nolarini ochib berishga ko'maklashadi. Har bir so'z o'ziga xos leksik qurshovga ega bo'lib, u bilan semantik va grammatik jihatdan bog'lanadi. Shu bois, leksik qurshov tabiatini o'rganmasdan turib, so'z ma'nolarini

¹¹⁸ Раҳматуллаев Ш. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш// Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 1978. №4. –Б. 56.

¹¹⁹ Қучқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Т.: ФАН, 1977. –Б. 34.

¹²⁰ Реформатский А. Введение в языковедение. –М.: Наука, 1967. –С.107.

aniqlash mushkul. Ko'p ma'noli leksemalar semalarini bir-biridan farqlash uchun ularning leksik qurshovi ham qiyoslanadi. Natijada sememalarning mustaqillik darajasi belgilanadi.

Polisemiyada so'zning leksik ma'nolari o'zaro yelpig'ichsimon (bunda qolgan ma'nolar bosh ma'noga to'g'ridan to'g'ri bog'lanadi) va zanjirsimon (bosh ma'noga bog'langan ma'no boshqa ma'no uchun asos bo'ladi, ya'ni bu jarayon zanjir shaklida davom etadi) ko'rinishda bog'lanadi. Bu ko'rinishlarning ikkisi ham bir polisemantik so'zda uchrab, murakkab ko'rinishdagi bog'lanishni yuzaga keltiradi. Ularning o'zaro qaysi ko'rinishda bog'lanishi boshqa leksik ma'nolarning bosh ma'noga vositali yoki bevosita bog'lanishi bilan aloqadordir¹²¹. Polisemantik leksema qancha ma'noga ega bo'lmasin, bitta so'z sanaladi. Yana shuni aytish kerakki, ko'p ma'nolilik asosan matnda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni polisemantik leksik birliklar qanchalik ko'p bo'lsa, matn ham shunchalik rang-barang, jozibador hisoblanadi. Buni «Qisasi Rabg'uziy» asari misolida ham ko'rish mumkin.

XIV asr obidasi bo'lmish «Qisasi Rabg'uziy» asari leksikasini tarixiy jihatdan o'rganish jarayonida yodgorlikda qo'llanilgan leksik birliklarning ko'pchiligi polisemantik so'zlar hisoblanib, monosemantik birliklar ham o'z o'rniga ega ekanligining guvohi bo'ldik. Xususan, qadimgi turkiy tilda va «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk» asarlarida¹²² a) «olmoq», b) «ega bo'lmoq», d) «keragini olmoq», e) «xotin olmoq», f) «sotib olmoq», g) «tortib olmoq», h) «tutmoq», i) «ishg'ol qilmoq» (ДТС.32) kabi ma'nolarda istifoda qilingan **al-** (Тафсири, 129b4) harakat fe'li qissada quyidagi semalarni bildirgan:

1. **al-** leksemasi «Qisasi Rabg'uziy» yodnomasida o'zining bosh (denotativ), ya'ni «biror narsani ushlab yoki tutib qo'lga kiritmoq» ma'nosida qo'llanishda davom etgan: *Yana kunda ikki kumüs mandin alur...* (239r19).

2. «Xarid qilmoq, sotib olmoq»: *Mundağ sigir kimda bar ersä keltürsün ağır bahā berip alurmen* (128v1).

¹²¹ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SO'Z. 2010. –Б. 186.

¹²² Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. –С. 32.

3. «Emmoq»: *Halima sağ emükin berdi ersä aldi* (185r3). Bu o'rinda mazkur fe'l **em-** so'zining sinonimi sifatida ko'zga tashlanadi: *Yettinçi bir emükin din süt emär, ammā yana bir emükindin suw içär* (170v20).

4. «Ketzazmoq, yo'qotmoq»: *Yer üzä suwlarin aldi, kök yağmadı* (26v3).

5. «Asramoq, o'g'il qilib olmoq»: *Sen bu oğlanni meniñ qapuğimda qoyğil, kişilär kelip asramaqğa qolğaylar. Ançada sen asramaqğa alğil, tedi* (33v5).

6. «Ko'ngil ovlamoq, taskin bermoq»: *Köñüllärni yaxşiliq birlä alğaysen* (177v8).

7. «Tutmoq»: *Oğlum teyü ilkimdän kim alğay, ulğartmişda kimni atam tegäy, tep yigladı* (183r5).

8. «Mehmon qilmoq, yedirib-ichirmoq»: *Yarlig: mänin xalqimni mandin özgä kim qonuqlay alur* (138r21).

9. «Bajarmoq, uddalamoq»: *Bani İsräilda biräğü ummatin bu yükni kötärä almağay* (213v3).

10. «Oyoq ostiga olmoq, bosib o'tmoq»: *Suw keldi aşuqına tegdi, oğli bar erdi, ani ayaq astına alip tepäsina asdi* (24v12).

11. «Ruxsatsiz, noo'rin qo'lga kiritmoq»: *Mu'äviyanin başi yastuqğa tegdi ersä Yazidgä vasiyat qildi: Husaynni ağırlağil, sänä kelmiştä öz ornında olturğil. Mäl qolsa bergil. Bu qamuğ ularnin haqi turur. Yolsuz alip tururman tedi* (244r12).

Ayni paytda, leksik birlik **-i(b)** affiksli ravishdoshlar hamda ravishdosh formasidagi boshqa fe'llar bilan birikib, qo'shma fe'llar hosil qilgan va bir qator semalarni ifodalagan:

12. «Tortib olmoq»: *Seni oğlanlarin birlä öltürürmän, qizinin tartip alurman* (63v4).

13. «Olib qolmoq»: *Biz Yusufğa mundağ oğratü berdik, qarindaşin bu adä birlä alip qalğil* (97v10).

14. «Olib bormoq»: *Yigirmi yetti kişi öz mavlalarindin alu bardı* (244v5).

15. «Keltirmoq, olib kelmoq»: *Bu kelmişda yarmaqlari yoq erdi, tawar, juval, kiyiz, argamci alip keldilar* (101v16).

16. «Yetkazmoq, xabardor qilmoq»: *Bu kün bizin hasratimizgä safar qildin ummatlarinğa alu bargil* (214r20).

Shuningdek, tadqiq etilayotgan leksemaning xarakterli tomoni shundaki, u obida tilida yetakchi fe'l sifatida ot turkumidagi so'zlar bilan birgalikda qo'shma fe'llar yasagan va quyidagi ma'nolarni anglatgan:

17. «Qo'lga kiritmoq, o'lja qilmoq, ega bo'lmoq»: *Ani kōriṭp qamuḡ musulmānlar takbir aydilar. Ğanimatlar aldilar* (222r16).

18. «Ishg'ol qilmoq, fath etmoq»: *Qirḡ yildin soṅ yana yābāndin kelib Misrni aldilar* (117r9).

19. «Ko'tarmoq»: *Ya'qub yūzinda Yusufni Rubil egniḡa aldi...* (69v2). Ushbu misolda leksema **kōtār-** fe'li bilan ma'nodoshlik qatorini yuzaga keltirgan: *Yunus uluḡ oḡlin kōtārdi, xatuni kičik oḡlin kōtārdi* (152v13).

20. «Uylanmoq, xotin olmoq»: *Hābil birlā tuḡḡan qizni Qābilḡa berūr holdi ersā Qābil unāmadi, meniḡ birlā tuḡḡan qizni alurmen, tedi* (15v7).

21. «Ushlamoq»: *Muhammadni(s.a.v) kōrdilar tewačilār tonin kiymiš, buruduqni belinā baḡlamiš, ilkinā tayaq almiš* (188r10).

22. «Javob qaytarmoq, javob bermoq»: *Sarsabil İdi yarliḡi birlā kelip Yunusḡa salām qildi, Yunus alik aldi* (154r20).

23. Asar muallifi «jang qilmoq, urushmoq» ma'nosini **uruš-**leksemasi bilan birgalikda **al-** fe'liga ham yuklagan: *Jālūt ham ilgāri keldi, aydi: ne birlā urušursen?* (133v3); *Ellik-ellik birlā ilik ališip, atlar yarišip, arqiš tüšḡan yergā keldilār* (76r2).

24. «Birovning nomini eslamok, yo'qlamoq»: *Rasulni, andaḡ dušman erdikim, atin aḡzinqa almas erdi* (196r19).

25. «Judo qilmoq, ayirmoq»: *Ya'ni mānā bir mu'jiza kōrguzgil, yoq ersā, bašiqni alurman tedi* (208r14).

26. «Asir olmoq»: *Rasul alayhis-salām sahābalar birlā ularniḡ xatunlarin, oḡul-qizlarin bulun alib keldilār* (230r7).

27. «Qo'yniga olmoq»: *Telim vaqtlarda kōrdüm Mustafā alayhis-salām Hasan va Husaynni qoyniḡa alip, qutluḡ aḡzin ularniḡ aḡzinqa qozar erdi* (243v18).

28. «Vafot etmoq»: *Dāvud ornigā kelip saḡ qolin üzā yattī, Azrāil jānin aldi* (137r3).

al- fe'li ko'makchi fe'l shaklida ham keng qo'llaniladi:

29. «Namuna, ibrat olmoq»: *Qamuḡ xalāyiq Mavlā qudratin bilsunlār, öz ājizliqlarin ānlāsunlār, ibrat alsunlār...* (138v19).

30. Qissada «sevib qolmoq, oshiq bo'lmoq» semasi **sew-** fe'li yordamida ochib berilgan: *Hadiča Muhammadni sewdi nubuvvat kōrmāsdan burun* (189r1). Ayni paytda zikr etilgan ma'no **al-**leksemasi orqali ham ifodalangan: *Dāvud ul sačni, ul kōrkni kōrüb kōñil aldurdi* (135r9).

31. «O'ch olmoq»: *İlāhi banu qurayzadan očūmni almaḡunča jāniMni almaḡil* (229v16).

«Biror narsani ushlab yoki tutib qo'lga kiritmoq» o'rganilayotgan fe'lining dastlabki ma'nosi bo'lib, qolganlari hosila ma'nolar¹²³ hisoblanadi.

Asarda qo'llanilgan **tüš-** «tushmoq» tik harakat fe'li qadimgi turkiy til manbalari va eski turkiy adabiy tilning ilk yodgorliklarida «yuqoridan, balanddan yoki biror narsa ustidan pastga, yerga harakat qilmoq» dastlabki mustaqil ma'nosidan tashqari «biror transport vositasi yoki ulovdan tushmoq», «safarda biror joyga borib to'xtamoq», «yog'moq», «uzilib tushmoq», «biror narsa ichiga kirmoq, cho'mmoq» (ДИС, 600) singari ma'no ottenkalarini ham ifodalagan. Kezi kelganda qayd etish joizki, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da **tüš-** fe'lining 26 ta ma'nosi berilgan (ЎТИЛ, II, 237-239). Izlanishlarimiz mazkur leksema asar muallifi tomonidan quyidagi ma'nolarda qo'llanilganligini ko'rsatdi:

1. «Yuqoridan, balanddan yoki biror narsa ustidan pastga, yerga harakat qilmoq»: *İbn Yaminniḡ yaši aqa taxtdin tušup ewḡa kirdi* (101v21). Shu o'rinda qayd etish joizki, mazkur ma'no so'zning boshqa semalari uchun denotat vazifasini bajargan.

2. «Pasayib biror darajaga yetmoq»: *El yuk alḡandin soṅ narx tüšdi* (189v12).

3. «Mustahkamlangan, qotirilgan, tutib turilgan yeridan uzilib, o'z og'irligi bilan pastga ketmoq»: *Eltip salām qildilar ersā, qufl tüšdi, qapuḡ açildi, ravzadin ün keldi* (199v11).

¹²³ So'zning leksik ma'nosi orqali yuzaga kelgan ikkinchi leksik ma'no hosil ma'no deb nomlanadi. Qarang: Миргожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SO'Z, 2010. –Б. 76-112.

4. «Umuman biror yerga borib qo'nmoq»: *Suvdin keçardā altunni suwğa tüşirdi* (164r4).

5. «Biror narsa ichiga kirmoq»: *Ogʻlan emgaklap barip tanurğa tüşdi* (172r16).

6. «Havolab, uchib borib oʻz ogʻirligi bilan maʼlum joyga yetmoq»: *Aymişlar: yetmiş hijābdin orta barmaq andāzasinča tajalliy muri köründi, tağ alti kesāk boldi, üçüsi üçüp Makkaga tüşdi* (121v5).

7. «Safar chogʻi biror yerda dam olish uchun toʻxtamoq»: *Makkaga bir künlik yer qalip erdi, tüşdilar* (179v21).

8. «Maʼlum bir yoʻnalishda tarqalib, muayyan nuqtaga yoyilmoq»: *Qaçan ul tūnluklardin kün tüşsa, ul gavharlar yaruqliq berürlär erdi* (147r7).

9. «Ilinmoq»: *Bu kün neçä baliq tutsaq sāñā berāliñ tedilär; ağ saldilar, narsä tüşmädi* (144v14). Ushbu misolda tadqiq etilayotgan leksik birlik **ilin-** feʼlining maʼnodoshi sifatida koʻzga tashlanadi: ... *Közi körklukka tüşdi, al qildä, ağga ilindi* (77r10).

10. «Paydo boʻlmoq, bosmoq»: *Ul-oq sāatda ölmädi, valekin ot andāminga qurt tüşdi* (231v18).

11. «Biror xonadonga uzatilmoq, kelin boʻlmoq»: *Tewalari çaliqliq qilipburunduqlatmasalar yañi tüşgän kelinlärni keltürüp, ün tüzüp irlaturlar* (198r2).

12. «Ega boʻlmoq»: *Abdul Mutallib aydi: alhamdulil-lāhkim, māniñ ixtiyārīm savāb tüşdi* (186r13).

13. «Biror xatti -harakatga kirishmoq»: *Berk yolğa tüştilär, ağışi-inişi te- lim* (225v8).

14. «Ot-ulovdan yerga, pastga tushmoq»: *Baʼzi rivāyatda kelmiş: Yusuf atdin tüşdi, atası birlä körüşdi* (106v19).

15. «Qandaydir sabab vamaqsad bilan birovning oldiga bormoq»: *Aydi: qaçan malikka bir iş tüşsä, ul xorular çaqirur* (141v14).

16. «Mehmon boʻlmoq»: *Rasul alayhis-salām aydi: tewāmni qoyuñ, kikniñ esiginä çöksä, anda tüşgäymän tedi* (220v19); *Qonaq tüşüp as yedi* (87v19).

17. «Boqmoq, nazar solmoq»: *Kimniñ közi Musāğa tüşsä, tirik barinča közi körmäs erdi* (123v15). Bu oʻrinda leksema **baq-** feʼli bilan sinonimik qatorni yuzaga keltirgan: *Malik yana beklärinā baqdi, yegirmi tört miñ er birlä atlaniv, keldilar* (64r16).

18. «Nuramoq, agʻnamoq»: *Bir tam kördilär tüşgalü turur* (130v5).

19. «Duchor boʻlmoq, sodir boʻlmoq»: *Iblisgä ul hāl tüşmiş berü közümiñ yaşi qurimişi yoq* (209v8).

20. «Yuztuban yotmoq»: *İsmail yiglayur turur erdi, ünin esitsä, yetip keldi, korär İsmail öwrülüp yüzün tüşmiş* (48v13).

21. «Uzoqlashmoq»: *Bu maqsuddin iraq tüşarmiz* (198v5).

22. «Balandlikdan pastlikka, jarlikka bexosdan tushib ketmoq»: *Mundun burun tağdin tüşüp boyni söñüki taqi qoli sinmiş erdi* (158v18).

23. «Biror mansabdan boʻshamoq, hurmat-eʼtibordan chetda qolmoq»: *Quđi tüşgänlärni yoqaru kötärgän, örä qopganlärni yumurlağän, bergänsän, algansan, bu abuşgäga oğullar karāmat qilgil* (78r21).

Tahlil etilayotgan leksema ot hamda feʼl soʻz turkumlariga oid soʻzlar bilan birikib, murakkab (qoʻshma) feʼllar ham hosil qilgan va ular quyidagi maʼnolarni anglatgan:

24. «Fitna qilmoq»: *Haqiqat yüzünä surat niqābin kemişdi qullarim fitnaga tüşmasünlär tep* (76r14).

25. «Boshiga qaygʻu, musibat tushmoq»: *Qaçan ulargä bir müñ-qađgu tüşsä, yağilari bilgürsä, ul tābutni çiqarip ilgärü qoyup, duā qilsalar ul müñ, ul yağidin qutulur erdilär* (131v20).

26. «Xabar tarqalmoq»: *Misr xalqi ara xabar tüşdikim, Mālik Zaʼr bir qul oğlan ketürmiş* (75r4).

27. «Homilasidan ayrilmoq»: *Yüklük urağular qamuği oğlan tüşürdilar* (136v12).

28. «Ovoza boʻlmoq»: *Nāahllardin, kāfirlardin, zindiqlardin musulmānlar ağıziga tüşdi, bilmāslikdan sözläyürlär* (145v1).

29. Asar muallifi «sevmoq, yaxshi koʻrmoq» maʼnosini **sew-** feʼli bilan birgalikda **tüş-** leksemasiga yuklagan: *Köz körgäni jamāl ul, Sewmak anı halāl ul* (78v18); *Māhir erän mehri tüşti, mehriñi bergän telim* (249v7).

30. «Yiqilmoq, choʻkkalamoq»: *Anamniñ adaqingä tüşüp, uzr qolup, sewük diydärin körüp qalgay erdim* (51r20).

31. «Yonmoq, yonib tushmoq, kuyub tushmoq»: *Qayu quş hawāda uçsa, qanatları küyüb tüşar erdi* (41r8).

32. «Boshiga tushmoq»: *Masriqdin Magribga tegi qayu yerda tayaq taʼslasa, kiʼi baʼshingʼa tushar erdi* (23r9).

33. «Yodiga kelmoq»: *Biragʻu keldi, qiliʼc birla urayin tedim ersa, Rasul(s.a.v.) vasiyati koʻnlumga tusti* (228r13).

34. «Qoʻlga tushmoq, giriftor boʻlmoq»: *Saniy ilkinja tushmasam qamuḡin oḡranur erdim* (141v7).

35. «Baloga qolmoq»: *Sulayman bin Yasar ani bilip, balaga tushmagayin tep Madinadin qacti va Shamga bard, anda ornadi* (82r14).

Ayni paytda, qissada oʻrganilayotgan feʼlining **in-** maʼnodoshi ham uchraydi: *Mavladin ilk qat kok faristalarinaj yarlig keldi, yerga indilar* (121r2).

«Qisasi Rabgʻuziy» asaridagi **kotar//kotur-** feʼlining semalari haqida fikr yuritganda, aytish lozimki, ushbu leksema qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning ilk manbalarida **kotyur-** (Тархир,129,11) shaklida «koʻtarmoq», «ulugʻlamoq», «yoʻq qilmoq», «olib tashlamoq», «ufqdan koʻtarilib chiqmoq», «oʻzini erkin his qilmoq», «gunohkor boʻlmoq» (ДТС,20) kabi maʼnolarni anglatgan. Olib borgan izlanishlarimiz asnosida qissada feʼning quyidagi maʼnolarda qoʻllanilganligiga guvoh boʻldik:

1. «Yerdan yoki yotgan joyidan uzib, ajratib olmoq»: *Qacan Musā bu kalimani aydi ersa, Tavrātni yalguz kotardi, qavmiḡa keldi* (119r1).

2. «Yerdan uzilgan, ajralgan holda tutmoq, qoʻlda tutmoq»: *Yaraqni saldi, taʼs kotardi, sapqan aldi, ilgari yurudi* (133v2).

3. «Qoʻlni yuqori holatda tutmoq»: *Yusuf munajatga qol kotardikim, Ilāhi bu tiʼsilar makrindin meni saqlamasan ular tapa mayl qilsam anda kedin āsiylardin bolḡaymen* (87r4).

4. «Yuqori, baland holatda tutmoq, tepaga chiqarmoq»: *Esikdin kirip, Mu- sā tayaqni yerga saldi, ulugʻ yilan boldi, baʼshini kotardi, aḡzindin ot ciqar erdi* (111 r11).

5. «Oʻz ustida tutgan holda yurmoq»: *Bu kun qamuḡ faristalar bariḡ Adam taxtini boynunuzga kotarib, tamuḡ tariḡin kezdirun, teb yarlig boldi* (8v9).

6. «Qarshi harakat qilmoq, qoʻzgʻalmoq»: *Barca narsalar baʼs koturup AdāMni bizdin yaratgil, tep tamaʼ qildilar* (6r16).

7. «Birovni urushga shaylanmoq, oʻqtalmoq»: *Musā aciḡlanip tayaq kotardi, aydi: ey yer, tutgil Qarunni* (125v14).

Polisemiya da soʻzlarning koʻchma maʼno hosil qilishi asosiy rol oʻynaydi. Bu jarayon polisemantik soʻzlarning struktural sxemasini shakllantiradi. Uning taraqqiyoti asosida polisemantik soʻz leksik maʼnolarining oʻzaro bogʻlanishi, miqdori yuzaga keladi¹²⁴. Shu bois, oʻrganilayotgan leksik birlik qayd etilgan asosiy semalaridan tashqari koʻchma maʼnolarda ham ishlatilgan:

8. «Olib tashlamoq»: *Yarlig keldi: aḡir yukni alardin kotardim tedi* (213r13).

9. «Soqit qilmoq»: *Zulayhā ...yazuqni ozindin kotardi va Yusufga yukladi* (83v9).

10. «Ochmoq»: *Yusuf yaziga ciḡti, taxt uza olturdi va yuzundin parda kotardi. xalāyiq Yusufniḡ jamalin korup as-taamni unutdilar* (93r12). Bu oʻrinda leksema **ac-** feʼli bilan sinonimik qatorni yuzaga keltirgan: *Aedi aydi: yer kok netak korunsā, andag-oq korunur tedi* (44r7).

11. «Mavqeyini, obroʻyini, hol-qudratini yaxshilamoq»: *Qudi tushkanlarni yoqaru koturgan, ...bergansen, algansan bu abushgaga oḡullar karāmat qilgil* (78r21).

12. «Bardosh qilmoq, chidamoq»: *Qavmi arin koturmadin kokka aḡgan Isā ul* (2r10).

13. Asar muallifi «toʻxtamoq» maʼnosini **toqta-** leksemasi bilan birgalikda **kotar-** feʼliga ham yuklagan: *Bu yer su uza yaratildi ersa toqta -madi, tebrāni baʼsladi, ani toqtatmaq uciḡin taḡlarni yaratdi* (3r18); *Musā duā qildi tofan kotarildi, yer quridi, yaʼs otlar undi. cecaklar acildi* (114r14).

14. «Bajarmoq, uddalamoq»: *Aydi: Ilāhi, ummatlarim kotarmagutek yuk yuklamagil* (213r16).

15. «Halok qilmoq, jonini olmoq»: *Mavlā taālā ul va dagā vafā qildi, qamuḡ maliklarni kotardi, Sulayman yalguz qamuḡ ālamga malik boldi* (137v2).

16. «Uchirmoq»: *Sulayman bir kun taxt uza olturur erdi, yel taxtini kotardi, ...bir ulugʻ qolga tegdilār* (139r1). Ushbu misolda

¹²⁴ Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: ФАН, 1975. –Б. 135.

tadqiq etilayotgan leksik birlik **uĉ-** fe'lining ma'nodoshi sifatida ko'zga tashlanadi: *Isā baliqdin quş qildi, aġzi birlā dam qildi, havāga uĉti* (170v14).

17. «Forig' etmoq»: *Tavba qildi ersā, İdi azza va jalla šahvatni andin kōtardi, avvalqi hāliġa yandi* (21r20).

18. «Ovoz chiqarmoq»: *Farištalar ün kōturdilar, tasbih, tahlil aydillar* (121r4).

19. Qissada «biror narsani ushlab yoki tutib qo'lga kiritmoq» semasi **al-** fe'li yordamida ochib berilgan: *Yana kunda ikki kümüš mändin alur...* (239r19). Ayni paytda zikr etilgan ma'no **kōtār-** leksemasi orqali ham ifodalangan: *On iki yillik azuq kōtardi, qalġanlarga aydi: mān on yilda kelmāsām sizlār öz yolıñizni kōrüy* (176v17). O'z navbatida, yodnomada **al-** fe'li tekshirilayotgan leksemaning sinonimi vazifasini o'tagan o'rinlar ham mavjud: *Ya'qub yuzında Yusufni Rubil egniña aldı...* (69v2).

20. «Paydo bo'lmoq, yuzaga kelmoq»: *Yusuf munĉa qurba birlā mundaġ mihnat nālük turur, mundaġ duā birlā munĉa teñlik anā nādin kōtürdi?* (78v6).

21. «Bekor qilmoq»: *Qaĉan bu hujjatni qildi ersā Azāzil atini kōtördilar, İblis at berdilar, ma'nisi «nāumid» temāk turur* (9r19).

Kōtār//kōtūr- leksemasi qadimgi turkiy tildagi «yuqoriga harakatlanmoq» ma'nosini anglatgan **kōti-** fe'lga **-r** ortirma qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan. Bunda ikkinchi bo'g'indagi **i** unlisi **ü** unlisiga, bu unli o'z navbatida **ā** unlisiga almashgan, o'zbek tilida **ö** unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: **kōti**-+**r**- **kōtir**->**kōtūr**->**kōtār**-> **kōtār**¹²⁵.

Kuzatishlarimiz jarayonida yana shu narsa ayon bo'ldiki, yodgorlikda tadqiqot obyekti hisoblangan leksik birlikning **aġ-** ma'nodoshi ham qo'llanilgan: *Ayturlar: Baytul-muqaddasga kirdi payġambarlar birlā namāz ötädi, andin soñ kokka aġdi* (217v5).

“Qadimgi turkiy til” lug'atida **bir** sonining “raqam”, “dastlabki, ilk”, “bir xil”, “yagona, doimiy mavjud”, “qandaydir, allaqanday”, “fe'l bilan birga kelib, ish-harakatning bajarilganligini ifodalagan”,

¹²⁵ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). -Т.: Университет, 2000. -Б. 231.

“ba'zilari, ayrimlari” (ДТС, 101) singari semalari keltirilgan. «Тафсир» asarida ushbu so'zning navbatdagi ma'nolari uchraydi: “bir raqami va shu raqam ifodalagan eng kichik son”: *A bir bolur* (1666); otlardan oldin kelib noaniqlik tushunchasini ifodalaydi: *Nalük kältürmäslär anlar üzä bir hujjat bālgülüg* (163); “birgalikda, baravar”: *Bir yoli* (17b13); qo'shma so'z tarkibida kelib, “donalab sanash, ta'kidlab ko'rsatish” ma'nosini ifodalagan: *Tegmā bir* (49,6). “O'zbek tilining izohli lug'ati”da esa leksemaning o'n xil ma'nosi qayd etilgan (I, 269-270). Tekshirilayotgan obida lug'at tarkibida ushbu so'z bir nechta ma'no kasb etgan bo'lib, ijodkor ulardan mahorat bilan foydalanganki, bu o'z navbatida, voqea-hodisalarning badiiy ta'sirchanligini, asar tilining jozibadorligini ta'minlagan:

1) “bir raqami va shu raqam ifodalagan eng kichik son”¹²⁶: *Haq ta'alā barĉadin burun bir gavhar yaratdi* (3r9);

2) “narsa, predmetning o'lchami”: *Malik alarġa bir baš üzüm berdi* (118r7);

3) otlardan oldin kelib noaniqlik tushunchasini ifodalaydi: *Xabarda andaġ kelür: bir kün İblis yetmiş miñ farišta birlā kökdin Ādam topraqinga keldi* (6r21);

4) fe'ldan oldin kelib, fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bir marta bajarilishini bildiradi: *Yetinc qatni yaratdi ajibā turur, İblis anda turur, tegmāsindā bir ĉiqar yana kirār* (4r1);

5) “birgalikda, baravar”: *Farištalar qamuġlari bir yoli-oq sajda qildilar* (9r8);

6) “ba'zilari, ayrimlari”: *Bir ancasi mukarrar, bir ancasi mu'tabar* (2v15);

7) “qisqa fursat”: *Meni agar bir zamān tavaqquf qilsalar erdi anlarni tutup sizñ Täñriñiz kim turur tep sorar erdim* (11r9);

8) “o'xshash, bir xil”: *Umlāq on yigitni kordi boylari, körklari bir tek* (63r2);

9) ayiruv bog'lovchisi vazifasida kelib, qo'shma gap qismlarini bog'lashga xizmat qiladi: *Bir siñarında eranlar erdi, bir siñarında xatunlar erdi* (25r7);

¹²⁶ Qarang: Рузимбоев С. Достонлардаги “Бир” сўзининг семантик доираси // Илм сарчашмалари. –Урганч: УрДУ босмахонаси, 2007 №3. –Б. 69-74.

10) “yagona, doimiy mavjud”: *Allāh bir turur, Jirjis anin yalawaçi turur* (162v13);

11) “kelishmoq, gapni bir joyga qo‘ymoq”: *...Til koñul bir qilip Rasulğa oğradilar* (203r14);

12) “o‘zaro, biri ikkinchisiga”: *Misr xalqi biri-birinğa ayturlar erdi* (92r7);

13) “qandaydir, allaqanday”: *Yana bir malik qiz qolğalu oğradi* (62r18);

14) “hech kim, birorta, hech qanday”: *İbrāhim aydi: bir kisi taqi musulmān yoqmu erdi?* (60r11);

15) “aka-uka”: *Yahudā aydi: biz onağu bir qarindaşmiz* (63r3);

16) “inson ko‘tara oladigan yuk”: *Har kunda bir arqa otunni bāzārda satip tort diramgā ikisini sadaqa qilip, ikisigā aš alip anasigā barur erdi* (128r18);

17) “aniqlik, so‘zning chegaralanganligi”: *Tekmā biri bir sōz aydi* (180r10);

18) qo‘shma so‘z tarkibida kelib, “donalab sanash, ta‘kidlab ko‘rsatish” ma‘nosini ifodalagan: *Sālih tekma birniñ ilgin tutup bir siyar taslar erdilar* (33v12);

19) “ma‘lum bir muddat”: *Bir haftadan soy Abu Tālip birlā Ātika Muhammadni Hadičağa yibardilar* (191r3);

20) “bittadan, ketma-ket”: *Yusuf aydi: yarin gor icında birin-birin tarilgusi turur* (108v13).

Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning ilk yodnomalari hamda XII - XIV asr uyg‘ur huquqiy hujjatlarida **altun** termini 1) “tilla”; 2) “tilla tanga”; 3) “tilladan qilingan, tilla bilan qoplangan” ma‘nolarini bildirgan: *Altun kümüš kergaksiz kelürti* – Ortiqcha oltin, kumush keltirdi; *Ol meniñ birlā bir altunda ağısdi* – narxni bir oltinga oshirish uchun u men bilan bahslashdi (I,194); *Altun basliğ yılan men* (ДТС,40). “Тафсири” va XIV asr Xorazm manbalarida so‘zning dastlabki ikki semasi qo‘llanishda bo‘lgan: *Biz sänkā üküš māl berāliñ altun kümüš... tedilār* (139613); *Miñ alltuni bar ārdi* (136610); *Taş ornığa tapğaysen altun* (XIII,11a6); *Yana miñ altun cıqardi* (HФ,213a14). Tekshirilayotgan obidada leksema quyidagi ma‘nolarni kasb etgan: a) “tilla”: *Taqi xazinada ne kim altun, kümüš bar erdi barçasin*

qaçirlarğa yüklätip cıqartdi (109v18); b) “tilla tanga, pul”: *...Taqi yüz miñ altun keltürgil* (46v16); d) “tilla bilan qoplangan”: *Altun birlā bezäklik özi taxt uzā olturur* (125v9). Ko‘rinadiki, *altun* so‘zining “tilla” sememasi denotativ sema sanaladi, chunki qolgan ma‘nolar undan o‘rib chiqqan. Alisher Navoiy terminga “oltin”, “tilla tanga”, pul birligi. “qimmatbaho, bebaho”(АНАТИЛ,II,519) ma‘nolarini yuklagan. Sevortyaning fikricha, **altun-altin** qo‘shma so‘z bo‘lib, **al** “qizil”, **tun** (<**toq, ton**) “mis” so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lgan (ЭСС, I,142).

Tam leksemasi Turfon matnlari va “Devonu lug‘otit turk”da “devor”, “uy” (MK,III,151) ma‘nosida kelgan: *Ol tamqa tirāndi* – u devorga suyandi (MK,I,299; ДТС,529). Mazkur so‘z “O‘g‘uznoma” dostonida **tağam** shaklida “binoning ustini berkitib turuvchi qismi” semasini ifodalagan: *Bu uynuñ tağami altundan* (ДТС,526). **Tam** XIV asr Xorazm yodnomalarida “devor” (Г,6066), “uy” (HФ,113a4) ma‘nolarini anglatgan. O‘rganilayotgan qissa tilida so‘zning quyidagi semalarini uchratamiz:

1) “devor”: *Ul tam başiğa cıqtı ersā, körgānin aytmay özin nari saidi* (173v11);

2) “uy”: *Qarabaši Zulayhā ilkin tutup cıqardi, yol başında bir tam tübindā olturdi* (108v6). Bu o‘rinda ot **ew** termini bilan sinonimik munosabatga kirishgan: *Bir kün Sālih ew qapugında olturur erdi* (33v18);

3) “binoning ustini berkitib turuvchi qismi”: *...Yel anda kirip tartip cıqaru ew tamlariña toqiyu halāk qildi* (30v17). Tahlillardan ma‘lum bo‘ladiki, mazkur so‘zning “devor” sememasi qolganlari uchun denotat, ikkinchi va uchinchi ma‘nolar esa konnotativ sema hisoblanadi. Ayni paytda shuni ta‘kidlash joizki, so‘zning “binoning ustini berkitib turuvchi qismi” ma‘nosi qissa tiliga xos xususiyat. Chunki ushbu semema asardan oldin va u bilan bir davrda yaratilgan manbalarda uchramaydi.

Yaš so‘zi birinchi marta yenisey yodgorliklarida “yil” ma‘nosini anglatgan: *Toquz qırq yašimta* – o‘ttiz to‘qqiz yoshimda (ДТС,245). “Qutadg‘u bilig” pandnomasida leksemaning asl ma‘nosi saqlanib qolgan holda yangi “hayot, umr” semasi yuzaga chiqadi: *Tirik tutğil*

anča yašim qil – hali yashashimga imkon ber, umrimni uzaytirgin (ДТС,245). Leksema “Qisasi Rabg‘uziy”da ham ayni ma’nolarda ishlatilgan: *Ogli anda yüz yigirmi yašda erdi* (166r3); *Luqman bin Ad aydi: ilāhi mānā uzun yaš bergil* (30r17).

Ay so‘zi Bilga xoqon bitigtoshi va qoraxoniylar davri yodnomlarida “sayyora”, “Oyning quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddatiga yaqin vaqt oralig‘i” ma’nolarida kelgan: *Qayu evkā kirsā bu ay tārķ ēiqar* – oy nuri qaysi uyga tushsa, u yerdan bir zumda chiqadi; *Yolliḡ tegin men ay artuḡi tōrt kūn olurip bitidim bedizdim* – Yo‘llic teginman, o‘ttiz to‘rt kun ichida yozdim va bezadim (ДТС,24-25). Shuningdek, ushbu leksema qadimgi turkiy til va XIV asr manbalari hamda XII–XIV asr uyg‘ur huquqiy hujjatlarida **ay erkligin yoriḡli** (ДТС,24) – “oyning o‘zgaruvchan kuchi”; **ay ölütcü** (ДТС,24) – “mahv etuvchi oy”; **ikindi ay** (ДТС,206) – “yilning ikkinchi oyi”; **ay tājri** (ДТС,24) – “oy tangri”; **Ay toldi** (ДТС,25) – “kishi ismi”; **ay bitigi** (МК, I,76) – “askarlarning nomi va ozig‘i yozilgan daftar”; **aram** (sug‘dcha) **ay** (ДТС,50) – “uyg‘ur yil kalendarining birinchi oyi”; **čaḡšapat** (sanskritcha) **ay** (ДТС,140) – “qadimgi uyg‘ur kalendarining o‘n ikkinchi oyi” kabi leksik birliklar tarkibida ko‘zga tashlanadi. Mahmud Koshg‘ariy hafta va oy nomlari xususida shunday yozadi: *Turklarda haftadagi yetti kunning ismi yo‘q, chunki hafta islomdan so‘ng shuhratlandi. Shunga o‘xshash oy ismlari ham shaharlarda arabcha yuritiladi. Ko‘chmanchi va musulmon bo‘lmagan turklar oylarni to‘rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyni bir ism bilan yuritadilar. Yil o‘tishini shunday biladilar. Masalan, navro‘zdan keyingi avval bahorga oḡlaḡ ay, so‘ngra uluḡ oḡlaḡ ay derlar. Chunki oy bu vaqtda katta bo‘lib qoladi. Bundan keyingisiga uluḡ ay deyiladi. Chunki bu oy yozning o‘rtasida bo‘lib, bu vaqtda sut va yer ne‘matlari mo‘l-ko‘l bo‘ladi* (I,332). “Qisasi Rabg‘uziy”da terminning quyidagi ma’nolari kuzatiladi: 1) “sayyora”: *İkinçi kečā yana tüş kördi: on bir yulduz, kūn, ay birlā inip Yusufḡa sajda qilurlar* (67r19); 2) “Oyning quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddatiga yaqin vaqt oralig‘i”: *Yaḡdi yaḡmur esdi yellār astun üstün alti ay* (22v14); 3) “go‘zal yuz”: *Aziz, Rayyānma ay yüzlüḡ oḡlan körüp azaḡinḡa tüşḡali oḡradi* (76v1); 4) “tug‘ish vaqti”: *Ayi küni*

yetti ersā Hina qiz tuḡurdi (166v13). Keltirilgan misollardan ayonki, birinchi ma‘no qolgan uchta semema uchun denotat hisoblanadi. Bundan tashqari, qissada o‘rganilayotgan so‘z tammuz ayi (232r17) – “avgust oyi”: qurban ayi (212v13) – “zulhijja oyi”; ramazān ayi (212v13) – “qamariya yil hisobining to‘qqizinchi oyi”; rajab ayi (25r17) – “qamariya yil hisobining yettinchi oyi”; rabiul-avval ayi (198r17) – “qamariya yil hisobining uchinchi oyi”; zulhijja ayi (120v3) – “qamariya yil hisobining o‘n ikkinchi oyi”; muharram ayi (245v18) – “qamariya yil hisobining birinchi oyi” shakllarida ham ishlatilgan. Alisher Navoiy ay ni “sayyora”, “go‘zal, mahbuba” ma’nolarida qo‘llagan (АНАТИЛ, II, 510).

Uč oti qadimgi turkiy til hamda qoraxoniylar davri manbalarida “narsaning ingichkalashgan, o‘tkir tomoni”, “uzun narsa tomonlaridan biri, bir tomon oxiri, boshi”, “yon tomon, qanot” ma’nolarini bildirgan (ДТС,603). Tadqiqot obyekti qilib olingan asarda leksemaning tubandagi ma’nolari kuzatiladi: a) “narsaning ingichkalashgan, o‘tkir tomoni”: *Umar qilič uči birlā qarındašini sancti* (196v5); b) “uzun narsa tomonlaridan biri, bir tomon oxiri, boshi”: *Tayaḡnıñ učiñ yündilār, simāb toldurdılar* (112v4); d) “narsaning o‘zi birikkan, o‘rnashgan joydan tashqari yo‘nalgan tomoni, oxiri”: *...Rasul alayhis-salām aydi: baš barmaḡin čičala barmaḡ učiñda qoyub munča erdi* (121v2).

Tüz so‘zi Kul tegin bitigi, Turfon matnlari va eski turkiy tilning ilk manbalarida “tekis yer”, “bir xil, aynan”, “ishonchli, haqiqiy” (ko‘chma) kabi ma’nolarda ko‘zga tashlansa (ДТС,602), “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uning “sayhon, tekislik”, “bo‘z yer” (ЎТИЛ, II, 218) sememalari ko‘rsatib o‘tilgan. «Тафсири»da «tik, to‘g‘ri», «tekis yer» ma’nolarini anglatgan: *Boyi tüz yüzi körküḡ* (138,1); *Tamuḡqa tušārlār netāḡ kim tewā kabi tüzda tayirlar* (131,10). Tadqiq etilayotgan yodgorlik tilida leksemaning uchta ma’nosi kuzatiladi:

a) “tekislik”: *Aydi: maḡa bir keḡ tüz yazı, saḡ topraqliḡ yer hāsil qilıñ* (62v4);

b) “bir xil, aynan”: *Yarlıḡ keldi: ey farištālār, bu qullornıñ tillāri köñüllāri birlā tüz ermās* (154r14).

d) “to‘g‘ri”: *Anda kedīn tūz keḡās qīlip quḡuḡḡa kemišūr bolup Yusufnī tutup sūdrāyū quḡuḡ baḡiḡa keltūrdilār* (70r19). O‘z navbatida, asarda forscha-tojikcha **rāst** o‘zlashmasi o‘rganilayotgan leksemaning sinonimi vazifasini o‘tagan o‘rinlar ham mavjud: *Ya‘qub yalawaē sordi: ey bōri, Tājri haqqi rāst ayḡil* (72v6);

O‘n leksik birligi moniy yozuvidagi yodnomalarda, Mahmud Koshg‘ariy “Devon”i hamda Turfon matnlarida “gavdaning yurak o‘rnashgan tomonga qarama-qarshi joylashgan tarafi”, “to‘g‘ri” ma‘nolarini bildirgan (ДТС,367). «Тафсири» da o‘tning dastlabki ma‘nosi saqlangan: *Āwrāmiz anlarnī o‘n yan sol yan* (1610). Leksema keyingi davrlarda ham zikr qilingan ma‘nolarda qo‘llanilgan. Buni “Qisasi Rabg‘uziy” asarida yaqqol ko‘rish mumkin: *Bir an‘āni uḡmahniḡ o‘n qolinda turguzdi* (10v8); *Ey ādamiylar uḡruḡi kāḡki ul kūn o‘n aymiḡ ersāḡ satḡin almaḡay erdim* (77v20). Keyingi misoldan ko‘rinadiki, bu o‘rinda tekshirilayotgan so‘z **kōni** leksemasi bilan sinonimik munosabatga kirishgan: *Yusuf aydi: kōni sözlār kōḡlūḡ bar ersā ayḡil* (75v3). Demak, *o‘n* so‘zining zikr etilgan sememalaridan birinchisi denotativ, ikkinchisi konnatativ ma‘no hisoblanadi.

Ko‘p ma‘nolilik til rivojida katta o‘rin tutib, uning lug‘at tarkibini boyishiga ulkan hissa qo‘shadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, polisemiya hodisasi o‘rganilayotgan asarda qayd etilgan ot, sifat, fe‘l va son (qisman) turkumlariga oid leksik birliklar doirasida sodir bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Tilshunoslikda polisemiya deganda qanday hodisa tushuniladi?
2. Polisemiyaning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Bosh ma‘no deb nimaga aytiladi?
4. Hosila ma‘no qanday yuzaga keladi?
5. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi polisemantik so‘zlarning ma‘nolararo munosabatlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘ting.
6. Asar tilida qaysi so‘zlarning leksik ma‘nolari yelpig‘ichsimon ko‘rinishda bog‘langan?
7. Obida lug‘at tarkibida leksik ma‘nolari zanjirsimon ko‘rinish hosil qilgan terminlar haqida fikr bildiring.

MA‘NO TORAYISHIGA UCHRAGAN SO‘ZLAR

Tayanch tushunchalar: *leksik ma‘no, grammatik ma‘no, til va nutq hodisalari, uslubiy ma‘no, lisoniy omillar, ma‘no torayishi, “Taḡcup”, “Nahjul farodis”, “Devoni lug‘otit turk”, alp, urung, bo‘qag‘u, bus, bilig, elchi, kishan, tarig‘, kent, tangri, urag‘ut.*

So‘zning leksik ma‘noga egaligi uni til leksik-semantik sistemasining asosiy birligi ekanligini belgilaydi. Biroq barcha so‘zlar ham leksik ma‘noni ifodalamaydi. Shu bois, o‘zbek tilshunosligida leksik ma‘noga ega va ega bo‘lmagan so‘zlarni farqlash, til va nutq hodisalarining nomlarini ajratish maqsadida leksik ma‘no ifodalaydigan so‘zlarga nisbatan leksema termini qo‘llanmoqda. Demak, til leksik-semantik sistemasining asosiy birligi leksik ma‘noli so‘z yoki leksemadir.¹²⁷

Leksik ma‘no hamma vaqt muayyan so‘zning semantik tarkibiga kiradi. So‘zda grammatik ma‘no ham, so‘zlovchining o‘z nutqiga bo‘lgan munosabatini bildiruvchi ma‘no ham bor. Biroq bularning o‘zi leksik ma‘no bo‘lolmaydi. Leksik ma‘noli so‘z gap bo‘lagi vazifasini bajaradi, shuningdek, morfologik kategoriyalar ma‘nosi, emotsional-ekspressiv va uslubiy ma‘no ifodasini beradi.¹²⁸

So‘zning leksik ma‘nosi ancha barqaror bo‘lsa-da, uzoq yillar mobaynida ma‘lum omillar ta‘sirida o‘zgarib boradi: 1) ekstralingvistik omillar – ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ong, tafakkur rivoji va boshqalar; 2) Lingvistik (lisoniy) omillar – til birliklarining til sistemasi ichidagi munosabatlari.¹²⁹ Binobarin, so‘z ma‘nolarining o‘zgarishi xilma-xil va murakkab jarayon hisoblanadi. Jumladan, leksema ma‘nosining torayishi, kengayishi va yangi sema kasb etishi uzoq davr mahsulidir.

Ma‘no torayishi – avval keng hajmdagi voqelikni ifodalovchi ma‘noning keyinchalik tor doiradagi voqelikni anglatishga o‘tishidir.¹³⁰

¹²⁷ Ҳақимова М. Семасиология. – Т., 2008. – Б. 31.

¹²⁸ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. –Б. 47.

¹²⁹ Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. – Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2004. – Б. 21.

¹³⁰ Ҳақимова М. Семасиология. – Т., 2008. – Б. 67.

Leksik ma'noning torayishida u ifoda etgan referentning ma'lum qismlari differensiya bo'lib, boshqa bir nom bilan atalib ketadi. Natijada so'zning leksik ma'nosida torayish kechadi¹³¹.

Tadqiq etilayotgan obida lug'at tarkibidagi bir qator leksemalarda ma'no torayish hodisasi yuz bergan, ya'ni so'zlarning muayyan semalari iste'moldan chiqqan. Jumladan, **alp** so'zi Urxun-yenisey yodnomalari, Turfon matnlari, moniy yozuv yodgorliklari hamda Mahmud Koshg'ariyning "Devon"ida quyidagi ma'nolarda ishlatilgan: 1) "mohir mergan": *Atsar alp ertijiz...* – otishda mohir mergan edingiz; 2) "qahramon, bahodir": *alplar birla urushma* – bahodirlar bilan urushma; 3) "jasur, qo'rqmas, mard": *...Alp qağan ermiş* – mard hoqon erkan; 4) "jasorat, jur'at": *Alpin erdāmin el tutmiş* – davlatning qoidasi mardlik va jasorat bilan (ДТС,36). "Тафсири", Mahmud ibn Saroyining "Nahjul farodis"i hamda "Qisasi Rabg'uziy" asarlarida terminning faqatgina ikkinchi ma'nosi ko'zga tashlanadi: *Omār... ār ārdi yūräklig ayyar alp ārdi* (2667); *Meni alp bahātur tesūnlār* (НФ, 20368); *Alp yūräklig kücünā küwānür erdi* (61v14). Tahlillar natijasida shu narsa oydinlashdiki, keyingi davrlarga kelib, leksemaning ikkinchi ma'nosi saqlanib qolgan. Dastlabki hamda hosila ma'nolar esa iste'moldan chiqib ketgan.

Artat- fe'li qadimgi turkiy til obidalarida va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida: 1) "nobud qilmoq"; 2) "vayron qilmoq, yo'q qilmoq"; 3) "sarf qilmoq, xarjlamok"; 4) "buzmoq"; 5) "buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq" (ko'chma ma'noda); 6) "parchalamok, yo'ldan ozdirmok" (ДТС,127) semalarini ifodalagan. Leksema o'rganilayotgan manbada o'zining birgina, ya'ni "buzmoq" ma'nosida ishlatilgan: *Aniñ ücün kim Rasul yarliqadi: men namāz qilurda bir dev kirdi namāziMni artatgali...* (146r13). Bu o'rinda mazkur so'z **buz**- fe'li bilan ma'nodoshlik qatorini yuzaga keltirgan: *Qurtqa buzar miñ işni qayra tüzar tiläsä* (80v14). Ko'rinib turibdiki, "Qisasi Rabg'uziy" asari tilida fe'lining birgina, ya'ni to'rtinchi ma'nosi uchraydi, denotativ ma'nosi va undan o'sib chiqqan qolgan semalari ko'zga tashlanmaydi. Binobarin, XIV asrga kelib, **artat**-

fe'li avval **buz**- leksemasi bilan sinonim sifatida qo'llanilgan bo'lsa, so'ngra esa ushbu so'zga o'rnini butunlay bo'shatib bergan.

Aq sifati ilk bor Urxun-yenisey bitigtoshlarida "kulrang, bo'z"(ot tusi) ma'nosida ishlatilgan: *Aq bisi qulunlamış* – kul rang biyasi qulunladi. Mazkur leksik birlik Turfon matnlarida ko'chma ma'noda "yaxshi ta'sir ko'rsatadigan, ko'ngildagidek, ijobiy" semasini anglatgan: *Aq qişin az* – insonga xush yoqadigan ishing kam (ДТС.48). Mahmud Koshg'ariyning lug'atida so'zning dastlabki ma'nosi saqlanib qolgan holda, uning yangi "oq" semasi rivojlanadi: *Aq bulut* (МК, I,258). "Тафсири"da so'zning "oq", "yorug'" ma'nolari kuzatiladi: *Qizil taqi aq yaqutdin* (138,17); *...Uzlar ul kim aq bolup...* (12568). Qissa tilida esa leksema "oq": *Hur aq temäk bolur* (171v5): "kulrang oqish, bo'z": *Farmānladi aq yağan keltürdilər* (148r14) ma'nolarini bildirgan. Misollardan anglashiladiki, sifatning "yaxshi ta'sir ko'rsatadigan, ko'ngildagidek, ijobiy" semasi o'sha paytdayoq, "yorug'" ma'nosi esa keyingi davrlarga kelib, iste'moldan chiqqan.

Navoiy asarlarida leksemaning "oq"(rang), "toza"(ko'chma ma'noda) (АНАТИЛ,II,544) semalari uchraydi. Radlov o'z lug'atida so'zning quyidagi ko'chma ma'nolari mavjudligini qayd etadi: "toza" (РСЛ, I,84), "vijdonli, halol" (РСЛ, I,95), "yuqori sifat" (РСЛ, I,92), "bilimli, o'qimishli" (РСЛ, I,79)¹³².

Bundan tashqari, asar tilida tahlil qilinayotgan terminning **ürün** sinonimi ham iste'molda bo'lgan: *...ürün yüzlük, kiyik közlük, yinçgä bellik...* (85v13). Ushbu so'z birinchi marta Tonyuquq yodgorligida ko'zga tashlanadi: *Sariğ altun ürün kümüş* – sariq – oltin, oq – kumush (ДТС,627). Demak, ma'lum bo'ladiki, qadimgi turkiy tilda "oq" semasini **ürün** leksemasi ifodalagan. **Aq** sifati esa ayni ma'noda XI asrdan boshlab ishlatila boshlangan.

Qadimgi turkiy til hamda qoraxoniylar davri yodnomalarida **bağ** leksemasi 1) "kishan, band"; 2) "bog'ich, bog'"; 3) "tugun, bog'lam, taxlam"; 4) "jild, bo'lim"; 5) "guruh" (ДТС,77) ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, "Qisasi Rabg'uziy"da quyidagi semalarda

¹³¹ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SO'Z, 2010. –Б. 113.

¹³² Qarang: Ганиходжаева М. Функционирование основных прилагательных цвета в исторических срезах языка // Историколингвистический анализ лексики старописьменных памятников. –Т.: ФАН, 1994. –С. 43-53.

istifoda etilgan: a) “kishan, band”: *Özgā küçlük boynağularni teñiz tubinda bağda, boqağuda tutdı* (146r16); *Ot İbrāhim bağlarin köyürdi* (42r17). Ayni paytda ushbu termin **kişān, boqağu** soʻzlariga sinonim tarzida qoʻllanilgan: *Ađaqimğa kişān urdılar* (74r7); *Ađaqlarimğa buqağu urdı* (154r5); b) “bogʻich, bogʻ”: *İc bağlarin keñ qılman* (57v9). d) “bogʻlam, taxlam”: *Bir bağ cöplük buğdayni keltürdi* (15v12). Soʻzning dastlabki ikkita maʼnosini “Тафсир” asarida ham uchratish mumkin: “bogʻ”: *İtniñ bağini yazdilar* (9.22); “kishan”: *Ulaşturğay başi birlä ayaqlari temür bağlar birlä* (66,14). Bu ot qadimgi turkiy tilda “biriktirmoq” maʼnosini bildirgan **ba:-** feʼliga **-ğ** affiksini qoʻshish orqali hosil qilingan (ЎТӘЛ, I, 62-63).

“Bilim” tushunchasi ilk marta Kul tegin bitigtoshida “bilim-tajriba orttirmoq” maʼnosini anglatgan **bil-** feʼlidan **-(i)g** affiksi orqali yasalgan (ЎТӘЛ, I, 50) **bilig** leksemasi yordamida ochib berilgan: *Ayig bilig anta öyür ermiş* – ular u yerdan oʻzlariga yomon bilimlarni oʻzlashtirib olgan (ДТС, 99). Leksema “Devonu lugʻotit turk” da oʻzining asl maʼnosini davom ettirgan: *Ula bolsa yol azmas, bilig bolsa söz yazmas* – belgi boʻlsa odam yoʻldan adashmaydi, bilim boʻlsa kishi soʻzda yanglishmaydi (MK, I, 108). Shuningdek, Mahmud Koshgʻariy ushbu soʻzning “aql, idrok”. “hikmat” (I, 367) maʼnolarini ham koʻrsatib oʻtadi: *Bilig kişi ara ülüglüg ol* – aql insonlar oʻrtasida taqsimlangan (ДТС, 100). Berlin toʻplamidagi uygʻur yozuvida bitilgan hujjatlarda leksik birlikning toʻrtinchi, yaʼni “ehtiyotkorlik” maʼnosi uchraydi: *Yiti biligin yarmış kergäk* – yarani juda ehtiyotkorlik bilan ochish lozim (ДТС, 100). Qissa tilida **bilig** leksemasi asosan “bilim – tajriba”, “hikmat” semalarini anglatish uchun xizmat qiladi: *Sulaymān aydi bu biligni kimdin ögrändiñ?* (139v8); *Aymişlar: ul ganjda bir altun taxtada bar edi bilig sözlari bitiglig, söz bu erdi* (131r3). Demak, soʻzning asarda kuzatilgan birinchi maʼnosi denotativ, ikkinchisi esa konnotativ maʼno sanaladi.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, Rabgʻuziy zikr etilgan maʼnoni yoritish uchun arabcha **ʼilm** sinonimidan ham foydalangan: *Musā aydi: men seniñ birlä turayın ʼilm ögrānāyin teyü keldim* (130r2). Bu soʻz asli “bildi, bilimli boʻldi” maʼnosini anglatuvchi **ʼailma** feʼlining I bob masdari hisoblanib (ЎТӘЛ, II, 161), ilk marta “Qutadgʻu bilig”

(ДТС, 209) dostonida uchraydi. Oʻz-oʻzidan ayon boʻladiki, oʻzlashma XI asrdan boshlab *bilig* soʻzi bilan sinonim sifatida qoʻllanib kelingan.

Eski turkiy adabiy tilning dastlabki obidalaridan sanalgan “Devonu lugʻotit turk” asarida **bus** leksemasining ikkita maʼnosi keltirib oʻtilgan: a) “tuman”: *Kök bus boldi* – osmonni tuman qopladi; b) koʻchma maʼnoda “xira”: *Er közi bus boldi* – er kishining koʻzi xira tortdi (ДТС, 127). Mazkur soʻz tadqiq etilayotgan manbada birinchi semasini saqlab qolgan: *Astın qapuğni açturdi, ne körünür? tesä yemä bus körünür tedi* (44r11). Kezi kelganda aytish lozimki, yodnomada ayni maʼno **duman** leksemasiga ham yuklangan: *Ul duman tek köp tümän toğ turğuzup yüz miñ arab* (181v20). Bu soʻz dastavval Urxun-yenisey bitigtoshlarida **tuman** shaklida qayd etilgan: *Üzä tuman turdi asra tođ turdi* – yuqorini tuman, pastni esa chang qopladi (ДТС, 585). **Tuman//duman** etimologiyasi haqida baʼzi fikrlar ham yoʻq emas. Xususan, Sh. Rahmatullaev **tum** (“namlik”) otidan **-a** qoʻshimchasi bilan feʼl yasalgan va undan **-n** affiksi yordamida ot hosil qilingan deb taʼkidlaydi (ЎТӘЛ, I, 359).

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostonida **yalawač** 1) “elchi”: *Bu yanliğ yalawač tilakka tegir* – bunday elchi oʻylagan niyatga yetkazadi; 2) “paygʻambar”: *Muhammad yalawač xalāyiq başi* – Muhammad paygʻambar xalq yoʻlboshchisi (ДТС, 228) maʼnolarini bildirgan. Birinchi sema dastlab **yalabač** fonetik shaklida yenisey yodnomalarida, ikkinchisi esa ilk marta Turfon matnlarida ishlatilgan: *Tübüt qanqa yalabač bardim* – Tibet xoniga elchi boʻlib bordim (ДТС, 227); *Täñri yalawači* – Xudoning elchisi, paygʻambari (ДТС, 228). Mahmud Koshgʻariy **yalawač** (III, 54) “paygʻambar”. **yalafar** soʻzi esa “shohlarning elchilariga beriladigan ot (uygʻurcha)” maʼnolarini ifodalaganligini qayd etadi: *Yaş ot küymäs, yalafar ölmäs* – yosh (hoʻl) oʻt yonmaganidek, xabari har qancha ogʻir va dahshatli boʻlsa ham elchiga oʻlim yoʻq (III, 55). Leksema tekshirilayotgan manba tilida “paygʻambar” maʼnosida isteʼmolda boʻlgan, yaʼni maʼno torayishi yuz bergan: *İbrāhim yalawač dastārın çiqarib alarğa qarşu tutdilar* (98v14).

Ushbu hodisani qissada tahlil qilinayotgan soʻzning sinonimi sifatida kelgan **sawčī** leksemasida ham kuzatish mumkin. Termin

birinchi bor Urxun-yenisey obidalarida **sab'ci** shaklida “elchi”, “avliyo”, “sohibkaromat” (ДТС,478) ma'nolarida qo'llanilgan. XI asr yodgorliklarida istifoda etilgan **saw'ci** varianti “payg'ambar”, “kuyov tomonidan qiz tomonning roziligini olish uchun vakil qilingan shaxs” (ayni paytda, mazkur sema “Devon” da o'g'uzcha **yazig'ci** so'zi yordamida ham ochib berilgan (III,63) ma'nolarini kasb etgan: *Yalawačlarda ođrüntüsi uluđ saw'cisi* – elchilar ichida tanlab olingan (Xudoning) buyuk payg'ambari (ДТС,492). “Qisasi Rabg'uziy”da birgina “payg'ambar” semasi kuzatiladi: *Ibrāhimün ođli erdi İsaq Mavlā saw'cisi* (53v15). Bu so'z “xabar, so'z” ma'nosini anglatgan **saw** otidan **-ci** qo'shimchasi bilan yasalgan (ЎТЭЛ, I, 293). Tadqiq qilinayotgan manbada “bir davlatning boshqa bir davlatga yuboradigan rasmiy vakili” tushunchasi esa, “davlat” ma'nosidagi **el** oti hamda **-ci** affiksidan yasalgan (ЎТЭЛ, I, 463) **elci** so'zi yordamida ochib berilgan: *Rum maliki Misr malikigā elci yibardi* (87v15). Leksema ayni paytda “payg'ambar” semasini ham ifodalagan: *Tāñri el'cisi dastur tilāyür, tedi* (232v15).

Bundan tashqari, o'rganilayotgan asarda bu so'zning forscha-tojikcha **payg'ambar**: *Xabarda andađ kelür: tört payg'ambar tirik turur* (20v20); arabcha **mursal**: *Anbiyā mursal qamuđdin anin alā himmatin* (181v9); **nabiy**: *Xalq üzā yawlaq bađirsaq erdi belgülük nabiy* (158r15); **rasul**: *Bu qavlñi xatā temislär, anin üçün kim rasul yarliqadi* (146r12) sinonimlari ham ko'zga tashlanadi.

Xan «hukmdor» ma'nosini ifodalagan: *Köp çerigni basti xanlar, işq çerigin kim basar* (77v4). Mazkur istiloh dastlab qadimgi turkiy manbalarda **qan** shaklida «hukmdor», «yo'l boshchi, boshliq» ma'nolarini anglatgan: *Tāñri anča temiş erinč, qan bertim, qannin godup içikdinā* – Tangri shunday dedi: men senga xon berdim, sen esa o'z xoningni tashlab, o'zgaga bo'ysunding; *Ötrü tāñri qani Xormuzta tāñri tāñrisi Burxanqa inča tep ötüg ötüinti* – Shundan keyin ma'budalar yo'l boshchisi tangri Xurmuzta tangrilar tangrisi Burxandan iltimos qildi (ДТС,417). O'rganilayotgan termin «Qutadg'u bilig» hamda Mahmud Koshg'ariyning «Devon»ida o'zining asl ma'nosida ishlatilgan: *Bu Tawğaç Qara Buğra xanlar xani* (ДТС,636); *Xandan basut* (yordam) *tilärlär* (I,427). Demak, ma'lum bo'ladiki, **x** ning

q tovushiga o'tishi hodisasi XI asrda yuz bergan. Bu so'z Alisher Navoiy asarlarida ham ayni semada qo'llangan: *Māil qildi burun Xitā xani bay' qilmaq berib bahā ani* (III,412). Mahmud Koshg'ariy **xan** so'zini quyidagicha izohlaydi: *Afrosiyobning bolalari ham xon deb yuritiladi. Afrosiyob xoqondir. Bu nom bilan atalish voqeasi haqida uzun hikoya bor* (III,172). L. Budagov lug'atida **qan** mo'g'ulcha **qaan** so'zining qisqargan shakli sifatida qayd etiladi (CCTH, I, 527). Ayrim turkologlar termin **qağan** leksemasining qisqarishi natijasida yuzaga kelgan degan fikrni ilgari suradi¹³³. Shuningdek, mazkur leksema xitoy tilidagi ke «buyuk, ulug'» + kuan «hukmdor» terminidan olinganligi haqida ham qarash mavjud¹³⁴. Bizning fikrimizcha, **qan** termini qaysi so'zdan kelib chiqqan bo'lishidan qat'iy nazar turkiycha hisoblanadi. Bundan tashqari, qissada leksik birlikning forscha-tojikcha **padšah**, arabcha **sultān**, **malik** sinonimlari ham qo'llanilgan: *Qurtqa aydi: bu is bitsā Rayān pādšah ölgändin soñ Rumdin çerig kelgāy* (88r7); *Ul sultān ölgändin soñ özgā sultān olturdi* (164v11); *Malik sordi: bu ođlanni qaydin aldin?* (33r19).

Qadimgi turkiy til hamda qoraxoniylar davri yodnomalarida **yağiz** so'zi quyidagi semalarni ifodalash uchun xizmat qilgan: 1) “qo'ng'ir, qoramtir”: *yağiz yer yüzi yaşardi, körklädi* – qora yer yuzi yam-yashil bo'ldi, go'zallashdi. 2) ko'chma ma'noda “yer”: *Üstün kökdäki... astin yağizdaqi* – tepa, osmonda va past, yerda joylashganlar; 3) “ot nomi”: *Yağizin binip* – qoramtir otni minib (ДТС, 225). Q. Sodiqov “Qutadg'u bilig” ning Hirot nusxasidagi boblar mundarijasida “*Yeti yulduz, tört yağiz, on iki okäknin ögdükini ayur*” nomli sarlavhaga e'tibor qaratar ekan, shunday yozadi: undagi *yağiz* – asli rang ma'nosini bildiradi. “qo'ng'ir rang” dir. Bu sifat badiiy asarlarda,

¹³³ Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. Ч. I. –М., 1963. –С. 604; Баскаков А.Н. Тюркизмы-социальная терминология в «Слове о полку Игореве». Туркология. К 70 летию акад. А.Н. Кононова. –М., 1976. –С. 226.

¹³⁴ Дадабоев Х., Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т.: Фан, 2007. –Б. 34. Каранг: Менгес К. Восточные элементы в «Слове о полку Игореве». –Л., 1979. –С. 110-111; Баскаков А.Н. Тюркизмы-социальная терминология в «Слове о полку Игореве». Turcologica. К 70 летию акад. А.Н. Кононова. –М., 1976. –С. 225; Немет Ю. К вопросу об аварях. –В кн. «Turkologiya». –Л., 1976. –С. 299.

xususan, “Qutadg‘u bilig”da ham yerga nisbatan qo‘llanilgan: *yağiz yer* – qo‘ng‘ir yer. Ko‘chma ma‘noda “yer”ning o‘zini ham bildiradi, *yağiz* deganda “yer. tuproq” tushuniladi. Bob sarlavhasiga kelsak, unda *tört yağiz* deyilmoqda, bu “to‘rt yer” deb tushunilmaydi; uni “unsur, element, materiya” deya anglamoq kerak: *tört yağiz* – “to‘rt unsur” degani. Ana shunda mantga mos tushadi. Chunki ushbu bobda yetti yulduz, o‘n ikki burj va to‘rt unsur to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi sarlavhani “yetti yulduz, to‘rt unsur, o‘n ikki burjni madh etganini aytadi” deb o‘g‘irish mumkin. Anglashiladiki, *yağiz* so‘zi ilkin ma‘nosida “unsur”ni bildirgan, qolgan ma‘nolari esa o‘shandan urchigan¹³⁵. Rabg‘uziy asarida bu so‘zning “qo‘ng‘ir, qoramtir” ma‘nosi saqlanib qolgan: *Yağiz yerni qadami astinda bisat qildilar* (181r13). Shu bilan birga, qissada terminning **qara** sinonimi ham uchraydi: *Qara bulut yağinliq bolur tep ani goldi* (30r11).

Tariğ (HФ,188a17) leksemasi birinchi marta Urxun-yenisey manbalarida “don, urug‘” tushunchasini ifodalagan: *Tariğ bisdi yaş ot ündi yilqıqa kişika esgü bolti* – don pishdi, yam-yashil o‘tlar undi, chorva va insonlarga yaxshi bo‘ldi (ДТС,537). Mahmud Koshg‘ariy mazkur so‘z ko‘pchilik turk qabilalarida “bug‘doy”, o‘g‘uzlarda “tariq”, ya‘ni “donini oqlab, so‘k olinadigan boshqoqli o‘simlik” (I,354) ma‘nolarini bildirganligini e‘tirof etadi. “Qutadg‘u bilig” dostonida “dehqonchilik” ma‘nosida ko‘zga tashlanadi: *Tariğci tariğda erik bolsun* – dehqon dehqonchilikda o‘z g‘ayrat-shijoatini namoyon etsin (ДТС,536). “Qisasi Rabg‘uziy”da **tariğ**, **tariq** fonetik shakllarida “don”, “tariq” semalarida ishlatilgan: *Asliq tariqlari barcani sarayında yigilmis* (216v3); *Asliq tariğ bolmişda yegü çaqliğ tökdürür erdi* (92v10). Demak, **tariğ** otining “don, urug‘” sememasi boshqalari uchun denotat sanaladi. Keyingi davrlarga kelib, so‘zning bu ma‘nosi iste‘moldan chiqib ketgan, faqatgina “tariq” semasi saqlanib qolgan. Leksik birlik qadimgi turkiy tilda “ekin ekmoq” ma‘nosini anglatgan **tari-** fe‘li bilan **-ğ** affiksidan yasalgan (ЎТЭЛ, I,322).

Ilk bor Turfon matnlarida qayd etilgan “shahar” ma‘nosini

¹³⁵ Содиков К. “Кутадғу билиг” кўлэзма нусхаларининг чоғиштирма тахлили // “Кутадғу билиг” – буюк маънавий мерос. Илмий конференция материаллари. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2010. –Б. 58.

anglatuvchi **känd** (ДТС,290) leksemasining obida tilida **kend**, **kent** fonetik variantlari ko‘zga tashlanadi: *Yolda kelürda Aynus-sams atliğ bir kend bar erdi* (96r7); *Meni bu siğirğa mindürgil seniñ birla kentgä barayin* (128v8). Mahmud Koshg‘ariy tadqiq etilayotgan leksema xususida quyidagilarni bayon qiladi: *Känd – o‘g‘uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida qishloq. Ko‘pchilik turklar nazdida viloyatdir. Shuning uchun Farg‘onani Özkänd – o‘z shahrimiz deydilar. Samarqandni kattaligi uchun Semizkänd – semiz shahar deydilar. Buni forsiylar Samarqand tarzida qo‘llaydilar* (I,330). *Tärkän – Shosh (Toshkent) ning ismi. Uning asli Tash kand bo‘lib, toshdan qurilgan shahar demakdir* (I,414). Ma‘lum bo‘ladiki, qoraxoniylar davrida termin “qishloq”, “viloyat”, “shahar” ma‘nolarini bildirgan. “Тафсир” asarida **kend** (39,17), **kent** (61,9) shakllarida “qishloq”, “shahar” semalarida ishlatilgan. “Guliston bit turkiy”da **kent** “shahar” ma‘nosida kelgan: *Bir qul kentgä bardı* (3061). Alisher Navoiy asarlarida “qishloq”, “shahar” ma‘nolari ko‘zga tashlanadi (АНАТИЛ, II,108).

Mazkur so‘zning qaysi tilga oidligi xususida turli fikrlar mavjud. Masalan, ayrim manbalarda uning sug‘d tiliga mansubligi qayd etiladi¹³⁶. Mahmud Koshg‘ariy esa bu haqda shunday yozadi: *Butun Movarounnahr, Yankanddan Sharqqacha bo‘lgan o‘lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand, Semizkänd, Taşkänd – Şaş, Özkänd, Tünkänd nomlarining hammasi turkchadir. Känd turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharni qurdilar va shunday nom qo‘ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko‘paygach, so‘ng ular Ajam shaharlari kabi bo‘lgan* (III,164). Qayd etilgan ma‘lumotlar Movarounnahrning sanab o‘tilgan o‘lkalari turklar tomonidan bunyod etilgani, keyinchalik bu yerlarda forsiyzabonlar nufuzining ham oshganligi, joy nomlarining esa forscha

¹³⁶ Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. –С. 290; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Т. II. –Б. 353; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991. –С. ; Кораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. –Б. 36.

atab ketilganidan dalolat beradi¹³⁷.

Shu bilan birga, tadqiq qilinayotgan manbada ushbu leksemaning forscha-tojikcha **šahar**, **šahristān** sinonimlari ham uchraydi: *Ucdim ul tağ ustiga aqdim, ortasinda bir šahar kordum ani uzuni on iki yigac yer erdi* (141r19): *Aytmişlar: on uc šahristān erdi, Bilqis Mārab atlig šahristānda erdi* (146v16).

Tegin - fe'li "yetmoq, erishmoq" ma'nosida ilk bor Turfon matnlarida qo'llangan: *Qayu tinlig atqa teginsār* – kim o'sha shonshuhuratga erishadi (ДТС,547). Uyg'ur yozuvida bitilgan budda yodnomalarida leksemaning "boshidan kechirmoq, yo'liqmoq", "sazovor bo'lmoq, munosib ko'rilmog" semalari yuzaga chiqadi: *Azun azunta uzun odün teginürlär* – Umr mavjud bir shakldan boshqasiga o'tish davrida uzoq vaqt qiyinchiliklarni boshdan kechiradi (ДТС,547); *İncip burxan qanimizni köryr biz nomin esitü teginür biz* – Shunday qilib, buddani ko'ramiz va o'gitlarini eshitish sharafiga muyassar bo'lamiz (ДТС,548). Tadqiq etilayotgan asarda so'zning dastlabki semasi saqlanib qolgan: *Bu könlüm murādğa teginmäk tilär* (76v2). Ayni paytda leksema **yet-** fe'li bilan ma'nodoshlik qatorini yuzaga keltirgan: *Ibrāhim kenddin cıqdi yābānga yetdi* (39v1). "O'zbek tilining izohli lug'ati"da **tegin-** fe'li shunday izohlanadi: *daxl qilmoq, tutinmoq; gap-so'z yoki qo'l bilan tegmoq* (IV,46). Ayon bo'ladiki, bugunga kelib, mazkur fe'ling ma'nosi o'zgarib, yangi sema kasb etgan, u ifodalagan ma'no esa **yet-** va **erish-** leksemalariga yuklangan.

Tāğri termini "butun borliq, barcha jonli-jonsiz mavjudotlar yaratuvchisi" ma'nosida qo'llanilgan: *Ançada Jabrāil keldi, aydi: ey Yunus Uğan Tāğri saña salām qildı* (152r21). Qadimgi turkiy tilda tāğri so'zi ikki ma'noda ishlatilgan: "ulug' tangri, xudo"; "ko'k, osmon". Bu so'zning "xudo, iloh" ma'nosi ham turli dinlarda turlicha tushunilgan. Ko'k tangri diniy tushunchasidagi Kök tāğri "ko'kdagi tangri"ni bildirgan. Moniylik dinida esa quyidagi tasavvurlar amal qilgan: *Kün Tāğri – Quyosh tangri, Ay Tāğri – Oy tangri, Yaşin Tāğri – Yashin tangri, Yel Tāğri – yel tangri*. Turk buddistlari tushunchasida

¹³⁷ Содиқов К. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –Б. 46.

Tāğri tāğrisi – Oliy tangri Buddha dir. Musulmon turklarda *Tāğri – Haq taolo(Alloh)* dir¹³⁸. Bundan tashqari, "Oltun (tusli) yorug'" yodgorligi va yenisey bitigtoshlarida leksemaning "hukmdor, janob". «diniy» semalari kuzatiladi: *Bu sabig esitip, men otrü olarqa inča tep tedim aya edgularim tāğrilärim* – Bu so'zni eshitib, ularga shunday dedim: ey mening yaxshilarim, hukmdorlarim!; *Tāğri elikkä elçisi ertim* – Men diniy qabilalar uyushmasining elchisi erdim (ДТС,544). "Devon" da quyidagi qaydlarni o'qiyimiz:

Tün kün tapun tāğrigä boynamağil

Qorqup añar eymänü oynamağil.

Kecha-kunduz ulug' tangriga ibodat qil, yo'ldan ozib adashma. Xudodan qo'rq, undan uyal, undan qo'rqib, o'ynashdan saqlan. Xudo halok qilg'ur kofirlar osmonni tāğri deydilar. Shuningdek, ular ko'zlariga katta ko'ringan har narsani, chunonchi, katta tog', haybatli yog'ochni ham tāğri deb ataydilar. Shuning uchun ham ular shunga o'xshash narsalarga sajda qiladilar. Ular bilag'on odamni tāğrigän deb atashlari ham shundandir. S. Mutallibovning yozishicha, Mahmud Koshg'ariyning tāğri haqidagi izohini ikki xil tushunish mumkin:

Birinchidan, bu izoh XI asrda yashagan xalqlar tiliga emas, balki ancha qadimiy, ya'ni yer, ko'k, quyosh, o'tlarga topinuvchi shomonlik davridagi xalqlar e'tiqodiga doir ma'lumot hisoblanadi. Chunki Koshg'ariy ko'k so'zi "osmon" ma'nosini ifodalashini ta'kidlagan, biroq uning "tangri" semasini keltirib o'tmagan.

Ikkinchidan, uni XI asrda islomni qabul qilmaganlar shunday e'tiqod qilar edilar degan mazmunda tushunish mumkin. Bu variant yana ham yaqinroqdir, chunki Urxun yodgorliklarida ham shu tariqa e'tiqodni ko'ramiz. Ularda olamning yaratilishi, diniy e'tiqodlarga oid ma'lumotlar kam bo'lib, tangriga qulluq qilish, o'lim, ta'ziyalar haqida so'z boradi. Lekin unda yer, ko'k, tangri deb izohlangan. Mahmud Koshg'ariyning bu xil izohlari, bir tomondan, diniy e'tiqod tarixi haqida tadqiqot olib boruvchilar uchun muhim hujjat bo'lsa, ikkinchidan, alloma o'z asarida uzoq tarixiy voqealarni ham hisobga

¹³⁸ Содиқов К. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –Б. 181.

olganini ko'rsatuvchi dalildir (III,387-388).

Qissada tadqiq etilayotgan so'zning turkiycha **uğan**, **iđi**, arabcha **Allah**, forsha-tojikcha **xuda** ma'nodoshlari ham keltirilgan: ...*Uğan hukmiñä rizä berdim yarın qarındaşlarıñ birlä izayın tedi* (69r14); *İdigä šukr qıldılar, telim mällar berdilär sadaqa* (54r11); *Aydi: tamuqmen Alläh bir turur, Yunus anıñ yalawaçi turur* (152r19); *Aydi: Xudāyā sami'un aliymsen* (152r8). Shuningdek, asarda xudoning sifatlarini bildiruvchi boshqa so'zlar ham qo'llanilgan: **iđi** (sohib, ega), **Mavlā** (homiy, rahnamo), **Mavlā taala**, **Haq** (haqiqatan mavjud zot), **Rab** (ega, xoja), **Uğan** (qodir), **Dayyan** (hisobchi, jazolovchi), **Xaliq** (yaratuvchi), **Samad** (hojatbaror), **Jabbār** (bandalari ishini isloh etuvchi), **azza va jalla** (eng aziz va eng ulug'), **zul jalali val ikrām** (sharaffi va karamli), **Ahad** (yagona), **Aliym** (biluvchi, dono), **Jalil** (barcha sifatleri mukammal, ulug' zot), **malikul-mulk** (mulk, saltanat sohibi), **Rahmān** (mehribon), **Rahim** (rahimli), **Sami'** (maxfiy va oshkora gaplarni, hatto dildan o'tganini ham eshituvchi), **Karim** (karamli, kechirimli), **jala jalālahu** (uning sha'ni, shavkati ulug'). Aytish joizki, *tanrı*, *iđi* so'zlari qadimgi turkiy til manbalari, *uğan* leksemasi qoraxoniylar davri yodnomalari, *Alläh*, *xudā* istilohlari XIII-XIV asrga oid asarlar tiliga xos xususiyat. Bugungi kunga kelib, *iđi*, *uğan* so'zlari iste'moldan chiqib ketgan.

Ewlig//ewlik//ewlüg (ew- "uy") leksemasi eski turkiy adabiy tilning ilk yodgorliklarida quyidagi semalarni kasb etgan: 1) "uy egasi, uyi bor inson": *Endik uma ewligni ağırlar* – Kaltafahm mehmon uy egasini hurmat qiladi; 2) "xotin": *Qali ewlig almaq tiläsä özüñ/talusin tilä ked yiti qil köziñ* – Agar uylanmoqchi bo'lsang, yaxshisini tanla va juda hushyor bo'l; 3) "osmonda ma'lum joyga ega bo'lish" (o'tov tutish): *On iki ükāk ol bularda adın/qayu iki ewlüg qayu birgä in* – Bulardan boshqa o'n ikki burj bor/ulardan biri ikkita "uyga" ega, qolganlari bittadan (DTC,190). "Devon" da "xotin" semasida **urağut**, **kişi**, **eşilar**, **tişi**, **kis** terminlari qo'llanilgan (III,456). O'rganilayotgan yodnomada ewlük fonetik shakli ishlatilgan bo'lib, uning dastlabki ikkita ma'nosidan foydalanilgan: *İdiyā ewlük kāfirni yer yüzindä tirik qozmağil* (23v2); *Aziz aydi: meniñ ewlükimgä kim yawuzliq sandi va kim elik sundi?* (83r11). Shuningdek, qissada mazkur so'zning turkiy

tişi, **urağut**, **xatun**, arabcha **avrat** sinonimlari ham ifodalangan: ...*İlähi bu tişilär makrindan meni saqlamasañ ular tapa mayl qilsam anda keđin äsiylardin bolğaymen* (87r1); *Isā waqtında bir sāliha urağut bar erdi* (172r14); *Qamuğ er, xatun ul nurni küsâyür erdilär* (182v9); *Bir awrat bani Sa'd qabilasidin Halima atliğ* (184v9). Tahlillar shuni ko'rsatadiki, **tişi** (DTC,563), **xatun** (436) so'zlari qadimgi turkiy tilda parallel ravishda muomalada bo'lgan, **ewlük**, **urağut** (DTC,614) leksemalari esa qoraxoniylar davri obidalarida ko'zga tashlanadi. **Avrat** istilohi qadimgi turkiy va eski turkiy til manbalarida kuzatilmaydi.

Urxun-yenisey bitigtoshlarida "qari, ko'p yashagan" tushunchasi **qari** so'zi orqali anglashilgan: *Bir qari öküzüğü... qumursğa yemiş* – bir qari ho'kizni qumursqa yedi (DTC,426). Mahmud Koshg'ariyning lug'atida leksemaning ilk ma'nosi saqlanib qolgan holda, yangi "yosh" semasi rivojlanadi: *Qarğa qarısun kim bilir* – Qarg'aning yoshini kim biladi? (DTC,426; MK,I,425). Termin "Qutadg'u bilig" asarida "chol" ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilgan: *Edi yaqşi aymış biliglig qari* – juda yaxshi gapirdi donishmand chol (DTC,426). XIV asr Xorazm yodnomalarida so'zning birinchi va uchinchi ma'nolari keltirilgan: *Umni-Başar atliğ qari za'ifa bar erdi* (HФ.18a8); *Yigit sordi: qarığa ne tadbir* (XIII,105a1). Leksema o'rganilayotgan obidada ham ayni semalarda uchraydi: *Bu sigir neçä yaşliğ turur. Yarliğ keldi: kiçikmä ermäs, qarima ermäs, orta yaşliğ turur* (128r6); *Yigit birlä qari arasinä bu çaqliğ farq bar* (106r17). Anglashiladiki, so'zning "qari, ko'p yashagan" ma'nosi qolgan semalari uchun denotat hisoblanadi.

Sh. Rahmatullaevning yozishicha, mazkur so'z qadimgi turkiy tilda "keksaymoq" ma'nosini bildirgan **qari**- fe lidan ma'no taraqqiyoti natijasida ajralib chiqqan (YТЭЛ.1.526). Kezi kelganda ta'kidlash joizki, asarda zikr etilgan "chol" ma'nosi **qart**, **abuşqa** leksemalariga ham yuklatilgan: *Ävāz işitdim ävāznü ezärdim ersä tikän astında bir abuşqa kördüm yawlaq yiğlayur* (11v12); *Qartlar kelip öjindä olturdılar* (174r1).

Qonuqluq "ma'lum bir sathdan joy olmoq" ma'nosini bildiradi. U **qon**- fe'lidan **-(u)q** qo'shimchasi bilan yasalgan (YТЭЛ.1,586) otga **-luq** affiksini qo'shib hosil qilingan. Eski turkiy tilning ilk

yodnomalarida “mehmondorchilik, ziyofat”, “mehmon uchun joy, xona” ma’nolarida qo’llanilgan: *Telim türüg ol bu qonuqluq aši* – mehmondorchilik uchun xilma-xil yeguliklar (ДТС,456). XII – XIV asr uyg’ur huquqiy hujjatlarida so’zning “boshpana, panoh” semasi yuzaga chiqadi: *Erinlig qutadmis qonuqluqta qonar* – baxtsizlarga baxt-saodat keltiradigan boshpanada yashaydi (ДТС,456). Rabg’uziy leksemaning faqatgina “mehmondorchilik” ma’nosidan foydalangan: *Mavlā taālā vahiy qildi: qamuğ uçqan yügürgänlärägä fulan kün Sulaymān qonuqluqinğa hāzir boluğ* (138v2). Shu tariqa, XIV asrga kelib, ushbu istilohning dastlabki “mehmondorchilik, ziyofat” ma’nosi qo’llanishda bo’lgan. Hosila ma’nolari esa iste’moldan chiqib ketgan. Shuningdek, qissada **mehmāndārliq** so’zi ham zikr etilgan ma’noda ishlatilgan: *Ātika bu sözni Abu Tālibğa aydi: mehmāndārliq qilip uluğlarni yigdi* (191v20).

Sinjäk zoonimi dastavval uyg’ur yozuvidagi qadimgi turkiy yodnomalarda “pashsha” ma’nosida qayd etilgan: *Quš sinjak ...cömali qonuzta ulati bu tinliqlar azuninta* – Dunyoda qush, chumoli, qo’ng’iz va shunga o’xshash jonivorlar mavjud (ДТС,500). Mahmud Koshg’ariy lug’atida leksemaning XI asrda “pashsha”, “chivin» ma’nolarida qo’llanilganini ko’rsatib o’tadi (II,21). Biz o’rganayotgan qissa tilida so’zning “pashsha” ma’nosi iste’molda bo’lgan: *Nuh uyatliq bolup sinjakni tiläyü qarluğacni izdi* (25v15). Bu o’rinda zoonim forscha-tojikcha **pašša** so’zi bilan sinonimik qatorni yuzaga keltirgan: *Bir yılan Sulaymānning isin aldi keldi, kördi paššalär Sulaymānğa zahmat berürlär* (143v7). Izlanishlar shuni ko’rsatdiki, mazkur o’zlashma XIV asrdan **sinjak** zoonimiga ma’nodosh sifatida ishlatila boshlagan. Keyinchalik, uning o’rnini egallab, iste’moldan chiqib ketishiga sabab bo’lgan. Chunki hozirgi o’zbek adabiy tilida **pašša** (ЎТЭЛ.II,243) so’zi qo’llaniladi.

Saw so’zi qadimgi turkiy manbalarda “so’z”, “xabar”, “xat” ma’nolarini ifodalagan: *Aning sawin qabul qilip* – uning so’zin qabul qilib; *Öpkāsi kelip inča tep saw idti* - Jahli chiqib, shunday xat yubordi (ДТС,491). “Devon” da mazkur leksemaning quyidagi ma’nolarini uchratamiz: “otalar so’zi”: *Sawda mundağ kelir* – otalar so’zida shundoq keladi; “qissa”; “hikoya”; “risola, xat, kichik kitobcha”; “so’z,

nutq”; “ilgarigi xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi” (III,168). “Qisasi Rabg’uziy” obidasida terminning “so’z, nutq” semasi kuzatiladi: *İbrāhim alayhis-salām bir keča tüs kördi Lutnuğ bir kimersä birlä sözi sawi boldi tep* (59r16). Darhaqiqat, qissa tilida leksemaning “so’z” denotativ ma’nosi saqlanib qolgan bo’lib, boshqa hosila semalari iste’moldan chiqib ketgan. Shuningdek, asarda leksemaning turkiy **söz**, arabcha **kalām**, **qavl**, **luğat**, **ibarat**, **lafz**, **kalima** sinonimlari ham qayd etilgan: *Andağ qıldilar, söz eşittilär xuşlandilar* (120v4); *Ayğil: uluğlarin senin birlä izsünlär kalām eşitsünlär* (120r13); *Bu qavlni xatā temislär* (146r12); *İbrāhim va Abraham va İbrahim bu qamuğ luğatlar durust turur* (37v18); *Zulayhānning pardasin ačmadi ibarat birlä aymadi, işarat birlä aydi...* (84v2); ...*Teyür jam’lafzi üzä* (179v3). *Tört buluğda tört kalima aytip taşni qozdi* (52v19).

Yilqı zoonimi qadimgi turkiy tilda “qoramol”, “otlar to’dasi” ma’nolarini anglatgan: *Yilqim sansiz erdi* – Menda behisob hayvonlar suruvi bor edi; *Ağilnıta yilqin bolsun* – qo’ralaringda otlar bo’lsin (ДТС.267). Termin “Qutadg’u bilig” asarida ko’chma ma’noda “mol” (insonga nisbatan) semasida qayd etilgan: *Biligsiz kisi bilgä yilqı atar* – Donishmand bilimsiz kishini mol deb ataydi (ДТС.267). “Devonu lug’otit turk”da to’rt oyoqli mollarning hammasiga nisbatan ishlatilgan (III,41). «Тафсири»da «ot», «qoramol» semalarida kelgan: *Arab yilqini tewani körär ardi* (13166). O’rganilayotgan manba lug’at tarkibida zoonimning “otlar to’dasi, suruvi” ma’nosi saqlanib qolgan: *Bir kün Sulaymān atlanip barurda... yilqı kördi otlayur* (135r8). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “bir joyga to’plamoq” ma’nosini ifodalagan **yil-fe’** lidan **-qı** qo’shimchasi yordamida yasalgan (ЎТЭЛ.I,156).

Mahmud Koshg’ariy o’z lug’atida **čarla-** fe’lining “chinqirib yig’lamoq, qichqirib yig’lamoq”, “baqirmoq, jar solmoq” (filga nisbatan) ma’nolarini qayd etadi: *Oğlan čarladi* – bola yig’ladi; *yağan čarladi* – fil jar soldi. Ayni paytda, muallif filning baqirishi ma’nosida *čarladi* so’zi bilan birga uning *čuğladi* shakli ham qo’llanilganligini ta’kidlab o’tadi (III,310). Leksema “O’g’uznoma” dostonida “chorlamoq, chaqirmoq” tushunchasini anglatgan: *Aqalarni inilärni čarlap keltürdi* – U aka va ukalarini chaqirdi (ДТС, 141). Rabg’uziy asarida mazkur fe’l monosemantlikka qarab siljiydi va

asosan “qichqirmoq, baqirmoq” semasini bildirgan: *Qaçan tuğsa bu xorus çaqirur anih ünin esitip iki miñ xorus çarlar, anda bu xalāyiq aña sajda qilurlar* (141v5). Bu oʻrinda leksema **qičqir-** feʼli bilan maʼnodoshlik qatorini yuzaga keltirgan: *Iblis bildi kim sozin tinlamās, sākrādi bir qičqirdi siğir ürkti, qaçti* (128v11).

Učuz sifati ilk marta qadimgi turkiy tilda “osongina”, “ozgina, arzimas, ahamiyatsiz” maʼnolarida isteʼmolda boʻlgan: *Ol oğlan ögin emgätmädin uçuz toğğay* – Bu bola onasiga qiyinchilik tugʻdirmasdan oson dunyoga keldi; *Taqi ağırlig bolğay men taqi uçuz bolğay men* – u yana koʻp hurmatga sazovor boʻladi, men esa ahamiyatsiz, eʼtiborsiz qolaman (DTC,604). “Devonu lugʻotit turk” va Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asarida soʻzning “arzon” semasi kuzatiladi: *Učuz nāñ* – arzon narsa (DTC,604). Tadqiqot obyekti qilib olingan manbada leksemaning keyingi, yaʼni uchinchi maʼnosi koʻzga tashlanadi: *Ibrāhim duāsi barakātında bu kün Makkada ašliq uçuz bolğay erdi* (49v3). Tahlillardan natija shuki, ushbu sifatning bosh va undan oʻsib chiqqan ikkinchi maʼnosi oʻsha paytdayoq isteʼmoldan chiqib ketgan. XIV asrga kelib, soʻzning hosila maʼnosi qoʻllanila boshlagan va ayni vaqtda, bu sema denotatga aylangan.

Urun- feʼli birinchi marta “Qutadgʻu bilig” dostonida “yopishmoq, surkalmoq, pinjiga kirmoq” maʼnosini ifodalagan: *Bagirsaqni bilsā baqirqa urun* – agar mehribon topsang, uning pinjiga kir (DTC,615). Mahmud Koshgʻariy lugʻatida uning a) “oʻramoq”; b) “umidsizlanmoq”; d) “qoʻzgʻalmoq, tarang boʻlmoq” semalari uchraydi: *Er suwluq urundi* – Er kishi boshiga salla oʻradi; *Ol özin urundi* – U umidsizlikka tushdi (I,209-210). Tekshirilayotgan yodnomada feʼlning “oʻramoq” semasi bilan birga, yangi “kiymoq” maʼnosini ham koʻrish mumkin. *Yaşmaq başığa urundilar* (29v12); *Rasul alayhissalām ewgä kirdi, iki yariq kizdi, yaşıq urundi yalğiz atlandi* (225r9). Bu oʻrinda feʼl **kiy-** soʻziga sinonim tarzida ishlatilgan: *Yusuf taxt üzä olturur başığa tāj kiyip* (89v16). Maʼlum boʻladiki, leksemaning ilk va boshqa hosila maʼnolari isteʼmoldan chiqib ketgan. Natijada XIV asrga kelib, “oʻramoq” denotativ maʼno kasb etgan.

Ezük leksemasi moniy yozuvida bitilgan yodgorliklarda “yolgʻonchi, munofiq”, “yolgʻon” tushunchalarini anglatish uchun

xizmat qilgan: *Ezük suy yazuq* – yolgʻon, xato, gunoh (DTC,192). Oʻrganilayotgan manba lugʻat tarkibida soʻzning “yolgʻon” semasi istifoda etilgan: *İdiyā men bular ezükläridin yalqtim, sen bilgil* (119v7). Bu soʻz soʻnggi davr asarlarida uchramaydi. Shuningdek, qissada ayni maʼno **yalğan** sifatiga ham yuklangan: *Qamuğ sözləri Musāniñ yalğan turur tegāylar* (120v7). Demak, leksema tarixiy taraqqiyot asnosida qoʻllanish doirasi cheklanib, keyinchalik oʻz oʻrnini dastlab sinonimi sifatida ishlatilgan **yalğan** soʻziga boʻshatib bergan. Bu sifat qadimgi turkiy tildagi “aldam-qaldam gaplar” semasidagi **yal** otidan **-ğa** qoʻshimchasi bilan yasalgan feʼlga **-n** affiksini qoʻshish natijasida hosil qilingan (YTGJL,166).

“Tomchi yoki zarra holatida havodan uzluksiz tushib turmoq” maʼnosiga ega **yağ-** feʼli dastavval Urxun-yenisey bitigtoshlarida koʻzga tashlanadi: ...*Qara bulut yoridi qamiğ üzä yağdi* – Qaro bulut qopladi, hamma joyga yomgʻir yogʻdi (DTC,223). Mahmud Koshgʻariyning lugʻatida ushbu feʼl ayni maʼnosini saqlash bilan birga, yangi “tushmoq”; “kelmoq” (III,68), “yogʻilmoq” (koʻchma) maʼnolarini ifodalash uchun xizmat qilgan (DTC,224). Qissa leksikasida soʻzning dastlabki ikkita semasi ishlatilib, qolgan hosila maʼnolari uchramaydi: *Yağdi yağmur esdi yellar astin üstin alti ay* (22v14); *Tünlä şakar yağar on kün yegüçä terarlar* (118v8). Bu oʻrinda leksema **tüş-** feʼliga sinonim tarzida qoʻllangan: *Suwđin keçärdä altunni suwğa tuşürdi* (164r4).

Sariğ sifati qadimgi turkiy yodnomalar, “Qutadgʻu bilig”, “Devonu lugʻotit turk” obidalarida “somon, zarchuva, tilla kabi narsalar tusidagi rang”, “xira, oqargan”; “saman” (ot tusi haqida) maʼnolarida ishlatilgan: *Sariğ altun ürüñ kümüş* – sariq oltin, oq kumush; *Sariğ tay ata keldi* – xira tong otdi; *Sariğ atlig savci* – sariq ot mingan sovchi (DTC,488). Tadqiq etilayotgan manba lugʻat tarkibida ushbu soʻzning tubandagi semalari uchraydi:

1) “somon, zarchuva, tilla kabi narsalar tusidagi rang”: *Ul topraqda suwi tebiz, ürüñ, qara, ...sariğ, yaşil, qizil, kok...* (6r1);

2) “malla rang”: *Sizlardä bir qizil yüzlük, sariğ saçliğ, çaqir közlük kim ersä bu tewäni öltürgäy...* (35r14). Sh. Rahmatullaevning farazicha, bu sifatning etimologiyasi “sariq holatga aylanmoq”

ma'nosidagi **sari-(sar-)** fe'l bilan aloqador (ЎТЭЛ, I, 276).

“Qadimgi turkiy lug‘at”da **ag‘ir** sifatining “vazni katta bo‘lgan, tosh bosadigan”, “toliqmoq, zo‘riqmoq”, “qiyin”, “xavfli”, “qattiq”, “qattiqqo‘l, shafqatsiz” singari semalari qayd etilgan (ДТС, 18-19). «Тафсири»da leksemaning «og‘ir»: *Ol kötürgäy...ag‘ir yük* (24,9); «mustahkam, qattiq»: *Qildimiz yer içində ağır bağumis tağlarnikim yaqitmasun anlarni* (3361); «salmoqli»: *Biz tez indürgäymiz sāniñ üzä ağır sozni* (113,2); «jiddiy»: *Ol bir är ardi ağır qiliqli... (44613)* ma'nolari mavjud. Mazkur so‘z tadqiqot obyekti qilib olingan manbada quyidagi ma'nolarda qo‘llanishda bo‘lgan:

1) “vazni katta bo‘lgan, tosh bosadigan”: *Iki yildin burun İbrāhimni ağır kişān birlā bağlap ew içinda tutar erdilar* (40v21);

2) “qiyin”: *Ammā arqış birlā barmaq ağır iş turur* (187r15);

3) “mas‘uliyatli”: *Sordilar: yalawaçliqğa nelük unamadiñ? Aydi: ağır yük turur* (163v12);

4) “katta”: *...Yoq ersä anuq bolup tursun ağır çerig birlā kelürmen* (65r3). Ayni paytda qissada zikr qilingan ma‘no **ulig** leksemasi orqali ham ochib berilgan: *Ul kelgän kâfirlarda iki uluği bar erdi* (60v8);

5) “tili aylanmay qolmoq, gapirolmay qolmoq”: *Yarlig keldi: belgüsi ul tururkim üç kün tiliñ ağır bolğay kişigä sözläy bilmägaysen* (168r3). Leksemaning birinchi semasi denotativ ma‘no bo‘lib, qolgan to‘rttasi konnatativ ma‘no sanaladi. Bu sifat qadimgi turkiy tildagi “biror tomonga egilmoq” ma‘nosini anglatgan **a:g-** fe‘lidan **-(i)r** qo‘shimchasi bilan yasalgan (ЎТЭЛ, I, 266).

Qara sifati Urxun-yenisey, Turfon matnlari, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk”, “O‘g‘uznoma” asarlarida “ko‘mir tusidagi rang”, “qorong‘u”, «tush, siyoh», “kir, chang” (ko‘chma ma‘noda), “baxtsiz” (ko‘chma ma‘noda), “yomon. ahmoq” (ko‘chma ma‘noda), “oddiy” ma‘nolarini bildirgan (ДТС, 422-423). «Тафсири»da so‘zning birinchi semasiga duch kelamiz: *...Qara ranglu tåg körünür* (27619). Zikr etilgan ma‘nolarning ba‘zilari XIV asr manbalarida o‘zgarmaydi. Bunga “Qisasi Rabg‘uziy” asari leksikasini tadqiq etish jarayonida guvoh bo‘ldik:

1) “eng to‘q rang” ma‘nosini anglatadi: *Yana aşci aydi: tüşümde üç tannur kördüm, biri aq, biri qara, biri qizil* (88r16);

2) “sharpa” semasida: *Yusufniñ qarasi körünmäs bolğunça botasi qalmış inçantek inçayü qaldi* (69v4);

3) “avom kishilar, atrofdagilar” ma‘nosini bildiradi: *Aydilar: siz, fasād islarni sewmāsmiz teyürsiz yana yiğaçlarni kesärsiz, yawuq qaralar koñlinda munı ravā ermäs tegäylar* (228r4);

4) “dog‘” ma‘nosini ifodalaydi: *Savāl: aq et üzä qara ayb bolmas... (150v5);*

5) “xunuk” semasida: *Bir kün bir qoldaşqa aydi: sen körklük jamällig ersañ, bular qamuğ qara tururlar* (233v15). Bu o‘rinda leksema **körksüz** sifatiga sinonim tarzida qo‘llanilgan: *Zulayhāniñ yüzigä baqtı ersä közigä körksüz köründi* (83r10);

6) “arzimas, biron ijobiy natija bermaydigan” ma‘nosini bildiradi: *Sizniñ ilmiñiz qara turur tep narsägä yaramas tedim* (174r19). Ayni paytda ushbu leksema ko‘chma ma‘noda “yomon, yovuz” semasida ham ishlatilgan: *Tañridin yangan içi qaralar barçasi koñul bir qilip Rasulğa oğradilar* (203r14).

Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida **qari** leksemasi “qo‘l uzunligidagi o‘lchov”, “bo‘z o‘lchaydigan o‘lchov, gaz” ma‘nolarini anglatgan (III, 242). “Тафсири” da tekshirilayotgan so‘zning dastlabki ma‘nosi ochraydi: *Ul adamniñ iki yüz qari bu yüklüki ardi* (38b13). XII–XIV asrga oid uyg‘ur huquqiy hujjatlari va “Qisasi Rabg‘uziy” asarida terminning “qo‘l uzunligidagi o‘lchov” semasi qayd etilgan: *... yüz eki bağliğ uzun qarita böz alip* – uzunligi qari hajmidagi bir yuz ikki bog‘lamli material (bo‘z) olmoq (ДТС, 246): *Musāniñ boyi on iki qari erdi* (28v15). Alisher Navoiy asarlarida “bir metr chamasidagi o‘lchov birligi” ni ifodalagan (HAJ, 730). *Qari* XIX asrda Xorazmda 148,94 sm. Buxoroda 320, 04 sm, Farg‘onada 164, 45 sm ni tashkil etgan. Toshkentda esa uning ikki turi mavjud bo‘lib, birinchisi bozor qarisi – 177, 8 sm, ikkinchisi xon qarisi – 213, 36 sm ga teng bo‘lgan¹³⁹. Mazkur so‘z asli “qo‘lning yelkadan tirsakkacha bo‘lgan qismi” ma‘nosini anglatgan **qar** otidan kichraytirish ma‘nosini ifodalovchi **-i** affiksi bilan hosil qilingan. O‘zbek tilida **a** unlisi **ä** unlisiga almashgan, **i** unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: **qar + i = qari > qari** (ЎТЭЛ, I, 525).

¹³⁹ Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. –М.: Наука, 1970. –С. 118.

Qissa lugʻat tarkibida kuzatilgan maʼno torayishi hodisasi jamiyat taraqqiyotining mahsuli boʻlib, u asosan, koʻp maʼnoli soʻzlarning monosemantikka qarab siljishi, ular anglatgan maʼnoning oʻz va oʻzlashma qatlamlarga doir boshqa leksemalar tomonidan ifodalanishi natijasida yuz bergan.

Savol va topshiriqlar:

1. Oʻzbek tilshunosligida leksema termini qanday soʻzlarga nisbatan qoʻllanadi?
2. Soʻzlar leksik maʼnosining oʻzgarishiga taʼsir etuvchi omillar xususida soʻz yuriting.
3. Leksik maʼnoning oʻzgarish yoʻllari haqida maʼlumot bering.
4. Maʼno torayishi hodisasining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
5. “Qisasi Rabgʻuziy” asarida denotativ (bosh) maʼnosi isteʼmoldan chiqqan leksemalar toʻgʻrisida fikr bildiring.
6. Obida tilidagi qaysi soʻzlarning konnotativ (hosila) maʼnolari isteʼmoldan chiqqan?

MAʼNO KENGAYISHIGA UCHRAGAN SOʻZLAR

Tayanch soʻzlar: bir maʼnoli soʻzlar; koʻp maʼnoli soʻzlar; maʼno kengayishi, yangi maʼno, qoʻshimcha maʼno, tutugʻ, qatun, yoʻl, kun, Kul tegin bitigtoshi, “Oltun yorugʻ”, “Xusrav va Shirin”, numerativ, koʻk, qatigʻ, tishi, vaqt, sabab, terguchi, muzd.

Maʼlumki, har qanday soʻz dastlab paydo boʻlgan paytda monosemantik boʻladi. Biroq soʻz maʼnosi doimiy taraqqiyot natijasida uning semantik strukturasi oʻzgarib, polisemantik leksemaga aylanishi mumkin. Demak, dastavval tor doiradagi voqelikni anglatgan leksemaning keyinchalik keng miqyosdagi voqelikni bildirishi maʼno kengayishi hodisasi hisoblanadi.¹⁴⁰ Mazkur jarayon “Qisasi Rabgʻuziy” obidasi leksikasida bir maʼnoli soʻzning

¹⁴⁰ Гурсунов У.Т., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б. 86.

polisemantiklikka qarab siljishi, uning rang-barang yangi maʼnolar bilan boyishi, koʻp maʼnoli soʻzlar semantik tuzilishining kengayishi, koʻchma maʼnolarning shakllanishi hisobiga sodir boʻlgan. Albatta, bu, oʻz navbatida, muallifning soʻzlarni oʻz oʻrnida ishlatish, ularga qoʻshimcha maʼno yuklash, jozibadorlik baxsh etish mahoratining yuqoriligidan dalolatdir. Endi misollar tahliliga kirishamiz.

Tutuğ leksemasi eski turkiy tilning ilk manbalarida “garov, toʻlov” tushunchasini ifodalagan: *Er tutuğ yuldi* – Er kishi garov puli evaziga qaytarib oldi (ДТС,592). Soʻz “Тафсири”da oʻzining asl maʼnosini davom ettirgan: *Tāgmā bir nafs anī kim qadgandī tutuğ bolur tamuğda* (118,6). “Nahjul farodis”da “garov, toʻlov”, “Xusrav va Shirin” asarida “oʻtovning bir qismi” maʼnosi kuzatiladi: *Öz çādirini tutuğ qoyup taqī bir darwišnī ağırlamağay erdi* (HФ,82610); *Kirip özi tutuğ ičrā oturdi* (XIII,103610). Oʻrganilayotgan manbada leksemaning “garov, toʻlov”, “asir, tutqun” semalari koʻzga tashlanadi: *Abdurahmān aydi: men ne sendin tutuğ qolarmen, seni öldürsalar tewākim berür? tedi* (230v19); *Ular Kaʼbnin tutuğlari arasinda olturur erdilär* (227r21). Tahlil qilinayotgan soʻz “tutmoq, ushiamoq” maʼnosini anglatgan **tut-** (ДТС,591) feʼli bilan ot yasovchi **-(u)ğ** affiksidan hosil boʻlgan.

Xatun soʻzi yodnomada «xotin», «ayol kishi» semalarini ifodalagan¹⁴¹: *...İkkinçi xatā Sulaymān xatunī butğa tapunsa kāfira bolğay erdi* (145r14); *Şām vilāyatında bir fāl aēğüçī xatun bar erdi* (50r12). Ushbu termin birinchi marta Kul tegin yodgorligida **qatun** fonetik shaklida zikr etilgan boʻlib, “xonim, zodagon ayol” maʼnosini bildirgan: *Umayteg ögim qatun qutīna inim Kül tegin er at bultī* – Xatun-onam baxtiga ukam Kul tegin Umay singari qahramon nomini oldi (ДТС,436). Ayni paytda, qadimgi turkiy tilda uning **işi** sinonimi ham isteʼmolda boʻlgan: *Begkā isikā inangil* (ДТС,214). Leksemani mashhur tilshunos Mahmud Koshgʻariy oʻz lugʻatida «Afrasiyob qizlaridan boʻlganlarning nomi», deya izohlaydi: *Xan işi bolsa, qatun işi qalur* – Hoqonning ishi boʻlsa, xotin ishi qoldiriladi (I,388). «Тафсири» da «xotin» maʼnosini anglatgan: *Firʻavn xatunī*

¹⁴¹ Qarang: Дадабоев Х. “Кисаси Рабғузий”даги аёл семали лексемалар хусусида//Филология фани: янги аср муаммолари. –Т.: 2003. –Б. 125-128.

Aysa (29,33). Leksema XIV asr Xorazm manbalarida “xonim”, «ayol kishi» semalarida qoʻllanilgan: *Qamuğ xatunlarni xatun temä zinhār* (XIII.108621); *Bir xatun aña aytti* (Г,79a4). Turkshunoslikda **qatun**//**xatun** soʻzi “qat, qavat, qatlam” maʼnosidagi **qat** leksemasi bilan -(u) n/-(i)n affiksining birikuvidan hosil boʻlgan degan fikr mavjud¹⁴². **Qatun** soʻzini “qat, qavat, qatlam” maʼnosidagi **qat** oʻzagidan yasalgan deb boʻlmaydi. Mabodo shunday faraz qilungidek boʻlsa, unga qoʻshilayotgan qoʻshimcha singarmonizm qonuniga muvofiq -un emas, -in shaklida qoʻshilmogʻi lozim edi. Shuni nazarda tutganda, *qatun* bir morfemadir. Uni *qat-un* shaklida maʼnoli qismlarga ajratish maqsadga muvofiq emas. Qadimgi *qatun* keyichalik *xatun*, hozirgi oʻzbek tilida maʼno va fonetik jihatdan oʻzgarib *xotin* ga aylangan¹⁴³. L. Budagov *qatun* shaklini qirgʻizcha, turkcha, *xatun* shaklini tatarcha, qozoqcha deb belgilab, oltoy tilida *qattin* shaklida ishlatilishini, koʻplikda *qadittar* shaklini olishini taʼkidlaydi (ЎТЭЛ, I, 402).

Oʻrganilayotgan leksema «Qadimgi turkiy lugʻat» (ДТС, 36), «Oʻzbek tilining etimologik lugʻati» (ЎТЭЛ, I, 402) hamda «Oʻzbek tilining izohli lugʻati» (ЎТИЛ, IV, 415) da turkiy soʻz sifatida berilgan boʻlsa-da, V. Bartold uning sugʻdcha istilohlardan biri ekanligini qayd etadi¹⁴⁴. Professor H. Dadaboev mazkur mulohazaga qoʻshilgan holda J. Klosning quyidagi fikrini keltirib oʻtadi: qatun//xatun «beka, xonim» termini sugʻd tilidagi **xwatʼun** «hukmdor, zodagon zavjasi» leksemasining turkcha va arabcha fonetik shakllari hisoblanadi¹⁴⁵. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagi fikrlarni oʻqiymiz: “XOTUN, qatun – xoqon xotini va hukmdor ayolga nisbatan

¹⁴² Покровская Л. Термины родства//Историческое развитие лексики тюркских языков. –М.: Наука, 1961. –С. 59; Исмоилов И. Туркий тилларда кавм-кариндошлик терминлари(узбек, уйғур, козок, киргиз, коракалпок, туркман тиллари материаллари асосида). –Т.: Фан, 1966. –Б.107-108.

¹⁴³ Содиков К. Ўзбек тилидаги акраболик отлари хакида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. –Т.: Университет, 2002. –Б. 69.

¹⁴⁴ Бартольд В.В. Двенадцать лекции по истории турецких народов Средней Азии//Сочинения. Т.5. –М., 1968.–С. 43.

¹⁴⁵ Дадабоев Х., Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т.: Фан, 2007. –Б. 33.

qoʻllanilgan turkiy unvon. Dastlab, hunlar davrida (miloddan avvalgi 3 – milodiy 3-asrlar) qayd etilgan. Turk xoqonligi davrida (6–8-asrlar) xoqondan keyin 2- darajada turuvchi unvon. Xotunlar toʻra asosida xoqon bilan birgalikda hokimiyatni boshqarishgan. Tarixda turkiy hukmdorlarning bir necha xotini boʻlganligi, faqat ulardan biri – bosh Xotun boʻlganligi maʼlum. Xoqon vafot etganda oʻrmini egallaydigan oʻgʻli kichik yosh boʻlsa Xotun uning nomidan hokimiyatni boshqargan.

Harbiy safar chogʻida ham Xotunlar hukmdorlar yonidan joy olganlar, shuningdek, hukmdor saroyda boʻlmagan paytda saroyni boshqarib, elchilik hayʼatlarini qabul qilganlar.

VII-VIII asrlarga taalluqli sugʻdiy yozuvli qadimgi turkiy tangalar orasida qoʻshaloq tasvirli; oʻng tomonida hukmdor va malika tasvirlangan, orqa tomonida esa MRʼY (hukmdor) va a.ʼttwnh (xatun) unvoni zarb qilingan tangalar uchraydi. Ushbu tangalar, asosan, mamlakatimiz hududidan topilgan boʻlib, Sugʻd yoki Buxoroda hukmronlik qilgan turkiy sulolaga mansub hisoblanadi¹⁴⁶. Maʼlum boʻladiki, mazkur soʻz dastlab turkiy tillarda “unvon”, keyinchalik “ayol kishi” maʼnolarida qoʻllanilgan.

Shuningdek, asarda istilohning turkiycha **tiši**, **urağut**, **ewlūk**, arabcha **avrat** sinonimlari ham keltirilgan: *Bir tiši imām Muhammad bin Hasan Saybāniyğa āsiq boldi* (82v6); *Yaʼni ariğsizliq körgän urağut oğli...* (121v15); *Ul Aziz aydi: meniñ ewlūgimğa kimy yawuzliq sandi va kim ilik sundi?* (83v11); *Avrat aydi: erim ewdä yoq* (143v3).

Baš soʻzi qadimgi turkiy til yodnomalari va qoraxoniylar davri obidalarida “tananing boʻyindan yuqorigi, oldingi qismi”, “javobgarlik, masʼuliyat” (koʻchma maʼnoda), “bosh tomon”, “idishning boʻgʻzi”, “boshqoq”, “uch, tepa qism”, “daryoning boshi, yuqorisi”, “rahbar”, “boshi, boshlanishi” (ДТС, 86-87) kabi semalarda qoʻllanilgan. «Тафсири»da “tananing boʻyindan yuqorigi, oldingi qismi” (38,26); “boshi, boshlanishi” (11,17); “tepa, yuqori” (129,31); “yoʻlboshchi, rahbar” (143,21); «qism, guruh» (9,13), «oʻzlik» (31614) maʼnolarini ifodalagan. XIV asr Xorazm yodnomalarida “bosh” (Г,3262); “boshi,

¹⁴⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. 9-жилд. –Б.638.

boshlanishi” (HФ, 15361); “tepa, yuqori” (Г,12a1); “yo’lboshchi, rahbar” (MH,296a7); «qism, guruh» (HФ,50a5) kabi ma’nolarni anglatgan. Mazkur leksema tadqiqot obyekti qilib olingan manbada quyidagicha ma’nolar kasb etgan:

1) “tananing bo’yindan yuqorigi, oldingi qismi, kalla”: *Tört yüz qari bodlari baş üza säkräp adaqların tepsalar tizläriñä tegi kömilür erdi* (29r16);

2) “boshliq, rahbar”: *İsarat ul tururkim Rasul alayhis-salām biziñ nafsimizdin bolsa, ul bizgä baş bolur, biz ayaq bolurbiz* (207v20). Bu o’rinda mazkur so’z **başliq** leksemasi bilan ma’nodoshlik qatorini yuzaga keltirgan: *Abu Jahl başliq qurayş kâfırlari Rasulgaa kâfirlik qıla başladılar* (195r20);

3) “lavozim, mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi”: *Neçä baş hakim āqil erānlār kirip ünür ağızi tuşunda arquri yiğaçlar ornattılar* (164v17);

4) “eng oldingi, birinchi”: *Anas ibn Mālik aytur: Rasul alayhis-salām aydi: baş barmaqın çičala barmaq içində qoyup münçä erdi* (121v1);

5) “tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho’qqisi”: *Biri-biriñä qatip tört uluş qilgil, tört tağ başında qodğil* (55v12);

6) “yo’lning boshlanish joyi”: *Yol başında bir çasma suw kördi* (129v1);

7) “ba’zi o’simliklarning kalla yoki chochoq shaklidagi hosili, mevasi”: *Malik alarga baş üzüm berdi azuq üçün* (118r7);

8) “qaytadan, boshqatdan”: *Ya’ni başdin yigitmu bolurmiz, yāxud mundağuş qari erkān oğul tuğarmu?* (167v18);

9) “boshi, boshlanishi”: *Ya’ni kafālatniñ başi malāmat turur, ortasi ökünç turur, āxiri tavān turur* (26v20);

10) «boshida, dastlab»: *Sen Fir’avn taba izganda başda-oq tediy* (131r11).

Ushbu ot qadimgi turkiy tilda **ba:š** tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik, **a:** unlisining cho’ziqlik belgisi yo’qolgan. O’zbek tilida **a** unlisi **ā** unlisiga almashgan: **ba:š** > **baş** > **bāš** (ЎТЭЛ,1,61). Shuningdek, o’rganilayotgan leksema obida tilida **buğday** leksemasi bilan birikib, “sunbula burji” ma’nosidagi yangi so’z hosil qilgan: *Ul*

burjlar bu turur: qozı, uy, arāndānd, quçiq, kür arslan, buğdaybaşı... (66v4).

“Qadimgi turkiy lug’at”da **yol** so’zining quyidagi ma’nolari qayd etilgan: “barcha narsalar qatnovi natijasida iz bosilib hosil bo’lgan qatnov qismi”: *Ula bolsa yol azmas* – Belgi bo’lsa yo’ldan adashmaydi, “imkon chorasi”: *Sen üç yoli inçä tez ayğil* – Sen ularga uchta imkon chorasi haqida gapirgil; “hayot yo’li, umrguzaronlik” (ko’chma ma’noda): *Er yoldan yandı* – Er kishi yo’ldan qaytdi (ДТС,270). «Тафсири»da otning dastlabki ikki semasini uchramiz: *Yol yañilap yolsizın bardılar* (29,1); *Yana izardi yol yarağini* (762). Ushbu leksema “Qisasi Rabg’uziy” yodnomasida o’n xil ma’noda ishlatilgan. Bu esa, o’z navbatida, tekshirilayotgan so’z ma’no ko’lamining kengayishidan darak beradi. Obida lug’at tarkibida zikr qilingan termin quyidagi semalarni ifodalagan:

1) “insonlar, jonivorlar va boshqa narsalar qatnovi natijasida yer sathida iz bosilib hosil bo’lgan uzun, davomli qism”: *Yana aymışlar: Maryam juhudlārdin qaçmişda bözcilārdin yol sordı* (18r13);

2) “biror joy, makonga sayohat yoki boshqa maqsadda qilinadigan yurish”: *Tekmä biriñä bir tewä yüki buğday berdi, taqi yol azuqların anuqladi* (96r19);

3) “bosib o’tiladigan oraliq, masofa”: *Misrgä üç künlük yol qaldi* (106v2);

4) “imkon chorasi”: *Aydılar: atalarıñ bu yolni nedin tapdılar* (88v7);

5) “marta”: *Altı yoli tirilip, yettidä yol köndürdi ul* (161r12);

6) “sabab, bois”: *Qaçırğa la’nat qıldılar, ul yoldın uruğlamas tedilar* (40v17). Ayni paytda, leksema arabcha **sabab** o’zlashmasiga sinonim sifatida keltirilgan: *Sabab ul erdi: duniyāda diyār körmäk üç türlükdin xāli ermäs* (123v3);

7) “(bu) safar, (bu) gal”: *Tekmä kelmişlarında Yusuf ularni qonaqlatur erdi, bu yol qonaqlatmadı* (102r6);

8) “yo’l-yo’riq, maslahat”: *Malik aydi: Zufalğa barıñ yükünüñ yalbarıñ bolğaykim sizni qutqarğay ya kendü bir yol körgüzğay* (57r14);

9) “joy”: *Yunus aydi: qatında yana yol bolğaymu?* (155r10);

10) "tomondan, orqali": *Yana Ali Fātima yolindin kiyaw erdi* (201r12).

Mazkur ko'p ma'noli ot asli **yo:l** tarzida talaffuz qilingan, keyinchalik **o:** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan. **Yo:n-** fe'lga qiyoslab, **yo:l** so'zi asli **yo:-** asosidan **-l** qo'shimchasi bilan yasalgan deb taxmin qilinadi (ЎТЭЛ,1,190).

Kün leksemasi Urxun-yenisey bitigtoshlari va XI asr obidalarida "Quyosh": *Kün toğdı qamuğ üzä yaruq boltı* – Quyosh chiqdi va hamma tomon yorishib ketdi; "sutkaning quyosh chiqishidan botishigacha bo'lgan qismi": *Tün künniñ qarşısı ol* – tun kunning ziddidir; "24 soatga teng vaqt": *Tiriklik künigä tükäl alqınur* – Hayot kun sayin yo'qlik tomon ketadi (ДТС,326) ma'nolarini anglatgan. «Тафсири» asarida "yerga issiqlik va nur taratib turuvchi yulduz" (10611), "sutkaning quyosh chiqishidan botishigacha bo'lgan qismi" (146,21), "o'tgan va kelgusi kunlarning birida" (9,18), "qachondir, vaqti kelib" (133,11), «hayot, umr» (7065) semalarida kelgan. Qissa tilida bir qancha ma'nolarda istifoda etilgan. Quyida ularning har biriga alohida to'xtalib o'tishga harakat qilamiz:

1) "yerga issiqlik va nur taratib turuvchi yulduz": *İkinçi keçä yana tüş kördi: on bir yulduz, kün. ay birlä inip Yusufgä sajda qılurlar* (67r19);

2) "sutkaning quyosh chiqishidan botishigacha bo'lgan qismi": *Eläi Misrgä keldi kün keç bolur erdi* (87v17);

3) "bir kecha-kunduzga teng vaqt": *İbrāhim yetti kün Mülk-i Hazān elindä turdi* (46v12);

4) "oy yoki haftaning muayyan kalendar sanasi": *Muharram ayında pançsanba kün ekindük namāzi vaqtında vafāt qıldı* (56r10);

5) "ma'lum hodisaga bag'ishlangan sana": *Yarındasi Qurbān küni Tavrāt indı* (121v12);

6) "payt. vaqt": *İdi maña on oğul bersü qamuğ sâz-silâh alıp toquş küni meniñ öñümdä tursalar* (50r5). Shuningdek, asarda qayd etilgan ma'no arabcha **vaqt** leksikasi orqali ochib berilgan: *Namāz vaqtı boldı, oğlanni qoyup özi namāzğa turdi* (172r15);

7) "ob-havo sharoiti": *Mavlā taalā yel izdı, kün işiği bir sâatda tejiz tübigä kirdi* (115v13);

8) "o'tgan va kelgusi kunlarning birida": *Bir kün İsmāil awğa barmış erdi* (49r10);

9) "qachondir, vaqti kelib": *Kunlardä bir kün Ishāq Avazğa aydı...* (54r17);

10) "borgan sari": *Kün sayu emgaki artuqraq boldı* (23v6);

11) "kun bo'yi": *Uzun kün yörüsän iki yiğäcđin artuq yorimässen* (53r8);

12) "o'shanda, o'sha paytda": *Ul kün Abdul Mutallibniñ toquz oğli bar erdi* (50r6);

13) "birmuncha muddat": *Qaç kün ular birlä turdi* (57v13);

14) "bugun": *Bu kün sizlardin bir tiläğim bar berürmüsiz?* (85v1);

15) "yaqin kunlardan birida": *Taylası kün malikma qalmadı* (65r14);

Bundan tashqari, o'rganilayotgan so'z **bat-** hamda **tuğ-** fe'lari bilan birikib, tomonlar, ya'ni sharq va g'arbni ifodalashga xizmat qilgan: *Kün tuğardan kün batargä kāski tegsä sözlirim* (249v15).

"Qadimgi turkiy lug'at"da **arqa** leksemasining "orqa": *İqilac arqasin yağritma* – ulov(yuk hayvoni)ning orqasini yag'ir qilma; "suyanchiq"(ko'chma ma'noda): *Kimniñ arqasi bolsa küclüg bolur-kimning sunchig'i bo'lsa, u kuchli hisoblanadi* (ДТС,53), «Тафсири»da "gavdaning qoringa nisbatan ters tomoni, bo'yindan dumg'azagacha bo'lgan qismi" (68b5), "narsa yoki kimsaning yuz. old tomoniga qarshi tomon" (31,29), "suyanchiq, tirgak" (20,6) kabi ma'nolari ifodalangan bo'lsa, Rabg'uziy uni quyidagi semalarda qo'llagan:

1) "gavdaning qoringa nisbatan ters tomoni, bo'yindan dumg'azagacha bo'lgan qismi": *Sam'un aydı: qamuğ yiğilip arqa bir qilip taşni yiqalın* (64v5); ...*Bargil ul erniñ arqasin qolun birlä siğagil* (98r15);

2) "narsa, predmetning ters yoqdagi qismi, old tomoniga teskarisi": *Ertäsi namāz qilip oltururda mehrābğa arqa berip zindān xalqığa ilm ögrätür erdi...* (87v11); *Andağ qıldilar, qağaz arqasında bitig belgürdi* (200r14);

3) "narsa yoki kimsaning yuz, old tomoniga qarshi tomon":
...*Qaçan saña*

oğrasam arqandın iki arslan qopa kelip manja hamla qilur (110r6);

4) “avvalgisining ketidan”: *Emdi tegmä biriniz üçär kok yelük qilip biri sağdın, biri soldın ilgäri arqada asıñ* (125r5);

5) “ortda qolgan, o‘tilgan yo‘l, harakat yo‘nalgan tomonning aksi”: *Yusuf yiglayu ul muakkal birlä arqasınja telmürü Mälük Za‘rgä keldilär, arqasığa qatildilar, arqis tebrädi* (74r3);

6) “inson ko‘tara oladigan yuk”: *Har kündä bir arqa otunnı bāzārda satiptört diramgā...* (128r18);

7) “suyanchiq, tirgak” (ko‘chma ma‘noda): *Yo! sizgä bolsa ularni ağırlap sizgä izğaymız, agar yol Muhammadgä bolsa bizgä arqa bolğaysız* (229v3).

Kök (УТИЛ, II, 449-450) leksemasi Kul tegin bitigtoshi, Turfon matnlari hamda XI asr yodnomalarida tubandagi ma‘nolarni anglatgan: “moviy, zangori”: *Kök ton* – ko‘k kiyim; “osmon”: *Yerni kökni yaratqan* – yer va osmonni paydo qilgan (ДТС.3 12). «Тафсири» asarida “osmon” ma‘nosi mavjud: *Kök taqı yer kün taqı tün* (5466). Ushbu so‘z o‘rganilayotgan obida lug‘at tarkibida bir qator semalarni ifodalagan¹⁴⁷:

a) “moviy, zangori”: *Emdi tegmä biriniz üçär kök yelük qilip biri sağdın, biri soldın ilgäri arqada asıñ* (125r4);

b) “yashil, sabza”: *Bulutlar yaş aqıtsa yaş oğlan anadın tuğartek yaş yaşap ölgän qara yerdin kök yaş ötlär ünär* (68r15);

d) “osmon”: *Ädiz kök yiglar, yağiz yer kulär* (68r14);

e) “yer yuzi”: *Ba‘zi payğambarlarnı meniñ birlä kökkä ağdurdi, ba‘zisi dunyā kökindä* (211r8);

f) “barg”: *Ew öñindä açuq yerlärin estürdi, sağında–solında yığaclar tikdilar, köki kümüsdin, bodi altundın, budaqları kümüsdin bir qandil qildi* (34r9).

Qadimgi turkiy til va qoraxoniylar davri yodnomalarida **qatiğ** so‘zining “qattiq”: *Ol qatiğ neñni yumşatti* – u qattiq narsani yumshatdi; “qattiqqo‘l, shafqatsiz”: *Azunta negü bar ölumdin qatiğ*

¹⁴⁷ Qarang: Ганиходжаева М. Исторические названия синего, голубого и зеленого цвета // Историколингвистический анализ лексики старописьменных памятников. -Т.: ФАН, 1994. –С. 53-57.

– dunyoda o‘limdan shafqatsiz yana nima bor; “kuchli”: *Adavaki yek qatiğ ünin qiqirib* – Adavaki kuchli tovush bilan qichqirdi: “mustahkam” ma‘nolarini kuzatish mumkin (ДТС, 433). «O‘rta Osiyo Тафсири»da sifat “odatdagi sharoitda o‘z shakli va hajmini saqlaydigan” (20,6); “kuchli” (27,17); “qiyin, mashaqqatli” (27619); “kishiga og‘ir botadigan, uni ranjitadigan” (28,24); “shafqatsiz” (4567) semalarida ishlatilgan. Rabg‘uziy o‘z asarida ushbu leksemaga qayd etilgan semalaridan tashqari yana qo‘shimcha bir qancha ma‘nolarni yuklagan. Bu esa mazkur davrga kelib, o‘rganilayotgan so‘z ma‘nosining kengayganligini ko‘rsatadi:

1) “odatdagi sharoitda o‘z shakli va hajmini saqlaydigan”: *Ul tupraqda qatiğ yumşaq va ariğ ariğsiz, tatliğsiz qamuğ bar erdi* (6r1);

2) “mustahkam”: *Yusufni bir qatiğ injirçaqğa mündürdilar, yolğa kirdilar* (74r4);

3) “kuchli”: *Ul qatiğ qorqunç azāblarnı korāyin tedi* (20v4); *Qatiğ zilzila qopti* (162v20);

4) “quloqqa og‘ir botadigan, baralla eshittiradigan”: *Qatiğ ün birlä javāb aydi* (30v21);

5) “shafqatsiz”: *Hazratdın xitāb keldi: ey Azrāil, gāyat qatiğ köñüllük ermissen* (5v20); *Yazid çerigi birlä qatiğ sançısı* (246r12);

6) “cheksiz, haddan ziyod”: *Tañlayu barip topuz birlä ururda ilgin üstünrak kötürdi gatiğ urdi* (45r1);

7) “biror narsaga butun vujudi bilan berilgan”: *Butğa gatiğ tapunur üçün Äzar atadilar* (38r5); Shuningdek, obida tilida tahlil qilinayotgan so‘z ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan o‘rinlar ham mavjud.

8) “qiyin, mashaqqatli”: *Qatiğ islar buyurgil oğrānsün, tedilar* (188v12);

9) “kishiga og‘ir botadigan, uni ranjitadigan”: *Sulaymānga qatiğ sözladi, bargil kişi isin islāgil* (144r5);

10) “yomon”: *Ul mardud Main aydi: meniñ üzä bu tündin qatiğraq tün yoq* (184r14).

Ayni paytda ushbu sifat **yaman** leksemasiga sinonim tarzida qo‘llanilgan: *Munça miñ xalāyiqniñ halāklikiniñ yaman duā qildiñ ani negä qayğurmadiñ* (157v9).

Ač- fe‘li qadimgi turkiy til yodnomalari hamda XI asr

manbalarida “ochmoq”, “tarqatmoq”, “bo’shatmoq, yechmoq”, “yo’l ochmoq”, “bosmoq, egallamoq”, “hal etmoq”, “suv sepmoq”, “ishonmoq” (ДТС,3) semalarida ishlatilgan. «Тафсири» da leksemaning «ochmoq»: *Ali qabuğ acdi* (27,16); «bosmoq, egallamoq»: *Qayda šaharlār bar ārsā acdi* (50,5) ma’nolariga duch kelamiz. Ushbu soʻz qissa lugʻat tarkibida quyidagicha ma’no kasb etgan:

1) “yo’lni to’sib turgan narsani bir tomonga surib, ko’tarib qo’yib, kirish yoki chiqishga imkon tug’dirmoq”: *Uragut esik acdi ikāgū kirdilar* (134r15);

2) “ogʻzini berkitib turgan tiqin, qopqoqni sugʻurib olmoq”: *Aydi bir uluğ čanaq kördüm tola suw ağızi örtüglüg anı aldım ağızin acdim* (217v13);

3) “o’rab, qoplab turgan narsadan xalos bo’lmoq”: *Hadiča aydi: andin bildimkim keldi tegāniydā bašimni acdim ketti tediñ, bildimkim farišna turur* (194r2);

4) “ko’tarmoq yoki olib tashlamoq”: *Yeti yer hijābin acdi Mavlāmiz aña* (37v13);

5) “to’siqni olib tashlamoq, yurish uchun imkon bermoq”: *Yignā yürtukinčā yeldin Ādiylarğa yol açip* (29r9);

6) “yozmoq, yoymoq, keramoq”: *Ul qağazni açip körsälär bu kalima bitiglig bolğay* (53r15);

7) “fosh qilmoq”: *Ma’lum boldikim kimniñ aybin açsa ul yana ul aybğa mubtalā bolur ermiş* (26r16);

8) “ro’zani ochmoq”: *Kündüz roza tuttilar ağız açğu vaqt bolsa, jadiy atliğ kök ot keltürdilar, ağız açtilar* (170r17);

9) “kishi bilishga qiziqqan noma’lum voqea, hodisalarni go’yo oldindan aytib berishga urinmoq, fol ochmoq”: *Muni yaxšimu qildim, yawuzmu qildim bilāyin tep, Mushab aldi fāl acdi* (248v14);

10) “tuzalmoq, o’ziga kelmoq, kasaldan ko’zini ochmoq”: *Üč künden soñ terisi kücländi, közin acdi* (165r5);

11) turg’un birikma tarkibida kelib, “bir lahzada, bir zumda” ma’nosini anglatadi: *Mikāil qanatı birlä köz yumup açğunča on yığaçliq yergä eltib qoddi* (61r7);

12) “oshkor qilmoq”: *Mavlā ta’alā ilm-u hikmat birlä yalawaçliq qamuğın Sulaymānğa aça berdi* (138r19).

Turfon matnlari, “Oltun yorugʻ” yodgorligi va XI asr obidalarida **čal-** fe’lining “urmoq”, “tashlamoq” (ko’chma ma’noda) ma’nolari aks etganligini “Qadimgi turkiy lugʻat”dan bilib olish mumkin (ДТС,137). Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonida “tashlamoq” (95a18), “musiqa asbobida kuy ijro etmoq” (101a21) ma’nolari qayd etilgan. Tekshirilayotgan qissada mazkur fe’ning 1) “urmoq”: *Bičaqni tašğa çaldı yiğlayu ağāz qildi* (51r8); 2) “tashlamoq”: *Tāñri farmāni birlä Qābilniñ adaqin tutup yeti yoli mašriqdin mağribğa tegi öwürdi yergä çaldı* (17v16); 3) “yiqitmoq”: *Qaçan ataları közindin ayrıldilar ersä Yusufni yergä çaldilar* (69v6); 4) “musiqa asbobida kuy ijro etmoq”: *Abujahl aydi: qopuñ Badr quduğiga barip zuvni alaliñ, xamr içaliñ, nay çalaliñ...* (221r15); 5) “yo’ldan urmoq”: *Rasul aydi: telbä ermäsmen, div pari çalmadı, māl qağusı yoq* (203a10) semalari mavjud. Kezi kelganda, ta’kidlash joizki, leksema dastlabki uchta ma’nosi orqali **ur-**, **tašla-**, **yiq-** fe’llari bilan sinonimik qatorni yuzaga keltirgan: *Yusuf aydi: bizniñ törämizdä oğriniñ ilin kesmäk, bergä urmaq, māl almaq turur* (97r19); *Jabrāil tepdi ersä qira suwğa tegi indi taš tašladı* (61r16); *Oğlanga aydi: men siğirçi men siğir minip kelürdä siğir meni yiqip qaçti* (128v7).

Yartmaq termini “Oltin yorugʻ” va uygʻur yozuvidagi budda yodgorliklarida “tanga(mis yoki kumush tanga)” ma’nosida qoʻllangan: *Bir karsapan altun miñ alti yüz yartmaq bolur* – bir kapsan oltin bir ming olti yuz tanga bo’lur (ДТС,243). Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostonida bu termin *yarmaq* shaklida “pul” ma’nosini anglatgan: *Kişi barča yarmaq qulı boldılar* – barcha insonlar pulning quliga aylandi (ДТС,242). Mahmud Koshgʻariy “Devoni” da *yarmaq* “tanga”: *Men añar yarmaq ötiñč berdim* – men unga tanga qarz berdim (III,450); “pul”: *Ol meniñ birlä yarmaq utuşdı* – u men bilan pul yutishdi(o’yinda) (I,190) ma’nolarida, uning uygʻurcha yarımaq (III,438) shakli esa “tanga” semasida kelgan. Ayni paytda, mazkur lugʻatda tekshirilayotgan soʻz **tergüci** leksemasi bilan birgalikda “tanga-pul to’plovchi” ma’nosida ishlatilgan: *yarmaq tergüci* (II,56). Numerativ XII-XIV uygʻur huquqiy hujjatlarida yunoncha “ogʻirlik va pul birligi” oʻzlashmasi bilan birikib, juft soʻz holida “kumush tanga” ma’nosini bildirgan: *Beş (otuz) satir yarmaq kümüş sanap altım* –

yigirma besh kumush tanga sanab oldim (ДТС,491). *Yarmaq* “Тафсири” da “tanga” (9619), “pul” (965), Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarida “tanga” semalarida uchraydi: *Bukiin mayxānada yarmaq sačaliy* (МН,303630). “Qisasi Rabg’uziy” asarida soʻzning quyidagi maʼnolari koʻzga tashlanadi: 1) “tanga”: *Bāzārğa kirdi etmākčiga bir yarmaq berdi* (178v19); 2) “pul”: *Aydi: mendā yarmaq yoq, yilqi qara bar tawar berāyin* (73r11); 3) “pul birligi”: *Kanʼān yarmaqiniy toquziņa Yusufni satdilar* (73r15). Shuningdek, yarmaq qissada Forscha-tojikcha **muzd** “ish haqi” leksemasi bilan birgalikda juft soʻz holida “yoʻl kira, xizmat haqi” maʼnosida ham ishlatilgan: *Yana aydi: manja rahm qilib mindürgil muzd yarmaq berāyin* (128v10). Alisher Navoiy asarlarida “tanga”, “pul”, “aqcha”, “mayda aqcha” (HAJI,211) maʼnolarini bildirgan.

Shunday qilib, asarda maʼno kengayishi hodisasi bir semali hamda polisemantik soʻzlar maʼno strukturasi kengayishi, turli yangi semalarning shakllanishi, koʻchma maʼnolarnig rivojlanishi oqibatida yuzaga kelgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Maʼno kengayishi deb qanday hodisaga aytiladi?
2. Maʼno kengayishi leksik maʼno taraqqiyoti bilan qay darajada bogʻliq?
3. Qissada qoʻllanilgan soʻzlar maʼnosining kengayishi xususida umumiy maʼlumot bering.
4. Asardagi leksemalarning polisemantlikka qarab siljish yoʻllari.
5. Maʼno koʻchishi nimalarni nazarda tutadi?
6. Qissada ishlatilgan soʻzlar maʼnosining kengayishida metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi hodisalar qanday rol oʻynagan?

YANGI MAʼNO KASB ETGAN LEKSEMALAR

Tayanch soʻzlar: til boyligi, fan va texnika taraqqiyoti, yangi maʼno, diaxron aspekt, maʼno nozikligi, semantik bogʻlanish, aniq maʼno, umumiy maʼno, umumxalq tili, maʼno ottenkasi, lingvistik hodisalar, soʻzning semantik strukturasi, yoʻriq, chigʻay, faqir, tura, tulas, oʻgsuz, bashmaq.

Tildagi mavjud har bir soʻz hayot talabiga muvofiq tarzda turli yoʻllar bilan hosil boʻladi. Soʻz til boyligining asosiy birligidir. Til orqali fikr bildirishga kirishilar ekan, soʻz material vazifasini bajaradi. Yana ham aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, soʻz oʻz maʼnosi bilan berilayotgan fikr uchun asos, poydevor hisoblanadi. Soʻzning yuzaga kelishida esa birlamchi oʻrinda maʼno turadi. Shuning uchun ham soʻz maʼnosini tadqiq etish qadim-qadimlarga borib taqaladi¹⁴⁸. Binobarin, leksemalarni diaxron jihatdan oʻrganish tilning rivojlanish bosqichlarini, uni yaratuvchi xalq tarixini yoritishda alohida eʼtiborga molik. Shu bois ham tarixiy jarayonlar soʻz maʼnolarining oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatadi. Odatda, fan va texnikaning takomillashuvi natijasida paydo boʻlgan terminlarning muayyan qismi soʻzlarni yangi maʼnoda qoʻllash yordamida hosil qilingan. Kezi kelganda aytish joizki, soʻz maʼnosi isteʼmol doirasining kengayishi, maʼno ottenkasidagi oʻzgarishlar ham til taraqqiyotida oʻziga xos mavqeni egallaydi.

Soʻzlarning yangi maʼnolar bilan boyib borishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Lingvistik hodisalar ustidagi kuzatishlarimiz soʻzlarning yangi maʼno bilan boyishi til rivojida katta mavqeni egallovchi asosiy xususiyat ekanini isbotlaydi. Chunki leksemaga soʻng yuklangan maʼno tilda yangidan paydo boʻlgan mustaqil soʻz kabi lugʻat boyligiga ulkan hissa qoʻshadi, uning rivojlanishiga xizmat qiladi. Jumladan, bir leksema maʼnosining oʻzgarishi, yangi maʼnoda qoʻllanishi, isteʼmoldan chiqishi, uning passivlanishi, faollanishi boshqa soʻzlarga taʼsir qiladi. Shu nuqtayi nazardan, soʻz maʼnosini

¹⁴⁸ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SOʻZ. 2010. –Б. 3. Қаранг: Звегинцев В. Семасиология. –М.: Изд-во Московского университета, 1957; Покровский М. Избранные работы по языкознанию. –М.: Изд-во академия наук, 1959.

tarixiy asosda tekshirib aniqlash yangi soʻzlarning yuzaga kelish qonuniyatlarini ochib berishda ayniqsa ahamiyatlidir¹⁴⁹. Demak, soʻz maʼnosini oʻrganish tilshunoslikning muhim masalalaridan boʻlib, u, bir tomondan, leksemaning kelib chiqish mohiyatini yoritisa, ikkinchidan, diaxron aspektida tadqiq etish bilan bogʻliqdir.

Maʼlumki, soʻz jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq holda rivojlanadi, yangi maʼnolar kasb etadi, maʼno qirralarini vujudga keltiradi. Paydo boʻlgan sema yoki maʼno nozikliklari keng jamoatchilik tomonidan eʼtirof etilib, umumxalq tilidan mustahkam oʻrin oladi. Shu oʻrinda soʻz semalari va maʼno nozikliklari oʻrtasidagi semantik bogʻlanish hamda chegarani farqlash, ularga toʻgʻri izoh berish muhim vazifalardan hisoblanadi. Har bir soʻz oʻrni bilan bir-biriga yaqin yoki bir-biridan uzoqroq tushunchalarni ifodalashi mumkin. Yaqin tushunchalar ifodasi soʻzning maʼno nozikligidir, uzoqroq tushunchalar esa soʻzning mustaqil maʼnosidir. Maʼno nozikliklari bilan mustaqil maʼnolar oʻrtasidagi semantik bogʻlanish yaqqol sezilib turadi, ammo mustaqil maʼnolar oʻrtasidagi bogʻlanish unchalik sezilmaydi. Soʻzning maʼnolari va maʼno nozikliklari uning oʻz (asl) maʼnosi boʻlishi ham mumkin, koʻchma maʼnosi boʻlishi ham mumkin¹⁵⁰. Maʼnolar til sistemasidan xabardor barcha kishilar uchun barqaror va umumiydir. Qoʻllanish esa soʻz maʼnolaridan birining baʼzan individual tarzda, ayrim hollarda maʼlum darajada kishilar tomonidan ishlatilishi mumkin boʻlgan holat hisoblanadi¹⁵¹.

Leksemalarning aniq maʼnodan mavhum, umumiy maʼnoga oʻtishi, yangi sema kasb etishi uning maʼno taraqqiyoti va oʻzgarishi bilan bogʻliq. Ayniqsa, biror narsa-predmet nomining boshqasiga koʻchishi hamda soʻzning yangi narsa-predmet tushunchasini ifodalashi leksema maʼnosining oʻzgarishida alohida oʻrin tutadi. “Qisasi Rabgʻuziy” obidasi qoʻllanilgan leksik birliklarni qadimgi turkiy til va eski turkiy adabiy tilning ilk manbalari lugʻat boyligi bilan

¹⁴⁹ Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. –Т.: ФАН, 1959. –Б. 167.

¹⁵⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғатини тузиш учун қўлланма. –Т.: ФАН, 1964, –Б. 46.

¹⁵¹ Виноградов В.В. Русский язык. –М. –Л., 1947. –С. 21.

qiyosiy oʻrganish natijasida keyingi davrda ayrim soʻzlarning semantik strukturasi oʻzgarishga uchraganligining guvohi boʻldik. Taʼkidlash joizki, tadqiq qilinayotgan asar tilida bunday leksemalar juda ozchilikni tashkil etadi. Yana shuni aytish kerakki, biz tekshirayotgan mazkur soʻzlarning dastlabki maʼnolari isteʼmoldan chiqqan boʻlib, ular yangi sema anglatishga oʻtgan. Ularning tahlilini quyida misollar yordamida koʻrib chiqamiz.

Yasimuq soʻzi ilk marta Berlin toʻplamlaridagi uygʻur yozuvida bitilgan yodnomalarda “tariq” maʼnosini anglatgan (ДТС,245). Fitonim XIV asr Xorazm yodgorliklarida **yasmuq** shaklida “dukkaklilar oilasiga mansub oʻsimlik va uning doni” semasini ifodalash uchun xizmat qilgan: ...*Ortančisi noxud andazasinča, kičigi yasmuq andazasinča* (KP,180v9); *Ekki taš bar yasmuqdan uluğraq* (HФ,2261). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “sathi yoyilmoq” maʼnosini bildirgan **yas-feʼ**lidan **-muq** qoʻshimchasi bilan yasalgan (ЎТЭЛ, I,145).

“Befoyda, behuda” maʼnosiga ega **yoqsuz** leksemasi dastlab uygʻur yozuvidagi budda yodnomalarida ishlatilgan: *Yoqsuz öriü qodî yügürdiñ* – tepa va pastga behuda yugurding (ДТС,275). Mazkur soʻz “Тафсир” va “Qisasi Rabgʻuziy” asarlarida “kambagʻal, qashshoq” maʼnosida koʻzga tashlanadi: *Taqi buldi ani yoqsuz bay qildi Hadiča mālî birlä* (137,15); *Bermädi mālîñ aña yoqsuz čigayğa berdi ul* (161r9). Leksema “yoʻq qilmoq, yemirmoq” maʼnosini bildirgan **yo:-feʼ**lidan **-q** qoʻshimchasi orqali yasalgan (ЎТЭЛ, I,195) **yoq** “mavjud emas” soʻzi bilan **-suz** affiksidan hosil qilingan.

Ayni paytda qissada leksemaning turkiy **čigay**, arabcha **faqir** sinonimlari ham kuzatiladi: *Bir avrat Bani Saʼd qabilasidin Halima aliğ, eri Hāris atliğ ...čigay erdi* (184v10); *Satiğ birlä haläl māl yiğğan, ul mālñi faqirlarğa sadaqa qilğan* (161r6). **Faqir** oʻzlashmasi “qashshoq holatga keltirdi” maʼnosini anglatgan **faqara** feʼlidan yasalgan asliy sifat sanaladi. Bu soʻzdan oʻzbek tilida **faqirlik** mavhum oti, **faqirlash-** feʼli hosil qilingan (ЎТЭЛ, II,465).

Qadimgi turkiy til manbalari hamda Mahmud Koshgʻariyning “Devon”ida **yoriq//yoruq** variantlari “turmush tarzi, yurish-turish, muomala”, “qadam tashlash”, “ish, harakat”, “aylanish” maʼnolarida istifoda etilgan (ДТС,274-275). Leksik birlikning maʼnosidagi

o'zgarish, ya'ni "ta'bir, sharh, izoh"ni anglatishga bo'lgan intilish birinchi bor "Тафсири" asarida yaqqol namoyon bo'ladi: *Aydi: bu ardi ol islarini yorigi kim san sabr qilumadini tep* (1162). Ushbu nominativ ma'no tadqiqot obyekti qilib olingan obida tilida **yoruq// yoruq** shakllarida qo'llanilgan: *Anda kezin ayaqchiga aydi: seni tushun yoruqi ul turur kim...* (88v17); *Uc kun muhlat tiladilar tus yorigin tilap tapmadilar* (89v9). Leksema "Nahjul farodis"da ham ayni semada kelgan: *Ol tushlarini yoruqi tek acuu rast kelur erdi* (HФ,465). Mazkur so'z qadimgi turkiy tilda "talqin qilmoq" ma'nosini anglatgan **yor-fe'**lidan **-(i)q** affiksi orqali hosil qilingan (YТЭЛ, I, 193). Shu o'rinda zikr etilgan ma'no o'rganilayotgan manbada arabcha **ta'bir** so'ziga ham yuklanganligini e'tirof qilish lozim: *Yusufni kordilarkim tushga ta'bir aytur* (88r11). Mazkur o'zlashma "tushuntirdi" ma'nosini ifodalovchi **'abara** fe'lining V bob masdari «tushuntirish» ma'nosini anglatadi (YТЭЛ, II, 433).

"Rangi o'chgan, oqargan, bo'zargan" (yuz rangi haqida) ma'nosi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida **tulas** leksemasi yordamida ochib berilgan: *Tuman yilda beru tul erdim tulas* – Ko'p yillar yuzi oqargan tul edim (ДТС, 585). Leksema boshqa obidalarda uchramasa-da, "Qisasi Rabg'uziy"da "ust-boshi kir-chir, yomon kiyimli" semasida qo'llanishda bo'lgan: *Yumus aydi: anca zamān bergil Mavlānini yalawači bolup mundaq tulas barmaq layiq ermās* (154v8).

Tura leksemasi ilk bor "Qutadg'u bilig" dostonida "qo'rg'on, istehkom" tushunchasini ifodalagan: *...qayusi turada yuluqda qarir* – kimdir qal'ada garov pulini kutib qariydi, umrini o'tkazadi (ДТС, 587). Tekshirilayotgan yodgorlikda bu so'z yangi ma'no kasb etgan, ya'ni "to'siq, ihota" semasida ishlatilgan: *Uhud tagini arqa berip tura qilin* (223r8). Termin ayni ma'noda dastavval "Тафсири" asarida ko'zga tashlanadi: *...tamaf qilurlar bostannun turasinda* (10067).

"Aqlsiz, aqldan ozgan, telba" semasiga ega **ogsuz** sifati birinchi marta moniy yozuv yodgorliklarida kuzatiladi: *Bu ogsuz etuzda togdilar* – ular bu aqlsiz tanada tug'iladi (ДТС, 381). Leksema Qoraxoniylar davri manbalari, xususan, "Qutadg'u bilig" dostonida o'zining asl ma'nosida ishlatilgan: *Bu ogsuz agichi buzur oz isin* – Bu

telba xazinachi o'z ishini buzur (ДТС, 381). Mazkur so'z "Тафсири" va "Qisasi Rabg'uziy" asarlarida **ogsuz//ogsiz** shakllarida kelib, "behush" ma'nosini anglatgan: *Yerda bash yarilmis qanga bulganmis ogsuz bolup yatur* (27613); *Ol vaqtda Musa ogsiz manizlig ardi...* (29616); *Yalawač bu sozni esitdi ersa faryad qildi ersa ogsuz bolup tushdi* (72r1). Termin **og** "aql" (ДТС, 378) va sifat yasovchi **-suz** qo'shimchasidan hosil qilingan. Kezi kelganda aytish joizki, qissa tilida bu sifatning forsha-tojikcha **xus** "aql" hamda turkiy **-suz** affiksidan yasalgan **xusuz** ma'nodoshi ham iste'molda bo'lgan: *Ul kun uc yuz altmis yoli xusuz boldi onina keldi ersa yana yig'ladi* (72r15).

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida **emga** leksemasi "uyning toqisi" ma'nosida qayd etilgan (I, 150). Rabg'uziy mazkur so'zga "oyning o'rog'i, oyning hiloli" semasini yuklagan: *Yuzi kundin kop yaruqraq alni aynini emgasi* (181v6).

"Qimmat" ma'nosini bildiruvchi **qiz** (ДТС, 449) sifati bilan **-liq** affiksidan yasalgan **qizliq** leksemasi ilk bor Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida "noyob, kamyob, kam uchraydigan" semasida kelgan: *Kishi qizliqi boldi qayda tilagu* – Inson kamyob bo'ldi, uni qayerdan izlash mumkin? (ДТС, 450). Leksik birlik ma'nosidagi o'zgarish, ya'ni "ocharchilik, yetishmovchilik"ni ifodalashga bo'lgan intilish dastlab "Тафсири" asarida kuzatiladi: *Vaqti qizliq qahatliq* (52610). Mazkur nominativ ma'no XIV asr yodnomalari tilida qat'iylashgan: *Yusuf Siddiq alayhis-salam Misrda qizliq yil toyguncha yemak yemadi* (Г, 12566); *Ucuzliq qizliq tegma biri yetti yil bolgusi turur* (90r14). Shuningdek, tadqiq etilayotgan yodgorlikda ushbu so'zning **aqliq** (**ac** "qorni och" + **-liq**) sinonimi ham mavjud: *Aydi: Idiyā Yusuf paygambar qavminā berilgan aqliq qahatliqni bularqa bergil, tep* (225r1).

Basaq (chigilcha) leksemasi "Devonu lug'otit turk" asarida "to'piq" ma'nosini anglatgan (I, 359). Ayni paytda, Mahmud Koshg'ariy o'g'uz va qipchoqlar mim (m) orttirib, **basmaq** (I, 433) shaklida qo'llashini ta'kidlaydi. Bu so'z "Qisasi Rabg'uziy"da "oyoq kiyimi" semasini bildirgan: *Yana biri aydi: almanj, basmaq ernini izzati bolur* (204r16). Termin "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "kigiz etik, piyma; umuman oyoq kiyimi" tarzida izohlangan (I, 342). Bundan

tashqari, leksema o'rganilayotgan obida tilida **-lig** qo'shimchasi bilan birikib, yangi so'z yasashda asos vazifasini o'tagan: *Bir yigit keldi kumus basmaqlig* (204r15).

Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning ilk manbalarida qo'llanilgan ba'zi leksemalarning yodnomada butunlay boshqa ma'noda qo'llanilishi yozuvchi uslubining o'ziga xosligidan darak beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tilda so'zning tutgan o'rni haqida gapiring.
2. Tilshunoslikda leksemalarni diaxron aspektida o'rganishning o'ziga xos jihatlari nimada?
3. So'zlarning yangi ma'nolar bilan boyib borishi qanday jarayon?
4. So'z jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda qay tarzda rivojlanadi?
5. So'zning ma'no nozikligi va mustaqil ma'nolari to'g'risida fikr bildiring. "Qisasi Rabg'uziy"da leksik birliklarning yangi ma'no kasb etishi xususida ma'lumot bering va misollar keltiring.
6. Asarda leksemalarning butunlay boshqa ma'noda qo'llanilishi qanday omillar bilan aloqador deb o'ylaysiz?

ASAR SO'Z BOYLIIGINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Tayanch so'zlar: leksik-semantik jarayonlar, omonimiya, ifoda plani, tovush ifodasi, harfiy ifoda, omoleksemalar, omoformalar, sinonimiya, ma'nodosh so'zlar, turkiy so'zlar sinonimiyasi, arabcha so'zlar sinonimiyasi, forsha-tojikcha so'zlar sinonimiyasi, antonimiya, leksik antonimlar, affikal antonimlar, turkiy so'zlar antonimiyasi, arabcha so'zlar antonimiyasi, forsha-tojikcha so'zlar antonimiyasi.

So'z ma'nosining rivojlanish qonunlarini tekshirish, so'zlarning omonimlik, sinonimlik va antonimlik xususiyatlarini o'rganish tilning

lug'at boyligini aniqlashga, turli lug'atlar tuzish ishlariga katta yordam beradi¹⁵². Tilning ifoda rejasida bir-biriga qarama-qarshi holatlarni, miqdoriy o'lchamlardagi ziddiyatlarni ko'rish mumkin. Masalan, frazeologizmlar va sinonimiyada ifoda birliklari mazmun birliklaridan ko'p bo'lsa, polisemiya va omonimiyada buning aksini ko'ramiz. Bunda shaklan bir xillikka ega bo'lgan lug'aviy birliklar ikki va undan ortiq ma'no bilan ish ko'radi. Ikki va undan ortiq ma'no bir shaklga to'g'ri kelishi hollarini matn bartaraf etadi¹⁵³. Shu ma'noda, leksik-semantik jarayonlar (omonimiya, sinonimiya, antonimiya) umumadabiy tildagi kabi biz tadqiq qilayotgan "Qisasi Rabg'uziy" obidasida qo'llanilgan leksik birliklar tizimida ham yuz bergan.

Omonimiya munosabatlarini belgilashda til birliklarining ikki tomoni – ifoda va mazmun plani hisobga olinadi. Sinonimiya va antonimiyada til birliklarining mazmun plani asosga olinsa, omonimiyada ifoda plani yetakchi sanaladi. Ifoda plani deganda ikki jihat nazarda tutiladi: talaffuz, aytilish (tovush ifodasi) va yozilishi (harfiy ifoda)¹⁵⁴.

Omonimlarning tilda paydo bo'lish sabablari turlichadir: avvallari har xil aytilib, bir xil eshitiladigan so'zlar talaffuzining tarixiy jarayonda tovush almashinishi yoki talaffuz o'zgarishi natijasida bir-biriga mos kelib qolishi; boshqa tillardan o'zlashgan leksemalarning talaffuz va yozilish jihatdan ona tilidagi so'zlarga mos kelib qolishi; tilda mavjud bo'lgan ko'p ma'noli so'z semalarining bir-biridan uzoqlashishi va hokazo¹⁵⁵.

Omonimiyada ikki xil hodisa mavjud: omonimlar va omoformalar. Omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir. Ular omonim omoleksemalar deb ham ataladi. Omoformalar ayrim grammatik shakllardagina teng keladigan

¹⁵² Азизов О. Тилшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –Б. 66.

¹⁵³ Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.: Ўқитувчи, 1993. –Б. 18.

¹⁵⁴ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изохли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1984. –Б.5.

¹⁵⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. –Т.: Ўзбекистон энциклопедияси, 2003. –Б. 539.

soʻzlardir. Ular omoforma omoleksemalar deb ham nomlanadi¹⁵⁶.

Ifoda jihati bir xil ikki leksik birlik omonim omoleksemalar deb baholanishi uchun ular grammatik shakllanish nuqtayi nazaridan bir xil boʻlishi lozim, buning uchun esa ular ayni bir turkumga mansub boʻlishi kerak; boshqa-boshqa turkumga mansub boʻlsa, grammatik shakllanish jihatidan bir xil boʻlishi darkor¹⁵⁷. Tadqiqot obyekti qilib olingan manba lugʻat tarkibida quyidagi omonim omoleksemalar koʻzga tashlanadi:

1) **ot+ot:** adaq “oyoq” (36r2) – adaq “qadah” (249r12); aʼgʻrliq “vazminlik” (92r10) – aʼgʻrliq “xastalik” (39v8); alaliq “kasallik nomi” (119v21) – alaliq “uyushmaslik, muholifat” (232v8); at “ism” (96r2) – at “ot” (32r8); asuq “oshiq suyagi” (24v12) – asuq “shoshilinch” (3v8); bas “bosh” (29r16) – bas “yara” (11v5); basliq “rahbar” (195r20) – basliq “bosh kiyimi, boʻrk” (74v6); bulun “asir” (46v7) – bulun “taraf, yon” (181r6); qil “qil, yung” (187r20) – qil “qush nomi” (68v7); qin “qiyinchilik” (22v12) – qin “qilich gʻilofi” (196r10);

2) **feʼl+feʼl:** ač- “ochmoq” (11r18) – ač- “ochiqmoq, qorni ochmoq” (69v10); aq- “xotirlamoq” (11v7) – aq- “bexush boʻlmoq” (76r9); ayil- “gapir- moq” (121v7) – ayil- “hushiga kelmoq” (21v18); bit- “oxiriga yetmoq” (204v14) – bit- “yozmoq” (92v15); em- “zahmat chekmoq” (77r19) – em- “emmoq” (170v20); sor- “soʻramoq” (11v13) – sor- “soʻrmoq” (115r5); sus- “suzmoq” (96r20) – sus- “shohlamoq” (38r1); yaq- “yoqmoq, qabul etmoq” (67r19) – yaq- “olov yoqmoq” (60v3).

3) **sifat+sifat:** yasliq “yoshli, qari” (28r12) – yasliq “koʻz yoshli” (75v15).

Ifoda jihati bir xil ikki leksik birlik omoforma omoleksemalar deb baholanishi uchun ular grammatik shakllanishi nuqtayi nazaridan farqlanishi lozim. Buning uchun ular har xil grammatik shakllarga ega boʻlishi kerak¹⁵⁸. Yodnoma tilida bir necha turkum leksemalar oʻrtasida

¹⁵⁶ Жамолхонов Х.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. –Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2004. –Б. 41-42.

¹⁵⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий катлами –Т.: Университет, 2001. –Б. 323.

¹⁵⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий катлами –Т.: Университет, 2001. –Б. 331.

sodir boʻlgan quyidagi omoforma omoleksemalar ifodalangan:

a) **ot+feʼl:** ač “qorni och” (93r11) – ač- “ochmoq” (194r2); aʼgʻ “tuzoq” (144v14) – aʼgʻ- “oshmoq” (53r7); al “hiyla” (140r1) – al- “olmoq” (15v7); ari “asalari” (3v11) – ari- “poklanmoq” (80v13); art “orqa” (83v5) – art- “artmoq” (22v10); as “suvsar” (68v4) – as- “osmoq” (31v1); aš “oziq-ovqat” (49r21) – aš- “oshmoq” (21v14); at “ot” (40v16) – at- “otmoq” (41v20); ata “ota” (17v2) – ata- “nomlamoq” (14v3); ay “30 kun” (22v14) – ay- “aytmoq” (17r11);

b) **ot+sifat:** al “hiyla” (117v18) – al “qizil” (83r15); atliq “suvoriy” (112v5) – atliq “isimli” (36r18); basliq “boshliq” (181r7) – basliq “yarali” (75v15); oqay “Mushtariy” (66v7) – oqay “qulay” (122w15); oʻgsüz “yetim” (131r2) – oʻgsüz “behush” (72r1); ayaqliq “qadahlik” (162v4) – ayaqliq “oyoqli” (140v21); yulgun “daraxt nomi” (16v7) – yulgun “yomon” (18r8);

d) **ot+son:** yiqač “daraxt” (11v5) – yiqač “9 km masofa” (23r10); yuz “chehra” (32r2) – yuz “100” (19r19); qari “qari, keksa” (14r15) – qari “qarish” (14r15);

e) **ot+feʼl:** qoş “juft” (77v2) – qoş- “qoʻshmoq” (210v17); yaşar “yosh” (57v19) – yaşar- “yashnamoq, koʻkarmoq” (60r3);

f) **sifat+feʼl:** ačiq “ochiq” (69r20) – ačiq- “qorni ochmoq” (93r9); aq “oq” (16v7) – aq- “oqmoq” (16v6); al “qizil” (77r10) – al- “olmoq” (33v7); qara “qora” (30r9) – qara- “qaramoq” (81v15); ol “hoʻl” (174v18) – ol- “oʻlmoq” (14v4); tar “tor” (43r10) – tar- “sovurmoq, sochmoq” (181v20); turuq “tiniq, sof” (121r14) – turuq- “toʻxtamoq” (26v6); tuz “yassi, tekis” (62v4) – tuz- “tartib etmoq” (77v8); ulaş “davomli, doim” (86r4) – ulaş- “tarqatmoq” (30r20);

g) **ravish+feʼl:** az “oz” (106r20) – az- “yoʻldan adashmoq” (190v21); bat “tez” (56v15) – bat- “botmoq” (69r5); bol “moʻl” (181v13) – bol- “boʻlmoq” (10v20); keč “kechki payt” (71v13) – keč- “kechmoq, avf etmoq” (22r19); ota “eng” (80v16) – ota- “ado etmoq, bajarmoq” (140v10);

h) **son+feʼl:** qač “qancha” (27v15) – qač- “qochmoq” (24v11); qirq “40” (12r10) – qirq- “qirqmoq” (179v10) va hokazo.

Sinonimiya. Sinonimlartalaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi

ma'nosi bir xil (umumiy) bo'lgan, qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir. Ana shunday umumiy ma'no bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qatorlarni tashkil etadi. Sinonimik qatorlar ikki yoki undan ortiq leksemalardan iborat bo'lishi mumkin¹⁵⁹. Bir so'z bilan aytganda, sinonim so'zlar aniq semantik aloqa asosida bog'langan lug'aviy birliklarning aniq tizimidir¹⁶⁰.

Til birliklarining, jumladan, leksemalarning sinonimligi deganda, odatda, ularning bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'noli bo'lishi nazarda tutiladi. Lekin bir xil ma'noga egalik bilan ma'noga ko'ra bir-biriga yaqinlik o'zaro farqli hodisalardir. Shu bois, ayni bir hodisaga, xususan, sinonimiyaga nisbatan "bir xil ma'noli", "bir-biriga yaqin ma'noli" birikmasini befarq qo'llab bo'lmaydi. Chunki bu hodisaning mohiyatini aniq belgilash, tasavvur qilishga xalaqit beradi. Binobarin, ulardan birini tanlash, hodisaning mohiyatini to'g'ri ifodalaydiganini belgilash va shunisini qo'llash kerak bo'ladi¹⁶¹. Sinonimlar ayni bir til vakilida ayni bir davrda qo'llanadigan bir turkum doirasidagi so'zlardan tashkil topadi. Ular chet tilidan, shevalardan adabiy tilga so'z o'zlashtirish hisobiga boyiydi¹⁶².

"Qisasi Rabg'uziy" asarida qayd etilgan sinonimlarning aksariyati turkiy so'zlar vositasida hosil qilingan bo'lib, ular qo'llanish davomida sinonimik qatorlarni vujudga keltirgan. Turli yo'llar bilan turkiy tillar lug'at tarkibiga kirib kelgan o'zlashma so'zlar esa mazkur sinonimik qatorlarning kengayishini ta'minlagan. Binobarin, ma'nodosh so'zlar hamda ikki va undan ortiq leksik birliklarni tashkil etuvchi sinonimik qatorlarni tilning boyish manbalari sifatida e'tirof etish mumkin. O'rganilayotgan manbada qo'llanishda bo'lgan

¹⁵⁹ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1974. –Б. 3.

¹⁶⁰ Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –Б. 3.

¹⁶¹ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. –Т.: ФАН, 2010. –Б.124.

¹⁶² Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SO'Z, 2010. –Б. 214.

ma'nodosh leksemalar genetik jihatdan turkiy va o'zlashma: arabcha va forscha-tojikcha qatlamlarga bo'linadi.

1. **Turkiy so'zlar sinonimiyasi.** E'tiborga loyiq xususiyati shundaki, qissada istifoda etilgan leksemalar tarkibida bitta tushuncha ikki va undan ortiq turkiy so'z yordamida ifodalangan. Tadqiqot obyekti qilib olingan asarda sinonimiya hodisasi quyidagi so'z turkumlari doirasida kechgan:

a) **ot:** aḡ (144v14) – tuzaq (77r11) "to'r, tuzoq"; anuq (118v19) – tayyar (219v19) "tayyor"; arqa (64v5) – art (83v5) «orqa»; ašīḡ (181v11) – yarar (132v4) "foydā"; ašlīq (160v16) – buḡday (13v20) "buḡdoy"; barmaq (208r16) – ernāk (37v10) "barmoq"; bašci (53v16) – qulawuz (13r19) "rahbar, yo'lboshlovchi"; bergā (97r19) – qamčī (100v10) "qamchi"; bašcī (111r7) – bašlīq (195r20) "boshliq"; ew (18r3) – tam (108v6) "uy"; el (48r20) – boḡdun (29r10) "xalq";

b) **sifat:** abušqa (11v12) – qarī (104v3) "keksa, chol"; aḡm (130v14) – tilsiz (25v21) "saqov"; aq (16v7) – ūrūḡ (13v4) "oq"; al (83r15) – qīzil (11r14) "qizil"; aruq (47r19) – kücstüz (237r16) "zaif"; aydin (71v9) – yaruq (38v3) "yorug'"; čīḡay (53v9) – yoqsuz (128r17) "kambag'al"; ādiz (19v15) – uluḡ (146r2) "katta, ulug'"; eḡḡū (14v10) – yaxšī (124r1) "yaxshi"; esiz (100v10) – yaman (41v15) "yomon"; qaraḡu (10v3) – közsüz (17r14) "so'qir";

d) **ravish:** aḡn (10v14) – ōzḡā (23v6) – bašqa (122v13) "boshqa"; keḡin (12v13) – soḡra (54r3) «keyin»; bat (56v15) – tez (20v11) "tez"; köp (22v12) – ūkūš (13v9) "ko'p";

e) **fe'l:** at- (41v20) – čal- (17v16) "otmoq"; qar- (182r1) – qoš- (210v17) "aralashtirmoq"; yan- (21r20) – qayt- (129v10) "qaytmoq"; ay- (49r1) – sözlā- (11r20) "gapirmoq"; ūz- (10v10) – ūbar- (90r4) "yubormoq"; in- (20v11) – tūš- (18r14) "tushmoq"; baq- (10v3) – qara- (81v15) "qaramoq"; aša- (228v21) – ye- (12r7) "ovqatlanmoq"; balqī- (180v7) – yaru- (38v11) "porlamoq"; qol- (20r19) – sora- (133r18) "so'ramoq"; berkit- (30v21) – yap- (40v20) "yashirmoq";

2. **Turkiy va o'zlashma so'zlar sinonimiyasi.** Tadqiq etilayotgan manbada leksik birliklarning turkiy va boshqa tilga oid ma'nodoshlari birgalikda qo'llanilgan. Arabiy hamda forscha-tojikcha tildan o'zlashgan so'zlar ma'lum darajada ma'nodosh leksemalar guruhini to'ldirishga xizmat qilgan:

a) **turkiy va arabiy soʻzlar sinonimiyasi:** ata (22v17) – ābā (172v11) “ota”; taq (33v3) – hayrat (139v11) “hayron qolish”; küčsüz (237r16) – ājiz (29v20) “zaif”; at (22v3) – ism (2v1) “ism”; kiši (16r2) – ādam (20r15) “inson”; törā (37v14) – ādat (29v13) “rasm-rusum”; adīm (238r20) – qadam (53r9) “qadam”; aḡuš (99r19) – nasl (192r2) “nasab, avlod”; soḡ (61r2) – āxir (65v4) “tamom”; al (117v18) – hiyla (164v19) “makr”; belgü (35v20) – alāmat (35v20) “belgi, iz”; iš (30r7) – amal (229r8) “ish”;

b) **turkiy va forsha-tojikcha soʻzlar sinonimiyasi:** kün (22v9) – āftāb (188v15) “quyosh”; aḡač (120r20) – daraxt (148v15) “daraxt”; belgü (35v20) – nišan (35v21) “belgi, iz”; alp (61v14) – bahādir (101v4) “pahlavon”; arīḡ (14r21) – pāk (41v5) “toza”; arqīs (48v18) – karvān (74r12) “karvon”; ačuq (147r20) – āškār (93v11) “ochiq-oydin”; ün (20v17) – āvāz (11v12) “tovush”; yazuq (21v12) – gunāh (98v21) “gunoh”; az (106r20) – kam (152v9) “oz”;

d) **arabcha soʻzlar sinonimiyasi:** ajab (210r17) – hayrat (139v11) “hayron qolish”; āfat (203r5) – balā (10v19) “kulfat”; āxirāt (53r4) – qiyāmat (123r1) – uqbā (10v18) “oxir zamon”; aqd (109v1) – nikāh (18r1) “oila qurish”; arābiy (79r12) – badaviy (236v3) “sahroda yashovchi arab”; zaif (44v9) – ājiz (29v20) “kuchsiz”; atā (194v9) – hadiyya (161r20) – ehsān (119v5) “sovgʻa”; avrat (51r1) – ayal (184v10) “xotin”; azamat (46r17) – azim (146r2) “buyuk, katta”;

e) **arabcha va forsha-tojikcha leksemalar sinonimiyasi:** abdāl (201r7) – darviš (124r7) “darvish”; adl (102v8) – dād (240r13) “adolat”; āqīl (10r18) – dānā (186r8) “aqlli”; alāmat (35v20) – nišan (35v21) “belgi, iz”; ārām (224v9) – rāhat (84r16) “farogʻat”; ayb (21r13) – gunāh (98v21); narx (189v12) – bahā (10r12) “narx”; badan (171v5) – andām (231v18) “tana”; jannat (2r6) – bihišt (3v4) “uchmoq”; amr (22v13) – farmān (18r6) “buyruq”; kabira (45r11) – buzurg (112v17) “katta, ulugʻ”; dunyā (42r19) – jahān (37r6) “olam”;

f) **forsha-tojikcha soʻzlar sinonimiyasi:** dost (123r2) – yār (197r17) “oʻrtoq”; durust (37v18) – rāst (141v18) “toʻgʻri”; šāh (77v4) – pādšāh (86v1) “amir”; gabr (122v19) – muḡ (231v2) “otashparast”; āvāz (11v12) – sadā (103v18) “ovoz”; xurram (71r3) – šād (54r11) “xursand”; pāk (41v5) – tāza (71v21) “toza”;

g) **turkiy, arabcha va forsha-tojikcha soʻzlar sinonimiyasi:** belgü (35v20) – alāmat (183v15) – nišan (35v21) “belgi, iz”; yazuq (21v22) – ayb (21r19) – gunāh (98v21) “gunoh”; es (148r4) – aql (31r16) – huš (138v16) “aql”; buyruq (12v8) – amr (22v13) – farmān (18r6) «buyruq»; biyik (167r3) – kabira (45r11) – buzurg (112v17) “katta”; toquš (50r5) – ḡazāt (200r1) – jaḡ (57v20) “urush”; ortaḡ (46r18) – muhib (218v4) – dost (123r2) “doʻst”; yaḡī (32r20) – ḡanim (221v2) – dušman (18r16) “dushman”.

Antonimiya. Antonimlik soʻzlardagi maʼno zidligini aks ettiradigan tushuncha boʻlgani uchun u bir soʻz orqali yoki koʻp soʻz yordamida beriladimi bundan qatʼi nazar, baribir, antonim deb qaralishi kerak¹⁶³. Shu bilan birga, antonim ekanligini aniqlashda mantiqiy markaz prinsipidan – faraz qilingan nuqta yoki ikki antonim soʻz bildirgan tushunchalar oʻrtasidagi oraliq tushunchalardan foydalanish lozim¹⁶⁴. Antonimlar bir soʻz turkumiga mansub boʻladi. Antonimiya – oʻzaro zid maʼnoli soʻzlarning semantik munosabati. Demak, antonimiya hodisasi ham leksik paradigma va sinonim leksemalar guruhida, yaʼni sinonimiya hodisasida boʻlgani kabi leksemalarning maʼno munosabati orqali yuz beradi. Shu xususiyati bilan oʻzaro zid maʼnoli leksemalardan tuzilgan juftliklar ham leksik sistemani tashkil etadi. Ikkita asosiy belgisi bilan boshqa tipdagi leksik-semantik guruhlardan farqlanadi: 1) ikki komponentdan tuziladi; 2) komponentlari oʻzaro zidlik munosabatiga boʻladi¹⁶⁵. Antonimlar, bir tomondan, soʻzlarning asl maʼnosini ochib bersa, ikkinchidan, ularning koʻp maʼnoda ishlatilishini aniqlashga koʻmaklashadi. Zid maʼnoli leksemalar nutqda predmet, hodisa va ularning belgilarini solishtirib koʻrishda, bir-biriga qarama-qarshi qilib koʻrsatishda hamda fikrlarimizni, his-tuygʻularimizni taʼsirli, aniq-ravshan ifodalashda vordam beradi¹⁶⁶.

¹⁶³ Усмонов С. Антонимлар//Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. -Т.: 1958. №2. -Б. 35.

¹⁶⁴ Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1980. -Б. 9.

¹⁶⁵ Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. -Т.: ФАН, 2010. -Б. 131.

¹⁶⁶ Азизов А. Тилшуносликка кириш. -Т.: 1996. -Б. 74.

«Qisasi Rabgʻuziy» asarida qayd etilgan antonimlarning aksariyati asosan turkiy boʻlib, zid maʼnoli soʻzlar qatorini vujudga keltirgan. Oʻzlashma soʻzlar esa mazkur qatorlarning kengayishini taʼminlagan. Olib borgan tadqiqotimiz asosida shu narsa oydinlashdiki, yodgorlikda istifoda qilingan leksik birliklar tizimida zid maʼnolar bir hamda ikki oʻzakli soʻzlar yordamida ifodalangan boʻlib, turkiy va oʻzlashma: arabcha, forscha-tojikcha qatlamlardan tashkil topgan. Quyida keltirilayotgan antonimik juftliklar buning yorqin dalilidir.

1. Turkiy soʻzlar antonimiyasi:

a) leksik antonimlar. Leksema(semema)larning oʻzaro zid munosabatdagi maʼnolarni anglatishi asosida guruhlanishi leksik antonimiya deyiladi¹⁶⁷. Qissada qoʻllanilgan leksik antonimlar asosan ot, sifat, ravish va feʼl turkumlariga oid soʻzlardan iborat:

1) narsa-predmet nomini anglatuvchi soʻzlar antonimiyasi: bek (185r18) «bek» – qul (36v9) «qul»; yağī (32r20) «dushman» – eš (46r17) «oʻrtoq»; bay (75r10) «boy» – čīğay (53v9) «kambagʻal»; kün (15v18) «kunduz» – tün (11v11) «qorongʻi»; ewlük (35r11) – tiši (11r21) «ayol» – er(17r2) – erkäk (24v1) «erkak»; ata (17v2) «ota» – ana (37v11) «ona»; aydīn (71v9) «yorugʻlik» – qarāngu (22r18) «qorongʻulik»; ayğīr (116r2) «erkak ot» – qīsraq (116r1) «baytal»; boğra (190r9) «erkak tuya» – inān (31r15) «urgʻochi tuya» (31r15);

2) belgi-xususiyatni ifodalovchi soʻzlar antonimiyasi: qarī (104v3) «keksa, chol» – yaš (21r7) «yosh»; ač (93r11) «och» – toq (6916r) «toʻq»; astīn (42r3) «past» – ustun (21v14) «tepa»; yaqīn (69v16) «yaqin» – uzaq (77r11) «uzoq»; sawuq (198v18) «sovuq» – išsīğ (155r15) «issiq»; qīsqa (65v20) «qisqa» – uzun (28r9) «uzun»; biyik (167r3) «ulugʻ, katta» – kičik (18r21) «kichik»; ürtüç (13v4) «oq» – qara (30r9) «qora»; ağır (80v6) «qimmatbaho» – uçuz (49v6) «arzon»; ağır (40v21) «ogʻir» – yünül (14r18) «engil»;

3) holatni bildiruvchi soʻzlar antonimiyasi: bar (11v9) «bor» – yoq (13v12) «yoʻq»; öksük (215r 16) «oz» – üküš (19v12) «koʻp»; ičkärü (11v7) «ichkari» – tašqaru (25v10) «tashqari»; aqīru (237r17) «sekin» – tez (20v11) «tez»; erta (77r19) «erta» – keč (61v8) «kech»;

¹⁶⁷ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б. 121.

4) harakat va faoliyat bilan bogʻliq tushunchalarni anglatuvchi leksemalar antonimiyasi: bar- (50v13) «bormoq» – kel- (50v13) «kelmoq»; uruš- (133v3) «urushmoq» – yaraš- (77r6) «yarashmoq»; art- (20r18) «ortmoq» – tüşür- (74v19) «tushurmoq»; azril- (73v21) «ayrilmoq» – qoşul- (110r19) «qoʻshilmoq»; qur- (76v8) «qurmoq» – buz- (80v14) «buzmoq»; kiy- (91v14) «kiymoq» – češ- (80v21) «yechmoq»; kir- (111r3) «kirmoq» – čiq-(22r21) «chiqmoq»; al- (63v4) «olmoq» – ber- (54r8) «bermoq»;

b) affiksial antonimlar. Yodnomada asos jihatidan bir xil, ammo yasovchi affikslar yordamida hosil qilingan antonim leksemalarni ham uchratish mumkin. Bunday zid maʼnoli soʻzlar sifat soʻz turkumiga xos boʻlib, **-liq/-lik/lig/-lig;** **-siz/-siz//suz/-stüz** qoʻshimchalari orqali yasalgan. Oʻzbek tilshunosligida ot turkumidagi soʻzlardan **-li** va **-siz** affiksi vositasida yasalgan sifatlarning antonim yoki antonim emasligi masalasida turli qarashlar mavjud. B. Isabekov va G. Musaboevlar mazkur qoʻshimchalar vositasida hosil qilingan sifatlarning antonim boʻla olmasligini qayd etishgan. “Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati” ni kirish qismida esa ular bir oʻzakdan antonimlar yasaydi deb koʻrsatilgan¹⁶⁸. Professor M. Mirtojievning yozishicha, oʻzbek tilida bir oʻzakdan antonimik affikslar yordamida antonimlar yasaladi. Qolaversa, T. Mullaevning *aqlli va aqlsiz* soʻz juftligini differensial-semantik metod asosida tahlil qilib, ular oʻzaro antonim ekanligini isbotlaganligi maʼlum. Chunki *aqlli* soʻzi sememasi “fikr faoliyati oʻtkir”, *aqlsiz* soʻzi sememasi “fikrlash faoliyati zaif” semalarini oʻz ichiga oladi. Ular sememasining birinchi va ikkinchi semasi umumiy, uchinchi semasi qarama-qarshi. Semalar ifodasidagi bu qarama-qarshilik antonimlikni koʻrsatsa, sememalar oʻrtasidagi umumiylik antonimlar semantik maydoni bir ekanligini bildiradi¹⁶⁹. Ushbu mulohazalarga tayangan holda olib borgan tadqiqotimiz asosida qissa tilida quyidagi affiksial antonimlar ishlatilganligi aniqlandi: *arigʻliq* (156v16) «toza» – *arigʻsiz* (22r14) «iflos»; *biliglig* (90r2) «bilimli» – *biligsiz* (116v21) «bilimsiz, nodon»; *erklik* (34v1) «kuchli» – *erksiz*

¹⁶⁸ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SOʻZ. 2010. –Б. 220.

¹⁶⁹ Oʻsha asar. –Б. 223-224.

(88r1) «zaiif»; analiğ (172v16) «onali, onasi bo'lmoq» – anasiz (66r12) «onasiz, yetim»; kōrklük (13r5) «chiroyli» – kōrksüz (15 v5) «badbashara»; közlük (35r14) «ko'zli, ko'radigan» – közsüz (17r14) «ko'r, so'qin»; tillik (43v10) «tilli» – tilsiz (25v21) «tilsiz, soqov»; küçlük (29r17) «kuchli» – küçsiz (237r16) «kuchsiz»; sanliğ (148r18) «sanoqli» – sansiz (132v7) «sanoqsiz, behisob»; tatliğ (25v9) «mazali» – tatliğsiz (6r2) «mazasiz, bemaza».

2. Turkiycha va arabcha so'zlar antonimiyasi:

leksik antonimlar: boğra (181v3) «erkak tuya» – jammāza (105v5) «urg'ochi tuya»; toquş (50r5) «jang» – sulh (226v1) «tinchlik bitimi»; asig (161v11) «foйда» – zarar (25r1) «ziyon»; kiçik (18r21) «kichik» – kabira (145r11) «katta»; yaşurun (96r21) «yashirin» – zāhir (120v11) «ayon».

3. Turkiycha va forsha-tojikcha so'zlar antonimiyasi:

leksik antonimlar: köp (22v12) «ko'p» – kam (152v9) «oz»; bulun (46v7) «asir» – āzād (166v5) «ozod»; qarabaş (36v7) «joriya» – banda (102v20) «qul»; yanī (66v21) «yangi» – janda (178r13) «eski»; yağī (32r20) «dushman» – dost (52r17) «do'st»; az (108r18) «kam» – bisyār (219v9) «ko'p»; telim (11v14) «ko'p» – kam (152v9) «oz»; tūn (31r3) «tun» – roz (167v16) «kunduz».

4. Arabcha so'zlar antonimiyasi:

a) leksik antonimlar: ājiz (48v9) «kuchsiz» – qaviy (61v13) «kuchli»; ālim (19v18) «olim, bilimli kishi» – jāhil (145r10) «nodon, bilimsiz»; bāqiy (39v20) «mangu» – fāniy (52r14) «vaqtincha»; bātin (206v1) «yashirin» – zāhir (120v11) «ayon»; halāl (70r14) «halol» – harām (51r15) «harom»; musulmān (24r21) «musulmon» – kāfir (10r18) «kofir»; avval (16v10) «ilk» – āxir (65v4) «oxir, so'ng»; fāyida (15r8) «foйда» – ziyān (161v11) «ziyon»;

b) turkiy qo'shimchalar yordamida yuzaga kelgan affiksial antonimlar: imānliğ (37r7) «imonli» – imānsiz (24v13) «imonsiz»; e'tiqādliğ (244v13) «e'tiqodli» – e'tiqādsiz (114r19) «e'tiqodsiz»; islāmluğ (239r13) «musulmon» – islāmsiz (142v11) «kofir»; mālliğ (29v18) «mollı, boy» – mālsiz (186r7) «molsiz, kambag'al».

5. Arabcha va forsha-tojikcha so'zlar antonimiyasi:

leksik antonimlar: habib (122v19) «do'st» – duşman (67v9)

«yov»; asir (133v15) «tutqun» – āzād (79r5) «hur»; jāhil (145r10) «nodon» – dānā (186r8) «oqil»; uchmoh (2r16) «jannat» – dozax (3v4) «jahannam»; sulh (226v1) «yarashuv» – jang (57v10) «urush»; bātin (206v1) «yashirin» – āşkār (93v11) «ochiq-oydin».

6. Forscha-tojikcha so'zlar antonimiyasi:

leksik antonimlar: bihišt (3v4) «jannat» – dozax (3v4) «do'zax»; kam (152v9) «oz» – bisyār (219v9) «ko'p»; dost (52r17) «do'st» – duşman «dushman» (67v9); sāgird «shogird» (126r1) – ustād (162v18) «ustoz»; xāja (163v9) «xo'jayin» – banda (102v20) «qul»;

Izlanishlar asosida qissada omonim omoleksemalar (ot+ot, fe'l+fe'l, sifat+sifat), omoforma omoleksemalar (ot+fe'l, ot+sifat, ot+son, ot+fe'l, sifat+fe'l, ravish+fe'l, son+fe'l) faol ishlatilganligi ayon bo'ldi. Asarda asosan ikki va uch so'zdan iborat sinonimik qatorlar qo'llanilgan. Turkiy va o'zlashma leksemalarni sinonimik munosabat nuqtayi nazaridan tahlil qilish jarayonida kelib chiqishiga ko'ra, boshqa tilga oid, ya'ni arabcha va forsha-tojikcha so'zlarning obida tilida o'ziga xos mavqega ega ekanligiga, shuningdek, sinonimik qatorlardan unumli foydalanilganligiga amin bo'ldik.

O'rganilayotgan manbada ot, sifat, ravish va fe'l so'z turkumlariga oid antonimik qatorlar muhim o'rin tutgan. Shuningdek, yodgorlikda leksik antonimlar bilan birga, kelib chiqishiga ko'ra boshqa o'zaklardan tuzilgan hamda bir o'zakdan sifat yasovchi **-liq/-lik//liğ/-lig; -siz/-siz//suz/-süz** qo'shimchalari orqali hosil qilingan affiksial antonimlar ham uchraydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tilda omonimlarning paydo bo'lishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
2. Omonimlarning sinonim va antonimlardan farqli jihatlari nimada?
3. «Qisasi Rabg'uziy»da qayd etilgan omonimlar xususida so'z yuriting va misollar keltiring.
4. Sinonimik munosabatning mazmun-mohiyatini tushuntiring.
5. Asardagi ma'nodosh leksemalar haqida ma'lumot bering.
6. Sinonimik qatorlarning kengayishida o'zlashmalar qanday rol o'ynagan?

7. Antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'ting.

8. Qissada qo'llanilgan leksik antonimlar haqida fikr bildiring.

9. Obida tilida affiksial antonimlar qanday o'rin tutgan?

XULOSA

Til kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashishning muhim vositasi hisoblanib, uzoq yillar davomida, turmush talablariga mos ravishda asta-sekin rivojlanib boradi. Shu bois ham til tarixini o'rganish til faktlarining taraqqiy etish usullarini aniqlash uchungina emas, ayni paytda, uni yaratgan xalq tarixini tadqiq qilish uchun ham alohida ahamiyatga ega. Demak, har bir tilning tarixi shu tilga mansub xalqning o'tmishi bilan bog'liq. Xalq hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'lsa, u tilga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu dastlab tilning so'z boyligida ko'zga tashlanadi. Binobarin, «Qisasi Rabg'uziy» asarining leksik xususiyatlari to'g'risida gap ketganda, shuni ta'kidlash joizki, obida lug'at tarkibini diaxron aspektida o'rganish orqali o'zbek adabiy tilining o'sha davrdagi o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari, qolaversa, xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy-ma'naviy taraqqiyotidan boxabar bo'lish mumkin. Ma'lum bo'ladiki, o'zbek adabiy tili bugungi takomillashgan darajaga erishish uchun turli fonetik, leksik va sintaktik o'zgarish, rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirganligini, uning qadimgi ahvolini, o'tgan vaqt mobaynida tilda qanday yangiliklar yuz berganligini aniqlashda yozma yodgorliklar leksikasini tadqiq qilish katta o'rin tutadi.

XIV asr obidasi sanalgan «Qisasi Rabg'uziy» asarida qo'llanilgan leksemalarni ilmiy asosda tadqiq etish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Qissa lug'at tarkibi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar adibning diniy ilmlar bilan bir qatorda, adabiyotshunoslik, tilshunoslik bilimlaridan xabardor ekanligidan darak beradi. Chunki muallif arabiy, forsha-tojikcha adabiyotlarga tayanib asar yaratar ekan, ulardagi o'zlashmalarning turkiy muqobillarini topib qo'llashga harakat qilgan. Jumladan, azāb–emgāk “qiyinchilik”; kabira–biyik “katta”;

ba'daz–keđin “keyin”; āftāb–kūn “quyosh”; daraxt–āgāč “daraxt”; nišān–belgū “belgi, iz”. Aytish mumkinki, qissa o'zbek adabiy tilining XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmidagi taraqqiyot darajasini belgilashda ulkan manba sanaladi.

2. Obida so'z boyligini statistik nuqtayi nazardan o'rganish yodgorlik tilidagi leksik birliklarning soni yuzasidan aniq ma'lumotga ega bo'lish, turkiy va o'zlashgan qatlamlarning miqdori bo'yicha nisbati to'g'risida fikr-mulohaza yuritish, muallifning so'z qo'llash mahorati hamda o'ziga xos jihatlari haqida tasavvur hosil qilishga yordamlashadi.

Qissada jami 5511 ta leksema ishlatilgan bo'lib, shundan 2950 tasini turkiy, 2151 tasini arabcha, 329 tasini forsha-tojikcha, 55 tasini qadimiy yahudiycha, 14 tasini yunoncha, 3 tasini xitoycha, 4 tasini sanskritcha, 5 tasini sug'dcha so'zlar tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, asar lug'at tarkibining boyishida turkiy so'zlar bilan birgalikda, o'zlashmalar ham alohida ahamiyat kasb etgan.

3. Tadqiqot obyekti qilib olingan manbada jami 3067 ta ot (2517 tasi turdosh ot, 550 tasi atoqli ot hisoblanadi, 2517 ta turdosh otdan 2252 tasi tub so'z, 265 tasi yasama, 550 ta onomastik termindan 402 tasi antroponim, 83 tasi toponim, 33 tasi astroponim, 19 tasi zoonim (hayvonlarga qo'yilgan maxsus ism), 13 tasi but-sanam nomlari), 521 ta sifat (258 tasi tub, 263 tasi esa yasama), 169 ta son (143 tasi yasama, 26 tasi tub sonlar), 65 ta olmosh, 991 fe'l (976 tasi sof turkiy, 4 tasi arabcha, 11 tasi esa forsha-tojikcha o'zlashmalardan yasalgan fe'l-leksemalar), 52 ta ravish (33 tasi turkiy, 11 tasi forsha-tojikcha, 8 tasi arabcha leksik birlik) so'z turkumiga oid leksema, 38 ta ko'makchi (14 tasi sof ko'makchi, 12 tasi ot-ko'makchi, 8 tasi ravish-ko'makchi, 4 tasi sifat-ko'makchi), 27 ta bog'lovchi (18 tasi teng bog'lovchi, 8 tasi ergashtiruvchi bog'lovchi), 5 ta yuklama, 9 ta modal so'z, 6 ta undov so'z va 29 ta izofali birikma qo'llanilgan.

4. Asar leksikasini mavzuiy guruhlarga ajratib tadqiq qilish yodnomada qayd etilgan so'zlarning tarixiy taraqqiyoti va jamiyatning qaysi sohalariga oid leksik birliklar ishlatilganligini, ayni paytda, tilning tarixiy va zamonaviy holatini aniqlashda samarali usullardan biri ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Zero, mavzuiy guruhlar xalqning

ma'naviyati, madaniyati, qo'shni va qardosh xalqlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarini o'zida mujassam etadi. Kuzatishlarimiz asosida o'rganilayotgan manba tilida jami 114 ta mavzuiy guruhga oid so'zlar uchraganligi ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga, mazkur guruhlarining shakllanishida boshqa tillardan kirgan leksemalar ham muhim o'rin tutgan.

Obida tilida asosan "Harakat va faoliyat, uning xususiyatini anglatuvchi so'zlar", "Xususiyat va belgini bildiruvchi leksemalar", "Teonimlar", "Kishilarning qo'li bilan yaratilgan narsa-predmet nomlari", "Ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar", "Raqamlar, miqdor va o'lchovni bildiruvchi leksemalar", "Antroponimlar", "Zoonimlar", "Toponimlar" singari mavzuiy guruhlariga kiruvchi terminlar faol qo'llanilgan.

5. Qissada qo'llanilgan leksik birliklarni mavzuiy guruhlariga taqsimlab o'rganish terminlarning qaysi sohaga tegishli ekanligini, kelib chiqishini, o'z qatlamga doir so'zlarning o'zlashmalar bilan o'zaro munosabatini hamda ularning qo'llanish doirasini aniqlashga, tilning tarixiy va zamonaviy holatini baholashga, qolaversa, xalq tarixini atroflicha yoritishga ko'maklashadi.

6. Qissada keltirilgan so'zlarni genetik nuqtayi nazardan tadqiq qilish natijasida uning asosini turkiy qatlam tashkil etganligi, u o'z navbatida, qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning ilk obidalarida iste'molda bo'lgan hamda XIV asrda qo'llanishda davom etgan tub so'zlar, ular yordamida yasalgan leksemalar hamda o'zlashmalardan turkiy affikslar orqali hosil qilingan terminlardan iborat ekanligi (jami 2950 ta turkiy leksema qo'llanilgan bo'lib, shundan 2795 tasini sof turkcha, 108 tasini arabcha, 47 tasini forscha-tojikcha o'zlashmalardan turkiy affikslar qo'shish orqali yasalgan so'zlar tashkil etadi), shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar orqali hamda jamiyat hayotining turli sohalarida yuz bergan o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalarni ifodalash uchun o'zlashgan sanskritcha, sug'dcha, xitoycha, yunoncha, arabcha, qadimiy yahudiycha, forscha-tojikcha so'zlar ham borligi ma'lum bo'ldi.

7. Yodgorlikda qo'llanilgan arxaizmlar tilning ichki taraqqiyoti

davomida xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'lib, eski turkiy adabiy til bilan qadimgi turkiy til munosabatlarini belgilashda alohida e'tiborga molik. Qissada ularning ko'pchiligi asl ma'nosini saqlab qolgan, ayrimlarida ma'no torayishi hamda ma'no kengayishi hodisalari yuz bergan, ba'zilar yangi leksemalar hosil qilishda ishtirok etgan.

Asar leksikasining boyishida ichki imkoniyatlar, ya'ni qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda faol iste'molda bo'lgan qo'shimchalar vositasida so'z yasash usuli muhim o'rin tutib, bunda **-čī/-či** fe'l, ismlardan ot, **-liġ/-lig//liq/-lik//luġ/-lūġ//luq/-lūk** asosan, ism, sifat, fe'llardan ot hamda ismlardan sifat, **-k//uq/ük//uġ/üg//aq/aġ//iġ//ig//iq/-ik** fe'llardan ot, **-sīz/-siz//suz/-süz** otlardan sifat, **-la/-lä** ot bilan sifatlardan fe'l yasashda faol qatnashadi va sermahsul affikslardan sanaladi.

8. Yodnoma lug'at tarkibida qo'llanilgan o'zlashmalar yangi so'zlar hosil qilishda ham ishtirok etgan. Xususan, arabcha va forscha-tojikcha o'zlashmalarning muayyan qismi **-liġ/-lig//liq/-lik//luġ/-lūġ//luq/-lūk**, **-čī/-či**, **-sīz/-siz//suz/-süz**, **-la/-lä**, **-lan/-län** singari qo'shimchalar bilan birikib, jami 155 ta yangi so'z hosil qilgan va ular turkiy leksemalar bilan baravar qo'llanilgan. Bundan tashqari, forscha-tojik tilidan kirgan **-ba**, **-nā**, **-gāh**, **-zāda** kabi affikslar ham arabcha va forscha-tojikcha so'zlardan yangi leksemalar yasagan. Biroq bunday o'zlashmalar juda kamchilikni, ya'ni 9 tani tashkil etadi.

9. O'zlashma qatlamga oid 2561 ta so'z leksik fondning shakllanish va rivojlanish jarayonini kuzatishda hamda o'zga tillarning turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tili rivojidadagi rolini aniqlashda muhimdir. O'zlashma qatlamga oid leksik birliklar bilan qadimgi turkiy til va qoraxoniylar davri manbalarida qo'llanilgan so'zlar qiyosiy tahlil qilinganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, aksariyat istilohlar o'zining tub ma'nosida uchraydi, ba'zilarida esa ma'no kengayishi hodisasi (masalan, sug'dcha *rang*, arabcha *avval*, *vaqt*, *malik*, *xat*, forscha-tojikcha *čādir*, *pāra*) hodisasi kuzatiladi.

10. Asardagi so'zlarni semalarga ajratib o'rganish leksik ma'nolarning o'zaro bog'lanish nuqtalarini, ularning farqli belgi-xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, leksik va hosila ma'nolarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan

semalarni belgilashga, ma'nolarning ko'chish yo'llarini tadqiq qilishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, izlanishlarimiz polisemiya hodisasi qissada qo'llanishda bo'lgan ot, sifat, fe'l, son (qisman) turkumlariga oid leksik birliklar doirasida ro'y berganligini ko'rsatdi. Ko'pma'nolilik tilning semantik taraqqiyoti, boyish manbalari haqida yetarlicha tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

11. Obidatilida qo'llanilgan turkiy qatlamga doir leksik birliklarni qadimgi turkiy til va XI – XIII asr yozma manbalarida qo'llanilgan so'zlar bilan qiyosiy o'rganish asosida ko'pchilik leksemalar (ba'zi fonetik o'zgarish bilan bo'lsa-da) ma'no o'zgarishlarsiz yetib kelganiga amin bo'ldik. Masalan: shaxs tushunchasi (kim, kişi, ortaq), inson tana a'zolari (eņ, ilig, ernāk). qavm-qarindoshlik (ağa, ini, ana), yosh tushunchasi (yigit, abuşqa, qart), narsa-predmetlar (biĉaq, ĉaruq, işirğa), oziq-ovqat (et, etmāk, aš), kasb-hunar (awĉi, ašĉi, baliqĉi), mavhum tushunchalar (yazuq, es, tüş), mansab-martaba (inağ, bek, ĉiğay), zoonimlar (arşan, böri, qoy). fitonimlar (alma, sağan, ĉeĉāk)ni ifodalovchi leksik birliklar va hokazo.

12. Leksik ma'noning o'zgarishi uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, "Qisasi Rabg'uziy" asari so'z boyligida ma'no o'zgarishining uch turi kuzatiladi: a) semantik strukturasi torayish yuz bergan so'zlar; b) ma'no kengayishiga uchragan leksemalar; d) yangi sema kasb etgan leksemalar.

Qissa lug'at tarkibida kuzatilgan ma'no torayishi hodisasi jamiyat taraqqiyotining mahsuli bo'lib, u asosan, ko'p ma'noli so'zlarning monosemantikka qarab siljishi, ular anglatgan ma'noning o'z va o'zlashma qatlamlarga doir boshqa leksemalar tomonidan ifodalanishi natijasida ro'y bergan bo'lsa, ma'no kengayishi hodisasi bir semali hamda polisemantik so'zlar ma'no strukturasi kengayishi, turli yangi semalarning shakllanishi, ko'chma ma'nolarnig rivojlanishi oqibatida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, qadimgi turkiy va eski turkiy tilning ilk manbalarida qayd etilgan ba'zi leksemalarning yodnoma lug'at tarkibida butunlay boshqa ma'noda qo'llanilishi yozuvchi uslubining yoziga xosligidan darak beradi.

13. Tekshirilayotgan yodgorlik lug'at tarkibida qayd etilgan shakldosh, ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar salmoqli bo'lib, ular eski

turkiy adabiy til leksikasini o'rganishda, xususan, undagi omonimik, sinonimik hamda antonimik qatorlarni belgilashda ulkan ahamiyat kasb etadi. Zero muallif voqea-hodisalarni bayon qilishda, ularning ta'sirchanligi, badiiyligini kuchaytirishda, payg'ambarlar hayoti va faoliyatini, ularning ruhiy kechinmalarini teranroq tasvirlashda mazkur shakldosh, ma'nodosh va zid ma'noli leksemalardan umumli foydalangan.

14. Omonimiya hodisasi bitta so'z turkumi (ot+ot, fe'l+fe'l, sifat+sifat) va bir necha so'z turkumlari (ot+fe'l, ot+sifat, ot+son, ot+fe'l, sifat+fe'l, ravish+fe'l, son+fe'l) doirasida kechgan hamda leksik birliklarni til qonuniyatlariga muvofiq yangi ma'no-mazmun bilan boyitishga xizmat qilgan.

15. O'rganilayotgan manbada qo'llanilgan sinonimlar asosan ikki va uch so'zdan tashkil topgan bo'lib, ular ot, fe'l, sifat, ravish so'z turkumlariga oid tub va yasama leksemalardan iborat. O'z navbatida, ushbu jarayonda turkiy so'zlar bilan birga, o'zga tillardan kirib kelgan istilohlar ham faol ishtirok etgan. Ma'nodosh so'zlar qahramonlar xarakteri, turli manzarlarni tasvirlashda muhim vosita vazifasini o'tagan, leksemalarning o'rinsiz qaytarilishining oldini olgan.

16. Zidlash hodisasi turkiy, arabcha va forsha-tojikcha leksemalar doirasida kechgan bo'lib, ular so'zlarning asl ma'nosini yoritishga, asar tilining badiiyligi hamda ta'sirchanligini oshirishga ko'maklashgan. Shuningdek, yodgorlikda leksik antonimlar bilan birga, kelib chiqishiga ko'ra boshqa o'zaklardan tuzilgan hamda bir o'zakdan sifat yasovchi **-liq/-lik//liğ/-lig; -siz/-siz//suz/-süz** qo'shimchalari orqali hosil qilingan affiksial antonimlar ham uchraydi. Shu tariqa, yodnoma so'z boyligida leksik-semantik jarayonlar leksika taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari asosida amalga oshgan.

17. Nosiruddin Burhonuddin o'g'li ayrim so'zlarning kelib chiqishi, qaysi tilga oidligi xususida ham o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tadi. Masalan, *Şis suryāniy tilinĉā hibatullāh temāk bolur; ya'ni Täñri atāsi* (17v18); *Sordī: ne sinā'at bilürsen? Aydi: Hābikmen, arab tilinĉā bözĉi bolur* (18v18). Bu, albatta, ba'zi leksemalar etimologiyasiga oydinlik kiritishga, ularning o'z yoki o'zlashma qatlamga mansubligini aniqlashga yordam beradi.

18. Rabg'uziy asardagi voqea-hodisalarni yoritishda, qahramonlarning hayoti va ruhiy kechinmalarini ochishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan mohirona foydalangan. Bu esa, o'z navbatida, obida tilining ravonligi va jozibadorligini ta'minlashga, adabiy til bilan jonli so'zlashuv tilini bir-biriga yaqinlashtirishga, yodnomaning xalq orasida keng tarqalishiga, kitobxonlar tomonidan iliq kutib olinishiga xizmat qilgan.

Umuman olganda, ilk nasriy asarlardan sanalgan «Qisasi Rabg'uziy» obidasi til xususiyatlarini atroflicha o'rganish ko'p asrli tarixga ega bo'lgan qardosh turkiy tillar leksikasining, ayniqsa, o'zbek adabiy tilining rivojlanishi borasidagi nazariy qarashlarga oydinlik kiritadi, o'zbek tili tarixiy leksikologiyasi uchun boy material beradi.

Manbalar:

- АНАТИЛ** – Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. Т. I–IV. Э.Фозилов таҳрири остида. –Т.: Фан, 1983–85.
Т. I. 1983. –655 б.
Т. II. 1983. –642 б.
Т. III. 1984. –622 б.
Т. IV. 1985. –633 б.
Г – Сайфи Сарайи. Гулистан бит –турки // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I–II. – Т.: Фан, 1966, 1971.
Т. I. 1966. –649 с.
Т. II. 1971. –777 с.
ДТС – Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
ИРТЛЯ – Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. –467 с.
МК – Махмуд Кошгарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I–III. – Т.: Фан, 1960–1963.
Т. I. 1960. –499 б.
Т. II. 1961. –427 б.
Т. III. 1963. –461 б.
Мн – Хоразми. Мухаббат-наме // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV в. I–II. – Т.: Фан, 1966, 1971.
Т. I. 1966. –649 с.
Т. II. 1971. –777 с.
НАЛ – Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972.
НФ – Нахджул – фарadis // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV в. I–II. –Т.: Фан, 1966, 1971.
Т. I. 1966. –649 с.
Т. II. 1971. –777 с.
РСЛ – Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I–IV. – СПб, 1893–1911.
Т. I. 1893. –1980 с.
Т. II. 1895. –1871 с.
Т. III. 1898. –2302 с.
Т. IV. 1911. –2337 с.

ССТГН – Будагов Л. З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т. I–II. – С-Пб. 1869–1872.

Т. I. 1869. –819 с.

Т. II. 1872. –415 с.

Тафсири – Боровков А. К. Лексика среднеазиатского тefsира XII– XIII. вв. – М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963.

XIII – Кутб. Хосрав и Ширин // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV в. I–II. – Т.: Фан, 1966, 1971.

Т. I. 1966. –649 с.

Т. II. 1971. –777 с.

ЭСС – 1) Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М.: Наука, 1974. –767 с.

2) Севортян Э. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б». – М.: Наука, 1978. –349 с.

3) Севортян Э. Общетюркские и межтюркские основы на букву «В», «Г», «Д». – М.: Наука, 1980. –388 с.

4) Севортян Э., Левитская Л. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Ж», «Й». – М.: Наука, 1989. – 365 с.

ЎАТЛИТ – Дадабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Т.: Фан, 2008.

ЎИ – Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

ЎТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I–II. – М.: Русский язык, 1981;

Т. I. 1981. –631 б.

Т. II. 1981. –715 б.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I–V. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006–2008.

Т. I. 2006. –680 б.

Т. II. 2006. –672 б.

Т. III. 2007. –688 б.

Т. IV. 2008. –608 б.

Т. V. 2008. –592 б.

ЎТЭЛ – 1) Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик

луғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. –599 б.

2) Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Т.: Университет, 2001. – 599 б.

3) Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Т.: Университет, 2009. –284 б.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Manbalar

1.1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. –176 б.

1.2. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.

1. 3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. Т. I–III. – Т.: Фан, 1960–1963. Т. I. 1960. –499 б. Т. II. 1961. 427 б. Т. III. 1963. –466 б.

1.4. Маҳмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибатул-ҳақойиқ» асари ҳақида: кириш, фонетика, морфология, матн, транскрипция, шарҳ, луғат. – Т.: Фан, 1972.

1.5. Nasirud-din bin Burhanud-din Rabguzi. Kisasul-enbiya. I том. Анкара. 1997. –616 б; II том. – Анкара, 1997. –820 б.

1.6. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов). – Т.: Фан, 1971.

II. Kitoblar

2.1. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Т., 1999. –88 б.

2.2. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. –320 б.

2.3. Абражеев А. Сложные предложения и проза «Кисасул-анбия» Рабгузи – писателя XIV века. – Самарканд, 1957.

2.4. Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1996. –176 б.

2.5. Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1994. –118 б.

2.6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т. I–IV. Э.

Фозилов таҳрири остида. – Т.: Фан, 1983–85. Т. I. 1983. –782 б. Т. II. 1983. –642 б. Т. III. 1984. –622 б. Т. IV. 1985. – 636 б.

2.7. Базарова Д., Шарипова К. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. – Т.: Фан, 1990.

2.8. Батманов Й. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. – Фрунзе: АН Киргизистан, 1959. –218 с.

2.9. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983. –157 б.

2.10. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик катламлари. –Т.: Фан, 1985. –200 б.

2.11. Боровков А. Лексика Среднеазиатского тefsира XII–XIII вв. – М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963. 367 с.

2.12. Брагина А.А. Лексика языка и культуры страны. – М., 1981.

2.13. Гафурова Л. Бытовая лексика современного узбекского языка. –Т.: ФАН, 1991.

2.14. Гулямов А. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. – М.: Наука, 1968. –172 с.

2.15. Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. – Т.: Фан, 1983. –304 с.

2.16. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: Фан, 1990. –213 с.

2.17. Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1991. –186 с.

2.18. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Т.: Фан, 2007. – 156 б.

2.19. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.

2.20. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. – Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2004. – 146 б.

2.21. Звегинцев В. Семасиология. – М.: Изд-во Московского университета, 1957.

2.22. Иброҳимов А. Бобур «Девон»и тилидаги ўзлашма лексика. – Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –108 б.

2.23. Иванов С.Н. Арабизмы в турецком языке. – Л., 1973.

2.24. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик

терминлари (ўзбек, уйғур, козок, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида) . – Т.: Фан, 1966. –150 б.

2.25. Исмоилов И. ва бошқалар. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллар лексикасидан (полиэкинлари, мевали дарахт номлари ва уй-рўзгор буюмлари лексикаси материаллари асосида). – Т.: Фан, 1990. – 258 б.

2.26. Исследование по лексике и грамматике тюркских языков. – Т.: Фан, 1980. –148 с.

2.27. Исоқов М., Содиков Қ., Омонов Қ, Мангу битиклар. – Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. –115 б.

2.28. Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси. – Т.: Фан, –212 б.

2.29. Комилова Ҳ. Ўзбек тилида сон ва олмош. – Т.: Фан. 1953. 28 б.

2.30. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М.-Л., 1951. –452 с.

2.31. Мамажонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1978. –87 б.

2.32. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Т.: Фан, 1975. –140 б.

2.33. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. –288 б.

2.34. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. – Т.: Фан, 1959. 239 б.

2.35. Мусаев К. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении (Западно-кыпчакская группа). – М., 1975. –359 с.

2.36. Мусаев К. Лексикология тюркских языков. – М.: Наука, –1984. –228 с.

2.37. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995. –160 б.

2.38. Наджип Э. Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века: на материале «Хосрау и Ширин» Кутба. – М: Наука, 1979. 479 с.

2.39. Наджип Э. Тюркоязычный памятник XIV века «Гулистан» Сейфи Сарай и его язык. Ч. II. – Алма-Ата: Наука, 1975. Ч. I. 210 с. Ч. II. 300 с.

- 2.40. Насипов В. Язык орхоно-енисейских памятников. – М., 1960.
- 2.41. Низомиддинова С. Ҳозирги замон ўзбек тилида сон. – Т.: Фан, 1963. –96 б.
- 2.41. Носириддин Бурхониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1990. –240 б.; Иккинчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1991. –272 б.
- 2.42. Олимов М. «Бобурнома»да қўлланган синонимлар луғати. – Т.: Фан, 2004. –110 б.
- 2.43. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1980. –281 б.
- 2.44. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий катлами. – Т.: Университет, 2001. –350 б.
- 2.45. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984. –214 б.
- 2.46. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Т.: Университет, 2003. –599 б.
- 2.47. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. –599 б.
- 2.48. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча-тожикча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Т.: Университет, 2009. –284 б.
- 2.49. Реформатский А. Введение в языковедение. – М.: Наука, 1967. –С.107.
- 2.50. Ризаев С. А. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. –Т.: Фан, 1983. –296 б.
- 2.51. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –214 б.
- 2.52. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т.: EXTREMUM PRESS, 2010. –135 б.
- 2.53. Рустамов Т. Соф қўмакчилар. – Т.: Фан, 1991. –124 б.
- 2.54. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –48 б.
- 2.55. Севортян Э. Аффиксы словообразования в азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследования. – М.: Наука, 1966. –С.437
- 2.56. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков.

- Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М.:Наука, 1974. –С.767
- 2.57. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б». – М.: Наука, 1978. –С.349
- 2.58. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «В», «Г», «Д». – М.: Наука, 1980. –С.395
- 2.59. Севортян Э., Левитская Л. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Ж», «Й». – М.: Наука, 1989. –С.292.
- 2.60. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилининг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –207 б.
- 2.61. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифатлар. –Т.: Фан, 1974.
- 2.62. Стеблева И. Семантика газелей Бабура . –М.: Наука, 1982. –С.220
- 2.63. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1995. –264 б.
- 2.64. Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. – Т.: Фан, 1978. –140 б.
- 2.65. Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг таракқиёт босқичлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. –176 б.
- 2.66. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Ўқитувчи, 1968. – 44 б.
- 2.67. Усмонов С. Ўзбек тилида ундовлар. – Т.: Фан, 1953.
- 2.68. Фазылов Э. Староузбекский язык: Хорезмийские памятники XIV века. Т. I–II. – Т.: Фан, 1966–1971. Т. I. 1966. –652 с. Т. II. 1971. –С.779
- 2.69. Фазылов Э. И. Turkologica. II. – Т.: Фан, 2008. –С.383
- 2.70. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Т.: Фан, 1965. –171 б.
- 2.71. Фузаилов С. Ўзбек тилида равишлар. – Т.: Фан, 1953.
- 2.72. Хинц В. Мусульманские меры веса с переводом в метрическую систему (перевод с немецкого Ю.Э.Брегеля). – М.:

Наука, 1970. – С.74

- 2.73. Холмонова З. «Бобурнома» лексикаси. – Т.: Фан, 2007. –176
- 2.74. XIII – XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. – Т.: Фан, 1986. –286 б.
- 2.75. Шипова Е.Н. Словарь тюркизов в русском языке. – Алматы: Наука, 1976. – С.444
- 2.76. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Т.: Фан, 1977.
- 2.77. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М. -Л.: Изд. Акад.наук, 1962. – С.274
- 2.78. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (глагол). – Л., 1977. – С.182
- 2.79. Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги кадимги туркий лексика тадқиқи. – Т.: Фан, 2008. –120 б.
- 2.80. Ўзбек адабий тилининг тараққиёти. 3-жилд. Лексика. – Т.: Фан, 1991.
- 2.81. Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981. –312 б.
- 2.82. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т. II. – М.: Русский язык, 1981. Т. I. –632 б. Т. II. –715 б.
- 2.83. Қодиров П. Тил ва эл. – Т.: Фафур Ғулом, 2007. –248 б.
- 2.84. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. –240 б.
- 2.85. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Т.: Фан, 1977.
- 2.86. Ҳақимова М. Семасиология. – Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2008. –100 б.
- 2.87. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
- 2.88. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974. –307 б.
- 2.89. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Т.: ФАН, 2010. –256 б.
- 2.90. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Т.: Фан, 1966.
- 2.91. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ilmi ziyo, 2004.
- 2.92. Ҳусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. 1-китоб. –Т.: Ёзувчи, 1996. –125 б.; 2-китоб. –Т.: Ёзувчи, 1997. –134 б.

III. Gazeta va jurnallardagi maqolalar

- 3.1. Баскаков Н. К проблеме китайских заимствований в тюркских языках // Советская тюркология. –1987.– № 5. –С. 69–75.
- 3.2. Дадабоев Ҳ. Эски ўзбек обидаларидаги муғулча сўзлар // Адабиёт кўзгуси, 1998. –№6. –Б. 13–18.
- 3.3. Дадабоев Ҳ. Эски ўзбек тилида ҳарбий терминларнинг қўлланилиши (VII–XIII) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. –№6. –Б. 31–35.
- 3.4. Дадабоев Ҳ. Қадимги туркий ёдгорликлардаги терминлар ҳақида // Адабий мерос.–1998. –№2. –Б. 12–16.
- 3.5. Зоҳидов П. Кун туғардин кун ботарға сўзи етган зот // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2002 йил. 22 февраль –Б. 2.
- 3.6. Махмудов К. Лексико-семантический особенности языка «Хибатул хакаик» // Историко-лингвистический анализ лексически старописьменных памятников. Т.: Фан, 1993. –С.83–90.
- 3.7. Мирзакаримова Ў. “Қисаси Рабғузий” тилининг морфологик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1969. №1. –Б. 67–70.
- 3.8. Раҳматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. –1973. –№1. –Б. 51–53.
- 3.9. Раҳматуллаев Ш. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш тажрибасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 1978. –№3. –Б. 5–60.
- 3.10. Фрумкина Р. Применение статистических методов в языкознании // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 1960. –№3. – С. 129–133.
- 3.11. Фрумкина Р. Статистическая структура лексики Пушкина // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 1960. – №3. – С. 78–81;
3. 12. Юсупов Б. Эски ўзбек тилида кўрсатиш олмошлари (XV–XVI асрлар) // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 1986. –№3. –Б. 20–23.
- ### IV. Ilmiy to'plamdagi maqolalar
- 4.1. Баскаков А.Н. Тюркимы-социальная терминология в «Слове о полку Игореве» // Turkologica. К 70 летию акад. А.Н. Кононова. – М., 1976.
- 4.2. Ганиходжаева М. Функционирование основных прилагательных цвета в исторических срезях языка // Историко-

лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Т.: ФАН, 1994. – С. 43–43.

4.3. Гольдин В.Е. Об одном аспекте изучения тематических групп слов. В сб.: Язык и общество. Вып. 2. – М.: 1970.

4.4. Дадабаев Х. Астрономические наименования в старотюркских письменных памятниках XI–XIV вв. // Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994. – С. 32–43.

4.5. Дадабоев Х. Ўзбек адабий тили лексик таркибининг ўзлашмалар ҳисобига бойиши // Тошкент вилояти давлат педагогика институти педагог-ҳодимларининг анъанавий илмий-назарий ва амалий-услубий анжумани маърузалари. – Ангрэн, 2007. – Б. 337–342.

4.6. Дадабоев Х. “Қисаси Рабғузий” даги аёл семали лексемалар хусусида // Филология фани: янги аср муаммолари. – Т., 2003. – Б. 124–128.

4.7. Дадабоев Х. “Қисаси Рабғузий”нинг лексик хусусиятлари ҳақида // Марказий Осиё олимларининг ўрта аср илмларига қўшган ҳиссаси. – Т., 1999. – Б. 17–23.

4.8. Дадабоев Х. “Қисаси Рабғузий” тилидаги туркий лексемалар семантикаси // Второй международный тюркологический конгресс. Современная тюркология: теория, практика и перспективы. I бўлим. – Туркестан, 2006. – Б. 90–93.

4.9. Дадабоев Х. “Қисаси Рабғузий”да қўлланган сал- феълнинг семалари хусусида // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Т.: 2006. – Б. 22–24.

4.10. Исламов З. Тюркские глаголы «Мукаддат ал-адаб» Махмуда Замахшари // Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. – Т.: ФАН, 1994. – С. 107–114.

4.11. Исхаков М. Элементы согдийского языка в современном узбекском языке // Историко-культурные контакты народов алтайской общности: XXIX сессия РИАС. – Т.: 1986. II. Лингвистика. – М.: Наука, 1986. – С. 61–62

4.12. Исхаков Ф. Наблюдения по лексике в области прилагательных в тюркских языках. – В сб.: Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: 1961.

4.13. Малов С. Мусульманские сказания о пророках по Рабғузи // Записки коллегии востоковедов. Т. I. V. – Л., 1930. – С. 421–430.

4.14. Наджип Э.Н. Архаизмы в лексике тюркоязычного памятника XIV в. «Гулистан» Сайфи Сараи // Краткие сообщения института народов Азии АН СССР. 83. – М., 1964.

4.15. Насыров И. Лексика «Маджалис ан-нафаис» Алишера Навои // Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: Фан, 1990. – С. 87–140.

4.15. Покровская Л.А. Термины родства в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: 1961. – С. 4–34.

4.16. Садыков К. Глаголь в языке «Кутадғу билиг» // Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. – Т.: ФАН, 1994. – С. 90–106.

4.17. Севортян Э. Из истории прилагательных в тюркских языках // Тюркологическое исследование. – М.: Л., 1963. – С. 48–68

4.18. Содиков К. Ўзбек тилидаги айрим акраболик отлари ҳақида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Т.: Университет, 2002. – Б. 67–70.

4.19. Содиков К. “Кутадғу билиг” кўлзма нухаларининг чоғиштирма таҳлили // “Кутадғу билиг” – буюк маънавий мерос. Илмий конференция материаллари. – Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2010. – Б. 49–60.

4.20. Тенишев Э. Глаголы движения в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М., 1961. – С. 232–293.

4.21. Тенишев Э. Новый список Рабғузий // Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. – Казань, 1983. – С. 24–31.

4.22. Усманов Х. Новаторство Кул Гали и Рабғузи // Тюркских стих в средние века. – Казань: КГУ, 1987. – С. 60–68.

4.23. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида форс-тожикча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон (тўплам) – Т.: Фан, 1968. – Б. 110–128.

4.24. Филин Ф. О лексико-семантических группах слов. // Езиковедски исследования в честь на академ. СТ. Младенова. –

София, 1947. – С. 424–431.

4.25. Хамидов З. Статистическая и тематическая характеристика поэмы «Лисан ат-тайр» Алишера Навои // Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994. – С. 114–128.

4.26. Щербак А. К истории узбекского литературного языка древнего периода // Академику В.А.Гордлевскому к его 74-летию. – М.: 1943. –С. 317–323.

4.27. Щербак А. Названия домашних и диких животных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Акад. наук. СССР, 1961. – С. 82–140

4.28. Юнусов А. Древнейший список «Кисас-и Рабгузи» // Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994. – С. 24–32.

V. Xorijiy manbalar

5.1. Blochet E. Catalogie des manuscrits turs. Bd. II. Paris, 1933. –S. 138.

5.2. Boeschoten H. Aliisque Rebus, Utrecht Turcological series. – №3. Utrecht, 1992.

5.3. Boeschoten H. Iskandar-Dhylkarnain un den Qisas-i Rabguzi // De Turcicis

5.4. Boeshoten H.E. The Leningrad Manuscripts of Rabghuz is Aisas // Turk Dillari Arastirmalari Ankara, 1991. –S. 47–49.

5.5. Boeschoten H. , Damme M. The Differents Copyists in the London Ms of the Qisas-Rabghuzi. Utrecht Papers on Central Asia, 1985.

5.5. Boeschoten H. , Damme M. The Poetry in Rabghuzis Qusas. Paper Presented at the 3rd European cemihap Central Asian Studies. – Paris, 1989.

5.7. Wokalquantiat in rabguzis Poesie. CAI, W.34. –№3–4. Wiesbaden, 1990.

5.8. Grohbech K. Rabguzi Narrationes de Prophetis. Cod. Mys. Brit. Add. Kopenhagen, 1948.

5.9. Zarring G. Studien zu einer ostturkische Lautlehre. Lund, 1933.

5.10. Schinkewitsch Y. Rabguzis Syntax. MSOS II. 1925. –S. 130–172.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Nosiruddin Burhonuddin o'g'li tug'ilib o'sgan maskan nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) Ayozqal'a
- B) Tuproqqal'a
- C) To'qqal'a
- D) Teshikqal'a
- E) Qizilqal'a

2. "Qisasi Rabg'uziy" asari qachon yozib tugallangan?

- A) 1308 -yil
- B) 1309 -yil
- C) 1311 -yil
- D) 1310 -yil
- E) 1312 -yil

3. "Qisasi Rabg'uziy" obidasi kimning iltimosiga ko'ra yaratilgan?

- A) Bug'roxon
- B) To'qbug'abek
- C) Tinibek
- D) O'zbekxon
- E) Berdibek

4. Qissaning qadimgi qo'lyozma nusxasi nechanchi asrga tegishli?

- A) XVI asr
- B) XVII asr
- C) XIV asr
- D) XIII asr
- E) XV asr

5. Obidaning dastlabki qo'lyozmasi hozirda qaysi shaharda saqlanadi?

- A) Qozon
- B) Boku
- C) Parij
- D) London
- E) Toshkent

6. Til birliklariga statistik qarashga qaysi omillar sabab bo'ladi?

- A) Til bayonining ommaviy xarakterdaligi
- B) Bayon qilish jarayonida til birliklarining takrorlanish xususiyatiga ega ekanligi
- C) Til birliklarining qo'llanilishi (takrorlanishi) yoki tushib qolishining tasodifiy yo'nalishda bo'lishi
- D) A, B
- E) Barcha javoblar to'g'ri

7. "Qisasi Rabg'uziy" asari tilida qancha leksema qo'llanilgan?

- A) 6000 ta
- B) 5511 ta
- C) 3338 ta
- D) 5004 ta
- E) 5500 ta

8. «Qisasi Rabg'uziy» asari tiliga xos xususiyatlarni aniqlang.

- A) Qissa janri asosida yozilgan, so'zlashuv tili elementlari ko'plab uchraydi.
- B) Xalq tiliga xos unsurlar diniy syujet asosida yozilgan
- C) Qissalar «Qur'on» va boshqa diniy kitoblardagi syujetlar asosida yozilgan
- D) Islom dinini targ'ib qilish maqsadida xalq so'zlashuv tiliga murojaat qilingan
- E) Barcha javoblar to'g'ri

9. Qadimgi turkiy adabiy til va eski turkiy adabiy til o'rtasidagi farqli va o'xshash tomonlarni aniqlang.

- A) Qadimgi turkiy tilda qo'llangan sifatdoshning *-gly/-g'lu -dachvi/dachi, duq/duk* affikslari adabiy me'yor sifatida qo'llangan.
- B) Bu davr adabiy til qadimgi turkiy tildan farqli o'laroq tilda xalq shevalari va arab, fors tilini o'zlashganini hisobiga boyigan.
- C) Bu davr adabiy tilida fonetik jihatidan d' tovushi o'rimga y, z tovushi almashinishi kuchaydi.
- D) A, B.
- E) A, B, C.

10. XI-XIV asr yodgorliklari tilidagi asosiy xususiyat nimadan iborat?

- A) O'zbek tilining shakllanishi jarayoni boshlanishi va rivojlanishi (ilk o'zbek adabiy tiliga xos shakllarning paydo bo'lishi)
- B) Sharqdagi uyg'ur yodnomalari ta'sirida qadimgi turkiy til shakllarining davom ettirilishi
- C) Forsiy adabiy til ta'siri
- D) Arab adabiy tili ta'siri
- E) Barchasi to'g'ri

11. X-XIV asrga kelib ilmiy terminshunoslik terminlari asosan qaysi tillarga oid edi?

- A) Arab
- B) Turkiy
- C) Fors
- D) A, B
- E) To'g'ri javob yo'q

12. "Qisasi Rabg'uziy" da qaysi so'z turkumlariga doir leksemalar asosiy o'rin egallaydi?

- A) Ot, fe'l
- B) Ot, sifat
- C) Fe'l, olmosh
- D) Son, fe'l
- E) Ravish, ot

13. So'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratib tahlil qilishning afzal jihatlari nimada?

- A) asar yaratilgan davr xalqlarining ma'naviyati, qo'shni xalqlar bilan hamkorlik munosabatlari haqidagi tasavvurni shakllantiradi.
- B) Tilshunoslik uchungina emas, boshqa fanlar uchun ham qimmatli ma'lumot beradi.
- C) Muayyan xalq tilida qaysi sohalarga oid leksikaning boy yoki kambag'alligini belgilashda katta o'rin tutadi.
- D) To'g'ri javob yo'q
- E) A, B, C

14. Tilshunoslikda leksikaning ichki imkoniyatlar yordamida rivojlanishida qaysi hodisalar asosiy omil hisoblanadi?

- A) Ichki manbalar orqali so'z yasash yo'li bilan leksikaning boyishi
- B) Eskirgan, tarixiy va umuman eski obidalarda bo'lgan lug'aviy

birliklar asosida leksikaning boyishi

- C) Adabiy til leksikasining dialektik soʻzlar hisobiga boyishi
- D) A, C
- E) Barcha javoblar toʻgʻri

15. Qisasi Rabgʻuziy»da qoʻllanilgan oʻz qatlamga doir soʻzlar guruhi qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- A) Tub turkiy soʻzlar
- B) Tub turkiy soʻzlardan yasalgan yangi leksemalar
- C) Oʻzlashmalardan turkiy qoʻshimchalar qoʻshish yoʻli bilan yuzaga kelgan soʻzlar
- D) A, B
- E) A, B, C

16. Asar lugʻat tarkibida oʻz qatlamga oid nechta soʻz ishlatilgan?

- A) 2950 ta
- B) 2945 ta
- C) 2855 ta
- D) 2900 ta
- E) 2890 ta

17. Qissada qayd etilgan arxaizmlar berilgan qatorni toping.

- A) Azaq, al, esh, oʻrtoq
- B) Afgʻon, qazgʻu, qamugʻ, oʻgʻur
- C) Ashnu, avuch, bulbul, chizan
- D) Ugʻan, uz, arzon, ujuz
- E) Qoʻch, qarshu, yagʻan, qaz

18. Yodnoma tilida qaysi qoʻshimchalar otdan ot yasagan?

- A) -chi, -liq, -dash, -duq
- B) -laq, -gʻu, -ach, -maq
- C) -lan, -mur, -ma, -gʻaq
- D) -uq, -chi, -ch, -saq
- E) A, B, C

19. -ligʻ/-lig// -liq/-lik// -lugʻ/-lug// -luq/-luk affiksi qaysi soʻz turkumlariga oid leksemalardan otlar hosil qilgan?

- A) Ot
- B) Sifat
- C) Feʼl

D) A, C

E) A, B, C

20. Asarda -la qoʻshimchasi asosan qaysi soʻz turkumlaridan feʼl yasagan?

- A) Ot, ravish
- B) Feʼl, ot
- C) Olmosh, son
- D) Ot, sifat
- E) Sifat, feʼl

21. Qissada qaysi tillarga tegishli oʻzlashmalar turkiy affikslar bilan birikib yangi soʻzlar yasashda ishtirok etgan?

- A) Arab, xitoy
- B) Fors-tojik, yunon
- C) Sugʻd, arab
- D) Yunon, sugʻd
- E) Fors-tojik, arab

22. Oʻzlashgan leksemalardan soʻz yasash jarayonida qaysi affikslar faol qatnashgan?

- A) -liq/ -lik, -la, -siz
- B) -chi, -la, -laq
- C) -lan, -liq, -li
- D) -ligʻ/-lig, -chiliq/ -chilik, suz
- E) Barcha javoblar notoʻgʻri

23. Yodgorlik soʻz boyligida nechta oʻzlashma leksema qoʻllanilgan?

- A) 2568 ta
- B) 2561 ta
- C) 2562 ta
- D) 2560 ta
- E) 2558 ta

24. Sanskritcha soʻzlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) Zanduvaj, cherig, rang
- B) Fil, kent, sart
- C) Sart, fil, kofur
- D) A, B
- E) A, B, C

25. Qaysi qatorda sug'dcha o'zlashmalar to'g'ri qayd etilgan?

- A) Bag', rang, behisht
- B) Achun, qatun, yinju
- C) Bayduxt, behisht, jahon
- D) Rang, nohid, kent
- E) Uchmah, bag', ajun

26. Xitoycha so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) Tangri, chin, cherig
- B) Yinju, chuz, kung
- C) Chuz, yinju, chang
- D) A, C
- E) To'g'ri javob yo'q

27. Yunoncha o'zlashmalar qatorini aniqlang.

- A) Zumurrud, marmar, diram
- B) Zabarjad, daftar, iqlim
- C) Piyola, qandil, fitna
- D) Kub, dunyo, manna,
- E) Rum, Iskandar, banda

28. Arabcha istilohlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) Balo, avval, meva
- B) Barakat, bashorat, ziyrak
- C) Kalima, xodirn, muhr
- D) Nisor, xat, dunyo
- E) Lug'at, anbor, malik

29. Asarda ishlatilgan forsha-tojikcha o'zlashmalarni toping.

- A) Zanjir, lafz, zangi
- B) Ziyrak, diydor, sulton
- C) Roz, qavl, chodir
- D) Zanjir, ziyrak, zindon
- E) Taxta, karvon, balo

30. Obida lug'at tarkibida o'zining qadimiy shaklini saqlab qolgan so'zlarni aniqlang.

- A) Charuq, abushqa, ach
- B) Bag'dash, tiying, sanduvach
- C) Ach, azuq, ko'zgu
- D) Sanduvach, abushqa, cherig,

E) Ag'in, bag'irsaq, charuq

31. Qissada ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan qadimgi leksik birliklar qatorini toping.

- A) Anuq, bo'qag'u, taraq
- B) Abushqa, ko'zgu, tiying
- C) Qarag'u, bal, avuch
- D) A, B
- E) A, B, C

32. Ko'p ma'noli so'zlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Ay, bir, ko'tar-
- B) Uch, tuz, al
- C) Tam, baqir, tush-
- D) Qin, altun, o'ng
- E) Mengiz, bir, tuz

33. Asarda ma'no torayishiga uchragan leksemalarni aniqlang.

- A) Bus, xan,esh
- B) Uchuz, telim, yilqi
- C) Tangri, tarig', tegru
- D) Ko'l, yalavach, sarig'
- E) Artat-, qari, uz

34. Ma'no kengayishiga uchragan so'zlar qatorini toping.

- A) Arqa, tangri, ach-
- B) Tutug', kun, ko'k
- C) Yartmaq, ag'u, kent
- D) Xatun, aq, yag'iz
- E) Bash, arqa, qazg'u

35. Obida tilida butunlay yangi ma'no kasb etgan leksik birliklarni aniqlang.

- A) Quzruq, qamug', yo'ruq
- B) Qizliq, yo'qsuz, tapug'
- C) Tura, yarg'u, emga
- D) Bashmaq, yasmuq, tulas
- E) O'gsuz, asig', ashnu

36. Tilda omonimlarning paydo bo'lish sabablari nimada?

A) Avvallari har xil aytilib, bir xil eshitiladigan so'zlar talaffuzining tovush almashinishi yoki talaffuz o'zgarishi natijasida bir-biriga mos

kelib qolishi

B) Boshqa tillardan o'zlashgan leksemalarning talaffuz va yozilish jihatdan ona tilidagi so'zlariga mos kelib qolishi

C) Tilda mavjud bo'lgan ko'p ma'noli so'z semalarining bir-biridan uzoqlashishi

D) A, B

E) Barcha javoblar to'g'ri

37. Asarda qo'llanilgan sinonimik qatorlarni toping.

A) Buqag'u – kishan, chaq – o'g'ur, al - bot

B) Tutug' – bulun, azin – o'zga, bulaq - yul

C) To'qush – sanchish, qushluq – qarabash, buyruq - yarlig'

D) Ay – yalchiq, qo'ldash – esh, ev - uy

E) Yo'lchi – qulavuz, qo'rg'an – tura, dudaq – mengiz

38. O'zlashma leksemalardan iborat sinonimik qatorlarni aniqlang.

A) Nafas – dam, yo'l – baxt, habib - do'st

B) Gabr – mug', yazuq – ayb, nabiy - payg'ambar

C) Xabar – mujda, mamuq – paxta, g'anim - dushman

D) Sanam – but, shajara – daraxt, xazina - ganj

E) A, B, D

39. Qaysi qatorda qissada ishlatilgan antonimlar to'g'ri berilgan?

A) Ag'ir – uchuz, achiq – o'rtuglu, mangim - adim

B) Ko'n – teri, qamug' – yalg'uz, qish - yay

C) Evluk – er, bo'g'ra – ingan, yo'g'un - yuvqa

D) A, C

E) To'g'ri javob yo'q

40. Yodnomadagi affiksial antonimlar qaysi so'z turkumiga tegishli?

A) Sifat

B) Ot

C) Fe'l

D) Olmosh

E) Ravish

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
«QISASI RABG'UZIY» leksikasining statistik tahlili.....	8
Asar lug'at tarkibining mavzuiy guruhlari.....	28
O'z qatlam.....	46
O'zlashma qatlam.....	62
Asar leksikasining qadimgi turkiy manbalar va qoraxoniylar davri yodnomalari tiliga munosabati.....	88
Polisemiya.....	99
Ma'no torayishiga uchragan so'zlar.....	115
Ma'no kengayishiga uchragan so'zlar.....	134
Yangi ma'no kasb etgan leksemalar.....	147
Asar so'z boyligining leksik-semantik xususiyatlari.....	153
Xulosa.....	164
Foydalanilgan adabiyotlar.....	171
Test topshiriqlari.....	183

Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich

ESKI TURKIY ADABIY TIL LEKSIKASI

«Tafakkur Bo'stoni»

Toshkent – 2015

Muharrir *Z. Mirzahakimova*

Musahhih *A.Xo'jabekov*

Sahifalovchi *U. Voxidov*

Dizayner *D. O'rino*

Ushbu o'quv qo'llanma "Ilm Ziyo nashriyot uyi" MChJ buyurtmasiga asosan chop etildi.

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011y

Bosishga 2015 yil 5 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₁₆. Ofset qog'ozi. Times New Roman garniturasida. Shartli bosma tabog'i. 12,0. Nashr tabog'i 12,2. Shartnoma № 31/1. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 35/1.

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti. Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy

Telefon: (+99893) 589-05-78. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi, 1 uy.

15,600



«TAFAKKUR BO'STONI»
NASHRIYOTI

978-9943-4546-2-0



9 789943 454620